

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**SHOALIMOV A.X, SH.I.ILHAMOV, M.X. XODJAYEVA**

**BOSHQA TARMOQLARDA IQTISODIY T AHLIL VA AUDIT.**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi  
tomonidan 5A340902 — «Buxgalteriya hisobi va audit» mutaxassisligi  
bo'yicha oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida  
tavsiya etilgan*

**Toshkent – 2019**

Shoalimov A.X, Sh.I.Ilhamov, M.H.Hodjaeva. Boshqa tarmoqlarda iqtisodiy tahlil va audit. O‘quv qo‘llanma – T, 2019.

O‘quv qo‘llanma Toshkent Davlat ta’lim standartining talablariga muofiq tayyorlangan bo‘lib, iqtisodiyotining asosi bo‘lgan tarmoqlarida: qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport va savdo tashkilotlarida taxlil va auditni tashkil etish va o‘tkazishda amalga oshiriladigan auditorlik amallariga bag‘ishlangan.

O‘quv qo‘llanma 5340600 “Moliya”, 5340800 “Soliq va soliqqa tortish”, 5340900 “Buxgalteriya hisobi va audit” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘jallangan. Shuningdek, qo‘llanmadan 5140900 “Kasbiy ta’lim”, 5340100 “Iqtisodiyot”, 5340200 “Menejment”, 5340300 “Marketing” ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasidagi “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit” fanini o‘qitishda foydalanish mumkin.

Учебное пособие подготовлено в соответствии с Государственным образовательным стандартом и предполагает обучение студентов вопросами организации и проведения экономического анализа и аудиторских процедур в основных отраслях экономики: в строительстве, в сельском хозяйстве, в автотранспортных и торговых организациях.

Учебное пособие предназначено для студентов специальности 5340600 “Финансы”, 5340800 “Налоги и налогообложение”, 5340900 “Бухгалтерский учет и аудит”. Кроме того, данное учебное пособие рекомендуется при изучении дисциплины «Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит» для студентов по направлению 5140900 “Профессиональное образование”, 5340100 “Экономика”, 5340200 “Менеджмент” и 5340300 “Маркетинг”.

A.Kh.Shoalimov, Sh. I. Ilhomov , M.Kh. Khodjaeva... Economic analysis and audit in other spheres. Manual. Tashkent state Uneversity of Economics. - T., 2019 .

Manual is prepared due to the requirements of State educational standard, it is dedicated to organize audit and analysis in the main spheres of economy: construction, agriculture, transport and trade organizations, also to conduct the audit work.

Manual is intended for students of specialities as 5340600 "Finance", 5340800 "Tax and taxation", 5340900 "Accounting and audit". Also the manual is used in teaching 5140900 "Professional education", 5340100 "Economics", 5340200 "Management", 5340300 "Marketing" educational speciality in the educational plan "Accounting, economic analysis and audit".

**Mas’ul muharir:**

**M.M.To‘laxodjayeva,**

O‘ZBAMA kengashi raisi, iqtisod fanlari doktori, professor.

**Taqrizchilar:**

**1. Muqumov Z.A.**

TDIU “Iqtisodiy tahlil va audit” kafedrasining mudiri,  
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

**2. Sh.N.Fayziev TMI**

“Audit va iqtisodiy tahlil” kafedrasining dotsenti, iqtisod  
fanlari nomzodi

## KIRISH

Iqtisodiy islohotlarni liberallashtirish va modernizatsiyalash natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo‘jalik, shuningdek ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini oshirish, xususiy va xorijiy investitsiyalarni keng jalg qilish, subyektlar o‘rtasida hisob-kitoblarni yo‘o‘lga qo‘yish hamda debtorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirish, byudjet bilan qarz va boshqa to‘lovlardan bo‘yicha hisoblashishni amalga oshirish, me'yoriy-huquqiy hujjatlar yuzasidan maslahatlar berish va boshqa malakali xizmatlar ko‘rsatish borasida auditorlik faoliyatiga ehtiyoj oshmoqda. Bu esa davlat va nazorat tuzilmalarining korxonalar faoliyatiga aralashuvini qisqarishiga olib keladi. Iqtisodiyotimizga kiritilayotgan investitsiyalarning yildan yilga o‘sib borishida bir qator investitsion qulayliklar va qulay investitsiya muhiti shakllanganligini keltirib o‘tish joiz. Erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar, kichik sanoat zonalarining tashkil qilinishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalarini jalg qilishning asosiy omili bo‘ldi<sup>15</sup>.

«Boshqa tarmoqlarda iqtisodiy tahlil va audit» fanini o‘qitishdan maqsad talabalarga iqtisodiyotning asosiy bo‘lgan tarmoqlarida: qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport va savdo tashkilotlarida taxlil va auditni tashkil etish bo‘yicha chuqur va har tomonlama bilim berishdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, fanning predmetini o‘rgatish uchun bir necha vazifalar qo‘yildi, jumladan: talabalarga xalq xo‘jaligi tarmoqlarida buxgalteriya hisobining asosiy printsiplari va xususiyatlari, ya’ni qurilish, transport, qishloq xo‘jalik va savdo tashkilotlarida aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapitalni hisobga olish, moliyaviy xarakterga ega bo‘lgan ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlov berish va tayyorlashga oid tizim haqida ma’lumot olishni o‘rgatish, biznesning yuqorida qayd etilgan tarmoqlarida qo‘llaniladigan audit usullarini qo‘llash ni o‘rgatish, tarmoqlarda moliyaviy va boshqaruv hisob va hisobotning asosiy kontseptsiyalari to‘g‘risida bilim berish; auditorlik tekshiruvini yaqinlanish bosqichida auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasini tayyorlash va tuzishni o‘rgatish va h.k.

---

<sup>15</sup> Sh.M.Mirziyoyev. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.

“Boshqa tarmoqlarda iqtisodiy tahlil va audit” fani o‘quv rejasidagi quyidagi fanlar bilan o‘zaro bog‘liqdir: «Moliyaviy va boshqaruv hisobi», «Iqtisodiyot nazariyasi», «Xuquq», «Statistika», «Soliq va qarzga tortish», «Audit», «Moliyaviy va boshqaruv tahlili», «Boshka tarmoqlarida buxgalteriya hisobi xususiyatlari» va h.

Fanni o‘qitishda ma’ruza, seminar va amaliy darslar, shuningdek iljor pedagogik texnologiyalarning «klaster», «insert», «asliy kujum», «kichik gurukchalar», «didaktik o‘yinlar texnologiyasi», keys-stadiyalar, blits-opros prezентatsiya uslublaridan kamda proektor, slayd, Microsoft Power Point, multimedya, «1-S Buxgalteriya dasturi», virtual kutubxona va boshsa ilg‘or axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanildi.

**Fan bo‘yicha o‘quv adabiyotlarining qiyosiy tahlili.** Mazkur o‘quv qo‘llanmani tayyorlash jarayonida “Boshqa tarmoqlarda iqtisodiy tahlil va audit” fani bo‘yicha tayyorlangan o‘quv adabiyotlarni tahlil qilib chiqdik. Shulardan ba’zi-birlarini keltirib o‘tishni joiz bilamiz.

Auditga tegishli ilk bor o‘zbek tilida tayyorlangan o‘quv qo‘llanma “Korxona moliyaviy ahvoli auditi” deb nomlanib, uning muallifi M.M. Tulaxodjaeva hisoblanadi. Ushbu o‘quv qo‘llanma 13,0 bosma taboqdan iborat bo‘lib, 1996 yili “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyida jami 3000 nusxada chop etilgan. O‘quv qo‘llanma kirish, 5 ta bobdan iborat bo‘lib, 22 ta paragraf va 7 ta ilovani o‘z ichiga olgan holda, asosan moliyaviy hisobotni haqqoniyligini tekshirish va korxonaning moliyaviy ahvoli auditiga bag‘ishlangan.

Keyingi o‘rinni N. Sanaev va R. Narziev tomonidan tayyorlangan va 2001- yil Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik sifatida 5000 nusxada chop etilgan “Audit” nomli kitob egallaydi. Ushbu darslik qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uslubiyatiga moslashgan bo‘lib, unda yoritilgan tekshiruv usullari ko‘proq nazorat va taftish usullariga o‘xshash jihatlari bilan ajralib turadi.

Tahlil qilinayotgan o‘quv adabiyotining navbatdagisi Z.T. Mamatov, D.E. Norbekov va K.A. Shakarov tomonidan tayyorlangan, 2002 yil 1000 ta nusxada chop etilgan “Audit” nomli o‘quv qo‘llanmadir. Ushbu kitob 10 ta bob, 30 ta paragrafni o‘zida jamlashtirgan bo‘lib, asosan korxonalarining moliya-xo‘jalik faoliyatini

auditorlik tekshiruvidan o‘tkazish uslubiyati va usullariga bag‘ishlangan. Qo‘llanma Oliy o‘quv yurtlarining iqtisodiy sohadagi bakalavriyat va magistratura talabalari, aspirantura tinglovchilari, auditorlarni tayyorlash va qayta tayyorlash kurslarida malaka oshirayotgan tinglovchilar uchun mo‘ljallangan.

H.N. Musaev tomonidan tayyorlangan “Audit” nomli darslik 2003- yilda 2000 nusxada chop etilgan bo‘lib, 2 ta qism, 10 ta bob, 42 ta paragraf, test savollari va ilovalardan iborat. Darslik asosan Oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan 5340600 “Moliya”, 5340700 “Bank ishi”, 5340800 “Soliq va soliqqa tortish” yo‘nalishlari talabalari uchun mo‘ljallangan. Mazkur darslik auditning nazariy va amaliy masalalarini o‘z ichiga olgan, davlat o‘quv standartlari va fan dasturi asosida yozilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya qilingan. Darslikda buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi o‘zgarishlar hisobga olingan.

2003- yil chop etilgan “Audit asoslari” nomli o‘quv adabiyoti ham O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan bo‘lib, mualliflar: A. Abdullaev, O. Abduvahobov va I. Qayumov tomonidan tayyorlangan.

Mazkur darslik 10 ta bob, 47 ta paragrafni o‘z ichiga oladi. Unda auditning mohiyati va tashkil qilish asoslari, auditning metodologiyasi va andozalari hamda audit o‘tkazish usullari va uslubiyoti yoritib berilgan. Shuningdek, darslikni yozishda O‘zbekiston Respublikasining Qonun va Nizomlariga alohida e’tibor berilgan. Darslikdan Oliy o‘quv yurti va kollej talabalari, biznes mакtabining o‘quvchilari o‘quv dasturiga mos ravishda foydalanishlari mumkin.

Hozirgi kunda eng ommabop deb tan olingan “Audit asoslari” nomli o‘quv adabiyotining muallifi R.D. Do‘smuratov hisoblanadi. Ushbu o‘quv adabiyotiga O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Oliy o‘quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan darslik maqomi berilgan. Mazkur darslik 2003- yilda 38,5 bosma taboq hajmda 2000 nushada chop etilgan. Darslik ikkita bo‘limdan iborat bo‘lib, birinchi bo‘lim 6 ta bobdan iborat bo‘lib, auditorlik faoliyatining nazariy jihatlari yoritilgan.

Ikkinchi bo‘lim 9 ta bobdan iborat bo‘lib, asosan xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar moliya-xo‘jalik faoliyatida sodir bo‘ladigan muomalalar va ishlarni auditorlik tekshiruvidan o‘tkazishning uslubiy jihatlarini o‘z ichiga oladi.

M.M. Tulaxodjaeva va Sh. Ilxomov tomonidan tayyorlangan O‘quv qo‘llanma 2005- yilda 10.0 bosma taboq hajmda 500 nushada chop etilgan. O‘quv qo‘llanma 8 bo‘limdan iborat bo‘lib, auditning faoliyat nazariy jihatdan yoritilgan.

Darslik Oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar, aspirantura tinglovchilari, o‘qituvchilar, uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, darslikdan buxgalterlar, auditorlar, tadbirkorlar, menejerlar, iqtisodchilar va kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilari hamda talabalari ham foydalanishlari mumkin.

## I BOB: QURUVCHI TASHKILOTLARINING XO‘JALIK FAOLIYATI IQTISODIY TAHLILI

### 1.1. *Qurilish tashkilotlarining xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishda tahlilning ahamiyati va vazifalari*

Qurilish O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari qatorida etakchi o‘rinlardan biriga ega bo‘lib, uning natijasi sifatida yangi va amaldagi asosiy fondlar (binolar inshootlar, mashinalar, uskunalar) yaratilishi (kengaytirilishi, qayta tiklanishi va texnik qayta qurollanishi) hisoblanadi. Moddiy ishlab chiqarishning ushbu tarmog‘i samarali faoliyatiga ilmiy texnikaviy taraqqiyotning jadallahuvi, moddiy-texnika bazasining va ishlab chiqarish tuzilishining takomillashtirilishi sezilarli darajada bog‘liq.

2018-yilning yanvar-mart oylarida O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 16826,6 mlrd. So‘m (dollar ekvivalentida 2,1 mlrd. AQSh doll.) asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi va 2017- yilning mos davriga nisbatan 129,4 foizni tashkil qildi. YaIMga nisbatan asosiy kapitalga investitsiyalar 25,9 foizni tashkil etib, 2017-yilning yanvar-martdagи ko‘rsatkichga nisbatan 3,3 foiz punktga ko‘paydi. 2018-yilning yanvar-martida jami asosiy kapitalga investitsiyalarning yarmidan ko‘prog‘i, ya’ni 55,3 foizi Respublikaning 3 hududida, jumladan, Buxoro viloyatida 24,7 foiz, Toshkent shahrida 20,5 foiz va Qashqadaryo viloyatida 10,1 foiz o‘zlashtirildi. Qator hududlarda asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi, jumladan, Navoiy viloyatida 2,3 marta (1746,4 mlrd. so‘m), Namangan 2,1 marta (1018,7 mlrd. So‘m), Surxondaryo 2,0 marta (1026,4 mlrd. So‘m), Toshkent 144,2 foiz (1166,7 mlrd. So‘m), Toshkent shahrida 130,7 foiz (3137,6 mlrd. so‘m) o‘sish sur’ati kuzatildi.<sup>16</sup>

Qurilishda erishilgan natijalar bilan bir qatorda ushbu tarmoqda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar va xatolar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

<sup>16</sup>2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi. 04/01/2019.

qarorlarida bir necha bor ko'rsatib o'tilgan. Xususan, qurilishda tijorat mexanizmlarining yangi tamoyillarini qo'llagan holda obyektlarning muddatlarini sezilarlarli darajada kamaytirish va me'yordan ortiq tugallanmagan qurilishga barham berish, markazlashtirilgan kapital qo'yilmalarini qisqartirish, investitsiya jarayonining barcha ishtirokchilari o'rtasida tovar-pul munosabatlarini rivojlantirish va qurilishda shartnomaning rolini oshirish, asosan o'z mablag'laridan foydalanish va bank kreditlarining rolini oshirish zarur.

Kapital qo'yilmalari bu asosiy fondlarni qayta ishlab chiqarish hisoblanadi. Ular yangi qurilishga, qayta tiklashga, amaldagi korxonalarni kengaytirish va texnik qayta qurollantirishga bo'lган xarajatlarni o'z ichiga oladi. Kapital qurilish ikkita usulda amalga oshiriladi: pudrat va xo'jalik.

Qurilishni olib borishning pudrat usuli asosiy hisoblanib, qurilish ishlarining ixtisoslashgan tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishini ko'zda tutadi. Ular qatoriga qurilishi-montaj trestlari, qurilishi-montaj kontsernlari, uy-joyqurish kombinatlari kiradi.

Ixtisoslashgan tashkilotlar qurilish buyurtmachilari bilan tuzilgan pudrat shartnomasiga asosan pudratchi hisoblanadi.

Pudrat shartnomasi buyurtmachilar va pudratchilarning o'zaro munosabatlar me'yorini qat'iy belgilovchi va shartnomadagi majburiyatlarning bajarilmaganligi uchun iqtisodiy javobgarligini belgilab beruvchi asosiy hujjat hisoblanadi.

Pudrat shartnomasi buyurtmachi tomonidan bosh pudratchi bilan kapital qurilish rejasiga kiritilgan va o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan titul ro'yxatlariga ega bo'lgan qurilishlarning butun davriga tuziladi.

Zarur bo'lganda bosh pudratchi muayyan turdagи ishlarni bajarish uchun subpudratchi vazifasini o'taydigan ixtisoslashgan tashkilotlarni jalb qilish huquqiga ega. Bunda ishlarning o'rnatilgan muddatlarda bajarilishi hamda sifati uchun bosh pudratchi javobgar hisoblanadi.

Ishlarni xo'jalik usulida olib borishda buyurtmachi tashkilot butun qurilish ishlari majmuini o'zining quruvchi bo'linmalari kuchi bilan, begona tashkilotlarni jalb qilmasdan amalga oshiriladi. Shunday qilib, qurilishni xo'jalik usuli bilan

amalga oshirishda buyurtmachi bir vaqtning o‘zida pudratchi ham hisoblanadi. Qurilishning bunday usulini amaldagi korxonalarda kichik hajmdagi ishlarni bajarishda, pudratchi tashkilotlarni jalg qilish iqtisodiyjihatdan samarasiz bo‘lgan paytda qo‘llash maqsadga muvofiq. Shunday qilib, iqtisodiy tahlilining obyekti bo‘lib, bosh pudratchi va buyurtmachi o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlar hisoblanadi.

Ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, ularning faoliyatiga asos bo‘luvchi tijorat tamoyillari bilan belgilanadi.

Kapital qo‘yilmalarining biznes-rejasini amalga oshirish va asosiy fondlarni ishga tushirish vazifasini echish uchun turli funktsiyalarni bajargan holda buyurtmachi va pudratchi qurilish tashkiloti iqtisodiy tahlilning alohida obyektlari sifatida tashkil topadi.

Buyurtmachi (yakka tartibdagi quruvchi) xo‘jalik faoliyatini tahlilining asosiy vazifalari quyidagicha:

- asosiy fondlarni va ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish biznes-rejasining qiymat va natural ko‘rinishdagi ishlar hajmi, tarkibi va muddatlari bo‘yicha bajarilishini baholash;

- kapital qo‘yilmalar biznes-rejasining bajarilishini hajmi, tuzilishi va moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tekshirish;

- ishlab chiqarish xarajatlarini nazorat qilish va noishlab chiqarish xarajatlari hamda yo‘qotishlarini aniqlash;

- tugallanmagan ishlab chiqarishning hajmi va tarkibini baholash;

- qurilishlarning moliyaviy ahvolini o‘rganish, qurilishlarning loyiha-smeta hujjatlari, uskunalar va moddiy resurslar bilan ta’minlanganligi;

- erishilgan ish natijalarini baholash va ichki imkoniyatlarini aniqlash;

Qurilish tashkilotlarining faoliyatini baholashda qurilish obyektlarini ishga tushirish biznes-rejasining bajarilishi asosiy ko‘rsatkich bo‘lib hisoblanadi.

Obyektlarning o‘z vaqtida foydalanishga topshirilishida manfaatdor bo‘lgani holda buyurtmachilar, ayni paytda pudratchi tashkilotlar bilan birga ushbu obyektlarning o‘z vaqtida va sifatli ishga tushirilishi uchun mas’uldirlar.

Ishga tushirilayotgan obyektlarning natural o‘lchovlari quyidagicha: sanoat korxonalari uchun – ularning quvvati; uy-joyqurilishi obyektlari uchun – yashash maydoni; madaniy-maishiy obyektlar uchun – bitta chiqish o‘rni va h.

Obyektlarning loyiha-smeta hujjatlari asosida aniqlanadigan narxi, ya’ni smeta narxi ishga tushirilayotgan obyektlarning qiymat o‘lchovidir.

Tahlil jarayonida ma’lumot manbalari sifatida loyiha-smeta, reja va hisobot hujjatlaridan foydalanish mumkin.

Loyiha-smeta hujjatlari. Kapital qurilishda yaratilayotgan mahsulot (turar joylar, jamoat binolari, inshootlar, ishlab chiqarish obyektlari), ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulot kabi, tovar tavsifiga ega, ya’ni uni shartnomaga bo‘yicha o‘rnatilgan narxda buyurtmachiga sotish zarur. Qurilish mahsulotining narxi loyihalashtirish jarayonida tayyorlanadigan smeta hujjatlari tomonidan aniqlanadi.

Reja hujjatlari. Titul ro‘yxatlari qurilishda asosiyreja hujjati bo‘lib hisoblanadi. Obyektning titul ro‘yxatlariga kiritilishi uning qurilishiga ruxsat berilganligini bildiradi. Titul ro‘yxatlarida obyektlarning loyiha quvvatlari, kapital quyilmalarning hajmi, obyektlarni ishga tushirish muddatlari va h. Ushbu titul ro‘yxatlari asosida kapital qurilishning rejasi (7-sonli shakl) tuzilib, unda kapital qo‘yilmalarning hajmlari bo‘yicha (I-bo‘lim) va quvvatlarni ishga tushirish bo‘yicha (II-bo‘lim) yillik rejalarini detallashtirish amalga oshiriladi.

Moliyalashtirish rejasi (5-sonli shakl) asosida obyektlar qurilishini moliyalashtirishni rejallashtirish amalga oshiriluvchi hujjat hisoblanib, unda kapital qo‘yilmalarning ko‘zlangan hajmlarini moliyalashtirish manbalarining tarkibi va tuzilishi aniqlangan bo‘ladi. Kapital qo‘yilmalarini moliyalashtirish byudjetdan ajratmalar, xususiy va qarzga olingan mablag‘lar hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Hisobot hujjatlari. Buyurtmachining hisobot tizimiga quyidagi hujjatlar kiradi:

- kapital qo‘yilmalar bo‘yicha yillik balanslar (yakka tartibdagi quruvchining 1-sonli shakli);

- quvvatlarni, asosiy fondlarni ishga tushirish biznes-rejasining bajarilishi to‘g‘risidagi oraliq va yillik hisobotlar. Asosiy fondlarni va ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish biznes-rejasining tahlili uchun zarur ma’lumotlarni 2-sonli-ks (yillik) hisobot shaklidan olish mumkin.

Ushbu shakl bo‘yicha hisobotni buyurtmachilar (yakka tartibdagi quruvchilar) tuzishadi. Bu shakl 10ta bo‘limdan iborat.

Butun hisobot ma’lumoti buxgalterlik hisobi asosida shakllanib, bu uning etarli ishonchlilagini ta’minlashi lozim, bu esa, o‘z navbatida, buyurtmachi ishining umumiyligi tahlili va ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish biznes-rejasi bajarilishining tahlili uchun zarurdir.

2-sonli hisobot shakli bo‘limlarining ma’lumotlari o‘zaro va boshqa hisobot shakllarining ko‘rsatkichlari bilan bog‘lanmagan bo‘lsa, bunday ma’lumotlardan ularning shubhaliligi sababli tahlil uchun foydalanimaydi.

Ishlarni bajarishning xo‘jalik usulida qurilish bo‘yicha hisob va hisobot tuzilishi umuman olganda yakka tartibdagi quruvchi tomonidan yuritiladi, ishlarni bajarishning pudrat usulida esa – pudratchi tomonidan ham.

### ***1.2. Asosiy fondlarning ishga tushirilishi va quvvati bo‘yicha biznes-rejaning bajarilishining tahlili***

Asosiy fondlarni va ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish qurilish tashkilotlarining va yakka tartibdagi quruvchining faoliyatlarini baholashda asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Buyurtmachi tomonidan pudratchi tashkilotdan o‘rnatilgan tartibda solishtirish dalolatnomalari bo‘yicha qabul qilib olingan ishlab chiqarish quvvatlari va tugallangan obyektlar va yurgizish majmualari ishga tushirilgan hisoblanadi. Obyektlarning qiymati tasdiqlangan loyiha va titul ro‘yxatlariga binoan qurilish boshlanishidan to obyekti ishga tushirishgacha bo‘lgan smeta narxlarida belgilanadi.

O‘z ichiga turli binolar va inshootlar majmuasini olgan yirik obyektlarning ishga tushirilishi biznes-reja tomonidan o‘rnatilgan ketma-ketlikda qismlari bo‘yicha,

shuningdek ishga solish majmualari bo‘yicha ishga tushiriladi. Obyektning alohida qismlarining topshirilishi majburiy ravishda qabul qilish dalolatnomasida ko‘rsatiladi.

Ishlab chiqarish yo‘nalishidagi obyektlar bo‘yicha ishga tushirilgan asosiyfondlar ishlab chiqarish quvvatining bahosi ishlab chiqarilayotgan mahsulotning yillik hajmlarida ko‘rsatiladi (betonning  $m^3$ , mahsulot t., elektr energiyasining kVt. soati). Turar joybinolarini ishga tushirishda o‘lchov birligi bo‘lib umumiyya yashash maydonining  $m^2$ i, kasalxonalarda esa – karavotlar soni bo‘yicha va h.

Tahlil jarayonida ishga tushirilgan obyektlar yo‘nalishi bo‘yicha (sanoat qurilishi obyektlari, turar joy obyektlari, maktablar va h.), shuningdek ularning bajarilish muddatlari va navbatli bo‘yicha guruhlanadi.

Tugallangan obyektlarni ishga tushirish biznes-rejasining bajarilishi tahlili 2-sonli-ks hisobot shakli ma’lumotlari asosida amalga oshiriladi (asosiy fondlarni va ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish rejasining bajarilishi haqida hisobot).

Ushbu hisobot shakli, titul ro‘yxatlari asosida tahlil jadvali tuzilib, unda biznes-rejaning uy-joyqurilishi ajratilgan holda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish yo‘nalishidagi obyektlar bo‘yicha alohida bajarilishi ko‘rsatiladi. Asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirilishining bajarilganlik darjasini hisobot ma’lumotlarining biznes-reja bilan qiymat va natural o‘lchovlarda taqqoslanish yo‘li bilan aniqlanadi. Asosiy fondlarning ishga tushirilishini tahlil qilish uchun 1.1. jadvalni tuzamiz.

1.1. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, buyurtmachi tomonidan asosiyfondlarni ishga tushirish biznes-rejasi 1,6 foiz ortig‘i bilan bajarilgan. Bunda ishlab chiqarish obyektlari bo‘yicha biznes-reja bajarilmagan, bajarilmaganlik 3,5 foizni tashkil qiladi. Asosiy fondlarning ishga tushirilish biznes-rejasining ishlab chiqarish obyektlari bo‘yicha bajarilmaganligini aniqlash uchun har bir obyekt bo‘yicha alohida hisobot va hisobdan tashqari ma’lumot manbalarini jalb qilish zarur.

## 1.1 jadval.

### Asosiy fondlarning ishga tushirilishini tahlil qilish

Ko‘rsatkichlar	Smeta qiymati, ming so‘mda		Biznes-rejaning bajarilishi foiz
	Biznes-reja bo‘yicha	Haqiqatda	
A	1	2	3
Jami asosiyfondlar	94 500	96 000	101,6
Shu jumladan:			
Ishlab chiqarish yo‘nalishidagi asosiyfondlar	62 460	60 300	96,5
Noishlab chiqarish yo‘nalishidagi asosiyfondlar	32 040	35 700	111,4
Shulardan: uy-joyqurilishi	26 000	26 000	100,0

Noishlab chiqarish yo‘nalishidagi asosiyfondlar bo‘yicha reja 11,4 foiz ga ortig‘i bilan bajarilgan, bunda uy-joyqurilishi obyektlari bo‘yicha biznes-reja 100foizga bajarilgan, demak, biznes-rejani ortig‘i bilan bajarish boshqa noishlab chiqarish yo‘nalishidagi obyektlar hisobidan amalga oshirilgan. Shuning uchun noishlab chiqarish asosiy fondlarinining ishga tushirilishini har bir yo‘nalish (maorif, madaniyat va san’at, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot muassasalari) bo‘yicha alohida tahlil qilib chiqish lozim.

Asosiy fondlarni va ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish biznes-rejasining bajarilishi tahlili majburiy ravishda kapital qo‘yilmalar hajmi ko‘rsatkichlari bilan solishtirgan holda amalga oshirilishi lozim. Buning uchun ma’lumotlar ham 2-sonli-ks hisobot shaklidan olinadi. Kapital qo‘yilmalar hajmi ko‘rsatkichlari bilan ishga tushirilishning nisbati har xil bo‘lishi mumkin. Eng yaxshi variant bo‘lib kapital qo‘yilmalar rejasining va asosiy fondlarni ishga tushirish bo‘yicha biznes-rejasining to‘liq bajarilishi hisoblanadi.

### *1.3. Qurilish obyektlari davomiyligining tahlili*

Qurilish obyektlarining o‘z vaqtida ishga tushirilmasligi xalq xo‘jaligining ushbu obyektlar qurilayotgan tarmoqlarida sanoat ishlab chiqarishining ko‘zlangan o‘sish sur’atlari buzilishiga olib keladi. Bunda kechiktirib ishga tushirilayotgan

asosiy fondlar ma’naviyeskiradi, kapital qo‘yilmalarning samarasi kamayadi, qurilish-montaj ishlari tannarxining oshishi ro‘yberadi. Obyektlar qurilishi davomiyligining tahlili vaqt va resurslarning salmoqli zaxiralarini aniqlash imkonini beradi.

Qurilish muddatlariga rioxaliga qilinishining tahlili jarayonida haqiqatdagi, rejadagi va me’yoriy davomiylik, shuningdek o‘xhash obyektlar va quvvatlar bo‘yicha avvalgi hisobot davrlarida haqiqatda yuzaga kelgan davomiylik taqqoslanadi.

Qurilishning haqiqatdagi davomiyligi rejadagi va me’yoriy davomiylikdan chetga chiqishi buyurtmachi va pudratchi faoliyatlarida kamchiliklar borligini ko‘rsatadi. Loyihalashuvchilar, resurslarni etkazib beruvchilar, qurilish tashkilotlari va buyurtmachining faoliyatiga bog‘liq ko‘pchilik omillar qurilishning davomiyligiga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, bunday omillarga loyiha-smeta hujjatlari, moddiy-texnika resurslari, ishchi kuchi bilan o‘z vaqtida ta’minlanganlik kiradi.

#### ***1.4. Tugallanmagan qurilish obyektlari holatinining tahlili***

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan kapital qurilishda xo‘jalik mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha bir qator qarorlar qabul qilingan bo‘lib, ularda qurilishning davomiyligini kamaytirish va qurilishdagi barcha ishtirokchilarning ishlab chiqarish quvvatlarini, obyektlarni va inshootlarni me’yoriy muddatlarda ishga tushirishda iqtisodiy manfaatdorligini oshirish orqali tarmoqning samaradorligini oshirish vazifasi qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘i bo‘yicha tugallanmagan qurilish hajmi 2017- yilning boshiga kelib 2703 mlrd so‘mni tashkil etdi<sup>4</sup>. Kapital qo‘yilmalar hajmi va asosiyfondlarni ishga tushirish ko‘rsatkichlarining nisbati har xil yillarda turlicha bo‘lishi mumkin. Agar kapital qo‘yilmalarining qiymati ishga tushirilgan asosiyfondlarning qiymatidan ortiq bo‘lsa, unda ortiq summa bu tugallanmagan qurilish qiymatini bildiradi. Tugallanmagan qurilishga buyurtmachi tomonidan qabul

<sup>4</sup> Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. Строительство в Узбекистане. Статистический сборник. 2017 год...

qilingan va haqi to‘langan qurilishi tugallanmagan va foydalanishga topshirilmagan binolar, inshootlar, shuningdek o‘rnatilgan va o‘rnatish jarayonidagi uskunalar qiymati, uskunalar o‘rnatilishi bo‘yicha bajarilgan ishlar qiymati va boshqa ishga tushirilmagan obyektlar bo‘yicha buyurtmachi tomonidan to‘langan xarajatlar kiradi.

Yakka tartibdagi quruvchining tugallanmagan qurilish tarkibiyqismlari bo‘yicha haqiqatda to‘langan summalar to‘g‘risidagi ma’lumotni 2-s hisobot shaklidan olish mumkin. Tahlil paytida avvalo ishlab chiqarish va noishlab chiqarish obyektlari bo‘yicha umumiy tugallanmagan qurilish hajmi aniqlanadi.

Keyin har bir obyekt bo‘yicha tugallanmagan qurilish hajmi aniqlanadi, har bir obyektning tayyorlik darjasini ishlar boshlanish kuni va davomiyligining rejadagi muddatlari bilan taqqoslash orqali aniqlanadi. So‘ngra joriyyilda qurilishi amalga oshirilmaydigan obyektlar va ularning vaqtinchalik to‘xtatilish sabablari va muddatlari aniqlanadi, shuningdek foydalanilayotgan, ammo qabul qilish dalolatnomalari yo‘qligi sababli tugallanmagan qurilish deb sanalgan obyektlar aniqlanadi. Tugallanmagan qurilish tarkibiga “Tashlandiq”yoki “sifati past” ishlar deb nomlanuvchi, ya’ni tamomila to‘xtatilgan obyektlar ham kirishi mumkin. Bunday ishlar ko‘pincha yakka tartibdagi quruvchining aybi bilan, agarki qurilish tegishli hujjatlarsiz boshlangan va olib borilgan bo‘lsa, yoki yuqori idoralarning obyekt qurilishining umumiy rejasini o‘zgartirish, ishlarni vaqtinchalik to‘xtatib turish, avval vaqtinchalik, keyin tamomila to‘xtatish qarori oqibatida yuzaga kelgan bo‘lsa. Tahlil natijasida “tashlandiq ishlarning” yuzaga kelishi sabablari va xarajatlarni hisobdan chiqarishning qonuniyligi aniqlanishi lozim. “Tashlandiq ishlarning” hisobdan chiqarilishi tugallanmagan qurilish qoldig‘ining kamayishiga olib kelsa ham, bu buyurtmachi faoliyatining yaxshilanish ko‘rsatkichlari hisoblanishi mumkin emas.

## **1.5. Kapital qo‘yilmalar bo‘yicha biznes-rejaning bajarilishining tahlili**

Kapital qo‘yilmalar rejasini bajarilishining umumiy bahosi quyidagilar bo‘yicha beriladi:

1. Xarajatlar turlari yoki tuzilishi bo‘yicha.
2. Xarajatlar yo‘nalishi bo‘yicha.

### 3. Tugallangan obyektlarni foydalanishga topshirish bo‘yicha.

Kapital qo‘yilmalar bo‘yicha biznes-reja bajarilishining tahlilida, ular pudrat yoki xo‘jalik usuli bilan olib borilganda, yakka tartibdagi quruvchining 2-sonli KS-21 «Kapital qo‘yilmalar va asosiy fondlarni ishga tushirish rejasining bajarilishi to‘g‘risida hisobot» o‘rganiladi. Tahlil uchun 1.2.-jadvalni keltiramiz.

1.2.-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, kapital qo‘yilmalar bo‘yicha biznes-reja 4 100 ming so‘m, yoki 4,5foizga ortig‘i bilan bajarilgan. Ammo qurilish tashkilotining ishini yaxshi deb bo‘lmaydi, sababi biznes-rejaning ortig‘i bilan bajarilishi birinchi navbatda qo‘sishimcha uskuna sotib olish bilan bog‘liq, qurilish bo‘yicha muhimroq ishlari esa oxirigacha qilinmagan. Natijada kapital qo‘yilmalarning tuzilishi keskin o‘zgargan. Shundayqilib, biznes-reja bo‘yicha uskunaning kapital qo‘yilmalar umumiymiqdoridagi hissasi 20,4foizni, haqiqatda esa 25,3foizni tashkil qildi, qurilish ishlari bo‘yicha esa tegishlicha 62,7 foiz va 57,2 foiz

Ijobiyjihat faqat montaj ishlari biznes-rejasining ortig‘i bilan bajarilishi bo‘lgan xolos.

Qurilish ishlarining oxirigacha bajarilmasligi obyektlarni ishga tushirish muddatlarining buzilishiga olib keladi.

Kapital qo‘yilmalar tuzilishining tahlilidan tashqari, smeta narxlari bo‘yicha kapital ishlarni smeta va haqiqiy qiymati bo‘yicha taqqoslash lozim. Bunday turdag'i fark, uskunalar bahosi o‘zgarishi va yakka tartibdagi quruvchining zararlarini obyektning inventar qiymatiga qo‘sishi hisobidan kelib chiqadigan ishlarni bajarishning haqiqatdagi va smetadagi hajmlari va usullari nomuvofiqligi natijasida yuzaga kelishi mumkin. Smeta qiymatidan ehtimoliy farqlarning tahlilini alohida obyektlar bo‘yicha o‘tkazish lozim.

Keyingi bosqichda tahliliyjadval tuzilib, unda kapital qo‘yilmalari biznes-rejasining xarajatlar yo‘nalishi bo‘yicha bajarilish ko‘rsatkichlari taqqoslanadi

### 1.2-jadval.

#### **Kapital qo‘yilmalar biznes-rejasining xarajatlar turlari va tuzilishi bo‘yicha bajarilishining umumiy bahosi**

№ yok i t/r	Ko‘rsatkichlar	Kapital qo‘yilmalar hajmi, ming so‘mda			Kapital qo‘yilmalar tuzilishi, foizda		
		Biznes- reja bo‘yicha	Haqiqatda	Farqi (+;-)	Biznes- reja bo‘yicha	Haqiqatd a	Farqi (+;-)
A	B	1	2	3	4	5	6
1	Qurilish ishlari	56 800	54 100	-2 700	62,7	57,2	-5,5
2	Montaj ishlari	13 600	14 600	+1 000	15,1	15,4	+0,3
3	Uskuna	18 500	23 900	+5 400	20,4	25,3	+4,9
4	Loyiha-qidiruv ishlari	1 600	2 000	+400	1,8	2,2	+0,4
5	Jami	90 500	94 600	+4 100	100	100	-

### 1.3-jadval.

#### **Kapital qo‘yilmalar biznes-rejasining xarajatlar yo‘nalishi va tugallangan qurilish obyektlarining foydalanishga topshirilishi bo‘yicha bajarilishining tahlili**

(ming so‘mda)

t/r	Ko‘rsatkichlar	Kapital qo‘yilmalar hajmi			Obyektlarining foydalanishga topshirilishi		
		Biznes- reja bo‘yicha	Haqiqatda	Farq (+;-)	Biznes- reja bo‘yicha	Haqiqat da	Farqi (+;-)
A	B	1	2	3	4	5	6
1	Sanoat qurilishi	53 000	64 600	+11 600	18 500	17 800	-700
2	Uy-joyqurilish	25 000	19 300	-5 700	12 000	10 400	-1 600
3	Kommunal qurilish	12 500	10 700	-1 800	7 500	6 000	-1 500
4	JAMI	90 500	94 600	+4 100	38 000	34 200	-3 800

1.3. jadvalning ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, kapital qo‘yilmalar biznes-rejasining ortig‘i bilan bajarilishi uy-joyva kommunal qurilishlarining zarariga jadal sanoat qurilishi hisobidan yuzaga kelgan. Obyektlarni foydalanishga topshirish rejasiga kelsak, umuman olganda u 3 800 ming so‘mga yoki 10 foizga bajarilmasdan qolgan. Bunda obyektlarni foydalanishga topshirish rejasi uchala yo‘nalish bo‘yicha bajarilmagan. Keyinggi tahlil kapital qo‘yilmalar biznes-rejasining ishlab chiqarish va noishlab chiqarish alohida obyektlari bo‘yicha bajarilmaganligining sabablarini aniqlashi lozim.

### ***1.6. Umumiy xulosा***

Ushbu mavzuni o‘rganish natijasida talaba vazifalarning iqtisodiy jihatdan to‘g‘ri qo‘yish uchun buyurtmachining (yakka tartibdagi quruvchining) xo‘jalik faoliyati iqtisodiy tahlili xususiyatlarini bilishi, xo‘jalik, moliya investitsiya faoliyatini tahlil qilish usullarini ishlab chiqsa olishi, izlanishlarning tahliliy vositalaridan foydalana olishi, tahliliy tadbirlarni bajarish asosida umumlashtirish va xulosalar tuza olishi, shuningdek buyurtmachining hisobotini mustaqil tahlil qilish tajribasiga ega bo‘lishi lozim.

### ***1.7. Mavzuga tegishli kalit so‘zlar***

Kapital qurilishda tahlilning mazmuni va vazifalari, kapital qo‘yilmalar, qurilishni olib borishning pudrat va xo‘jalik usullari, loyiha-smeta hujjatlari, reja hujjatlari, hisobot hujjatlari, qurilish davomiyligi, me’yoriy davomiylik, asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish assoiy fondlari, smeta narxi, tugallanmagan qurilish, yangi qurilish, amaldagi korxonalarni qayta tiklash, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish, kapital qo‘yilmalar biznes-rejasining tuzilish (qurilish ishlari, montaj ishlari, uskunalar va loyiha-qidiruv ishlari) bo‘yicha bajarilishi, kapital qo‘yilmalar biznes-rejasining yo‘nalish (uy-joyqurilishi, sanoat qurilish, kommunal qurilish) bo‘yicha bajarilishi.

### ***1.8. Talabalarning bilimlarini tekshirish savollari***

1. Kapital qurilishda tahlilning mazmuni va vazifalari.
2. Buyurtmachi xo‘jalik faoliyati tahlilining vazifalari va manbalari.
3. Loyiha-smeta hujjatlari o‘zi nima?
4. Qurilish mahsulotining narxi qandayaniqlanadi?
5. Korxonalar, binolar va inshootlarni loyihalashtirish qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?
6. Qurilish obyektlarining smeta qiymatini aniqlash uchun qanday hujjatlar tuziladi?
7. Reja hujjatlari o‘zi nima?

8. Kapital qurilishning biznes-rejasi qanday ma'lumotlar asosida tuziladi?
9. Qaysi hujjat qurilish obyektlarini tiklash uchun ruxsatnomalar hisoblanadi?
10. Qurilishni moliyalashtirish qaysi hisobot shakli asosida amalga oshiriladi?
11. Buyurtmachining hisobot tizimiga qanday hujjatlar kiradi?
12. Asosiy fondlarni va ishab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish biznes-rejasining bajarilishi tahlili uchun ma'lumotlar qaysi hisobot shaklidan olinadi?
13. 2-ks (yillik) hisobot shakli nechta bo'limdan tashkil topgan?
14. Qurilish muddatlariga amal qilinishining tahlili jarayonida qanday ko'rsatkichlar taqqosланади?
15. Qaysi ko'rsatkich qurilish tashkilotlari va buyurtmachi (yakka tartibdagi quruvchi) faoliyatining eng muhim baholash ko'rsatkichi hisoblanadi?
16. Qurilish obyektlari qachon ishga tushirilgan hisoblanadi?
17. Ishga tushirilgan qurilish obyektlari belgilangan maqsadi bo'yicha qanday guruhlanadi?
18. Qanday tarkibiy qismlar tugallanmagan qurilishga tegishli?
19. Tugallanmaan qurilishining balansi qanday hisoblanadi?
20. Kapital qo'yilmalar o'zi nima?
21. Qanday xarajatlar kapital qo'yilmalar tarkibiga kiritiladi?
22. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish kapital qo'yilmalari o'zi nima?
23. Qayta tiklash va texnik qayta qurollantirish deganda nima tushuniladi?
24. Kapital qo'yilmalar biznes-rejasi bajarilishining tahlilini o'tkazish nechta bosqichdan iborat?
25. Kapital qo'yilmalar biznes-rejasining xarajatlar turlari va tuzilishi bo'yicha bajarilishining tahlili qanday amalga oshiriladi?
26. Kapital qo'yilmalar biznes-rejasining yo'nalishlar (belgilangan maqsadi) va tugallangan qurilish obyektlarini foydalanishga topshirish bo'yicha bajarilishining tahlili qanday amalga oshiriladi?

### ***1.9. Axborot-uslubiy ta'minot***

I. Asosiy adabiyot.

1. Деркач Д. М. Анализ производственно-хозяйственной деятельности подрядных строительных организаций. М. «Финансы и статистика», 1990 г.
2. Жарковская Е. П. и др. Анализ хозяйственной деятельности строительных организаций. М. Стройиздат, 1989 г.
3. Г.В.Савитская . “Экономический анализ (учебник) 13-е издание исправленное. М : Новое знание. 2017.

## II. Qo‘shimcha adabiyot.

1. М. И. Баканов, А.Д. Шеремет. Экономический анализ ситуации, тесты, примеры, задачи, выбор оптимальных решений, финансовое прогнозирование. М. «Финансы и статистика », 2018 г.
2. Vahobov A.V va boshqalar “Boshqa tarmoqlarda iqtisodiy tahlil xususiyatlari “. Т : 2017.
3. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviynatijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida Nizom. O‘R Vazirlar Mahkamasi qarori. 5.02.1999. 54-son.Buxgalterlar va Auditorlar Assosatsiyasining nashriyot markazi.-T.:2019.

## **II BOB: QURILISH-MONTAJ ISHLARI BILAN SHUG'ULLANUVCHI PUDRAT TASHKILOTI XO'JALIK FAOLIYATINI IQTISODIY TAHLILI**

### ***2.1. Iqtisodiy tahlilning vazifasi va manbalari***

Qurilish-montaj tashkiloti faoliyatini baholash mezoni bo'lib obyekt va inshootlar, turar joyva boshqa ijtimoiyyo'nalishdagi obyektlar ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi hisoblanadi. Shuning uchun pudratchi qurilish tashkiloti faoliyati tahlilining eng muhim bu vazifasi shartnoma bo'yicha quvvatlarni va obyektlarni qurilishning rejadagi va me'yordagi muddatlari ta'minlangani holda ishga tushirish biznes-rejasining bajarilish darajasini tekshirish hisoblanadi. Buning uchun, ishga tushirilgan har bir obyekt bo'yicha haqiqatdagi davomiylik me'yoriy davomiylik bilan taqqoslanadi.

Tahlil natijalariga ko'ra qurilishning davomiyligini kamaytirishga va ishlab chiqarish quvvatlarining hamda obyektlarning tezda ishga tushirilishiga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Qurilish tashkilotining ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatini baholash uchun shuningdek pudrat ishlarining hajmi bo'yicha biznes-rejasining bajarilishi ham tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida bosh pudrat bo'yicha pudrat ishlari va o'z kuchi bilan, subpudratchilar, buyurtmachilar tomonidan, ishga tushirish obyektlari va h. bo'yicha bajarilayotgan ishlar biznes-rejasining amalga oshirilishi tekshiriladi.

Pudrat ishlari biznes-rejasining bajarilishi 1-sonli-KS "Quvvatlarni ishga tushirish rejasining bajarilish haqidagi hisoboti" shakli bo'yicha tuzilgan oylik va yillik statistik hisobotlar asosida tahlil qilinadi.

1-sonli-KS shakli bo'yicha hisobot mustaqil balansga ega bo'lgan barcha qurilish tashkilotlari tomonidan tuziladi.

Ishlab chiqarish dasturi bajarilishining tahlili uchun manbalar sifatida shuningdek biznes-reja, titul ro'yxatlari, obyektlarni ishga tushirishga qabul qilish dalolatnomalari va h.ning ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Bundan tashqari, tahlil uchun joriyhisob va hisobdan tashqari ma'lumotlar ham qo'llaniladi. Masalan, alohida obyektlarning tayyorligini tahlil qilish uchun qurilish

obyektlari bo‘yicha bajarilgan ishlar jurnalidan ma’lumotlar olinadi. Bu ko‘rsatkich obyektning qurilishi boshlanganidan beri bajarilgan QMI (qurilish-montaj ishlari) qiymatining ishlarning smeta qiymatiga bo‘lgan nisbati sifatida aniqlanadi.

## ***2.2. Pudrat ishlarini ish hajmi bo‘yicha biznes-rejaning bajarilishi tahlili***

Qurilish-montaj tashkiloti bo‘yicha ishlab chiqarish dasturi bajarilishining umumlashtiruvchi qo‘rsatkichi bo‘lib, pudrat ishlari hajmi bo‘yicha biznes-rejaning bajarilishi hisoblanadi. Pudrat QMI biznes-rejasiga loyiha-smeta hujjatlari, moliyalashtirish, moddiyresurslar va uskunalar bilan ta’minlangan obyektlar, texnologik bosqichlar, majmualar va ayrim ishlar turlari kiritiladi. QMI umumiyhajmi moddiy-texnika resurslari, mehnatga haq to‘lash fondi va aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Tahlil jarayonida tugallangan qurilish obyektlari va bosh pudratchining umumiyhajmi bo‘yicha pudrat ishlari biznes-rejasining tahlil qilinayotgan davrda bajarilishi aniqlanadi. QMI biznes-rejasining bosh pudratchi tashkilotning o‘zining kuchi va jalb qilingan tashkilotlar (subpudratchi) kuchi bilan bajarilish darajasi aniqlanadi. QMI biznes-rejasining bajarilish darajasi QMIning smeta qiymati bo‘yicha haqiqatda bajarilgan hajmi o‘tgan davr biznes-rejasi ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanadi. QMI umumiy hajmi bo‘yicha biznes-rejaning bajarilishi tahlili quyidagi ikkita yo‘nalishda amalga oshiriladi:

- 1 QMI biznes-rejasining bosh pudratchi kuchi bilan bajarilishiga baho beriladi.
2. QMI biznes-rejasining alohida buyurtmachilar kesimida bajarilishiga baho beriladi.

Tahlilda 1-sonli-KS shaklining III-bo‘limi “Quvvatlarni ishga tushirish rejasi va pudrat ishlari rejasi bajarilishi to‘g‘risida hisobot” va hisobdan tashqari materiallar (tushuntirish xatlari, bildirishnomalar, ishlarni bajarish grafigi, buyurtmachilar va subpudratchilar) qo‘llaniladi. 2.1. jadval misolida QMI hajmi bo‘yicha biznes-rejaning bajarilishini ko‘rib chiqamiz.

2.1. jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turganidek, qurilish tashkiloti tomonidan o'z kuchi bilan QMI umumiyligi hajmidan 55,5 foiz bajarilgan [109 610\*100/197 540], subpudratchilar tomonidan esa 44,5 foiz [87 930\*100/197 540].

Odatda subpudratchilar tomonidan qurilish maydonchasi dagi tayyorgarlik ishlari o'z ichiga olgan nol tsikli ishlari bajariladi (poydevor, aloqa, pardozlash ishlari va h.).

QMI dasturi umuman olganda 12 490 ming so'mga yoki 5,9 foizga bajarilmagan.

Biznes-rejaning bajarilmaganligi subpudratchi tashkilotlarning qoniqarsiz ishi bilan bog'liq bo'lib, ular tomonidan bajarilgan ishning haqiqatdagi hajmi biznes-rejadan 13 700 ming so'mga yoki 13,5 foizga kam chiqdi. Bosh pudratchiga kelsak, u vazifaning uddasidan chiqqan.

Biznes-rejaning bajarilmaganligi subpudratchi tashkilotlarning qoniqarsiz ishi bilan bog'liq bo'lib, ular tomonidan bajarilgan ishning haqiqatdagi hajmi biznes-rejadan 13 700 ming so'mga yoki 13,5 foizga kam chiqdi. Bosh pudratchiga kelsak, u vazifaning uddasidan chiqqan.

QMI biznes-rejasini bajarilishini baholashda shuni ko'zda tutish kerakki, smeta qiymati bo'yicha ishlar hajmi ko'rsatkichi qurilish tashkiloti jamoasining urinishlarini etarlicha tavsiflayolmaydi. Ko'p material talab qiladigan ishlar hissasi qanchalik yuqori bo'lsa, ishlar hajmi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Shuning uchun ayrim qurilish tashkilotlari smeta qiymatida materiallar qiymati katta ulushni tashkil qilgan «foydaliroq» ishlarni amalga oshirishadi. Bunda qurilish ishlab chiqarishining texnologik jarayoni, obyektlarni foydalanishga topshirish muddatlari buziladi, sifat pasayyadi va h. Shuning uchun kapital qurilishda IMQ (ishlarning me'yoriyqiymati) ko'rsatkichini qo'llash maqsadga muvofiq. IMQ quyidagicha hisoblanadi: ishlarning smeta qiymatidan rejali jamg'armalar va asosiy materiallarga xarajatlar ayrıldi. Keyin pudrat ishlari biznes-rejasining bajarilishi tahlili alohida buyurtmachilar kesimida olib boriladi.

## 2.1- jadval

### Pudrat ishlari biznes-rejasining bajarilishi tahlili. Smeta qiymati bo‘yicha (ming so‘m)

Nº t/r	Ko‘rsatkichlar	Biznes-reja bo‘yicha	Haqiqatda	Mutlaq farq (+;-)	Biznes-reja bajarilishi, foizda
A	B	1	2	3	4
I	Jami pudrat ishlari Shu jumladan: 1. Markazlashgan kapital qo‘yilmalar davlat rejasida ko‘zda tutilgan obyektlar bo‘yicha Ulardan: A) bosh shartnomalar bo‘yicha B) to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha 2. Markazlashtirilma-gan manbalar hisobidan qurilayotgan obyektlar bo‘yicha 3. Kapital ta’mir	210 030 191 200  191 200 - 17 830 1 000	197 540 180 100  180 100 - 16 440 1 000	-12 490 -11 100  -11 100 - -1 390 -	94,1 94,2  94,2 - 92,2 100
II	Ishlarning umumiyajmidan bajarilgani: A) o‘z kuchi bilan B) subpudratchi tashkilotlar tomonidan	108 400 101630	109 610 87930	+1 210 -13700	101,1 86,5

Pudrat ishlari biznes-rejasi nafaqat trest bo‘yicha, balki har bir buyurtmachi bo‘yicha bajarilganida qurilish tashkilotining ishini me’yoriy deb hisoblasa bo‘ladi.

### 2.3. Mehnat omillarining tahlili

QMI hajmiga ko‘pgina omillar ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun omillarning ta’sirini o‘rganishni osonlashtirish maqsadida ularni muayyan iqtisodiybelgilari bo‘yicha guruhlash lozim. Sanoatdagi kabi, QMI hajmiga ta’sir qiluvchi omillar 3ta guruhga biriktirilgan:

1. Mehnat omillari (qurilishlarning ishchi kuchi bilan ta’minlanganligi va mehnat unumдорлигиги).

2. Mehnat vositalari omillari (qurilishlarning mashinalar, mexanizmlar bilan ta'minlanganligi va ularning samarali ishlatalishi).

3. Mehnat ashyolari omillari (qurilishlarning materiallar bilan ta'minlanganligi va ularning samarali qo'llanilishi)

Sanoatdagi kabi qurilishda qurilish dasturining bajarilishi ishchi kuchi mavjudligini va qo'llanilishini aniqlashdan boshlanadi. Mehnat biznes-rejasi turli toifadagi ishchilarning o'rta hisobdagi son ko'rsatkichlarini, kunlarda ko'rsatilgan ish vaqtin fondini, mehnat unumdarligi ko'rsatkichlari va h.ni o'z ichiga oladi. Ushbu sohadagi tahlil usullari ko'p jihatdan sanoat korxonasining tahliliga o'xshab ketadi.

Bu yerda sanoatdagi kabi, avvalo xodimlar tuzilishini aniqlanadi, ishchilar soni ko'rsatkichini haqiqatda bajarilgan QMI hajmi bilan bog'lanadi, mehnat unumdarligi bo'yicha biznes-rejaning bajarilishi, ish vaqtining qo'llanilishi baholanadi va mehnat omillarining qurilish dasturi bajarilishiga ta'siri umumlashtiriladi. Tahlil uchun ma'lumot 3-sonli-T shaklli «Qurilishda mehnat bo'yicha hisobot»dan olinadi. Qurilishda mehnat bo'yicha rejaning asosiyqismi mehnat unumdarligi hisoblanib, ular quyidagicha o'rnatiladi:

- 1. Bitta xodimning o'rtacha ish mahsuli.**
- 2. Bitta ishchining o'rtacha ish mahsuli.**
- 3. Bitta ishchining o'rtacha kunlik ish mahsuli.**

#### **Mehnat unumdarligini tahlil qilish uchun 2.2. tahliliy jadvalni keltiramiz.**

2.2. jadvaldan ko'rinish turganidek, hisobot yilda bitta ishlayotganga to'g'ri keladigan haqiqatdagi o'rtacha yillik ish mahsuli biznes-rejaga qaraganda 928 so'm 56 tiyinga yoki 1,3 foizga oshgan. Bitta ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha ish mahsuli biznes-rejaga qaraganda 554 so'm 96 tiyinga yoki 0,64foizga oshgan. Bitta ishlayotganga va ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish mahsuli o'sish sur'atlarida farq xodimlar umumiyyonida ishchilar ulushining o'zgarishi bilan tushuntiriladi. Bitta ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha kunlik ish mahsuli 54 so'm 81 tiyinga yoki 15,43 foizga oshgan.

Bitta ishchiga to'g'ri keladigan yillik va o'rtacha kunlik ish mahsulining o'sish sur'atlaridagi farq (100,64 foiz; 115,43 foiz) ishchi vaqtining kunlik yo'qotishlari mavjudligi bilan tushuntiriladi. Shunday qilib, bir yilda har bir ishchi tomonidan 31,4 kun ishlanmasdan qolgan. 2.2. jadval ma'lumotlaridan yana shuni ko'rsa bo'ladiki,

hisobot yilida QMI hajmi biznes-rejaga nisbatan 2180 ming so‘mga yoki 2 foizga kamaygan. Bu kamayishga 2 ta omil ta’sir ko‘rsatgan. Quyida keltirilgan omillar o‘zgarishining ta’sirini mutlaq farq usuli bilan aniqlaymiz.

1. QMIda band bo‘lgan ishlovchilar o‘rtacha ro‘yxatdagi sonining o‘zgarishi (ekstensiv omil). –  $53 \times 68638,32 = 3637,8$  ming so‘m.

2. Mehnat unumdorligining o‘zgarishi (intensiv omil).  $+928,56 \times 1570 = +1457,8$  ming so‘m.

Omillar muvozanati:  $(-3637,8) + (+1457,8) = -2180$  ming so‘m.

Bu summa QMI hajmi bo‘yicha mutlaq farq summasi bilan to‘liq to‘g‘ri keladi (1280 ming so‘m). Endi yuqorida ko‘rsatilgan omillar o‘zgarishining ta’sirini zanjirli o‘rin almashtirish usuli bilan aniqlaymiz.

## 2.2- jadval.

### **Qurilish tashkilotida mehnat unumdorligi tahlili**

№ t/r	Ko‘rsatkichlar	O‘lch. birl.	Biznes-reja bo‘yicha	Haqiqatda	Farq	
					Mutlaq (+,-)	foiz
1.	Smeta qiymati bo‘yicha tugallanmagan qurilish qoldig‘ining o‘zgarishini hisobga olgan holda QMI hajmi (o‘z kuchi bilan)	ming so‘mda	111 400	109 220	-2 180	-2
2.	QMIda o‘rtal hisobdagagi ishlovchilar soni	kishi	1 623	1 570	-53	-3,3
3.	Shu jumladan ishchilar	kishi	1 280	1 247	-33	-2,6
4.	Barcha ishchilarning bir yilda ishlagan kishi /kunlari umumiymiqdori	kishi /kunlar	313 600	266 366	-47 234	-15,1
5.	Bitta ishchining bir yilda ishlagan o‘rtacha kishi /kunlar miqdori	kunlar	245	213,6	-31,4	-12,8
6.	Bitta ishlovchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha ish mahsuli (1-qator/2-qator)	so‘mda	68638,32	69566,88	928,56	+1,3
7.	Bitta ishchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yillik ish mahsuli (1-qator/3-qator)	so‘mda	87031,25	87586,21	554,96	+0,64
8.	Bitta ishchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha kunlik ish mahsuli (1-qator/4-qator)	so‘mda	355,23	410,04	54,81	+15,43
9.	Ishchilarning ishlovchilar tarkibidagi ulushi (3-qator/2-qator)	foiz	78,86	79,42	0,56	+0,72

Bitta ishchiga to‘g‘ri keladigan yillik va o‘rtacha kunlik ish mahsulining o‘sish sur’atlaridagi farq (100,64 foiz; 115,43 foiz) ishchi vaqtining kunlik yo‘qotishlari mavjudligi bilan tushuntiriladi. Shundayqilib, bir yilda har bir ishchi tomonidan 31,4 kun ishlanmasdan qolgan. 2.2. jadval ma’lumotlaridan yana shuni ko‘rsa bo‘ladiki, hisobot yilida QMI hajmi biznes-rejaga nisbatan 2180 ming so‘mga yoki 2 foizga kamaygan. Bu kamayishga 2 ta omil ta’sir ko‘rsatgan. Quyida keltirilgan omillar o‘zgarishining ta’sirini mutlaq farq usuli bilan aniqlaymiz.

- QMIda band bo‘lgan ishlovchilar o‘rtacha ro‘yxatdagi sonining o‘zgarishi (ekstensiv omil). –  $53 \times 68638,32 = 3637,8$  ming so‘m
- Mehnat unumdorligining o‘zgarishi (intensiv omil).  $+928,56 \times 1570 = +1457,8$  ming so‘m.

Omillar muvozanati:  $(-3637,8) + (+1457,8) = -2180$  ming so‘m.

Bu summa QMI hajmi bo‘yicha mutlaq farq summasi bilan to‘liq to‘g‘ri keladi (1280 ming so‘m). Endi yuqorida ko‘rsatilgan omillar o‘zgarishining ta’sirini zanjirli o‘rin almashtirish usuli bilan aniqlaymiz.

Hisobning tartib raqami	O‘rin almashtirishning tartib raqami	Hisoblash formulasiga kiruvchi omillar		Umumlashtirilgan ko‘rsatkichi - QMI (ming so‘m)	Avvalgi hisobdan farq	O‘zgarishi sabablari
		Ishlov-chilar soni	Mehnat unumdorligi			
A	B	1	2	3	4	5
1	-	1623	68638,32	111400	-	-
2	1	1570	68638,32	107762	-3638	Ishchi kuchi etishmasligi
3	2	1570	69566,88	109220	+1458	Mehnat unumdorliginin g o‘sishi

Omillar muvozanati: - 2180 ming so‘m.

2.2. jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turganidek, hisobot yilida mehnat unumdorligining haqiqatdagi darjasini biznes-rejaga qaraganda 928 so‘m 56 tiyinga oshgan. Bu o‘sishga 2ta omil ta’sir ko‘rsatgan:

1. Ishlayotganlar soni umumiy tarkibida ishchilar ulushining o‘zgarishi:  $+0,56 \times 87031,25 : 100 = +487$  so‘m 37 tiyin yoki  $487 \times 100 : 928,56 = 52,5$  foiz mehnat unumdarligining o‘sishi ekstensiv omil hisobiga, ya’ni ishlayotganlar tarkibida ishchilarning ulushini oshirish natijasida olingan.

2. Bitta ishchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha ish mahsuli mehnat unumdarligining  $+554,96 \times 79,42 : 100 = +440$  so‘m 74 tiyin yoki  $440,74 \times 100 : 928,56 = 47,5$  foizga o‘sishi intensiv omil hisobiga, ya’ni, bitta ishchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha ish mahsulini oshirish natijasida olingan.

Ikkita omilning yig‘indi ta’siri:  $487,37 + 440,74 = 928,11$  bo‘lib, bu mehnat unumdarligi darajasining oshish summasiga deyarli teng ( $928,56$ ), 45 tiyin farq ( $928,56 - 928,11$ ) ma’lumotlarni yaxlitlash hisobidan sodir bo‘ldi. Ushbu omillarning ta’siri foiz ko‘rinishida 100 foizni tashkil qiladi ( $52,5 + 47,5$ ).

Shunday qilib, mehnat unumdarligining 52,5 foizga o‘sishi intensiv omil hisobiga va 47,5 foizi – ekstensiv omil hisobiga olingan. Bunday nisbat nomuvofiq hisoblanadi. Bizningcha, qurilish tashkilotlari QMI hajmining va mehnat unumdarligining 80-90 foizga o‘sishini intensiv omil hisobiga olishi kerak.

#### ***2.4. Mehnat vositalari omillarining tahlili***

Qurilishda sanoatdagi kabi asosiy fondlar ikkita guruhga bo‘linadi: ishlab chiqarish va noishlab chiqarish. O‘z navbatida ishlab chiqarish fondlari shuningdek ikkita qismga bo‘linadi: aktiv va passiv.

Aktiv qismiga qurilish mashinalari va uskunalar, kuch mashinalari va uskunalar, transport vositalari va h., ya’ni ishlab chiqarish (ishlar va xizmat ko‘rsatish) jarayonida bevosita ishtirok etuvchi boshqa mehnat vositalari, passiv qismiga esa – bino va inshootlar kiradi.

Asosiy fondlar tahlilining asosiy vazifalari quyidagicha:

- Asosiy ishlab chiqarish fondlarining tarkibini, o‘sishi va texnik holatini aniqlash;
- qurilish tashkilotining qurilish mashinalari va mexanizmlari bilan ta’minlanganlik darajasini aniqlash;

- QMIni mexanizatsiyalashtirish va sanoatlashtirish darajasini aniqlash;
- qurilish mashinalari parkidan vaqt va quvvat bo'yicha foydalanish darajasini aniqlash;
- umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar (fond samarasi va fond sig'imi) asosida asosiyishlab chiqarish fondlaridan foydalanish darajasini aniqlash.

Quyidagilar asosiy fondlar tahlili uchun ma'lumot manbai bo'lib hisoblanadi:

- 3-sonli shakl «Asosiy vositalar harakati to'g'risida hisobot»;
- 1-nt-sonli shakl (qurilish) «Qurilishni mexanizatsiyalashtirish va qurilish mashinalarining ishlatilishi to'g'risida hisobot», quvvat bo'yicha – 12-sonli shakl (qurilish) «Asosiy qurilish mashinalarining mavjudligi va tarkibi».

Qurilish tashkilotlarining asosiy fondlarini ishlatish tarkibi, harakati, texnik holati va samarasi sanoat va moddiyishlab chiqarishning boshqa tarmoqlari ko'rsatkichlarining tahlilidan kam farq qiladi.

Xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlaridagi kabi qurilishda ham asosiyfondlarning texnik holati ularning eskirish, yangilanish, ishdan chiqish va yaroqlilik koeffitsienti bilan tavsiflanadi. Bu koeffitsientlarni hisoblash usullari sanoatdagi kabi amalga oshiriladi.

Hisoblash usullarining ajralib turuvchi xususiyati fond samarasi bilan bog'liq. Qurilishda fond samarasi o'z kuchi bilan bajarilgan QMI hajmini xususiyva ijara ga olingan asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish orqali hisoblanadi.

Fond samarasi ko'rsatkichi bilan bir qatorda, asosiyfondlardan foydalanish samarasini tavsiflash uchun unga teskari bo'lgan ko'rsatkich fond sig'imi ko'rsatkichi qo'llaniladi.

2.3. jadvalda keltirilgan ma'lumotlar bo'yicha asosiy fondlarning fond samarasi ko'rsatkichi bo'yicha ko'rib chiqamiz. 2.3. jadvaldan ko'rinish turganidek, hisobot yilda o'z kuchi bilan bajarilgan QMI hajmi 2180 ming so'mga bajarilmagan. Bu pasayishga ikkita omil o'z ta'sirini ko'rsatgan:

1. Asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi:  
- $1290 \times 6715 = -8662,3$  ming so'm.
2. Umumiylondan samarasining o'zgarishi:  $+423 \times 15300 = 6471,9$  ming so'm.

3. Omillar muvozanati: (-8662,3)+(+6471,9)=-2190,4 ming so‘m. Bu summa pudrat ishlari hajmi bo‘yicha mutlaq farq summasiga deyarli teng (-2180 ming so‘m). +10,4 ming so‘mni tashkil qilgan farq hisoblashda ma’lumotlarni yaxlitlash bilan tushuntiriladi. Shundayqilib, hisobot yilda fond samarasini darajasining ko‘tarilishi natijasida pudrat ishlari hajmi 6471,9 ming so‘mga oshgan bo‘lib, bu ijobiyholat hisoblanadi.

Shuningdek 2.3. jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, hisobot yilda asosiy fondlarning bir ming so‘midan olingan fond samarasini 423 so‘mga ko‘paygan. Bu ko‘payishga 2 ta omil o‘z ta’sirini o‘tkazgan:

1. Asosiy fondlar umumiyligi qiyamatida uning aktiv qismi ulushining o‘zgarishi: umumiyligi fond samarasining  $+0.0277 \times 9489 = +262$  so‘m 85 tiyin yoki 62 foiz ( $(262,85 \times 100 : 423)$ ) ga o‘sishi ekstensiv omil hisobiga olingan.

2. Asosiy fondlar aktiv qismi bir ming so‘midan olingan fond samarasining o‘zgarishi: umumiyligi fond samarasining  $+219 \times 0,7353 = 161$  so‘m yoki 38 foiz ( $(161 \times 100 : 423)$ ) ga o‘sishi intensiv omil hisobiga olingan.

2. Asosiy fondlar aktiv qismi bir ming so‘midan olingan fond samarasining o‘zgarishi: umumiyligi fond samarasining  $+219 \times 0,7353 = 161$  so‘m yoki 38 foiz ( $(161 \times 100 : 423)$ ) ga o‘sishi intensiv omil hisobiga olingan.

Ikkita omilning umumiyyat siri:  $+423$  so‘m 25 tiyin ( $(262,85 + 161)$ ).

Shunday qilib, yuqorida ko‘rsatilgan omillarning o‘zaro nisbatlari (62 foiz, 38 foiz) ijobiyholat hisoblanmaydi, sababi umumiyligi fond samarasining 38 foiz o‘sishi intensiv omil hisobiga, ya’ni asosiyfondlar aktiv qismidan olingan fond samarasini oshirish natijasida sodir bo‘lgan.

Fond samarasining tahliliga alohida e’tibor qaratish lozim, sababi keyingi yillarda bu samarali ko‘rsatkichda pasayish tamoyili mavjud. Qurilishda fond samarasini pasayishining asosiysabablari quyidagicha: qurilishning uzoq muddatlari; kapital qo‘yilmalarning, modiiyva mehnat resurslarining sarflanib ketishi; moddiy-texnika ta’mintonining va ishlab chiqarishni tashkil qilishning kamchiliklari; mashina parkining yuqori darajada eskirganligi va h.

Qurilish ishlab chiqarishining o‘ziga xos xususiyati bu qurilishlarda muayyan fondlar guruhlari mavjudligi bo‘lib, ular qo‘llanilish tavsifiga qarab ham asosiy, ham aylanma mablag‘larga tegishli bo‘lishi mumkin. Bular notitul inshootlar deya atalib, qurilish (havozalar, taxta supalar va h.) jarayoniga xizmat ko‘rsatadilar.

## 2.3-jadval

### **Asosiy fondlardan samarali foydalanishni tahlili**

Nº t/r	Ko‘rsatkichlar	O‘lch. birl.	Biznes- reja bo‘yicha	Haqiqatda	Mutlaq farq (+,-)
A	B	V	1	2	3
1.	Smeta qiymati bo‘yicha o‘z kuchi bilan bajarilgan QMI hajmi	ming so‘mda	111400	109220	-2180
2	Asosiyvosalarning o‘rtacha yillik qiymati	ming so‘mda	16590	15300	-1290
3.	SHu jumladan aktiv qismi.	ming so‘m	11740	11250	-490
4.	Asosiyfondlarning bir ming so‘midan fond samarasi (1-qator/2-qator)	so‘m	6715	7138	+423
5.	Asosiyfondlar aktiv qismining bir ming so‘midan fond samarasi (1-qator/3-qator)	so‘m	9489	9708	+219
6.	Asosiyfondlar aktiv qismining asosiyfondlar umumiyqiymatidagi ulushi (3q:2q)	koef.	0,7076	0,7353	+0,0277

Agar ular bir marta qo‘llanilsa, unda ular aylanma mablag‘lar hisoblanib, ularning qiymati to‘laligicha qurilgan obyektga o‘tkaziladi. Agarda notitul inshootlar bir nechta ishlab chiqarish tsikllari davomida qo‘llanilsa, unda ularning qiymati qurilish obyektlariga qismlab o‘tkaziladi va o‘z tabiatiga ko‘ra ular asosiy ishlab chiqarish fondlari hisoblanadi.

Asosiy fondlardan foydalanish samarasi, birinchidan alohida mashina va mexanizmlarning samarali qo‘llanilishi hisobidan; ikkinchidan, qo‘llanilish tezligini oshirish, yangi texnikani, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil qilishning ilg‘or

usullarini kiritish, qurilish ishlarining mexanizatsiyalashtirish va sanoatlashtirish darajasini oshirish evaziga sodir bo‘ladi.

## ***2.5. Qurilish ishlarini mexanizatsiyalashtirish va sanoatlashtirish bo‘yicha biznes-rejaning bajarilishining tahlili***

Qurilishda mehnat unumdorligining uzlucksiz o‘sishi mezanzatsiyalashtirish vositalarini kiritishdan, harakatdagi mashinalar quvvatini oshirishdan, ularning vaqt bo‘yicha ishlatalishidan va yig‘ma tuzilmalarning qo‘llanilishiga bog‘liq. Dastlabki baho mexanizatsiyalashtirish darajasi ko‘rsatkichi bo‘yicha beriladi. Mexanizatsiyalashtirish darajasi – mashina va mexanizmlar tomonidan bajarilgan ishlar hajmining umumiylar ishlar hajmiga nisbati tariqasida aniqlanadi.

Tahlilda umumiylar ishlar hajmi asosiy turlarining rejadagi va haqiqatdagi mexanizatsiyalashgan darajasi, shu jumladan alohida ishlarning kompleks mexanizatsiyalashtirish darajasi taqqoslanadi. Bunda Umr ham qisman, ham to‘liq mexanizatsiyalashgan ishlarni hisobga oladi, Umk ko‘rsatkichi esa – faqatgina barcha asosiy va yordamchi operatsiyalari mashina va mexanizmlar yordamida bajarilgan ishlarni hisobga oladi. Binobarin, farq [100-Umr] – qo‘lda bajarilgan ishlar darajasini tavsiflaydi.

Masalan: yer ishlari umumiyhajmi 83 ming m<sup>3</sup>. Ulardan 80 ming m<sup>3</sup> ekskavatorlar tomonidan bajarilgan. Bundan er ishlarining mexanizatsiyalashtirish darajasi quyidagicha:

**80000 m<sup>3</sup>x100**

**\_\_\_\_\_ = 96,5 foiz**

**83000**

Mexanizatsiyalashtirish darajasi tahlili alohida mashina va mexanizmlar mavjudligi hamda qo‘llanilishi tahlili bilan to‘ldiriladi. Shu maqsadda harakatdagi mashina va mexanizmlarning o‘rtacha ro‘yxatdagi ko‘rsatkchilari, hisobot davrida bitta mashinaga to‘g‘ri keladigan ish mahsuli aniqlanadi va mashinalar soni va ularning ish mahsulining ishlar hajmiga o‘zaro ta’siri o‘rganiladi.

- 1) mashinalar soni o‘zgarishining ta’siri mashinalar sonidagi farqning bitta mashinaga to‘gri keladigan rejadagi o‘rtacha yillik ish mahsuliga ko‘paytirish orqali aniqlanadi.
- 2) ish mahsulining ta’siri hisobot va biznes-rejadagi ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha farqni mashinalarning haqiqatdagi o‘rtacha ro‘yxatdagi soniga ko‘paytirish orqali aniqlanadi.

Bundan kelib chiqadiki, er ishlari biznes-rejasining ortig‘i bilan bajarilishiga quyidagilar ta’sir qiladi:

1. Ekskavatorlar sonining o‘zgarishi:

$$+3 \times 3160 \text{ m}^3 = +9480 \text{ m}^3.$$

2. Bitta ekskavatorga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha ish mahsulining o‘zgarish:

$$-196 \text{ m}^3 \times 28 = -5488 \text{ m}^3.$$

$$\text{Jami farq } (+9480) + (-5488) = +4000 \text{ m}^3.$$

#### 2.4- jadval

#### Alohiba mashinalar va mexanizmlar mavjudligi va qo‘llanilishining tahlili

Nº t/r	Ko‘rsatkichlar	Biznes-reja bo‘yicha	Hisobot bo‘yicha	Farq (+,-)
1.	Yer ishlari hajmi, m <sup>3</sup>	79000	83000	+4000
2.	Ekskavatorlarning o‘rtacha ro‘yxat soni	25	28	+3
3.	Bitta ekskavatorga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha ish mahsuli (1-qator/2-qator)	3160	2964	-196

Shundayqilib, qurilish tashkilotining mexanizmlarni qo‘llashdagi faoliyatini salbiybaholash lozim, yer ishlari hajmi 4000 m<sup>3</sup>ga ortig‘i bilan bajarilgan bo‘lsa ham, bu o‘sish faqat ekstensiv omil hisobiga, ya’ni ekskavatorlar sonini oshirish natijasida olingan, bitta ekskavatorga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha ish mahsulining kamayishi sababli yer ishlari hajmi 5488 m<sup>3</sup>ga kamaydi.

Mashinalar, mexanizmlar, asboblar, transport bilan ta’minlanganlik qurilishni mexanizatsiyalashtirishga jiddiy ravishda darajada ta’sir qiladi. Bu qismda ishlab chiqarish va mehnatning mexanik qurollanganlik, asosiy fondlar tuzilishi, ularning

eskirishi, yangilanishi, muomaladan chiqarilishi va shunga o‘xshash ko‘rsatkichlar bo‘yicha tahlil o‘tkaziladi.

Qurilish ishlab chiqarishi texnik rivojlanishining asosi bu uning sanoatlashtirilishidir, ya’ni bloklar, qurilmalar hamda bino va inshootlarning yirik o‘lchamli tarkibiyqismlarini keyinchalik qurilish maydonchalarida mexanizatsiyalashtirilgan yig‘ilishini ko‘zda tutgan holda zavod sharoitlarida tayyorlashdir.

Sanoatlashtirish darajasi – bu qo‘llanilgan yig‘ma tuzilmalar va qismlar qiymatining moddiyxarajatlar umumiy summasiga bo‘lgan foizli nisbati. Qurilish mahsulotining yig‘ilish darajasi qanchalik baland bo‘lsa, uning sanoatlashtirilish darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi. Sanoatlashtirish mehnat unumdorligini bir necha bor oshirish, qurilish muddatlarini tezlashtirish imkonini beradi, uning sifatini oshirishga va QMI tannarxining pasayishiga olib keladi.

## ***2.6. Qurilishni moddiy resurslar bilan ta’minlanishi va ulardan samarali foydalanishning tahlili***

Qurilish tashkilotining ishlab chiqarish dasturini muvaffaqiyatli bajarish sezilarli darajada aniq moddiy-texnika ta’minotiga, ya’ni materiallar, yig‘ma tuzilmalar, qismlar va boshqa mehnat vositalari mavjudligi va qo‘llanilishiga bog‘liq.

Qurilishda avvalo ularning obyektni ishga tushirishga ta’siri o‘rganiladi. Shuningdek quyidagi xususiyatlarni ham hisobga olish kerak: qurilishni materiallar bilan ta’minalashda buyurtmachilarining, bosh pudratchilarining va sub-pudratchilarining ishtiropi va majburiyatları, pudratchida eritma, beton, yig‘ma temir-beton mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha xususiy bazasi mavjudligi va h.

Moddiy-texnika ta’minoti (MTT) bo‘yicha biznes-rejaning bajarilishi va uning qurilish tashkilotining ishlab chiqarish faoliyatiga ta’siri sanoatdagagi kabi amalga oshiriladi.

Shunday qilib, moddiy resurslardan foydalanish samarasini tavsiflovchi ko‘rsatkich bu QMIning umumiy sermaterialligi bo‘lib, u sarf qilingan

moddiyresurslar qiyematining qurilish tashkilotining o‘z kuchi bilan bajarilayotgan QMI hajmiga nisbati bilan aniqlanadi.

Moddiy resurslardan foydalanish samarasini tavsiflash uchun material samarasi ko‘rsatkichiga qarama-qarshi bo‘lgan material sig‘imi ko‘rsatkichi qo‘llaniladi.

Moddiy resurslardan foydalanishning samarasini tahlil qilish manbalari quyidagilar:

- M-29-sonli shakl “Qurilishda materiallar sarfi to‘g‘risida hisobot” bo‘lib, unda qurilish obyektlari va ishlar turlari, haqiqatda bajarilgan ishlar miqdori, har bir ish turining birligiga va umumiyish hajmiga xarajat me’yori sanab o‘tiladi;

- 2-S-sonli shakl “QMI tannarxi to‘g‘risida hisobot”;

- 2-sonli shakl “Moliyaviynatijalar to‘g‘risida hisobot”;

2.5. jadvalda keltirilgan ma’lumotlar bo‘yicha moddiyresurslardan foydalanish samarasini ko‘rib chiqamiz. 2.5. jadvalning ma’lumotlaridan ko‘rinib turganidek, hisobot yilida o‘z kuchi bilan bajarilgan QMI hajmi biznes-rejaga qaraganda 2180 ming so‘mga yoki 2,1 foizga kamaygan. Bu kamayishga quyidagi ikkita omil ta’sir ko‘rsatgan:

1) moddiy xarajatlarning o‘zgarishi (ekstensiv omil):

$$+3450 \times 1,8770 = +6475,6 \text{ ming so‘m};$$

2) material samarasining o‘zgarishi:  $-0,1378 \times 62800 = -8653,8 \text{ ming so‘m}$ , jami farq  $(+6475,6) + (-8653,8) = -2178,2 \text{ ming so‘m}$ .

Shunday qilib, moddiy xarajatlar o‘sishi hisobiga QMI hajmi 6475,6 ming so‘mga oshdi, material samarasining kamayishi natijasida ishlar hajmi 8653,8 ming so‘mga kamaydi. Bu shuni bildiradiki, QMI hajmi bo‘yicha biznes-rejaning bajarilishiga faqatgina ekstensiv yo‘l bilan, ya’ni moddiy xarajatlarni oshirish hisobiga erishilmoqda.

Shuningdek 2.5. jadvaldan ko‘rinib turibdiki, qurilish tashkiloti bo‘yicha hisobot yilida bajarilgan QMIning 1 so‘miga moddiy xarajatlarning ortiqcha sarfi 4 tiyinni tashkil qildi.

2.5. jadvalning ma'lumotlaridan ko'rinish turganidek, hisobot yilida o'z kuchi bilan bajarilgan QMI hajmi biznes-rejaga qaraganda 2180 ming so'mga yoki 2,1 foizga kamaygan. Bu kamayishga quyidagi ikkita omil ta'sir ko'rsatgan:

1) moddiyxarajatlarning o'zgarishi (ekstensiv omil):

$$+3450 \times 1,8770 = +6475,6 \text{ ming so'm};$$

2) material samarasining o'zgarishi:  $-0,1378 \times 62800 = -8653,8 \text{ ming so'm}$ , jami farq  $(+6475,6) + (-8653,8) = -2178,2 \text{ ming so'm}$ .

Shunday qilib, moddiy xarajatlar o'sishi hisobiga QMI hajmi 6475,6 ming so'mga oshdi, material samarasining kamayishi natijasida ishlar hajmi 8653,8 ming so'mga kamaydi. Bu shuni bildiradiki, QMI hajmi bo'yicha biznes-rejaning bajarilishiga faqatgina ekstensiv yo'l bilan, ya'ni moddiy xarajatlarni oshirish hisobiga erishilmoqda.

### 2.5- jadval Qurilish tashkilotida moddiy resurslardan foydalanish samarasi tahlili

Nº t/r	Ko'rsatkichlar	O'ch. birl.	Biznes-reja bo'yicha	Haqiqatda	Mutlaq farq (+,-)
A	B	V	1	2	3
1.	O'z kuchi bilan bajarilgan QMI hajmi	ming so'm	111400	109220	-2180
2.	Moddiyxarajatlar	ming so'm	59350	62800	+3450
3.	Material sig'imi (2-qator:1-qator)	tiyin	53	57	+4
4.	Moddiyxarajatlarning bir so'miga bajarilgan QMI hajmi (material samarasi) (1-qator:2-qator)	so'm	1,8770	1,7392	0,1378

Shuningdek 2.5. jadvaldan ko'rinish turibdiki, qurilish tashkiloti bo'yicha hisobot yilida bajarilgan QMIning 1 so'miga moddiy xarajatlarning ortiqcha sarfi 4 tiyinni tashkil qildi.

Materiallarning ortiqcha sarfi natijasida QMI hajmi 4368,8 ming so'mga ( $0,04 \times 109220$ ) kamaydi. Bu qurilish tashkilotida moddiy xarajatlarni kamaytirish bo'yicha kurash olib borilmayotganligini bildiradi.

Shulardan kelib chiqqan holda har bir qurilish tashkilotining asosiy vazifasi – bu iqtisod qilish, QMI tannarxini pasaytirish tartibiga qat'iyrioya qilish. Shu bois, inqirozga qarshi choralar dasturining konkret bo'limlari – belgilangan kompleks

chora – tadbirlar majmuasida, ayniqsa, “qat’iy tejamkorlik tizimini joriyetish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag’batlantirish hisobidan korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish ko‘zda tutilgan.shu maqsadda yaqinda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning iqtisodiyotdagi etakchi tarmoq va sohalarda mahsulot tannarxini kamida 20 foiz ga tushirishga qaratilgan chora – tadbirlarni amalga oshirish”<sup>5</sup> ko‘zda tutilgan .

## ***2.7 Qurilish montaj ishlari tannarxi tahlili***

QMI tannarxi deganida qurilish tashkilotining QMIni bajarishga va buyurtmachiga obyektlar va ishlar majmuasini topshirishga bo‘lgan pul xarajatlari tushuniladi.

QMI tannarxi sifat ko‘rsatkichi bo‘lib, uning pasayishi qurilish dasturi biznes-rejasi bajarilishidagi kabi omillarga bog‘liq: ishchi kuchidan, mexanizatsiyalashtirish vositalaridan va qurilish materiallaridan, QMIni sanoatlashtirish va mexanizatsiyalashtirishdan oqilona foydalanish va h. QMI tannarxi to‘g‘risidagi hisobotda (F №2-S) qurilish-montaj ishlari quyidagicha kelitiriladi:

- smeta qiymati bo‘yicha;
- rejadagi tannarx bo‘yicha;
- haqiqatdagi tannarx bo‘yicha.

Smeta qiymatidan yuqori badal va imtiyozlar tartibida qoplanadigan xarajatlar alohida ustunga ajratiladi.

Qurilish mahsulotining narxi uning smeta qiymati bo‘yicha aniqlanadi. QMIning smeta qiymati ishchi chizmalar va o‘rnatilgan smeta me’yorlari va baholari bo‘yicha hisoblangan ishlarni bajarish xarajatlari, shuningdek rejali jamg‘armalar summasini o‘z ichiga oladi. Smeta qiymati QMI hajmlar va bajarilgan ishlar hisob-kitoblar uchun, shuningdek shartnoma baholarini aniqlashda asos bo‘lib xizmat qiladi. Agar smeta qiymatidan rejali jamg‘armalarni ayirib tashlansa, smeta tannarxi yuzaga keladi.

---

<sup>5</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi,O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralar. Toshkent – “O’zbekiston” – 2009, 34-bet.

Qurilish tashkilotlari **xo‘jalik** hisobi tamoyillari asosida ish yuritadi. Xalq **xo‘jaligining** boshqa tarmoqlari kabi ular **o‘z** xarajatlarini daromadlari bilan qoplashadi va o‘z jamg‘armalariga ega.

Shu sababli, ishlarning smeta qiymati qurilish ishlab chiqarishi bilan bir qatorda smeta qiymatidan 7,41 foiz miqdorida rejali jamg‘armalarni ham ko‘zda tutadi.

Smeta qiymatining qurilish tashkilotida yuzaga kelgan ishslash sharoitlarini hisobga olgan holda aniqlanishini rejali tannarx deb atashadi. U smeta qiymatidan rejali jamg‘armalar va tanarx pasayishidan iqtisod qilingan summaga kamdir.

Ayni paytda rejali tannarxga bajarilgan ishlarning smeta qiymatidan ortiq xarajatlari ham kiritilib, ularni buyurtmachi pudratchi qurilish tashkilotiga tovon tariqasida qoplaydi.

Haqiqatdagi tannarx tashkilot tomonidan bajarilgan qurilish va montaj ishlarini ishlab chiqarishiga ketgan barcha xarajatlarning pul shaklini ko‘rsatadi.

QMI tannarxi tahlilining vazifalari quyidagicha: ishlar tannarxi bo‘yicha biznes-reja bajarilishining darajasini aniqlash; ichki imkoniyatlarni aniqlash va qo‘llash hamda qurilish tashkilotining ishini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

QMI tannarxi tahlilida foydalanish uchun ma’lumotlar manbai bo‘lib biznes-reja, 2-S shakl bo‘yicha hisobot, qurilishda asosiy materiallar sarfi to‘g‘risida 29-m shakl bo‘yicha hisobot, buxgalterlik hisobi ro‘yxatlari va h. xizmat qiladi.

QMI tannarxini pasaytirish **bo‘yicha** biznes-rejaning bajarilish darjasini barcha ishlar hajmi bo‘yicha haqiqatdagi tannarxning rejadagi tannarx bilan ishlarni bajarish xarajatlarining turlari, qismlari va tarkibiyqismlari bo‘yicha QMIning bir so‘miga bo‘lgan xarajatlar darjasini bilan taqqoslanishi orqali o‘rnatalidi. Haqiqatdagi xarajatlarni smeta bilan va o‘tgan yilning tannarx darjasini bilan solishtirish lozim (2.6. jadval).

2.6. jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, hisobot yilda barcha ishlar bo‘yicha QMIning haqiqatdagi tannarxi rejadagi tannarxdan 420 ming so‘mga oshgan (106950-107370). Bu o‘sish qurilish ishlarining metall qurilmalarning o‘rnatalishini hisobga olgan holda qurilish ishlarining o‘sishi sababli yuzaga kelgan. Kapital ta’mir bo‘yicha xarajatlar kamaymagan.

Keyingi bosqich bu QMI tannarxining xarajatlar tarkibiyqismlari va qismlari bo‘yicha tahlilidir.

“Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi” nizomga ko‘ra barcha xarajatlar quyidagicha guruhlanadi:

1. Ishlarning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar:
  - a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;
  - b) bevosita va bilvosita mehnat xarajatlar;
  - v) ishlab chiqarish tavsifidagi qo‘srimcha xarajatlarni o‘z ichiga olgan holda bevosita va bilvosita xarajatlar;
2. QMI tannarxiga kiritilmaydigan, ammo asosiy faoliyat foydasida hisobga olinadigan davr xarajatlariga kiritiladigan xarajatlar:
  - a) sotish xarajatlari;
  - b) ma’muriy xarajatlar;
  - v) boshqa operatsion xarajatlari va zararlari;
3. Qurilish tashkilotining umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zararni hisoblashda hisobga olinadigan moliyaviyfaoliyat bo‘yicha xarajatlar:
  - a) foizlar bo‘yicha xarajatlar;

## **2.6- jadval.**

### **QMI tannarxi darajasining tahlili**

No t/r	Ishlar turlari	Smeta qiymati	Rejadagi tannarx	Haqiqatdagi tannarx	Tovon va iimtiyozlar tariqasida qoplanadigan xarajatlar
A	B	1	2	3	4
1.	Qurilish ishlari (metall qurilmalarning o‘rnatalishini hisobga olgan holda)	108220	105980	106400	1010
2.	Uskunalar o‘rnatalishi	—	—	—	—
3.	Bino va inshootlarning kapital ta’mirlanishi	1000	970	970	—
4.	jami	109220	106950	107370	1010

- b) xorijiy valyuta opreatsiyalari bo‘yicha salbiykurs farqlari;
  - v) qimmatbaho qog‘ozlarga qo‘yilgan mablag‘larning qayta baholanishi;
  - g) moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar;
4. Daromad (foyda) solig‘ini to‘lagunga qadar foyda yoki zararni hisoblashda hisobga olinadigan favqulodda zararlar.

QMI tannarxini shakllantiruvchi xarajatlar ularning quyidagi tarkibiy qismlar bo‘yicha iqtisodiy tarkibiga binoan guruhlanadi:

1. Ishlab chiqarish moddiy xarajatlari;
2. Ishlab chiqarish tavsifidagi mehnatga haq to‘lash xarajatlari.
3. Ishlab chiqarishga taalluqli ijtimoiy sug‘urtalashga ajratmalar.
4. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning eskirishi.
5. Ishlab chiqarish yo‘nalishidagi boshqa xarajatlar.

Xarajatlar tarkibiy qismlari va hisob-kitob qismlari bo‘yicha QMI tannarxining, bajarilgan QMIning bir so‘miga bo‘lgan xarajatlar, moddiy xarajatlar tahlili usullari ko‘p jihatdan sanoat korxonasining tahliliga yaqinlashadi.

Misol uchun, materiallar narxi va ularning sarf me’yori o‘zgarishi tannarxga ta’sir ko‘rsatishini aniqlash maqsadida tahlil qanday o‘tkazilishini ko‘rib chiqamiz (2.7. jadval).

2.7. jadvaldan ko‘rinib turibdiki, qurilish tashkilotida 1 m<sup>3</sup> temir-beton qurilmalari qiymati bo‘yicha +6500 so‘mga ortiqcha xarajatga yo‘l qo‘yilgan. Bunda temir-beton qurilmalarining ish birligiga sarf me’yorini kamaytirish hisobiga xarajatlar –3700 so‘mga kamaygan, ammo haqiqatdagi narxning rejadagiga qaraganda ko‘tarilishi xarajatlarning +10200 so‘mga oshishiga olib keldi. Ikkala omilning yalpi ta’siri 6500 so‘m (+10200)+(-3700) farqni keltirib chiqardi.

## 2.7- jadval.

### Moddiy xarajatlar tahlili

Temir-beton qurilmalar	Materiallar	O'chov birlig'i	Ishlar birligiga xarajatlar						O'zgarish hisobidan farq		
			me'yor bo'yicha		haqiqatda						
			Miqdori	Birlik	Jami	Miqdor	Birlik	Jami			
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
M	3,5	37000	129500	3,4	40000	136000	125800	Haqiqatdagi me'yor va rejadagi narxda qiymat, so'mda, 4us.x6us.	Umumiyyarfq, ming so'mda, 8us.-5us.	Sarf me'yori, so'm 9us.-5us.	Narx, so'm 8us.-9us.
Temir-beton qurilmalar	Materiallar	O'chov birlig'i	me'yor bo'yicha	Birlik	Jami	Miqdor	Birlik	Jami	Haqiqatdagi me'yor va rejadagi narxda qiymat, so'mda, 4us.x6us.	Sarf me'yori, so'm 9us.-5us.	Narx, so'm 8us.-9us.
3,5	37000	129500	3,4	40000	136000	125800	+6500	-3700	+10200		

Xarajatlar tarkibiy qismlari va hisob-kitob qismlari bo'yicha QMI tannarxining, bajarilgan QMIning bir so'miga bo'lган xarajatlar, moddiy xarajatlar tahlili usullari ko'p jihatdan sanoat korxonasining tahliliga yaqinlashadi.

Misol uchun, materiallar narxi va ularning sarf me'yori o'zgarishi tannarxga ta'sir ko'rsatishini aniqlash maqsadida tahlil qandayo'tkazilishini ko'rib chiqamiz (2.7. jadval).

2.7. jadvaldan ko'rinish turibdiki, qurilish tashkilotida 1 m<sup>3</sup> temir-beton qurilmalari qiymati bo'yicha +6500 so'mga ortiqcha xarajatga yo'l qo'yilgan. Bunda temir-beton qurilmalarining ish birligiga sarf me'yорини kamaytirish hisobiga xarajatlar -3700 so'mga kamaygan, ammo haqiqatdagi narxning rejadagiga qaraganda ko'tarilishi xarajatlarning +10200 so'mga oshishiga olib keldi. Ikkala omilning yalpi ta'siri 6500 so'm (+10200)+(-3700) farqni keltirib chiqardi.

### 2.8. Moliyaviy natijalar va rentabellik ko'rsatkichlarining tahlili

Foya pudratchi qurilish tashkilotlari faoliyatining eng muhim iqtisodiy baholash ko'rsatkichi hisoblanadi. Qurilish tashkilotining rejadagi foya bo'yicha

biznes-rejasi quyidagilardan tashkil topadi: smetada ko‘zda tutilgan va smeta qiymatining 7,14 foiz miqdorini tashkil qilgan reja jamg‘armalari summasi; obyektlar va ishlar majmui bo‘yicha QMI tannarxining kamayishidan iqtisod.

Foydaning haqiqatdagi summasi topshirilayotgan obyekt va ishlar majmuining smeta qiymati bilan ularning haqiqatdagi tannarxi o‘rtasida farq sifatida hisoblanadi.

Agarda qurilishning haqiqatdagi qiymati shartnoma narxi yoki smeta qiymatidan baland bo‘lsa, farq qurilish-montaj tashkiloti va uning subpudratchi tashkilotlarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalarida zarar sifatida ko‘rsatiladi.

Qurilishda ishlarni topshirishdan foyda quyidagicha xususiyatlarga ega: obyekt qurilishining butun muddati mobaynida shakllanadi; nafaqat hisobot yili, balki o‘tgan yillar ishlarining natijasi hisoblanadi; obyekt bo‘yicha shakllanadi, hisob-kitobi esa qurilish tashkiloti bo‘yicha umumiyamalga oshiriladi.

Qurilish tashkiloti faoliyatining yanada umumlashtiruvchi ko‘rsatkichi bu sof foyda ko‘rsatkichidir. Sof foyda hajmi O‘zbekiston qurilish tarmog‘i bo‘yicha agar 2014 yili 20432.9mln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2018 yil boshiga kelib uning hajmi 53577.4 mln so‘mga etdi, ya’ni 33144.5 mln so‘mga oshdi yoki uni o‘sish sur’ati 262.2 foiz ni tashkil etdi<sup>6</sup>. Sof foyda hajmini aniqlash uchun bir qator oraliq foyda ko‘rsatkichlarini aniqlab olish zarur. Bunda foydaning oraliq ko‘rsatkichlari hisobot davrida qurilish tashkiloti faoliyatining samaraligini tahlil qilish va baholash uchun mustaqil ahamiyatga ega bo‘ladi. “Xarajatlar tarkibi to‘g‘risida”gi Nizomga ko‘ra qurilish tashkiloti faloiyatining moliyaviynatijalari foydaning quyidagi ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi:

1. Topshirilayotgan obyektlar va ishlar majmuidan tushgan yalpi foyda ishlarni bajarishdan tushgan tushum bilan bajarilgan QMI tannarxi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Pudratchi tashkilot uchun buyurtmachiga topshirilgan va u qabul qilgan qurilish va montaj ishlari sotilgan mahsulot hisoblanadi.

---

<sup>6</sup> Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. Строительство в Узбекистане. Статистический сборник.32с 2018год.

2. Ishlarni bajarishdan tushgan yalpi foyda minus davr xarajatlari plyus yoki minus asosiy faoliyatning boshqa daromadlari (zararlari) sifatida aniqlanadigan asosiyishlab chiqarish faoliyatining foydasi.
3. Umumxo‘jalik faoliyatidan foyda algebraik summa sifatida hisoblanuvchi summa: asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan foyda plyus dividendlar, foizlar ko‘rinishidagi daromadlar plyus yoki minus xorijiyvalyuta opreatsiyalaridan daromadlar(zaralar), plyus yoki minus investitsiyalarni qimmatbaho qog‘ozga qayta baholashdan daromadlar(zaralar) minus foizlarni to‘lash bo‘yicha xarajatlar.
4. Soliq to‘lagunga qadar foyda umumxo‘jalik faoliyatidan foyda va favqulodda foyda va zararlar qoldig‘ining algebraik summasi sifatida aniqlanadi.
5. Soliqlar to‘langanidan keyin qurilish tashkilotining ixtiyorida qoluvchi sof foyda soliq to‘lagunga qadar foydaning daromad (foyda) solig‘i va boshqa soliq hamda to‘lovlardan tashqari summasidir. Qurilish tashkilotining moliyaviy natijalari tahlili usullari sanoat korxonasining ushbu ko‘rsatkichlari tahlilidan kam farq qiladi. Misol uchun, yalpi foydaning o‘zgarishiga ta’sir qiladigan omillar tahlilining usullarini ko‘rib chiqamiz.

### 2.7- jadval.

#### **Qurilish tashkiloti yalpi foydasining o‘zgarishiga ta’sir qiladigan omillar tahlili (Ming so‘mda)**

<b>№ t/ r</b>	<b>Ko‘rsatkichlar</b>	<b>Shaklda gi qator soni</b>	<b>O‘tgan davr hisoboti bo‘yicha</b>	<b>Asos (baza) narxlarda va tannarxda bajarilgan ishlarning haqiqatdagi hajmi</b>	<b>Hisobot yilda bajarilgan ishlarning haqiqatdagi hajmi</b>
<b>A</b>	<b>B</b>	<b>V</b>	<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>
1.	Bajarilgan va buyurtmachiga topshirilgan ishlar hajmi	010 2-sh.	106700	108250	109220
2.	Bajarilgan ishlarning ishlab chiqarish tannarxi	020 2-sh.	104980	105225	106450
3.	Ishlarni sotishdan tushgan yalpi foyda	030 2-sh.	1720	3025	2770

2.7.-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turganidek, hisobot yilda buyurtmachilarga topshirilgan QMIdan tushgan yalpi foyda o‘tgan yilga qaraganda

1050 ming so‘mga oshgan yoki uning o‘sish sur’ati 161,1 foizni tashkil qildi. Bu o‘sishga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatdi:

1. Ishlarni bajarishdan tushgan tushum ko‘rsatkichi orqali namoyon bo‘luvchi smeta yoki shartnomaga narxining o‘zgarishi. Joriyva asos (baza) narxlarda haqiqatdagi bajarilishni solishtirib, bu omilning yalpi foydaga ta’sirini topamiz: yalpi foydaning 109220-108250=+970 ming so‘mga yoki 92,4 foizga (970x100:1050) o‘sishi sotish narxlarini ko‘tarish hisobiga olingan.

2. Bajarilgan va buyurtmachiga topshirilgan qurilish ishlari tannarxining o‘zgarishi: 106450-105225=+1225 ming so‘m. Ishlar tannarxining qimmatlashishi oqibatida yalpi foyda 1225 ming so‘mga yoki 16,6 foizga (1225x100:1050) kamaygan.

3. Ishlarni bajarishdan tushgan tushumning o‘zgarishi. Buyurtmachiga topshirilgan ishlardan tushgan tushum hajmining ta’sirini aniqlash uchun, bu hajm nisbatan qanchalik o‘zgarganini aniqlaymiz. Buning uchun 2.7. jadval ma’lumotlari bo‘yicha quyidagicha hisob-kitob qilamiz.

A)  $108250 \times 100 : 106700 = 101,45$  foiz

B)  $1,45 \times 1720 : 100 = 25$  ming so‘m

Ishlarni bajarishdan tushgan tushumning ko‘payishi natijasida yalpi foyda 25 ming so‘mga yoki 2.4 foizga ortdi ( $25 \times 100 : 1050$ ).

4. Bajarilgan QMI tuzilishini o‘zgarishi. Bajarilgan qurilish ishlari turli xillari turlicha rentabellik darajasiga ega ekanligi bois, ishlar tarkibining o‘zgarishi natijasida qo‘srimcha foyda yoki zarar olish mumkin. Sanoatdagi kabi bu omilning ta’siri ikkita yo‘l bilan aniqlanadi.

1. Balans hisobi yo‘li bilan, ya’ni yalpi foydaning umumiy farqidan ilgari hisoblangan farq omillari olib tashlanadi va yalpi foyda miqdoriga ishlar tarkibining o‘zgarishi aniqlanadi.  $(+1050)-(970-1225+25)=+1280$  ming so‘m. Omillar muvozanati:  $(970-1225+25+1280)=+1050$  ming so‘m. Bunda ta’kidlab o‘tish lozimki, ilgari hisoblangan omillar to‘g‘ri bo‘lgan holatdagina hisob-kitob to‘g‘ri qilingan bo‘ladi. Shuning uchun amaliyotda ikkinchi usul qo‘llanilib, unda ishlar tuzilishi o‘zgarishining ta’siri quyidagicha tartibda aniqlanadi: ishlarni bajarishdan tushgan tushumning va bajarilgan ishlari tannarxining o‘sish sur’atlaridagi farq olinib

o‘tgan yilgi hisobot bo‘yicha ishlab chiqarish tannarxi summasiga ko‘paytirilib yuzga bo‘linadi.

a) ishlarni bajarishdan tushgan tushumning o‘sish sur’atlari  
108250x100:106700=101,45 foiz;

b) bajarilgan ishlar tannarxining o‘sish sur’atlari 105225x100:104980=100,23 foiz.

v) o‘sish sur’atlaridagi farq 101,45-100,23=+1,22 foiz.

g) +1,22x104980:100=+1280,7 ming so‘m.

Omillar balansi [970-1225+25+1280,7]=+1050,7 ming so‘m.

Shunday qilib, tuzilishdagi o‘zgarishlar hisobiga qurilish tashkilotining yalpi foydasi 1280,7 ming so‘mga ko‘paydi. Bu shuni ko‘rsatadiki, bajarilgan qurilish ishlari tuzilishida yanada “foydaliroq” ishlar ulushi ortgan.

Hisob-kitoblar natijalarini umumlashtiramiz. Ishlarni bajarishdan tushgan yalpi foya o‘tgan yilga qaraganda quyidagi omillar ta’siri ostida o‘zgargan:

- sotish narxlarining o‘sishi +970 ming so‘m.
- tannarxning qimmatlashishi –1225 ming so‘m.
- tushumning ko‘payishi +25 ming so‘m.
- ishlar tuzilishining o‘zgarishi +1280,7 ming so‘m.

Farqlar summasi +1050,7 ming so‘m.

Shunday qilib, biz aniq misolda qurilish tashkilotining ishlarni bajarishdan tushgan yalpi foydasi o‘zgarishiga ta’sir qiladigan omillarni tahlil qilish usulini ko‘rib chiqdik. Keyinchalik moliyaviy axborotdan foydalanuvchilar ehtiyojlarini hisobga olgan holda usullar takomillashtirilib borilishi lozim.

Asosiy ishlab chiqarishdan, umumxo‘jalik faoliyatidan, soliq to‘langunga qadar hamda sof foydaning omilli tahlil usullari sanoat korxonasining ushbu ko‘rsatkichlari tahlilidan kam farq qiladi.

### ***Rentabellik ko‘rsatkichlari tahlili***

**Rentabellik** – umuman xalq xo‘jaligi tarmoqlarida samaradorlikning eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri. Qurilish ishlab chiqarishi samaradorligining mutlaq qiymatini ko‘rsatuvchi foyda ko‘rsatkichidan farqli o‘laroq, rentabellik uning nisbiyqiymatini ko‘rsatadi. Masalan, soliq to‘lagunga qadar foydaning bajarilgan qurilish ishlarning ishlab chiqarish tannarxiga nisbatan aniqlanadigan rentabellik

darajasi O‘zbekiston qurilish tarmog‘i bo‘yicha 2014- yil 9.4 foiz ni tashkil etgan bo‘lsa , 2018- yil boshiga kelib 8.7 foiz teng bo‘ldi, ya’ni 0.7 bandga kamaydi<sup>7</sup> .

Shu bois rentabellik darajasining va uning o‘zgarish sabablari tahlili qurilish tashkilotlari ishining samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega. Qurilish tashkilotlarining xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishda mablag‘lardan foydalanishning turli darajadagi samarasini tavsiflovchi turli xil rentabellik ko‘rsatkichlari hisoblab chiqiladi.

Qurilishda quyidagicha rentabellik ko‘rsatkichlarini qo‘llash tavsiya qilish mumkin: umumiyyaktivlar(mulk) rentabelligi; xususiykapital rentabelligi; asosiykapital rentabelligi; doimiykapital rentabelligi; qarzga olingan kapital rentabelligi; real asosiykapital rentabelligi va h.k. Qurilish tashkiloti rentabellik ko‘rsatkichlarini hisoblash usullari sanoat korxonasining ushbu ko‘rsatkichlari tahlilidan kam farq qiladi.

## ***2.9. Moliyaviy holat tahlili***

Moliyaviy holat tahlili qurilish-montaj tashkiloti xo‘jalik faoliyati majmuaviytahlilining yaqinlovchi bosqichi bo‘lib hisoblanadi. Moliyaviy holat deganda pudratchi tashkilotning qurilish ishlab chiqarishi jarayonini pul mablag‘lari bilan ta’minlab berish va to‘lov majburiyatlarini amalgalashtirish qobiliyati tushuniladi. Qurilish-montaj tashkiloti ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatini amalgalashtirish uchun ustav kapitali bilan ta’minlanib, u biriktirilgan mablag‘lar miqdorini ko‘rsatadi. Ustav kapitali va qurilish tashkilotining ixtiyorida qoluvchi foya qismi qurilish tashkilotining xususiy mablag‘larini tashkil qiladi.

Qurilish tashkilotlari moliyaviy holati tahlilining xususiyatlari qurilish-montaj ishlab chiqarishini tashkil qilishning, xo‘jalik hisobining, bosh pudratchilar, sub pudratchilar va buyurtmachilar moliyaviy aloqalarining, shuningdek aylanma mablag‘larni shakllantirish manbalari va ularni joylashtirishdagi farqlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Shunday qilib, pudratchi tashkilotlar aylanma mablag‘larning xususiy manbalari hamda ularga tenglashtirilgan manbalarga ega, shuningdek bank kreditlaridan foydalanishadi. Bu qism bo‘yicha ular va sanoat korxonalari o‘rtasida

<sup>7</sup> Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. Строительство в Узбекистане. Статистический сборник. 43с. 2018год...

o‘xshashlik mavjud. Ammo oxirgilaridan farqli o‘larоq, pudratchi tashkilotlar buyurtmachilardan pudrat shartnomasi bo‘yicha olinadigan bo‘nak ko‘rinishidagi yana bitta aylanma mablag‘lar manbasiga ega.

“Xarajatlar tarkibi to‘g‘risida”gi Nizomning kuchga kiritilishi O‘zbekistonдagi buxgalteriya hisobi tizimining xalqaro hisob andozalariga yaqinlashtirishda eng muhim qadam hisoblanadi. Xususan, xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida yagona moliyaviyhisobot shakllarini qo‘llash moliyaviy natijalar va moliyaviy holat tahlilining usullaridagi farqni yo‘qotadi. Qurilish tashkilotlari moliyaviyholatining tahlili sanoatdagi kabi muayyan ketma-ketlikka olib boriladi, chunonchi avvalo qurilish tashkiloti mulkining tarkibi aniqlanadi: uzoq muddatli va aylanma aktivlar; aylanma mablag‘lar tarkibi; tovar-moddiy zaxiralari, debtorlar va pul mablag‘lari; zaxiralari va xarajatlar holati; mulkka qo‘yilgan mablag‘lar manbalarining tuzilishini va xususiy aylanma mablag‘lar mavjudligi va ularning o‘zgarish sabablari aniqlanadi. Keyin moliyaviy barqarorlikni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi: xususiy va qarzga olingan mablag‘lar nisbati koeffitsienti, qarz mablag‘larini uzoq muddatga jalgan qilish koeffitsienti, xususiy mablag‘lar harakatchanligi koeffitsienti, eskirish yig‘ilishi koeffitsienti, qurilish tashkiloti mulkida asosiyva moddiyayylanma vositalarning real qiymati koeffitsenti. So‘ngra likvidlik (to‘lovga qobililik) ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi: joriylikdvidlik koeffitsienti, muddatli likvidlik koeffitsienti, mutlaq likvidlik koeffitsienti va qurilish tashkilotining ishbilarmonligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tahlili bilan tugatiladi: aylanma mablag‘lar aylanuvchanlik koeffitsienti, debtorlik va kreditorlik qarzdorligining aylanuvchanlik koeffitsienti, debtorlik va kreditorlik qarzdorligining kunlik aylanuvchanligi koeffitsienti.

Qurilish tashkiloti moliyaviy holati tahlilining asosiy vazifalari quyidagicha: qurilish tashkilotining QMI biznes-rejasini bajarish uchun zarur pul mablag‘lari bilan ta’minlanganligi, ichki zaxiralarni ishga solish, xususiy aylanma mablag‘larni saqlab qolish, kreditlarni maqsadli ishlatalish, byudjet, bank, buyurtmachilar, mol etkazib beruvchilar oldidagi majburiyatlarini bajarish bo‘yicha va qurilish tashkiloti ishining samarasini oshirishga qaratilgan boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Moliyaviy holat to‘g‘risidagi ma’lumotlarning asosiy manbalari bu “Buxgalteriya balansi” (№1-shakl), “Moliyaviynatijalar to‘g‘risidagi hisobot” (№2-shakl), “Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot” (№3-shakl), “Xususiy kapital to‘g‘risidagi

hisobot” (№4-shakl) “Debitorlik va kreditorlik qarzlari to‘g‘risida ma’lumot” (2A-shakl), shuningdek hisobdan tashqari ma’lumotlar.

Qurilish tashkilotining moliyaviy holatini tavsiflovchi yuqoridagi ko‘rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilish usullari sanoat korxonasining ushbu ko‘rsatkichlari tahlilidan kam farq qiladi. Shunday qilib, qurilish tashkilotining moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va ishbilarmonligini umumlashtiruvchi ko‘rsatkich bu joriyaktivlar aylanuvchanligi ko‘rsatkichidir. Pudratchi tashkilotning joriyaktivlari aylanuvchanligini hisoblash sanoatdagidan farqli o‘laroq, o‘z kuchi bilan bajarilgan (bosh pudratchi) QMI hajmidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Masalan, aktivlar aylanuvchanligi ko‘rsatkichini hisoblash usullarini keltiramiz:

**A) sanoatda:**

Sotishdan tushgan sof  
tushum, №2-shakl, 010 qator

$$\frac{\text{Joriyaktivlari}}{\text{aylanuvchanligi koeffitsienti}} = \frac{\text{Sotishdan tushgan sof tushum, №2-shakl, 010 qator}}{\text{Joriyaktivlarning o‘rtacha qiymati, №1-shakl, 390 qator}} = \text{marta}$$

**B) qurilish tashkilotida:**

Bajarilgan va buyurtmachiga  
topshriligan QMI hajmi,  
2-shakl, 010 qator

$$\frac{\text{joriyaktivlari}}{\text{aylanuvchanligi koeffitsienti}} = \frac{\text{Bajarilgan va buyurtmachiga topshriligan QMI hajmi, 2-shakl, 010 qator}}{\text{Joriyaktivlarning o‘rtacha qiymati, 1-shakl, 390 qator}} = \text{marta}$$

## ***2.10. Umumiyl xulosa***

Ushbu mavzuni o‘rganish natijasida talaba qurilish-montaj tashkiloti tahlilini tashkil qilish asosiy tamoyillari va xususiyatlarini bilishi lozim, chunonchi, pudrat ishlari biznes-rejasi bajarilishi tahlilining usullarini, mehnat unumдорligi tahlilining xususiyatlari, asosiy fondlar va moddiy resurslardan foydalanish samarasi, shuningdek moliyaviy natijalarni shakllantirish asosiy tamoyillari, bir qator foyda ko‘rsatkichlari, rentabellik va moliyaviy holat tahlilining usullari.

## **2.11. Mavzuga doir kalit so‘zlar**

Pudrat QMI dasturi, asosiy fondlarni ishga tushirish va ishlar majmui biznes-rejasining bajarilishi, pudrat ishlari biznes-rejasining bosh pudratchi va sub pudratchilar kuchlari bilan bajarilishi; mehnat omillari, mehnat vositalari omillari; mehnat predmetlari omillari; mehnat unumdoorligi ko‘rsatkichlari; asosiyvositalar va moddiyresurslardan foydalanish samarasi; mexanizatsiyalashtirish va sanoatlashtirishi darajasi; qurilish mahsulotining narxi; smeta qiymati; smeta tannarxi; rejadagi tannarx; haqiqatdagি tannarx; xarajatlar tarkibiyqismlari va qismlari bo‘yicha QMI tannarxining tahlili; moddiy xarajatlar; shartnoma narxi; foydaning oraliq ko‘rsatkichlari; sof daromad; rentabellik ko‘rsatkichlari; mulk tarkibi; mulk shakllanishi manbalar; zaxiralar va xarajatlar; qurilish tashkilotining xususiyaylanma mablag‘lar bilan ta’minlanganligi; moliyaviy barqarorlikni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar; to‘lov qobiliyati ko‘rsatkichlari; qurilish tashkilotining ishbilarmonligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar.

## **2.12. Talabalarning bilimlarini tekshirish savollar**

1. Pudrat ishlari biznes-rejasining bajarilishini qanday aniqlash mumkin?
2. Pudrat ishlari biznes-rejasi bajarilishining tahlilida o‘rganiladigan savollar doirasi va ularni ko‘rib chiqish ketma-ketligi qanday?
3. QMI hajmiga ta’sir qiluvchi omillar qanday guruhlanadi?
4. Pudratchi tashkilotlarning mehnat omillari tahlili xususiyatlari qanday?
5. Qurilish tashkilotining asosiy vositalardan foydalanish samarasining tahlili xususiyatlari qanday?
6. Qurilishda moddiyxarajatlar tahlilining xususiyatlari qanday?
7. Qurilishning sanoatlashtirish ko‘rsatkichlarining mehnat unumdoorligiga ta’siri qandaytahlil qilanadi?
8. QMI tannarxi qanday tarkibiy qismlardan tashkil topgan?
9. Qurilish mahsulotinin narxi qandayaniqlanadi?
10. Smeta qiymati qanday aniqlanadi?
11. Smeta tannarxi qanday aniqlanadi?
12. QMI rejadagi tannarxi qanday aniqlanadi?

- 13.QMIning haqiqatdagi tannarxi nima degani?
- 14.Pudratchi tashkilotning foyda manbalari qanday?
- 15.Pudratchi tashkilotning foydasi ko‘rsatkichlari tahlilining xususiyatlari qanday?
- 16.Rentabellik ko‘rsatkichlarining tahlili xususiyatlari qanday?
- 17.Qurilish tashkiloti moliyaviy holati tahlilining xususiyatlari qanday?

### ***2.13. Axborot-uslubiy ta'minot***

#### **1. Asosiy adabiyot**

1. Деркач Д. М. Анализ производственно-хозяйственной деятельности подрядных строительных организаций. М. «Финансы и статистика », 1990 г.

2. Жарковская Е. П. и др. Анализ хозяйственной деятельности строительных организаций. М. Стройиздат, 1989 г.

3. Г.В.Савитская . “Экономический анализ (учебник) 13-е издание исправленное. М : Новое знание. 2017

#### **2. Qo‘srimcha adabiyot**

1. Андронова В.Н., Мизиковский Е.А. «Учет и анализ финансовых активов» М.: «Финансы и статистика », 1995 г.

2. Ковалев В.В. «Финансовый анализ» М.: «Финансы и статистика», 1995 г.

3. Шеремет А.Д., Негашев Е.В., «Методика финансового анализа комерческих организаций»: М.: ИНФРА-М, 2018 г.

4. Vahobov A.V va boshqalar “ Boshqa tarmoqlarda iqtisodiy tahlil xususiyatlari “. Т : 2017

5. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviyatijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida Nizom. O‘R Vazirlar mahkamasi qarori, 5.02.1999.№54-son.

### **III BOB: QISHLOQ XO‘JALIK KORXONALARINING XO‘JALIK FAOLIYATINI IQTISODIY TAHLILINING XUSUSIYATLARI**

#### **3.1. Qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatini tahlilining vazifalari va manbalari**

Qishloq xo‘jaligi sohasida asosiy vazifa bo‘lib, aholining oziq-ovqatlar mahsulotiga bo‘lgan, sanoatning esa qishloq xo‘jaligi xom ashyosiga bo‘lgan o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qondirishni yaxshilash maqsadlarida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni sezilarli darajada oshirishdir.

2019- yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan iqtisodiydasturning eng muhim ustivor vazifalaridan biri “qishloqda turmush darajasini yuksalishtirishga, qishloqlarimiz qiyofasini o‘zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli va bir-biri bilan chambarchas bog‘liq keng ko‘lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiysoha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish, mulkdorning tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o‘rni, va ahamiyatini tubdan qayta ko‘rib chiqish, fermer xo‘jaliklari rivojini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir”.

Shu qatorda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 1-avgustdagи “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5495-sonli Farmoniga muvofiq:

a) 2018- yil 1-oktyabrdan investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini berishning quyidagi yangi mexanizmlari joriy etilmoqda:

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkasini 50 yilgacha muddatga, lekin arizada ko‘rsatilganidan kam bo‘limgan muddatga investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun uzoq muddatli ijara berish;

ko‘chmas mulk obyektlarini (mehmonxonalar, savdo obyektlari, madaniy-ko‘ngilochar majmular, maishiy xizmat ko‘rsatish obyektlari, ta’lim va tibbiyot tashkilotlari, yo‘l infratuzilmasi va shu kabilar) qurish uchun yer uchastkalariga doimiy egalik qilish huquqini auksion orqali sotish;

b) quyidagilarga:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda tuman (shahar) hokimlariga chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalarga qishloq

xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkasini 50 yilgacha muddatga, lekin arizada ko‘rsatilganidan kam bo‘lman muddatga investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun uzoq muddatli ijaraga berish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlar doirasida va tartibda 10 million AQSH dollaridan ko‘p bo‘lman ekvivalentda chet el investitsiyasi ulushi bo‘lgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda chet el investorlari bilan investitsiya shartnomalarini tuzish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga umumiy maydoni 2000 kvadrat metrdan ortiq, lekin 5000 kvadrat metrdan ko‘p bo‘lman foydalanilmayotgan davlat mulki obyektlarini (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-iyundagi “Davlat mulki obyektlarini sotish tartib-taomillarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3067-son qarorining 1 va 2-ilovalarida ko‘rsatilgan obyektlar bundan mustasno) investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun sotish to‘g‘risida qaror qabul qilish huquqi berildi<sup>17</sup>.

Mamlakatimiz kuchli davlat va ochiq demokratik jamiyat qurish yo‘lida olib borayotgan samarali islohotlari bilan o‘zining mustaqil ichki va tashqi siyosati hamda ezungulik yo‘lidagi keng qamrovli bunyodkorlik ishlari bilan dunyo xalqlarining hurmat-e’tiborini o‘ziga tortdi.

Sanoatning ko‘pgina tarmoqlari muvaffaqiyatli rivojlanishi, milliydaromadning o‘sishi, xalqning moddiyfarovonligi oshishi qishloq xo‘jaligi mahsulotini ishlab chiqarishni oshirish sur’atlariga bog‘liq. Shuning uchun ham respublika hukumati mamlakatimiz qishloq xo‘jaligining yanada rivojlanishiga katta e’tibor qaratmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga binoan qishloq xo‘jaligi korxonalarining faoliyatini yaxshilash hamda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishdan moddiymanfaatdorlikni kuchaytirish bo‘yicha bir qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Masalan, dehqonchilik va

---

<sup>17</sup> 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.

chorvachilik mahsulotlarini sotib olish narxlari ko‘tarilgan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiyturlarini davlatga rejadan ortiq sotilishiga yanada yuqoriroq narxlar kiritilgan. Barcha ushbu chora-tadbirlar ishlab chiqarish oldidagi to‘siqlarni aniqlash va bartaraf qilishda amaliyyordam ko‘rsatishga, yuqori sifatli qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqarishni barqaror oshirish, uning tannarxini kamaytirish, daromadliligini va rentabelligini oshirish bo‘yicha ichki **zaxiralarni** aniqlash va qo‘llashga qaratilgan. Ushbu maqsadda qishloq xo‘jaligi mahsulotining ishlab chiqarilishi xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlar bilan yanada yaqinroq birlashuvi yo‘llari, mahsulotni qayta ishlash va sotish, mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan yanada to‘liqroq foydalanish, ITT (ilmiy-texnika taraqqiyoti) jadallashuvi asosida mehnat unumdlorligini oshirish, jamoa va oila pudrati, xo‘jalik hisobini mustahkamlash, moliya-kredit vositalarining ta’sirchanligini oshirish va odamning erda begonalashishini engib o‘tish asosida inson omilini faollashtirish yo‘llari ko‘rsatilishi lozim.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarining faoliyatini tahlil qila turib, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotini ishlab chiqarish bo‘yicha biznes-rejaning bajarilishini, uning davlatga sotilishini, foyda rejalari va byudjetga to‘lovlarini, chorvaning o‘zida ishlab chiqarilgan em-xashak bilan ta’minlanganligini, asosiy fondlar, ayniqsa qishloq xo‘jaligi mashinalaridan foydalanishni, xususiy aylanma mablag‘larni, mehnat bo‘yicha biznes-rejaning bajarilishini, kapital qo‘yilmalar va asosiy podani shakllantirish biznes-rejasining bajarilishini, qishloq xo‘jaligi korxonalarining banklar bilan kredit bo‘yicha o‘zaro munosabatlarini, tayyorlovchilar bilan hisob-kitoblarni, debitorlik va kreditorlik qarzdorliklarini va h.ni sinchiklab tekshirish lozim.

Tahlil jarayonida o‘tgan davr uchun moliyaviy natijalarning o‘zgarish sabablarini aniqlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotini ishlab chiqarish va rentabellikni oshirish rezervalarini aniqlash lozim. Katta e’tibor tovar-moddiy boyliklarining saqlanganligiga qaratilishi lozim. Tahlilning muhim vazifalaridan biri bu ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanishni, qishloq xo‘jaligi korxonalari ishining miqdor va sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilashni tekshirish lozim.

Ishlab chiqarish dasturi bajarilishining tahlili manbalari yillik hisobotning quyidagi shakllarida mavjud ma'lumotlardir: “Mahsulot ishlab chiqarilishi va tannarx kamayishi haqidagi ko'rsatkichlar”, “O'simlikshunoslik mahsulotining ishlab chiqarilishi va tannarxi”, “Chorva harakati”, “Mahsulot sotilishi”, “Mehnat bo'yicha hisobot” va “Biznes-reja”. Yil davomida tezkor tahlil uchun tezkor, statistik, buxgalterlik hisobining ma'lumotlari, birlamchi hujjatlar, shuningdek hisobdan tashqari ma'lumotlar qo'llaniladi.

### ***3.2. Dehqonchilik bo'yicha ishlab chiqarish dasturining bajaralishi tahlili***

Qishloq xo'jaligi korxonalari ishlab chiqarish dasturining bajarilishi tahlili yalpi va tovar mahsulotini ishlab chiqarish rejasi bajarilishini ko'rib chiqishdan boshlanadi. Qishloq xo'jaligi korxonalarida yalpi mahsulot dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlaridan takshil topgan bo'lib, yil davomida ishlab chiqarilgan yalpi ijtimoiy mahsulot qismi hisoblanadi.

Yalpi mahsulotga quyidagilar kiradi:

Dehqonchilik bo'yicha: shu yilning hosilidan olingan xom mahsulotlar qiymati, yangi ko'p yillik nihollarni etishtirish qiymati va tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatining o'zgarishi;

Chorvachilik bo'yicha: chorvani etishtirish va undan foydaalanish natijasida olingan xom mahsulotlar qiymati (sut, jun, tuxum, asal va h.), chorva, parranda va boshqa qishloq xo'jaligi hayvonlarini etishtirish qiymati (yangi tug'ilgan va qo'shilgan vazn qiymati). Yalpi mahsulot joriyva solishtirma narxlarda aniqlanadi.

Tovar mahsulot – davlatga topshirilgan, xodimlarga berilgan mahsulot bo'lib, u yalpi mahsulotning bir qismi hisoblanadi.

Xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlaridan farqli o'laroq, qishloq xo'jaligi mahsulotining salmoqli qismi tovar emas, sababi u xo'jalikda ichki iste'mol uchun qoladi.

Tovar mahsulotlariga davlatga topshirilgan, xodimlarga berilgan va boshqa yo'llar bilan sotilgan, vositachilikka topshirilgan mahsulotlar kiradi. Shuning uchun

tahlil qilishda nafaqat mahsulot sotilishi rejasining bajarilishini, balki ishlab chiqarishning tovarlik darajasini o‘rganish lozim.

Tovarlik darajasi tovar mahuslotining yalpi mahsulotga nisbati sifatida hisoblanadi. Tovar mahsulotlari rejasining bajarilishini aniqlash uchun yalpi mahsulotni hisoblashda qo‘llaniladigan xarid va topshirish narxlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Dehqonchilikni er fondini o‘rganishdan boshlash kerak, bunda uning tuzilishi, ya’ni shudgorlar, yaylovlari, bog‘lar, uzumzorlar va boshqalarning er fondidagi ulushi aniqlanadi.

Tahlil vazifasi bu foydalanilmagan erlarni aniqlash, shuningdek alohida qishloq xo‘jaligi ekinlari uchun shudgorlarni o‘rganish hamdir. Shudgorlar tuzilishi almashlab ekishning to‘g‘riliqi haqida muhokama qilish imkonini beradi. Undan keyin qishloq xo‘jaligi ekinlari kesimida hosildorlik rejasining bajarilishi tekshiriladi, ya’ni bir gettarga to‘g‘ri keladigan mahsulot miqdori ko‘rsatkichi. Agrotexnik chora-tadbirlar baholanadi, ya’ni belgilangan muddatlarda ekish va yig‘im-terim rejasining, o‘g‘itlar berish, sug‘orish va boshqa ishlar rejasining bajarilishi. Barcha ushbu chora-tadbirlar hosildorlikni oshirish imkoniyatini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi.

Dehqonchilik mahsulotining yalpi ishlab chiqarilishi hajmi ikkita ko‘rsatkich bilan aniqlanadi:

- 1) ekish maydoni;
- 2) hosildorlik.

Tahlil qilishda yuqoridagi omillarning yalpi yig‘im bo‘yicha rejaning umumiyyarfargiga o‘zaro ta’siri aniqlanadi.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, hisobot yilida g‘allaning yalpi yig‘imi rejaga qaraganda haqiqatda 926 sentnerga oshdi. Bu o‘sishga ikkita omil ta’sir ko‘rsatdi:

1. Ekin maydonining o‘zgarishi: g‘alla ekinlarining  $+25 \times 21 = +525$  sentner yoki 56,7 foiz [525x100:926] o‘sishi ekstensiv omil hisobiga, ya’ni ekin maydonini ko‘paytirish natijasida olingan.

### 3.1- jadval.

**Ekin maydonlari va ekinlarning hosildorligi rejasini bajarish tahlili va ular o‘zgarishining o‘simlikshunoslikning yalpi yig’imiga ta’siri. (g’alla)**

№ t/r	Ko’rsatkichlar	Reja bo‘yicha	Hisobot bo‘yicha	Farq (+,-)	
				Mutlaq	foizda
A	B	1	2	3	4
1	YAlpi yig‘im (tsent) (2-qator x 3-qator)	9660	10586	+926	+9,5
2	Ekin maydoni (ga)	460	485	+25	+5,4
3	1 ga.dan hosildorlik, ts (1q:2q)	21	21,83	+0,83	+4

2. Bir gektardan olinadigan hosildorlikning o‘zgarishi:  $=0,83 \times 485 = +402,5$  sentner yoki g‘alla ekinlarining 43,3 foiz  $[402,5 \times 100 : 926]$  o‘sishi intensiv omil hisobiga, ya’ni bir gektardan olinadigan hosildorlikning o‘sishi natijasida olingan.

Omillar muvozanati:  $525+402,5 = 927,5$  sentner, foiz nisbatida  $56,7 + 43,3 = 100$  foiz. Yuqoridagi hisob-kitobdan ko‘rinib turibdiki, g‘alla ekinlarining 56,7 foizga ortishi ekstensiv omil hisobiga, 43,3 foizi intensiv omil hisobiga olingan. Bu nisbat ham ijobjiy emas. Bizningcha, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining intensiv omil hisobiga o‘sishi 80-90 foizni tashkil qilishi lozim.

### 3.3. Chorvachilik bo‘yicha ishlab chiqarish dasturining bajarilishini tahlil qilish

Chorvachilik bo‘yicha ishlab chiqarish dasturining bajarilishini tahlil qilishda o‘simlikshunoslikdagi kabi kesimda baho beriladi. Avvalo, chorva bosh soni va uning mahsuldorligi mavjudligi va harakati o‘rganiladi.

3.2. jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, hisobot yilida chorvachilik mahsulotining umumiymiqdori biznes-rejadagi qaraganda 1177 sentnerga yoki 4,7 foizga oshgan. Bu o‘sishga ikkita omil ta’sir ko‘rsatdi. Quyida keltirilgan omillar o‘zgarishining ta’sirini mutlaq farq (determinanlli) usuli bilan aniqlaymiz.

1. Chorva bosh soni o‘zgarishining ta’siri: chorvachilik mahsulotining  $50 \times 3050 = +1525$  tsent. yoki 129,5 foizga o‘sishi ekstensiv omil hisobiga olingan.

2. Bir chorva boshga to‘g‘ri keladigan mahsuldorlik o‘zgarishining ta’siri:  $40 \times 870 = -348$  tsent. yoki -29,5 foiz  $[348 \times 100 : 1177]$ , ya’ni bir boshga to‘g‘ri

keladigan mahsuldarlikning kamayishi natijasida chorvachilik mahsulotining umumiymiqdori 348 sentnerga (-29,5 foizga) kamaygan.

Omilar muvozanati:  $(+1525)+(-348) = +1177$  sentner. Foiz nisbatida  $(+129,5)+(-29,5) = 100$  foiz.

### 3.2- jadval.

#### **Chorva bosh soni va mahsuldarligi rejasining bajarilishi tahlili va ulardagi o‘zgarishlarning chorva mahsulotlari umumiy miqdoriga ta’siri**

№ t/r	Ko‘rsatkichlar	Biznes- reja bo‘yicha	Haqi- qatda	Farq (+,-)	
				Mutlaq	foizda
A	B	1	2	3	4
1	Yalpi mahsulot (2-qator x 3-qator)tsent.	25010	26187	+1177	+4,7
2	Chorvaning o‘rtacha yillik bosh soni, bosh	820	870	+50	+6,1
3	Bir chorva boshiga to‘g‘ri keladigan mahsuldarlik, (1-qator:2-qator x 100) kg.	3050	3010	-40	-1.3

Shunday qilib, chorvachilik mahsulotining ko‘payishi ekstensiv omil hisobiga, ya’ni chorva bosh sonining ko‘payishi natijasida olingan bo‘lib, bu fermer xo‘jaligining faoliyatida juda salbiyholatdir.

Qo‘sishimcha ravishda chorvachilikda 100 gektar qishloq xo‘jaligi ekinlariga mahsulot miqdori va chorva bosh soni ko‘rsatkichlari ko‘rib chiqiladi. Bu chorvachilik ko‘rsatkichlarini erdan foydalanish bilan muvofiqlashtirish maqsadida qilinib, 100 ga hisobiga chorva bosh sonining va mahsulot miqdorining o‘sishiga olib keladi.

#### **3.4. Mehnat omillari tahlili**

Dehqonchilik va chorvachilik bo‘yicha ishlab chiqarish dasturining bajarilishini baholagandan keyin bunga ta’sir qilgan asosiy omillar o‘rganiladi.

Iqtisodiyotning boshqa sohalaridagi kabi qishloq xo‘jaligida ham qishloq xo‘jaligi mahsuloti miqdoriga ta’sir qiluvchi omillar uchta guruhga bo‘lingan:

1. Mehnat omillari (qishloq xo‘jaligi korxonalarining ishchi kuchi bilan ta’minlanganligi, ish vaqtidan foydalanish va mehnat unumdarligi).
2. Mehnat vositalari omillari tahlili (asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi, ularning texnik holati, ulardan foydalanish samarasasi).

3. Mehnat predmetlari omillari tahlili (er fondining tuzilishi va undan foydalanish samaradorligi, foydalanilayotgan yer-suvning samaradorligi).

Sanab o‘tilgan omillarning har biri mustaqil qiymatga ega bo‘lgan holda boshqalari bilan uzviy bog‘langan. Bunda ko‘rsatilgan omillarning ta’sirini mexanik ravishda qo‘shish mumkin emas. Sababi, mehnat unumdoorligi ortishi xodimlarning tarkibiga, malakasiga, ish vaqtidan foydalanishiga bog‘liq (mehnat omillari). Keyin, mehnat unumdoorligi asosiy fondlar (mehnat vositalari omillari) texnik holatiga va ulardan foydalanish samaradorligiga, shuningdek yer fandi va yer-suvdan samarali foydalanishga bog‘liq. Yer fondidan samarasiz foydalanish shak-shubhasiz qishloq xo‘jaligi korxonalarining mehnat unumdoorligi pasayishiga olib keladi.

Avvalo, omillarning har bir guruhi boshqalardan farqli ravishda o‘rganiladi, keyin omillar uchta guruhining ta’sirini hisobga olgan holda o‘simlikshunoslik va chorvachilik mahsulotining ishlab chiqarilishini oshirish imkoniyatlari to‘g‘risida umumiylar xulosalar qilinadi.

Dehqonchilik va chorvachilik bo‘yicha ishlab chiqarish dasturining muvaffaqiyatli bajarilishi teng sharoitlarda qishloq xo‘jaligi korxonalarining mehnat resurslari mavjudligi va ulardan foydalanishga bevosita bog‘liqdir.

Mehnat omillari tarkibida qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqarish hajmiga quyidagilar ta’sir ko‘rsatadi:

1. Qishloq xo‘jaligi korxonalarining ishchi kuchi bilan ta’minlanganligi .
2. Bitta ishlayotgan xodimga to‘g‘ri keladigan mehnat unumdoorligi.

Sanab o‘tilgan omillardan har birining qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmiga ta’siri tarixan o‘zgarib kelgan. Texnikaning etarlicha rivojlanmagan paytida qishloq xo‘jaligi mahsulotining ishlab chiqarilishini oshirishga asosan ekstensiv omil hisobiga, ya’ni qo‘shimcha ishchi kuchi va ekin maydonlarini oshirish yo‘li bilan erishilgan. Hozirgi paytda jadal texnika taraqqiyoti sharoitida qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqarishining o‘sishiga mehnat unumdoorligi o‘sishi sabab bo‘lmoqda.

Mehnat omillari tahlilining usullari sanoat korxonasinikiga ko‘p jihatdan yaqinlashib ketadi. Bu erda sanoatdagi kabi avvalo fermer xo‘jaligining ishchi kuchi

bilan ta'minlanganligi, ularning tarkibi mehnat unumdorligi bo'yicha biznes-rejaning bajarilishi baholanadi, o'simlikshunoslik va chorvachilik bo'yicha ishlab chiqarish dasturining bajarilishiga mehnat omillari ta'siri umumlashtiriladi.

Misol uchun fermer xo'jaligining mehnat unumdorligining tahlili usullarini keltiramiz (3.3- jadval).

### 3.3- jadval.

#### Mehnat unumdorligi bo'yicha biznes-rejasining bajarilishi tahlili

№ t/r	Ko'rsatkichlar	O'Ich. birl.	Biznes- reja bo'yicha	Haqi- qatda	Farq	
					Mutlaq (+,-)	foizda
A	B	V	1	2	3	4
1.	Yalpi mahsulot	Ming so'm	65500	70350	+4850	+7,4
2.	Ishlovchilarning o'rtacha ro'yxatdagi soni	Kishi	47	50	+3	+6,3
3.	Bitta ishlovchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish mahsuli, 1-qator:2-qator	Ming so'm	1393,6	1407	+13,4	+0,96

3.3. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinishni turganidek, fermer xo'jaligining yalpi mahsulot hajmi hisobot yilida biznes-rejaga qaraganda 4850 ming so'mga ki 7,4 foizga ortgan. Bu o'sishga ikkita omil ta'sir ko'rsatgan:

1. Ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi sonini o'zgarishi: qishloq xo'jaligi mahsulotining  $+3 \times 1393,6 = +4180,8$  ming so'mga yoki 86,2% foizga [ $4180,8 \times 100 : 4850$ ] o'sishi ekstensiv omil hisobiga, ya'ni qo'shimcha ishchi kuchi jalb qilish yo'li bilan olingan.

2. Mehnat unumdorligi darajasining o'zgarishi: qishloq xo'jaligi mahsulotining  $+13,4 \times 50 = +670$  ming so'mga yoki 13,8 foizga [ $670 \times 100 : 4850$ ] o'sishi intensiv omil hisobiga, ya'ni bitta ishlovchiga to'g'ri keladigan o'rtacha ish mahsulini oshirish natijasida olingan.

Omillar muvozanati:  $(+4180,8) + (+670) = +4850,8$  ming so'm. Bu summa yalpi mahsulot bo'yicha umumiyligi farq summasiga to'g'ri keladi. 0,8 ming so'm farq ( $4850,8 - 4850$ ) ma'lumotlar yaxlitlanishi sababidan kelib chiqqan. Foiz nisbatida

omillar muvozanati quyidagicha:  $[86,2 + 13,8] = 100$  foiz. Shunday qilib, yalpi mahsulotning bor-yo‘g‘i 13,8 foizi mehnat unumdorligining ortishi tufayli olingen bo‘lib, bu tahlil qilinayotgan obyekt faoliyatida nihoyatda salbiynatija hisoblanadi.

Ta’kidlash lozimki, qishloq xo‘jaligi korxonalarining mehnat omillarini tahlil qilishda mehnat unumdorligining umumiyligi baholanishida o‘ziga xoslik mavjud. Bu erda mehnat unumdorligi mahsulot birligining ishlab chiqarilishiga ketgan ishchi vaqt miqdori bilan, vaqt birligida ishlab chiqarilgan alohida mahsulot turlari bilan o‘lchanadi (kishi-kun, kishi-soat). Misol uchun, 1 sentner paxtaning, sutning, go‘shtning va h.ning ishlab chiqarilishiga qancha kishi-kun sarf qilingan. Kishi-kunda hisoblanuvchi 1 sentner mahsulotga mehnat xarajatlari unumdorligi nafaqat reja bilan, balki o‘tgan yil hisoboti bilan ham, shuningdek boshqa fermer xo‘jaliklari ko‘rsatkichlari bilan ham solishtirilishi lozim.

Qishloq xo‘jaligida sanoatdagidan farqli o‘larroq mehnat xarajatlari qiymatining o‘zgarishi rejada ko‘zda tutilishi mumkin bo‘lmagan aniq tahlil qilinayotgan davrda yuzaga kelgan iqlim sharoitlari bilan aniqlanadi. Shuning uchun keyingi tahlil natijalari iqlim sharoitlari o‘zgarishi tufayli mehnat xarajatlarida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lganini va turli ishlar hajmining oshirilib yuborilishi, bajarilgan ishlar va ishlab chiqarilgan mahsulotlarning noaniq hisobi, mehnatni tashkil qilish kamchiliklari natijasida qanchalik darajada ortiqcha mehnat xarajatlari va materiallar sarf qilinganligini aniqlash lozim. Qishloq xo‘jaligi korxonalarini uchun mehnat resurslarining asosiymanbai bu ushbu xo‘jalik hududida joylashgan aholi punktlarining ishga layoqatli shaxslari, shuningdek o‘smirlar hisoblanadi. Shuning uchun sanoat korxonalaridan farqli o‘larroq qishloq xo‘jaligi korxonalarida alohida tarmoqlar va ishlab chiqarish hududlari o‘rtasida ishchi kuchining mavjudligini va qo‘llanilishi tavsifini, ishlab chiqarishda ishga layoqatli aholining ishtiroy etish darajasini aniqlash lozim.

### ***3.5. Mehnat vositalari omillari tahlili***

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida mehnat vositalariga quyidagilar kiradi: er, bino, inshootlar, kuch va ish mashinalari hamda uskunalar, transport vositalari,

ishchi va mahsuldor chorva, ko‘p yillik ko‘chatlar va h. Bu yerda ham asosiy fondlar sanoatdagi kabi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish kabilarga bo‘linadi.

Mehnat vositalarining eng faol qismi bu kuch va ish mashinalari hamda uskunalari, transport vositalari (traktorlar, elektr dvigatellari, erni qayta ishlovchi mashinalar, ekish va o‘tkazish mashinalari, yig‘im-terim mashinalari) va h.

Bu erda asosiy fondlar bilan ta’milanganlik va ulardan foydalanish samaradorligi tahlilining usullari sanoat korxonasining ushbu ko‘rsatkichlari tahlilidan kam farq qiladi.

Qishloq xo‘jaligida asosiy fondlarni tahlil qilishning qishloq xo‘jaligi texnikalarini qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim xususiyatlari mavjud. Misol uchun, xo‘jalikning texnika bilan ta’milanganlik ko‘rsatkichi bitta o‘rtacha ro‘yxatdagi mashinaga energo qurollanganlik va ishlar og‘irligi hisoblanadi. Ularning birinchisi bitta ot kuchiga to‘g‘ri keladigan, ikkinchisi esa bitta mashinaga to‘g‘ri keladigan shudgor hajmini tavsiflaydi.

Energo qurollanganlikni aniqlash uchun traktorlar, kombaynlar va h.ning o‘rtacha ro‘yxat miqdorini ularning markasi bo‘yicha motorning ot kuchidagi tegishli quvvatiga ko‘paytirish va shudgor maydoniga bo‘lish lozim. Bitta mashinaga og‘irlik shudgor gektarlarini bitta mashinaga bo‘lish orqali kelib chiqadi. Og‘irlik jismoniy birliklarda kabi (mashinalar markasi bo‘yicha), shartli birliklarda ham hisoblanishi mumkin (15-kuchli traktor, 15-futli kombayn).

Hisobot yilda energo qurollanganlikni va bitta mashinaga to‘g‘ri keladigan haqiqatdagi og‘irlikni reja va o‘tgan yillar ko‘rsatkichlari bilan solishtira turib, xo‘jalikning texnika bilan ta’milanganligida, qo‘sishimcha talab qilinadigan mashinalar miqdori va turlari aniqlanadi.

Qishloq xo‘jaligi ishlarining muvaffaqiyatli bajarilishi nafaqat xo‘jalikning texnika bilan ta’milanganligiga, balki mashinalar quvvatidan to‘laligicha foydalanishga ham bog‘liqdir. Bunda texnikadan foydalanish samaradorligini mashinalarning turlari va hattoki markalari bo‘yicha amalga oshirish lozim.

Traktor parkidan foydalanishning tahlilida oldindan o‘rtacha yillik mashinalar soni va traktorning har bir markasining umumiy ish mahsulini jismoniyva shartli

birliklarda aniqlash lozim. Mashinalarning har bir markasining o‘rtacha yillik sonini aniqlash uchun mashinalarning bir yilda xo‘jalikda bo‘lishi kunlarinining umumiymiqdorini 365ga bo‘lish lozim. Shartli traktorlarning (15-kuchli) o‘rtacha yillik soni butun traktor parkining tortish quvvatini 15ga bo‘lish orqali hisoblanadi. Traktorlar bilan bajarligan ishlar yumshoq haydash gektarlarida ko‘rsatiladi. Ishlarning turli xillarini yumshoq haydash gektarlariga o‘tkazish bitta birligiga 20-22 sm. chuqurlikdagi chimqirqarli omoch bilan eski haydalgan arning bir gektarini haydashda traktoring tortish quvvati qabul qilingan maxsus koeffitsientlar bo‘yicha amalga oshiriladi.

Mashinalarning xo‘jalik tomonidan belgilangan unumdonligi ularning vaqt birligiga foydalanish me’yorini hisobga olgan holdagi quvvatining hisob-kitobi bilan asoslanadi. Traktor parkining quvvatidan foydalanish ko‘rsatkichi bo‘lib, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan ishlarning (yumshoq haydash gektarlarida) o‘sha davr uchun mumkin bo‘lgan eng yuqori ish mahsuliga nisbati hisoblanadi.

Mashinalar quvvatining eng yaxshi qo‘llanilishi hisobiga ular unumdonligi o‘sishining imkoniyatlari ta’siri quyidagi uchta yo‘nalishda olib boriladi: har bir shartli va jismoniy traktorga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yillik ish mahsuli aniqlanadi, yil davomida ishlangan mashina-kun va mashina-smenalar miqdori aniqlanadi, ya’ni traktor parkining vaqt bo‘yicha ishlatilishi, va o‘rtacha oylik (o‘rtacha kunlik) ish mahsuli aniqlanadi. Traktorlardan foydalanish samaradorligini tavsiflash uchun quyidagi jadval tuziladi.

### 3.4- jadval.

#### **Traktor parkidan foydalanish samaradorligi tahlili**

Nº t/r	Ko‘rsatkichlar	Biznes-reja bo‘yicha	Hisobot bo‘yicha	Farq (+,-)
A	B	1	2	3
1.	Etalon shartlarga qayta hisoblangan traktorlarning o‘rtacha yillik soni	71	70	-1
2.	Shartli haydashga qayta hisoblangan jami bajarilgan ishlar, ga	152912	140086	-11926
3.	Mavsumda etalon shartli traktorga to‘g‘ri keladigan ish mahsuli (2-qator:1-qator), ga	2141	2001,2	-139,8
4.	Ishlangan mashina-kunlar soni	13977	12807	-1170

5.	Bitta mashina-kunga to‘g‘ri keladigan ish mahsuli (2-qator:4-qator), ga	10,9	10,9	-
6.	Ishlangan mashina-smenalar soni	17461	15731	-1730
7.	Bitta mashina-smenaga to‘g‘ri keladigan ish mahsuli (2-qator:6-qator), ga	8,7	8,9	+0,9
8.	Smenalik koeffitsienti (5-qator:7-qator)	1,25	1,23	-0,02
9.	Bitta shartli traktorga mashina-smenalar miqdori	245,9	224,7	-21,2

3.4. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, hisobot yilida fermer xo‘jaligida mexanizatsiyalashtirilgan ishlar bo‘yicha biznes-reja 11926 ga.ga yoki 7,8 foizga bajarilmagan. Bu kamayishga quyidagi ikkita omil ta’sir ko‘rsatgan:

1. Traktorlar o‘rtacha yillik sonining o‘zgarishi:  $-1 \times 2141 = -2141$  ga.
2. Mavsum uchun shartli etalon traktoriga to‘g‘ri keladigan ish mahsulining o‘zgarishi:  
 $- 139,8 \times 70 = 9786$  ga.

Omillar muvozanati:  $(-2141) + (-9786) = -11927$  ga.

Keyingi tahlil shuni ko‘rsatadiki, fermer xo‘jaligi bitta shartli etalon traktoriga rejadagi og‘irlikni bajargan holda ishlarning haqiqiy hajmini 65 ta traktorlar bilan bajarish uddasidan chiqdi (140086:2141).

Kombaynlardan foydalanish ham shunga o‘xshash. Bunda bitta g‘alla yig‘uvchi va makkajo‘xori yig‘uvchi kombaynga, lavlagi kombaynga, silos yig‘uvchi kombaynga, paxta terish kombayniga to‘g‘ri keladigan mavsumiyva kunlik ish mahsuli aniqlanadi.

### ***3.6. Yer-suvdan foydalanish tahlili.***

Qishloq xo‘jaligida er ishlab chiqarishning asosiy vositasi hisoblanadi. U, bir tomonidan inson uning yordamida qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekib, mehnat vositasi vazifasini bajarsa, ikkinchi tomonidan mehnat predmeti vazifasini bajaradi va inson unga ta’sir ko‘rsatib o‘simlik va chorva mahsulotlarini oladi. Xo‘jalik tomonidan egallangan er qismlarga bo‘linib, ular muayyan ishlab chiqarish yo‘nalishiga egadir (qayta ishlovdagি shudgor, partov yerlar, bo‘z yerlar, qo‘riq yerlar, pichanzorlar, o‘tloqlar, yaylovlар va ko‘p yillik ko‘chatlar), ishlab chiqarish uchun foydalanilmaydigan qismlar: o‘rmon, butazorlar, o‘rmon melioratsiyasi ko‘chatlari,

ko‘llar, havzalar, va boshqa yer-suv mulklari (yo‘llar, ariqlar, botqoqlar, qo‘rg‘on yerlari va h.). Qishloq xo‘jaligi korxonasi er fondiningbu ikkita qismga bo‘linishi, ularning ichida esa alohida qismlarga bo‘linishi o‘zgarishsiz bo‘lmaydi. Xo‘jalik rivojlanishi jarayonida bitta yer-suv mulki boshqalariga, odatda, ekstensiv va intensivlariga o‘tadi. Masalan, kam hosilli yaylovlar shudgorga, qo‘riq va bo‘z yerlar buziladi va h..

Yerlardan foydalanish darajasi haqida muhokama qilish uchun, avvalo yer fondining tuzilishini tahlil qilib chiqish lozim. Yerlardan foydalanish darajasini o‘rganish uchun ishlab chiqarish yo‘nalishidagi barcha yerlar maydonining xo‘jalik egallab turgan yerkarning umumiy natijasiga nisbatini, haydalgan yerkarning qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi yerdagagi ulushini va shudgorning – haydalgan yerdagagi ulushini belgilash lozim. Keyin hisobot yilda hisoblangan ko‘rsatkichlarni o‘tgan yilning xuddi shundaylari bilan, shuningdek bir xil tabiiy-iqtisodiy sharoitlarga ega bo‘lgan ilg‘or xo‘jaliklarning tegishli ko‘rsatkichlari bilan solishtirish zarur. Yerlar tuzilishi bilan bir qatorda yer-suv mulklaridan foydalanish samaradorligini o‘rganish lozim. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarilishining samaradorligini oshirish uchun avvalo fermer xo‘jaliklari ajratilayotgan yer maydonlarini optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yer-suv mulklaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichi bu maydon birligidan chiqqan mahsulot miqdoridir. Qishloq xo‘jaligi yer-suv mulklaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilishda chiqayotgan mahsulot miqdorining o‘zgarishini va xo‘jalik foydalanayotgan yerkarning 100 hektariga to‘g‘ri keladigan chorvaning mavjudligini aniqlash lozim. Keyin, aniqlangan farqlar ko‘rsatkichlariga tayangan holda u yoki bu o‘zgarishlarning sabablari o‘rganiladi.

Mahsulotning muayyan turlari ishlab chiqarilishining ko‘rsatkichlarini hisoblashda qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi yerkarning butun maydoni emas, balki xo‘jalikning ko‘rsatilgan tarmoqlar bilan o‘zaro bog‘langan qismlari hisobga olinadi. Masalan, o‘simlikshunoslik mahsulotlarini ishlab chiqarish (tabiiyerlarning emashaklaridan va ko‘p yillik ko‘chatlarning hosilidan tashqari) shudgordan

foydanish bilan bog‘liq. Shuning uchun o‘simlikshunoslik tarmoqlarining rivojlanish ko‘rsatkichlarini aniqlovchi sifatida shudgorning 100 hektariga chiqqan mahsulot miqdori olinadi. Chorvachilikning sut va jun kabi mahsulotlarining ishlab chiqarilgan miqdori yerkarning 100 hektariga hisoblanadi, go‘shtniki esa – alohida 100 hektar shudgor va 100 hektar boshqa qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi yerkarga hisoblanadi. Tuxum kabi parrandachilik mahsuloti dukkakli g‘alla ekinlarining 100 hektariga hisoblanadi.

Yerdan foydanishda ishlab chiqarish va mehnat vositalarini oqilona qo‘llash nuqtai nazaridan almashlab ekishni tekshirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

### ***3.7. Qishloq xo‘jaligi mahsuloti tannarxining tahlili***

Qishloq xo‘jaligi mahsuloti tannarxining tahlili “Xarajatlar tarkibi to‘g‘risida”gi Nizomga ko‘ra sanoatdagi kabi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining bir qator xususiyatlarini hisobga olgan holda olib boriladi. Masalan, dehqonchilik mahsulotining tannarxi bir yilda bir marta. Xarajatlar ekinlar, ishlar va tarkibiy qismlar bo‘yicha hisobga olinadi. Qishloq xo‘jaligi mahsuloti tannarxini tahlil qilishda quyidagilarni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq: yalpi xarajatlar (yalpi mahsulot tannarxi); mahsulot muayyan turlarining tannarxi; ishlar va yordamchi ishlab chiqarish mahsulotlarining tannarxi.

Yalpi xarajatlarni tahlil qilishda joriy xarajatlarning va yalpi mahsulot hajmining o‘sish sur’atlari ko‘rib chiqiladi (solishtirma narxlarda). Yalpi xarajatlar darajasi va o‘sish sur’atlaridagi farqlar ularning quyidagi tarkibiy qism tarkibining o‘zgarishini tahlil qilish orqali aniqlanadi: mehnatga haq to‘lash xarajatlari, yoqilg‘i-moylash materiallari, o‘g‘itlar, urug‘lar, yem-xashak; eskirish bo‘yicha chegirmalar; ijtimoiy sug‘urtaga chegirmalar va boshqa xarajatlar.

Mahsulot muayyan turlarining tannarxi tahlili har bir mahsulotning ishlab chiqarilishini nazorat qilish zarur.

Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari bo‘yicha tannarx tahlili alohida yuritiladi. O‘simlikshunoslik mahsulotining tannarxi darajasi quyidagi ikkita omilga bog‘liq: 1 gektarga hosildorlik va xarajatlar. Bunda tannarx ekish maydonining qayta

ishloviqa to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlikda va hosildorlikka teskari bog‘liqlikda hisoblanadi.

1 gektar ekinga va 1 sentner mahsulotga xarajatlarni alohida qismlar bo‘yicha tahlil qilishda zarur shart bo‘lib, rejadagi va hisobot muddatlaridagi xarajatlarni solshtirish mumkinligidir.

Chorvachilik mahsulotini ishlab chiqarish rejasining bajarilishi chorva bosh soniga va uning mahsuldorligiga bog‘liq.

Dehqonchilik mahsulotining tannarxini tahlil qilish usulini ko‘rsatamiz (3.5. jadval).

### 3.5- jadval

#### **Yem-xashak tayyorlash bo‘yicha xarajatlar va hosildorlikning mahsulot tannarxiga ta’siri tahlili**

№ t/r	Ko‘rsatkichlar	Reja bo‘yicha	Hisobot bo‘yicha	Farq	
				Mutlaq	foizda
A	B	1	2	3	4
1.	1 sentner mahsulotning tannarxi (3-qator:2-qator), ming so‘m	12	12,5	+0,5	+4,2
2.	1 gektardan hosildorlik, sentnerda	80	90	+10	+12,5
3.	1 gektar ekinga xarajatlar (1-qator x 2-qator), ming so‘m	960	1125	+165	+17,2

Hisobot yili uchun 1 sentner mahsulotning tannarxi 500 so‘mga ortgan. Rejadagi tannarxdan haqiqatdagi tannarxning farq qilishiga quyidagi ikkita omil ta’sir qiladi:

1. 1 gektar ekinga xarajatlarning o‘zgarishi. Buning uchun rejadagi xarajatlar va haqiqatdagi hosildorlikda mahsulot tannarxini aniqlash lozim:

$$a) 960000 : 90 = 10666,6 \text{ so‘m};$$

$$b) 12500 - 10666,6 = +1833,4 \text{ so‘m}.$$

2. 1 gektardan olinadigan hosildorligi o‘zgarishi:  $- 10666,6 - 12000 = - 1333,4 \text{ so‘m}$ .

Omillar muvozanati:  $(+1833,4) + (-1333,4) = +500 \text{ so‘m}$ .

Chorvachilik mahsulotining tannarxiga chorva bosh soni va uning mahsuldorligi ta'siri xuddi shundayusul bilan tahlil qilinadi.

Chorvachilikda chorva bosh sonini ko‘paytirishning asosiy rezervi bu 100ta modalarga tug‘ilish miqdorining o‘sishi, chorva o‘latining kamayishi hisoblanadi. Har bir xo‘jalikda doimiy ravishda podaning qayta tiklanish jarayoni ketmoqda, uning tuzilishi, miqdori, tug‘ilishi, yoshlarini katta guruhlarga o‘tkazish, hayvonlarni brakka chiqarish va sotish o‘zgarmoqda.

Tahlil qilishda hayvonlar turlari kesimida foydali bosh soni bo‘yicha rejaning bajarilishi muhim ahamiyatga ega. Bu ko‘rsatkich 100 ta sigirga buzoqlar yoki 100 ta sigirga g‘unajinlar, qo‘zilar esa 100 ta ona qo‘ylarga hisobida aniqlanadi.

Chorvachilikda hayvonlarni em-xashak bilan ta’minlashni tahlil qilish muhimdir. Yem-xashak bilan ta’minlanganlikni baholashni nafaqat og‘irligi bo‘yicha, balki olingan yem-xashak birliklarining ozuqa moddalarini, soni bo‘yicha amalga oshirish zarur.

Yem-xashak birligi – yem-xashaklarning ozuqa qiymati me’yori.

### ***3.8. Moliyaviy natijalar tahlili***

“Xarajatlar tarkibi to‘g‘risida”gi Nizomga ko‘ra qishloq xo‘jaligi korxonalarining moliyaviy natijalari quyidagi foyda ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi:

1. Qishloq xo‘jaligi mahsulotini sotishdan tushgan yalpi foyda qishloq xo‘jaligi mahsulotini sotishdan tushgan tushum va uning ishlab chiqarilish tannarxi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.
2. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan foyda qishloq xo‘jaligi mahsulotini sotishdan tushgan yalpi foyda bilan davr xarajatlari plyus yoki minus asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar yoki zararlar o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.
3. Umumxo‘jalik faoliyatidan foyda algebraik summa sifatida aniqlanadi: asosiy faoliyatdan foyda + moliyaviy faoliyatdan daromad – moliyaviy faoliyat xarajatlari.
4. Soliq to‘langunga qadar foyda umumxo‘jalik faoliyatidan daromad va favqulodda foyda va zararlar qoldig‘i algebraik summasi sifatida aniqlanadi.

5. Sof foyda = soliq to‘lagunga qodar foyda minus foydadan soliq hamda boshqa soliqlar va ajratmalar. Sof foyda dividendlar to‘lashga va zaxira sarmoyani to‘ldirishga yo‘naltiriladi. Kezi kelganda shuni ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi tarmog‘i bo‘yicha ko‘rilgan sof zarar 2014- yili 28658,5 mln.so‘mni, 2015- yili 59359,5 mln.so‘mni, 2016- yili 7272,8 mln.so‘mni tashkil bo‘lsa, faqat 2017- yili 18996,7 mln.so‘m sof foyda olindi<sup>11</sup>. Shu bois, qishloq xo‘jaligi korxonalarining foyda ko‘rsatkichlarining o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilish o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, qishloq xo‘jaligi mahsuloti sotilishidan tushgan yalpi foydaning o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarni (3.6-jadval).

3.6. jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, hisobot yilida qishloq xo‘jaligi mahsulotini sotishdan tushgan yalpi foyda biznes-rejaga qaraganda 1505 ming so‘mga yoki 106,5 foizga ko‘paygan. Bu ko‘payishga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatgan:

1. Qishloq xo‘jaligi mahsuloti narxlari o‘zgarishi. Bu omilning ta’siri hisobot bo‘yicha amaldagi narxlarda (3-ustun) sotishdan tushgan tushum va tayanch muddat narxlari (2-ustun) o‘rtasidagi farq sifatida belgilanadi.

### 3.6-jadval.

#### Fermer xo‘jaligining yalpi foyda o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillar tahlili

№ t/r	Ko‘rsatkichlar	Shakl №i	Biznes-reja bo‘yicha	Mahsulotning haqiqatdagи sotilishiga to‘g‘rilangan reja bo‘yicha	Haqiqatda
A	B	V	1	2	3
1	Qishloq xo‘jaligi mahsulotini sotishdan tushgan tushum	010 2-sh.	70065	71000	72050
2	Sotilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotining ishlab chiqarish tannarxi	020 2-sh.	47000	47200	47480
3	Qishloq xo‘jaligi mahsulotini sotishdan tushgan yalpi foyda 1.qat. - 2.qat.	030 2-sh.	23065	23800	24570

<sup>11</sup>. Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. Финансы Узбекистана 2018. Статистический сборник. 2018 год..

Bizning misolda bu 1050 ming so‘m (72050 - 71000) yoki 69,8 foizga (1050\*100/1505) yalpi foydaning o‘sishi inflyatsiya natijasida narxlar oshishi hisobiga olingan. Buxgalteriya hisobi ma’lumotlarining tahlili har bir muayyan holatda (o‘simlikshunoslik va chorvachilik mahsulotining har bir turi bo‘yicha) narxlarning oshirilib (pasaytirib) yuborlishi sabablarini aniqlash imkonini beradi.

2. Sotilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotining ishlab chiqarish tannarxi o‘zgarishi:  $47480 - 47200 = +280$  ming so‘m. Qishloq xo‘jaligi mahsuloti tannarxining qimmatlashishi natijasida yalpi foyda 18,6 foizga kamaydi ( $280 \times 100 : 1505$ ).

3. Qishloq xo‘jalik mahsulotining sotilishidan tushadigan tushumning o‘zgarishi. Ushbu omil o‘zgarishining ta’sirini aniqlash uchun avvalo tushum hajmi nisbatan qanchalik o‘zgarganligini aniqlash lozim. Buning uchun 3.6. jadval ma’lumotlari bo‘yicha quyidagicha hisob-kitob qilamiz.

- a)  $71000 \times 100 : 70065 = 101,33$  foiz
- b)  $1,33 \times 23065 : 100 = 306,7$  ming so‘m.

Tushum hajmining 1,33 foizga ko‘payishi natijasida yalpi foyda 306,7 ming so‘mga yoki 20,4 foiz ( $306,7 \times 100 : 1505$ ) oshgan.

4. Sotilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotining tuzilishini o‘zgartirish. O‘simlikshunoslik va chorvachilik mahsulotlarining har xil turlari har xil darajadagi rentabellik darajasiga ega bo‘lganliklari sababli, ularning tuzilishini o‘zgartirgan taqdirda qo‘sishimcha foyda yoki zarar olinishi mumkin. Agar hisobot yilida yanada yuqori rentabelli ko‘proq mahsulotlar sotilgan bo‘lsa, sotishdan tushgan foyda ko‘payadi. Rejaga qarshi past rentabelli mahsulotlar ulushini oshirish, aksincha, sotishdan tushgan foydani kamaytiradi.

Ushbu omil o‘zgarishining ta’siri ikkita usul bilan aniqlanadi:

1. Balans hisobi yo‘li bilan, ya’ni yalpi foydaning umumiy farqidan avval hisoblangan omillar olingandan keyingi farq sotilgan mahsulotlar tuzilishi o‘zgarishining sotishdan tushgan yalpi foyda hajmiga ta’sirini ko‘rsatadi:

$$1505 - (1050 - 280 + 306,7) = +428,3 \text{ ming so‘m}$$

$$\text{Omillar muvozanati } 1050 - 280 + 306,7 + 428,3 = +1505 \text{ ming so‘m.}$$

Balans hisobi usuli agar oldin hisoblangan omillar to‘g‘ri hisoblab chiqilgan holatdagina to‘g‘ri bo‘ladi. Shuning uchun amaliyotda ikkinchi usul qo‘llanilib, unda sotilgan mahsulotlar tuzilishi o‘zgarishining ta’siri quyidagicha tartibda aniqlanadi:

Qishloq xo‘jalik mahsulotini sotishdan tushgan tushumi bilan ishlab chiqarish tannarxi o‘sishi sur’atlari o‘rtasidagi farq reja bo‘yicha ishlab chiqarish tannarxiga ko‘paytiriladi va 100 ga bo‘linadi.

a) sotishdan tushgan tushum rejasingin bajarilishi:  $71000 \times 100 : 70065 = 101,33$  foiz

b) tannarx bo‘yicha reja bajarilishi:  $47200 \times 100 : 47000 = 100,42$  foiz

v) foizlar darajasidagi farq:  $101,33 - 100,42 = +0,91$  foiz

g)  $+0,91 \times 47000 : 100 = +427,7$  ming so‘m.

Shunday qilib, tuzilishdagi o‘zgartirishlar hisobiga fermer xo‘jaligning yalpi foydasi 427,7 ming so‘mga yoki yalpi foydaning 28,4 foizga [ $427,7 \times 100 : 1505$ ] o‘sishi o‘simlikshunoslik va chorvachilikning yanada rentabelliq mahsulotlar sotilishi hisobidan olingan.

Yalpi foydaning umumi farqi 1505 ming so‘m ( $24570 - 23065$ )ni tashkil qilgan bo‘lib, omillar ta’sirining summasi bo‘yicha muvozanatga keladi:

$1505 = 1050 - 280 + 306,7 + 428,3$

Tahlil natijalari quyida yalpi foyda farqiga omillar ta’siri keltirilgan: yalpi foyda farqining ming so‘mdagi ko‘rsatkichlari – jami 1505, shu jumladan quyidagilar hisobidan:

a) shartnomaviynarxlar o‘zgarishi	1050
b) tannarx o‘zgarishi	-280
v) sotishdan tushgan tushum o‘zgarishi	306,7
g) mahsulotlar turlari tuzilishining o‘zgarishi	428,3

Ushbu ma’lumotlardan ko‘rinib turganidek, yalpi foyda farqiga eng katta ta’sirni narx omillari ko‘rsatgan. Narxlar o‘sishi hisobiga 1050 ming so‘m 68,9foiz qo‘sishcha foyda olingan, sotishdan tushgan tushum o‘sishi hisobiga 306,7 ming

so‘mga yoki 20,4foizga olingan. Tannarx qimmatlashishi natijasida esa yalpi foyda 18,6 foizga kamaygan.

Yalpi foyda o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillar tahlilining usullarini ifodalash uchun boshlang‘ich ma’lumotlar sifatida o‘simglikshunoslik va chorvachilik mahsulotlarining butun hajmi qabul qilingan. Yanada aniqroq tahlil mahsulot ayrim turlarining sotilishi natijalari bo‘yicha amalga oshiriladi. Foydaga ta’sir qiluvchi ko‘rsatkichlarni hisoblash tamoyillari yuqorida keltirilgan hisob-kitoblardan farq qilmaydi. Faqat shuni nazarda tutish kerakki, mahsulotning har bir turi bo‘yicha foydani tahlil qilishda assortiment tuzilishi omili yo‘q bo‘ladi.

Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan, umumxo‘jalik faoliyatidan foyda, soliq to‘langunga qadar va sof foyda ko‘rsatkichlarining tahlili ularning sanoat korxonalaridagi tahliliga o‘xshab ketadi.

Rentabellik ko‘rsatkichlari tahlili usullari ularning sanoatdagi tahlilidan kam farq qiladi.

### ***3.9. Moliyaviy holat tahlili***

Xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida moliyaviy hisobotning yagona shakllari qo‘llanilishi moliyaviy holat tahlili usullaridagi farqni o‘chira boshladi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish sanoatdagi kabi muayyan ketma-ketlikda olib boriladi, chunonchi avvalo qishloq xo‘jaligi korxonalari mulkining tarkibi aniqlanadi: uzoq muddatli va joriyaktivlar: joriyaktivlar tarkibi; zaxiralar va xarajatlar, debitorlar, pul mablag‘lari; zaxira va xarajatlar holati; mulkka kiritilgan mablag‘lar tuzilishi va xususiy aylanma mablag‘lar mavjudligi va ular bilan ta’minlanganlik.

Keyin quyidagilarni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi: moliyaviy barqarorlik, likvidlik, to‘lovga layoqatlilik va ishbilarmonlik. Moliyaviy holat tahlilining asosiy manbalari bo‘lib №1; 2; 3; 4; 5; 2<sup>a</sup> shakllari va hisobdan tashqari ma’lumotlar hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi korxonalarining moliyaviy holatini tavsiflovchi yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilish usullari ularning sanoatdagi tahlilidan kam farq qiladi.

Moliyaviy holat tahlilida qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatining bir qator xususiyatlarini va ishlab chiqarish munosabatlari tavsifini hisobga olish zarur.

Masalan, xo‘jalik aktivlari asosiy va aylanma kabilarga bo‘linadi, bunda ishlab chiqarish yo‘nalishidagi asosiy vositalar katta ahamiyatga ega. Yosh chorva mollari va boquvdagi mollar, ombordagi urug‘lar, shuningdek kelasi yil hosili uchun urug‘lar, yem-xashak zaxiralari, to‘shamalar va hokazolar aylanma mablag‘lar tarkibiga kiradi. Yosh chorva mollari va boquvdagi mollar asosiy emas, aylanma mablag‘larga tegishliligi sababi ular o‘ziga xos ishlab chiqarish jarayonida bo‘lib, ularning korxona xo‘jalik faoliyatidagi roli boquvdan keyin yoki yosh mol katta yoshli chorva tarkibiga kiritilishidan keyin belgilanadi. Agar yosh mol asosiy podaga qo‘shilsa, u asosiy vositalar tarkibiga kiritilgan hisoblanadi. Yetishtirilgan yoki boqilgan molni sotish va uning qiymatini pulga aylantirish holatida mol xo‘jalik mahsuloti hisoblanib u aylanma mablag‘lar sinfiga kiritiladi. Ta’kidlash lozimki, olingan mahsulotning bir qismi xo‘jalikda mehnat predmeti sifatida qoladi (urug‘lar, chorva uchun em-xashak va h.). bunday vositalar qoldiqlarini yanada aniqroq va to‘liqroq tahlil qilish uchun natural o‘lchovdagi qo‘shimcha ma’lumotlarni jalb qilish lozim bo‘ladi. Moliyaviy holat tahlilining yana bir xususiyati shundaki, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi mavsumiy tavsif va xo‘jalik ishlarining yo‘nalishlariga ega (ko‘ptarmoqli va ixtisoslashgan – otboqarlik, qo‘yboqarlik yoki muayyan ekinlar – uzum, dorivor o‘simliklar va h.)

### **3.10. Umumiyl xulosa**

Ushbu mavzuni o‘rganish natijasida talaba qishloq xo‘jaligi korxonalarining iqtisodiy tahlilini tashkiliy tamoyillari va xususiyatlari, chunonchi o‘simlikshunoslik va chorvachilik bo‘yicha ishlab chiqarish dasturining bajarilishini tahlil qilish usullari, resurslardan foydalanish samaradorligi, mahsulot tannarxi, shuningdek moliyaviy natijalar va moliyaviy holat xususiyatlarini bilish lozim.

### ***3.11. Mavzuga doir kalit so‘zlar***

O‘simlikshunoslik va chorvachilik bo‘yicha ishlab chiqarish dasturi; yalpi mahsulot; tovar mahusloti; tovarlik darajasi; yalpi yig‘im; ekin maydoni; hosildorlik; chorvachilik mahsulotining yalpi miqdori; chorva bosh soni; bitta boshga to‘g‘ri keladigan mahsuldorlik; mehnat omillari; mehnat vositalari omillari; mehnat predmetlari omillari; traktor parkidan foydalanish samaradorligi; mavsumda bitta shartli etalon traktoriga to‘g‘ri keladigan ish mahsuli; almashinish koeffitsienti; ersuv mulklari; o‘simlikshunoslik mahsuloti 1 sentnerining tannarxi; 1 hektardan olinadigan hosildorlik; ekining 1 hektariga to‘g‘ri keladigan xarajatlar; qishloq xo‘jalik mahsulotini sotishdan tushgan yalpi foyda; asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan foyda; umum xo‘jalik faoliyatidan foyda; soliq to‘lagunga qadar foyda; sof foyda; moliyaviy holat tahlilining xususiyatlari; uzoq muddatli aktivlar; joriy aktivlar; zaxiralar va xarajatlar, debitorlar; pul mablag‘lari; mablag‘lar manbalari tuzilishi; xususiy aylanma mablag‘lar mavjudligi; qarzga olingan mablag‘lar.

### ***3.12. Talabalar bilimlarini tekshirish uchun savollar***

1. Dehqonchilik bo‘yicha rejaning bajarilishini qanday aniqlash mumkin?
2. Chorvachilik bo‘yicha rejaning bajarilishini qanday aniqlash mumkin?
3. Qishloq xo‘jalik mahsuloti miqdoriga ta’sir qiluvchi omillar qanday guruhlanadi?
4. Qishloq xo‘jaligi korxonalari mehnat omillari tahlilining xususiyatlari qanday?
5. Fermer xo‘jaligining asosiyvositalardan foydalanish samaradorligi tahlilining xususiyatlari qanday?
6. Mehnat predmetlari omillari tahlilining xususiyatlari qanday?
7. Qishloq xo‘jalik mahsuloti tannarxi rejasining bajarilishi qanday tahlil qilinadi?
8. Moliyaviy natijalar tahlilining xususiyatlari qanday?
9. Qishloq xo‘jaligi korxonalari moliyaviy holati tahlilining xususiyatlari qanday?

### ***Asosiy adabiyot***

1. Баканов И.М., Шеремет А.Д. Экономический анализ. -М.: «Финансы и статистика», 1999 г.

2. Raxmanov K.R. «Qishloq xo‘jalik korxonalarining xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish». –T.: TDIU, 2015.
  3. Vohobov A.V va boshqalar. Boshqa tarmoqlarda iqtisodiyat tahlil xususiyatlari.-T.: 2017 y.
  4. “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida Nizom. O‘R Vazirlar mahkamasi qarori.5.02.1999. 54-son.
2. Qo‘shimcha adabiyot
1. Akramov E.A. «Korxonalarining moliyaviy holati tahlili» - T.:Moli.2015.
  2. Абдукаримов И.Т. «Как читать и анализировать финансовую отчётности » Изд.дом «Мир экономики и права», Т.: 1998 г.
  3. Волжин И.О. Ергашбаев В.В. Финансовый анализ. Изд.дом «Мир экономики и права», Ташкент. 1998 г.
  4. Бернстайн Л.А. «Анализ финансовой отчётности», М.: «Финансы и статистика», 1996 г.
  5. Ефимова О.В. Финансовый анализ. –М.: «Бухгалтерский учёт», 2016 г.
  6. Ковалев В.В. «Финансовый анализ» М.: «Финансы и статистика», 2015г.
  7. Шеремет А.Д., Негашев Е.В., «Методика финансового анализа деятельности комерческих организаций»: М.: ИНФР-М, 2017.
  8. Г.В.Савитская. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. М.ИНФРА-М. 2017г.

## **IV BOB: SAVDO TASHKILOTLARI XO‘JALIK FAOLIYATINI IQTISODIY TAHLILINING XUSUSIYATLARI**

### ***4.1. Savdo tashkilotlari xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishda tahlilning ahamiyati va vazifalari***

Chakana tovar aylanmasi – bu savdo korxonalari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichidir. Uning hajmi va tuzilishiga savdo korxonalarining xo‘jalik va moliyaviy faoliyatini tavsiflovchi boshqa barcha xarajatlar bog‘liqdir (muomala xarajatlari, savdo-sotiq xodimlarining mehnatiga haq to‘lash fondi, yalpi daromad, foyda, rentabellik va h.).

Tovar aylanmasi va foyda – bu ikkita asosiy ko‘rsatkich bo‘lib, ular asosida chakana savdo korxonalarining xo‘jalik faoliyati baholanadi. Tovar aylanmasi biznes-rejasini bajarish tahlilining asosiy vazifasi bo‘lib , u tovar aylanmasi bo‘yicha biznes-reja qanchalik darajada bajarilganligini, hisobot davrida tovar aylanmasida qandayo‘zgarishlar va nima hisobidan yuz bergenligini, tovar aylanmasini oshirish va aholiga savdo xizmati ko‘rsatishni yaxshilash bo‘yicha mavjud imkoniyatlar qanchalik to‘liq qo‘llanilganligini aniqlashdir.

Chakana tovar aylanmasi tahlilida tovar aylanmasi bo‘yicha biznes-reja bajarilishi nafaqat tashkilot doirasida, balki savdo korxonalari kesimida, shuningdek tovar aylanmasining o‘sish sur’atlari solishitiriladi; chakana tovar aylanmasi biznes-rejasining barcha savdo korxonalari tomonidan bir maromda bajarilishi tekshiriladi va hisobot davrida alohida savdo korxonalari bo‘yicha biznes-reja bajarilishdan og‘ishlarni keltirib chiqargan sabablar aniqlanadi.

Bunda statistik va tezkor hisobot ma’lumotlariga ko‘ra rejaning choraklar, oylar, o‘n kunliklar va har kuni bajarilish darajasi ko‘rib chiqiladi.

Tahlil jarayonida savdo tarmog‘ini rivojlantirish, mavsumiy savdoni kengaytirish, savdo xizmati ko‘rsatishning yangi shakllarini kiritish bo‘yicha rejaning bajarilish darajasi, shuningdek kundalik talabga ega bo‘lgan mahsulotlarning uzluksiz savdosi ta’minlanganligi aniqlanadi.

Tovar aylanmasi solishtirma ma’lumotlar asosida olib boriladi. Shuning uchun agar hisobot davrida savdo tarmog‘ida (talab tomonidan yoki do‘konlarning boshqa

tashkilotlarga berilishi) yoki ayrim mahsulotlar narxida o‘zgarishlar sodir bo‘lgan bo‘lsa, unda tovar aylanmasi biznes-rejasiga tegishli tuzatiishlar kirilganligini tekshirish lozim.

Chakana tovar aylanmasi biznes-rejasining bajarilishi katta ahamiyatga ega, sababi bank g‘azna rejasining kirim qismida savdo tushumining ulushi 80-85 foizga teng bo‘lib, savdo korxonalari ish haqi, nafaqa, stipendiyalar to‘lash, valyuta barqarorligini mustahkamlash va h. uchun o‘z vaqtida pul berilishini ta’minlab turadi.

#### **4.2. Tovar aylanmasi bo‘yicha biznes-rejaning bajarilishini tahlili**

##### **4.1- jadval.**

##### **Tovar aylanmasi bo‘yicha biznes-rejaning bajarilishi tahlili**

Ko‘rsatkichlar	Haqiqatda o‘tgan yilda	Hisobot yili		Farqlar (+,-)		O‘sish sur’ati foizda
		biznes- rejada	haqiqatda	biznes- rejaga nisbatan	o‘tgan yilga nisbatan	
A	1	2	3	4	5	6
Chakana tovar aylanmasi	135000	144000	148610	+4610	+13610	110,1

Chakana tovar aylanmasi bu mahsulotlarning bevosita iste’molchiga – aholiga sotilishidir.

Chakana tovar aylanmasi tarkibiga quyidagilar kiradi: aholiga mahsulotlarni kreditga va naqd pulsiz mayda ulgurji hisobda sotish (savdo tarmog‘idan mahsulotlarni muassasalarga, sanatoriylarga, hordiq chiqarish uylariga va h.larga sotish).

Chakana tovar aylanmasining tahlili umumiylajmiy hajm va o‘zgarishlar bo‘yicha rejaning bjaralishini aniqlashdan boshlanadi

Tahlil qilish ma’lumot 4-shakl «Sotish va mol berish hisoboti»dan, shuningdek savdo tashkilotining biznes-rejasidan olinadi.

4.1. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turganidek, savdo tashkiloti hisobot yilida tovar aylanmasi bo‘yicha biznes-rejani 4610 ming so‘mga yoki 3,2 foizga ortig‘i

bilan bajargan. O‘tgan yilga qaraganda tovar aylanmasi hajmi 13610 ming so‘mga oshib, o‘tgan yil darajasiga qaraganda 10,1 foizga ortgan.

#### 4.2-jadval.

##### **Sotish turlari bo‘yicha chakana tovar aylanmasi tuzilishining tahlili**

Sotish turlari	Haqiqatda o‘tgan yilda		Haqiqatda hisobot yilda		Farqlar (+,-)		O‘sish sur’atlari foizda
	summa ming so‘mda	ulushi foizda	summa ming so‘mda	ulushi foizda	summa ming so‘mda	ulushi foizda	
A	1	2	3	4	5	6	7
Jami chakana tovar aylanmasi	135000	100	148610	100	+13610	–	110,1
SHu jumladan: - Naqd pul hisobiga...	125650	93,08	138720	93,35	+13070	+0,27	110,4
- kreditga...	8500	6,22	9000	6,06	+500	-0,16	106
- mayda ulgurji aylanma	850	0,70	890	0,59	+40	-0,11	105

Savdo tashkilotlarining faoliyatida nafaqat yil davomida, balki yilning alohida muddatlarida bajarilish ham muhimdir: oylar, choraklarda bajarilishi xaridorlarga bir maromda xizmat ko‘rsatilishi haqida guvohlik beradi.

Tovar aylanmasi tahlilida nafaqat o‘tgan yil ma’lumotlari, balki bir qator yillar ma’lumotlari bilan solishtirilishi lozimki, bu savdo rivojlanishining tamoyillarini aniqlash imkonini beradi.

Chakana tovar aylanmasi rejasining choraklar va oylar bo‘yicha bir tekisda bajarilishini tahlil qilishda maromlilik koeffitsienti reja bajarilgan muddatlar sonining umumiymiqdorga nisbati orqali aniqlanadi.

Tahlil qilishda chakana tovar aylanmasi tarkibini uning turlari va savdo qilish usullari bo‘yicha o‘rganish lozim. Chakana tovar aylanmasi tuzilishini sotish turlari bo‘yicha tarkibini tahlil qilamiz (4.2. jadval)

4.2. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, o'tgan yilga qaraganda tovar aylanmasi hajmining ko'payishi barcha sotish turlarining o'sishi bilan tavsiflanmoqda. Asosiy turi – 93 foizni tashkil qiluvchi naqd pulga sotish ham 13070 ming so'mga ortgan.

#### 4.3. jadval.

#### **Mahsulot guruhlari kesimida chakana tovar aylanmasi rejasining bajarilishi**

№ t/r	Mahsulot guruhrarining nomlanishi	Biznes- reja bo'yicha	Hisobot bo'yicha	Farq (+,-)		(ming so'mda) Mahsulot aylanmasi tuzilishining sotish natijasiga nisbatan foizi, foizda		
				Mutlaq	foizda	Reja bo'yicha	Hisobot bo'yicha	Rejadan farq
A	B	1	2	3	4	5	6	7
1	Tikuv mahsulotlari	39400	39860	+460	+1,2	27,4	26,8	-0,6
2	Trikotaj mahsulotlari	30270	31770	+1550	+5	21	21,4	+0,4
3	Attorlik mollari	15210	16510	1300	+2	10,6	11,2	+0,6
4	Oyoq kiyimlar	10760	11120	+360	+3,4	7,5	7,5	-
5	Madaniymollar	8620	9220	+600	+7	5,9	6,2	+0,3
6	Go'sht va parranda	9830	8670	-1160	-11,8	6,8	5,8	-1
7	Qandolat mahsulotlari	1500	1380	-120	-8	1	0,9	-0,1
8	Boshqa mahsulotlar	28410	30080	+1670	+5,9	19,7	20,2	+0,5
	JAMI: Chakana tovar aylanmasi	144000	148610	4610	+3,2	100	100	-

Qiymat ko'rsatkichlarini yanada qimmatroq mahsulotlar hisobiga ko'tarish oson, ammo aholiga turli assortimentdagi mahsulotlar zarur. Shuning uchun chakana tovar aylanmasi rejasining bajarilishini tahlil qila turib, uning mahsulot guruhlari bo'yicha bajarilganligini aniqlash va belgilangan assortiment minimumiga qanday rioya qilinganligini aniqlash lozim va h. (4.3. jadval).

4.3. jadvaldan ko'rinish turganidek, umuman olganda savdo korxonasi chakana tovar aylanmasi rejasini 4610 ming so'mga yoki 3,2 foizga ortig'i bilan bajargan. Ammo, alohida mahsulot guruhlari kesimida rejadan ortiqcha bajarish tarafga ham,

kam bajarish tarafga ham keskin og‘ishlar kuzatilmoqda. Masalan, madaniy mollar bo‘yicha reja 7 foizga ortig‘i bilan bajarilgan bo‘lsa, go‘sht va parranda bo‘yicha – 11,8 foizga bajarilmagan. Natijada chakana tovar aylanmasi tarkibi o‘zgargan.

Tovar aylanmasi tarkibining o‘zgarishi aholiga savdo xizmatlari ko‘rsatishning yomonlashuviga olib kelishi, shuningdek aholining ayrim mahsulotlarga bo‘lgan talabi o‘zgarishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Ma’lumki, mahsulotlar muayyan qismining sotilishi mavsumiytavsifga ega. Shuning uchun tovar aylanmasi rejasi bajarilishining tahlili assortiment kesimida yilning aohlida mavsumlari bo‘yicha bajarilish tahlili bilan to‘ldirilishi lozim.

#### ***4.3. Tovar aylanmasi hajmiga ta’sir qiluvchi asosiyomillar tahlili***

Tovar aylanmasi hajmiga ta’sir qiluvchi asosiy omillarni quyidagi uchta guruhga bo‘lish mumkin: 1) tovar zaxiralari bilan bog‘liq omillar; 2) xodimlar soni va mehnat unumдорligi bilan bog‘liq omillar; 3) asosiy vositalardan foydalanish bilan bog‘liq omillar.

Tovar zaxiralari bilan bog‘liq omillar chakana tovar aylanmasiga yil boshiga tovar zaxiralari qiymatining o‘zgarishi, yil oxiriga kelib tovar kirimlari, boshqa chiqishlar va tovar zaxiralari orqali ta’sir qiladi. Ushbu qiymatlar o‘rtasida muayyan muvozanat aloqasi mavjud. U tovar muvozanatining quyidagi formulasi bilan aks ettiriladi:

$$\mathbf{Z1+P=R+V+Z2},$$

bunda:

**Z1** – yil boshiga tovar **zaxiralari**;

**P** – tovar **kirimlari**;

**R** – chakana tovar aylanmasi;

**V** – tovar **chiqishlari**;

**Z2** – yil oxiriga tovar **zaxiralari**.

Tovar muvozanatining formulasidan foydalangan holda har bir qo'shiluvchining qiymatini topish mumkin, masalan chakana sotish qiymati:

$$R = Z_1 + P - V - Z_2.$$

Har bir algebraik qo'shiluvchilarning o'zgarishi tegishli ravishda tovar aylanmasiga ta'sir qiladi. Boshlang'ich zaxiralari va tovar kirimining ko'payishi tovarlarning sotilish summasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi; ularning kamayishi esa aksincha; arzonlashtirish va mahsulotlarning boshqa chiqishlari; yil oxiriga zaxiralari kamayishi tovar aylanmasi hajmiga ijobiy ta'sir qiladi; ularning ko'payishi – salbiy.

Sotish summasiga tovar muvozanatining u yoki bu qo'shiluvchisining ta'siri «zanjirli o'rinni almashlash» usuli yoki mutlaq farqlarni belgilash yo'li bilan aniqlanadi.

Mutlaq farq usulini qo'llash tartibi savdoning tovar muvozanati tahlili misolida ko'rsatiladi (4.4. jadval)

#### 4.4- jadval.

#### Yil davomidagi savdoning tovar muvozanati tahlili

(ming so'mda)

Nº t/r	Tovar muvozanati qo'shiluvchilari	Reja bo'yicha	Hisobot bo'yicha	Rejadan og'ish (+,-)	Tovar aylanmasiga ta'siri
A	B	1	2	3	4
1	Yil boshiga tovarlar zaxiralari	27830	43330	+15500	+15500
2	Tovarlar kirimlari	155070	159130	+4060	+4060
	Jami: (1+2)	182900	202460	+19560	
3	Tovar aylanmasi hajmi	144000	148610	+4610	+4610
4	Tovarlarning boshqa chiqishlari	11470	10330	-1140	+1140
5	Yil oxiriga tovar zaxiralari	27430	43520	+16090	-16090
	Jami: (3+4+5)	182900	202460	+19560	

Tovar muvozanatidan ko'rinish turibdiki, savdo tashkiloti ixtiyorida chakana tovar aylanmasi hajmini 20700 ming so'mga ko'tarish uchun qo'shimcha tovar resurslari mavjud bo'lgan ( $15500+4060+1140$ ). Yil oxiriga tovar **zaxiralarining** 16090 ming so'ma ko'payishi tovar aylanmasi hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Keyingi tahlil jarayonida ushbu omillarning ta'sir darajasini sinchiklab tekshirish lozim. Sababi, tovar zaxiralarining ta'sir darajasini baholayotganda shuni ko'zda tutish kerakki, ularning ijobiy og'ishi faqatgina o'sha hisobot davri uchun ijobiy

ahamityaga ega. Oldingi va keyingi davrlar uchun u ijobiyl ahamiyat kasb etadi. Bunda ta'kidlab o'tish lozimki, xaridorlarning talabini qozonmagan mahsulotlar kiritilishining o'sishini, shuningdek boshlang'ich zaxiralarning o'sishini agar kasod mahsulotlar hisobiga bo'lsa, ijobiymil deb hisoblab bo'lmaydi.

Tovar aylanmasi rejasi bajarilishining asosiy omili savdo tashkilotlarining tovar zaxiralari bilan ta'minlanganligidir. Yo'nali shiga qarab tovar zaxiralari quyidagilarga bo'linadi: joriy saqlanish, mavsumiy va muddatidan oldin kiritish zaxiralari.

Joriy saqlanish zaxiralariga tovarlarning navbatdagi ikkita guruhi kelib tushishining orasidagi muddatda tovarlarning uzluksiz sotilishini ta'minlashga mo'ljallangan tovarlar zaxiralari kiradi.

Tovarlarning mavsumi ysaqlanish zaxiralariga mavsumiy ishlab chiqarish mahsulotlari kiradi. Muddatidan ilgari kiritish zaxiralariga alohida, yetib borish qiyin bo'lgan, faqat yilning muayyan mavsumlarida kiritish mumkin bo'lgan tumanlarda uzluksiz sotilishga mo'ljallangan tovarlar kiradi.

Aylanma mablag'lar ishlatilishining samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkich ularning chakana tarmoqda aylanish tezligi yoki tovar aylanuvchanligi bilan aniqlanadi.

Tovar aylanuvchanligi kunlarda quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\text{TAK} = \frac{\text{O'TZ} * \text{K}}{\text{CHTA}}$$

Bunda:

**TAK** – tovarlarni aylanish kuni;

**O'TZ** – o'rtacha tovar zaxiralari;

**K** – kunlar soni (360);

**CHTA** – chakana tovar aylanmasi hajmi;

**KA**- tovarlarni aylanish koefitsenti.

Tovar aylanuvchanligi quyidagi formula bo'yicha aylanishlar sonida aniqlanishi mumkin:

$$KA = \frac{CHTA}{O'TZ}$$

Kunlarda aylanuvchanlikni tovarlar zaxiralarining har bir turi bo‘yicha alohida aniqlash maqsadga muvofiq.

Tovar zaxiralarining aylanuvchanligi tezlashtirilganda muomaladan mablag‘lar bo‘shatilishi yuz beradi, ularning aylanuvchanligi sekinlashtirilganida muomalaga mablag‘ jalb qilinadi. Muomaladan nisbatan bo‘shatilgan va unga qo‘sishimcha jalb qilingan mablag‘lar summasini aniqlash uchun hisobot yilida haqiqatdagi va rejadagi kunlarda aylanuvchanlikning farqini sotilish bo‘yicha o‘rtacha kunlik aylanmaga ko‘paytirish lozim. Sotilish bo‘yicha o‘rtacha kunlik aylanma chakana tovar aylanmasi hajmini tahlil qilinayotga davr kunlari soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

#### **4.4. Tovar aylanmasi hajmiga ta’sir qiluvchi mehnat omillari tahlili**

Tovar aylanmasi rejasining bajarilishi nafaqat tovar zaxiralari mavjduligidan, balki savdo tashkilotlarining ishchi kuchi bilan ta’milanganligiga va mehnat unumdarligiga ham bog‘liq.

Mehnat ko‘rsatkichlarining tahlili «Mehnat bo‘yicha hisobot» №5-savdo shakli ma’lumotlari bo‘yicha o‘tkaziladi: unda xodimlar soni va tarkibi hamda bitta xodimga to‘g‘ri keladigan ish mahsuli haqida ma’lumotlar mavjud.

Tahlilni savdo tashkilotlarining xodimlar bilan ta’milanganligidan boshlash kerak. Shu maqsadda rejadagi va haqiqatdagi, shuningdek o‘tgan davr ko‘rsatkichlari solishtiriladi va xodimdar tarkibi aniqlanadi.

Savdo xodimlari soni ularni quyidagi ikkita guruhga taqsimlab o‘tkaziladi:

1. Barcha ishlayotganlar soni.
2. Tezkor xodimlar soni (sotuvchilar, g‘aznachilar, molshunoslar, bo‘lim mudirlari va h.).

Ta’kidlash joizki, savdo xodimlarining hamma toifasi savdo-sotiq jarayonida bir xil rol o‘ynamaydi. Boshqaruv tarkibining sonini tahlil qilishda rejan va o‘tgan davrlardan mutlaq og‘ishlarni aniqlash bilan cheklanilsa, tezkor xodimlar sonining tahlilida, mutlaq og‘ishlardan tashqari nisbiy og‘ishlar ham hisoblanadi, ya’ni chakana tovar aylanmasi rejasining o‘sish sur’atlarining bajarilishini hisobga olgan

holda, sababi, tezkor xodimlar soni tovar aylanmasi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘langan bo‘ladi. Shuning uchun ularning sonini nisbiy ortiqcha yoki kam deya aniqlash lozim. Hisoblash usuli quyidagicha: do‘kon xodimlarining rejadagi sonini tovar aylanmasi hajmi bajarilishiga ko‘paytirilib 100 ga bo‘linadi, va olingan to‘grilangan ko‘rsatkich tezkor xodimlarning haqiqatdagi soni bilan solishtiriladi. Farq tekzor xodimlarning nisbatan ko‘pligi yoki kamligini ko‘rsatadi (sanoatdagi kabi). Do‘kon xodimlari soni bo‘yicha nisbiy kamligi savdo tashkilotining mehnat unumdarligi o‘sishidan darak beradi.

Chakana savdoda mehnat unumdarligi bitta savdo xodimiga to‘g‘ri keladigan tovar aylanmasi bilan o‘lchanadi. Unumdarlikni tavsiflash uchun quyidagi ikkita ko‘rsatkich hisoblanadi: bitta xodimga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yillik ish mahsuli; bitta sotuvchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yillik ish mahsuli. Mehnat unumdarligini tahlilining boshqa barcha qismlari sanoatdagi kabi amalga oshiriladi.

Asosiy vositalardan foydalanish bilan bog‘liq omillar tahlili sanoatdagi kabi amalga oshiriladi.

#### *4.5. Muomala xarajatlari tahlili*

Savdo tashkilotlari mahsulotlarni ishlab chiqarishdan iste’molchilarga o‘tkazishni amalga oshiradi. Ushbu jarayonda mahsulotlarni ko‘chirish, saqlash, savdo xodimlarining ish haqini to‘lash kabi turli xil xarajatlar yuzaga keladi.

Ushbu qiymat ko‘rinishidagi barcha xarajatlar muomala xarajatlari deb nomланади. Muomala xarajatlari nafaqat mutlaq summada, balki chakana tovar aylanmasining umumiyligi foizda ham aniqlanadi. Oxirgi ko‘rsatkich muomala xarajatlari darjasini deb nomланади. Muomala xarajatlari darjasini bo‘yicha savdo faoliyatini oqilona yuritish darjasini haqida muhokama qilsa bo‘ladi.

Muomala xarajatlari tahlilida biznes-reja bajarilishi va umumiyligi hamda xarajatlar qismlari bo‘yicha alohida muomala xarajatlarining o‘sish sur’atlari tekshiriladi, so‘ngra hisobot yilida yuz bergan o‘zgarishlar reja va o‘tgan yil bilan solishtiriladi. Bu savdo korxonalari faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlash va muomala xarajatlarini tejash bo‘yicha aniq choralarini belgilab qo‘yish imkonini beradi.

Muomala xarajatlari darajasiga savdo faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan va bo‘lmagan turli omillar ta’sir qiladi.

Bog‘liq bo‘lmaganlariga quyidagilar kiradi:

1. Tovarlar chakana narxining o‘zgarishi;
2. Temir yo‘l, suv va avtomobil tashishlari tariflarining o‘zgarishi;
3. Ijara stavkalarining o‘zgarishi;
4. Kredit uchun foizlar.

Bog‘liq bo‘lganlariga quyidagilar kiradi:

1. Asosiy va aylanma fondlardan oqilona va samarali foydalanish;
2. Xaridorlar talabini va bozor sharoitini o‘rganish;
3. Savdo xizmati ko‘rsatishning samarali iqtisodiyshakllarini tanlash;
4. Kredit va moliya intizomiga rioya qilish;
5. Mehnat unumdorligini oshirish;

Muomala xarajatlarini tahlil qilish uchun quyidagi statistik hisobot ma’lumotlari qo‘llaniladi: 5-shakl «Savdo va umumiyyovqatlanish bo‘yicha muomala xarajatlari to‘g‘risida hisobot». Avval biznes-rejaning (o‘sish sur’atlarining) umumiyydaraja bo‘yicha bajarilishi va muomala xarajatlari bo‘yicha tejash yoki ortiqcha sarf mavjudligi tekshiriladi (4.5. jadval).

#### **4.5. jadval**

#### **Muomala xarajatlari umumiy darajasining tahlili**

Nº t/r	Ko‘rsatkichlar	O‘lch.birligi	Biznes-reja bo‘yicha	Haqiqatda	Farq (+,-)
A	B	V	1	2	3
1	Chakana tovar aylanmasi...	Ming so‘m	144000	148610	+4610
2	Muomala xarajatlari...	Ming so‘m	12500	12640	+140
3	Muomala xarajatlari darjasasi... (2-qator*100:1-qator)	foiz	8,6805	8,5055	-0,175

4.5. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, hisobot yilida savdo tashkilotida muomala xarajatlari mutlaq summasi haqiqatda biznes-rejaga qaraganda 140 ming so‘mga ortdi.

Bu o‘zgarishga quyidagi ikkita omil ta’sir ko‘rsatdi:

1. Tavar aylanmasi hajmining o‘zgarishi.
2. Muomala xarajatlari umumiylar darajasining o‘zgarishi.

Birinchi omilning ta’sirini aniqlash uchun tovar aylanmasidagi farqni muomala xarajatlari reja darajasiga ko‘paytirib, 100ga bo‘lish lozim:  
 $+4610*8,6805/100=+400,1$  ming so‘m yoki  $3,2$  foiz  $*12500:100=400$  ming so‘m.

Ikkinci omil bo‘yicha muomala xarajatlari umumiylar darajasidagi farqni tovar aylanmasining haqiqatdagi hajmiga ko‘paytiriladi va 100 ga bo‘linadi:

$$-0,175*148610/100=-260,1 \text{ ming so‘m}.$$

$$\text{Omillar muvozanati: } (+400,1)+(-260,1) = +140 \text{ ming so‘m}.$$

Tahlilning keyingi bosqichi biznes-reja bajarilishiga ta’sir qilgan asosiy omillarni aniqlash, va savdo xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlarning to‘liq qo‘llanilishini aniqlashdir. Buning uchun xarajatlar qismining har biri bo‘yicha muomala xarajatlari smetasi bajarilishi tekshiriladi.

Muomala xarajatlariini tahlil qilishda xarajatlar qismlarining tovar aylanmasi hajmiga bog‘liqligi bir xil emasligini hisobga olish lozim, bu xarajatlar qismlarining turli guruhlari uchun tekshirishning tabaqalashgan usulini qo‘llash imkonini beradi. Tovar aylanmasi hajmining ko‘payishiga mutanosib ravishda o‘sadigan xarajatlarni shartli-o‘zgaruvchan deb atash qabul qilingan.

Ularga quyidagilar kiradi: ish haqi, transport xarajatlari, mahsulotlarni saqlash, saralash, kam-ko‘stini to‘ldirish va o‘rash xarajatlari, kredit foizlari va h.

Tovar aylanmasi hajmiga bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar shartli-doimiydeb nomlanadi. Bularga quyidagilar kiradi: xonalarni ijaraga olish va saqlash bo‘yicha xarajatlar, joriyta’mirlash bo‘yicha xarajatlar, sanitarni maxsus kiyim va jihozlar eskirishi, reklama bo‘yicha xarajatlar, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo‘yicha xarajatlar, ma’muriy-boshqaruv xarajatlarini qoplash chegirmalari. Shartli-o‘zgaruvchan va shartli-doimiyxarajatlarni tahlil qilish usullari har xil bo‘ladi.

Shartli-o‘zgaruvchan xarajatlar ularning rejadagi summasiga to‘g‘rilangan va tovar aylanmasi rejasining haqiqatda bajarilishidan kelib chiqqan holda tahlil qilinadi.

#### **4.6. Moliyaviy natijalar tahlili**

Savdo korxonalarining daromadlilagini o‘lchovchi bo‘lib foyda va rentabellik hisoblanadi. Foyda va uning nisbiyko‘rinishi – rentabellik savdo korxonalarining baholash ko‘rsatkichlari qatoriga kiradi.

Savdo korxonalarining muomala xarajatlarini qoplash va rentabelligini ta’minlash maqsadida ularning foydasiga tovarlarning chakana narxlaridan savdo chegirmalari va xarid narxlariga savdo ustamasi qo‘yiladi.

Tovarlar sotilishidan tushgan tushum bilan ularning xarid qiymati o‘rtasidagi farq savdo korxonalarining yalpi daromadini tashkil qiladi.

Yalpi daromad o‘sishi tovar aylanmasi hajmining va savdo ustamasiing o‘rtacha foizining o‘sishi bilan aniqlanadi, oxirgisi esa sotilgan tovarlarnin tarkibiyo‘zgarishlari ta’siri ostida o‘zgarishi mumkin.

Yalpi daromadning haqiqatdagi summasining rejadan yoki o‘tgan yilidan farqi quyidagi ikkita omil ta’siri ostida yuzaga keladi:

1. Tovar aylanmasi hajmining o‘zgarishi.
2. Savdo ustamasi o‘rtacha foizining o‘zgarishi.

Birinchi omilning ta’sirini aniqlash uchun tovar aylanmasidagi farqni savdo ustamasi o‘rtacha foizining rejadagi darajasiga ko‘paytirish va 100 ga bo‘lish lozim.

Ikkinci omilning ta’sirini aniqlash uchun savdo ustamasi o‘rtacha foizining farqini tovar aylanmasining haqiqatdagi hajmiga ko‘paytirish va 100 ga bo‘lish lozim.

Yalpi daromad tahlilining manbasi bu 2-shakl «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot»idir. Yalpi daromad bo‘yicha reja bajarilishining baholanishi 4.6. jadvalda keltirilgan.

4.6. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, hisobot yilida haqiqatdagi yalpi daromad biznes-rejaga qaraganda 2025,6 ming so‘mga ko‘paygan. Bu o‘zgarishga ikkala omil ham ijobjiya’sir qilgan, ya’ni tovar aylanmasi hajmi va savdo ustamasi o‘rtacha foizi oshirilishi.

## 4.6. jadval.

### Savdo yalpi daromadi bo‘yicha biznes-reja bajarilishining tahlili

Nº t/r	Ko‘rsatkichlar	O‘lch.birligi	Biznes- reja bo‘yicha	Haqiqatda	Farq (+,-)
1	Chakana tovar aylanmasi	Ming so‘m	144000	148610	+4610
2	Yalpi daromad	Ming so‘m	26136	28161,6	+2025,6
3	Savdo ustamasi o‘rtacha foizi (2-qator*100:1-qator)	foiz	18,15	18,95	+0,80

Birinchi omil hisobiga yalpi daromadning 836,7 ming so‘mga o‘sishi ta’minlangan:

$$\begin{array}{r} +4610*18,15 \\ \hline 100 \end{array} \quad \begin{array}{r} +3,2*26136 \\ \hline 100 \end{array} ;$$

Ikkinci omil hisobiga yalpi daromadning 1188,9 ming so‘mga o‘sishi ta’minlangan:

$$\begin{array}{r} +0,80*148610 \\ \hline 100 \end{array}$$

Omillar muvozanati:  $836,7 + 1188,9 = 2025,6$  ming so‘m .

«Xarajatlar tarkibi to‘g‘risida» gi Nizomda savdo korxonalarining moliyaviynatijalarini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni hisoblash tartibi berilgan. Shu bois, savdo sohasining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda oraliq foyda ko‘rsatkichlarni hisoblash tartibini tavsiya etish mumkin.

1. Tovarlarni sotishdan tushgan yalpi foydani yalpi daromaddan faqqat sotish xarajatlarini ayirish orqali aniqlash.
2. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan foyda tovarlarni sotishdan tushgan yalpi foyda va muomala xarajatlari (bunda faqat ma’muriy xarajatlar hisobga olinadi) o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi va plyus, minus asosiy faoliyatning boshqa operatsion daromadlari va xarajatlari.

3. Umumiy xo‘jalik faoliyatidan foyda alegbraik summa sifatida quyidagicha hisoblanadi: asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan foyda plyus moliyaviy faoliyatdan daromad minus moliyaviy faoliyat xarajatlari.

4. Soliq to‘langunga qadar foyda alegbraik summa sifatida umumxo‘jalik faoliyatidan foyda va favqulodda daromad va zararlar qoldig‘idan aniqlanadi.

5. Sof foyda quyidagicha hisoblanadi: soliq to‘langunga qadar foyda minus daromad solig‘i va boshqa soliq hamda to‘lovlar.

Yuqorida keltirilgan savdo korxonalari foyda ko‘rsatkichlarining tahlil usullari sanoatdagi tahlildan kam farq qiladi. Masalan, savdo tashkilotining tovarlarni sotishdan tushgan yalpi foydaning o‘zgarishlariga ta’sir qiluvchi omillar tahlilining usullarini ko‘rib chiqamiz (4.7. jadval).

Ushbu 4.7. jadvaldan ko‘rinib turibdiki, hisobot yilida tovarlarni sotishdan tushgan yalpi foyda biznes-rejaga qaraganda haqiqatda 1885,6 ming so‘mga ortdi.

Bu o‘sishga quyidagi uchta omil ta’sir ko‘rsatgan:

1. Chakana tovar aylanmasi hajmining o‘zgarishi. Tovar aylanmasi hajmining 4610 ming so‘mga o‘sishi hisobidan tovarlarni sotishdan tushgan yalpi foyda miqdori 436,4 ming so‘mga [3,2foiz\*13636:100] yoki [4610\*9,47:100].

2. Yalpi foydaning o‘sishiga savdo ustamasi o‘rtacha foizining 0,8 foizga [0,80\*148610:100]=+1188,9 ming so‘mga o‘sishi ijobjita’sir ko‘rsatgan.

#### **4.7-jadval.**

#### **Tovarlarni sotishdan tushgan yalpi foyda tahlili**

Nº t/r	Ko‘rsatkichlar	O‘lch. bir- ligi	Biznes- reja bo‘yicha	Haqiqatdagи tannarx bo‘yicha	Farq (+,-)
1	Chakana tovar aylanmasi...	ming so‘m	144000	148610	+4610
2	Yalpi daromad	ming so‘m	26136	281616	+2025,6
3	Savdo ustamasining o‘rtacha foizi (2-qator*100:1-qator):	foiz	18,15	18,95	+0,80
4	Faqat mahsulotni sotish bilan bog‘liq muomala xarajatlari...	ming so‘m	12500	12640	+140
5	Muomala xarajatlari darajasi (4- qator*100:1-qator)	foiz	8,6805	8,5055	-0,175
6	Tovarlarni sotishdan tushgan yalp ifoya (2-qator-4-qator)	ming so‘m	13636	15521,6	+1885,6
7	Tovar aylanmasiga nisbatan rentabellik darajasi.(6q *100 : 1q)	foiz	9,47	10,44	+0,97

3. Muomala xarajatlari darajasi 0,175 foizga kamaygan bo‘lib, bu tovarlarni sotishdan tushgan yalpi foyda hajmining 260 ming so‘mga o‘sishiga olib keldi:  
[-0,175\*148610:100].

Tovarlarni sotishdan tushgan yalpi foyda rejasiga yuqorida keltirilgan omillarning ta’sirini quyidagicha umumlashtirish mumkin (ming so‘m):

<b>reja bo‘yicha yalpi foyda ...</b>	<b>13636</b>
<b>haqiqatdagi foyda ...</b>	<b>15521,6</b>
<b>farq...</b>	<b>+1885,6</b>
<b>shu jumladan quyidagilar hisobidan:</b>	
<b>tovar aylanmasining o‘zgarishi...</b>	<b>+436,4</b>
<b>savdo chegirmalari darajasining o‘zgarishi</b>	<b>+1188,9</b>
<b>muomala xarajatlari darajasi o‘zgarishi</b>	<b>+260</b>

Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan, umumxo‘jalik faoliyatidan, foyda, soliq to‘langunga qadar va sof foydalarning omilli tahlil usullari ushbu ko‘rsatkichlarning sanoatdagi tahlilidan kam farq qiladi.

### Rentabellik ko‘rsatkichlari taxlili

Foydaning mutlaq miqdori savdo korxonalarining xo‘jalik yuritish borasidagi samaradorlik darajasini har tomonlama belgilamaydi. Shu bois nisbiy ko‘rsatkichlarni aniqlash kerak. Bu ko‘rsatkich rentabellik ko‘rsatkichlaridir.

Rentabellik ko‘rsatkichlari jami ijtimoiy ishlab chiqarish va har bir ayrim savdo korxonasining iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichda kengaytirilgan ishlab chiqarishni, umumdavlat ehtiyojlarini ta’minlashni, xalqning ijtimoiy rivojlanishini yuksaltirish maqsadida mahsulot ishlab chiqarish va sotish hamda xizmat ko‘rsatish uchun sarflanadigan jonli va buyumlashga mehnat tejaming pul shaklida ifodalanishi va qo‘sishimcha mahsulotning massasi o‘z aksini topadi.

“Xarajatlar tarkibi to‘g‘risida....” gi Nizomga asosan quyidagi rentabellik ko‘rsatkichlari tavsiya etilgan: jami aktivlarning rentabelligi, sotilgan mahsulot rentabelligi, o‘z (xususiy) kapitalning rentabelligi.

1995- yilga qadar savdo korxonalarida rentabellik ko‘rsatkichlari 2 usul bilan aniqlangan:

1-usul: foydani tovar aylanmasiga nisbati tariqasida;

2-usul: foydani muomala xarajatlariga nisbati tariqasida;

Bu usullar savdo korxonalarida hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini to‘la saqlab qolgan. Moliyaviy tahlil bo‘yicha uslubiy tavsiyalarda quyidagi rentabellik ko‘rsatkichlari tavsiya etilgan: sotilgan mahsulotni rentabelligi, asosiy vositalarni rentabelligi, xususiy kapitalni rentabelligi, permanent kapitalni rentabelligi.

Iqtisodiy tahlilning ko‘zga ko‘ringan yirik namoyondasi A.D.Sheremet<sup>12</sup> “Tijorat tashkilotlar faoliyatini moliyavityahlil qilish usuli” o‘quv qo‘llanmasida rentabellik ko‘rsatkichlarini uchta guruhga umumlashtirishni tavsiya etigan:

1. Aktivlar rentabelligi;
2. Mahsulot rentabelligi;
3. Pul mablag‘lari oqimi assosida hisoblangan rentabellik ko‘rsatkichlari.

Moliyaviy tahlilga bag‘ishlangan adabiyotlar ichida rentabellik ko‘rsatkichlarini tahlil qilishga alohida e’tibor berilgan tadqiqotlar qatoriga E.A.Akromov<sup>13</sup>, I.O.Voljin va V.V.Ergashboev<sup>14</sup>, I.T.Abdukarimov<sup>15</sup>, M.Q.Pardaevlarni ishlarini kiritish mumkin. Xususan, E.A.Akromov tomonidan chop etilgan o‘quv qo‘llanmada muallif rentabellik ko‘rsatkichlarini 2 tizimli ko‘rsatkichlarga umumlashtirishni tavsiya etgan:

#### I. Umumiyl rentabellik ko‘rsakichlari:

- 1) jami aktivlarning rentabelligi;
- 2) ishlab chiqarish fondlarining rentabelligi;
- 3) korxonaning joriy xarajatlari rentabelligi;
- 4) sotilgan mahsulot rentabelligi;

#### II.Qo‘shimcha rentabellik ko‘rsatkichlari.

<sup>12</sup> Шеремет А.Д., Негашев Е.В. Методика финансового анализа деятельности коммерческих организаций. – Москва, 2017.-с.84

<sup>13</sup> Akramov E.A. Korxonaning molayaviy holati tahlili. T.: “Moliya” nashriyoti, 2013, 163-bet.

<sup>14</sup> Boljin I.O., Ergashboev B.B. Molayaviy holat tahlili. T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashr uyi.1999.157-bet.

<sup>15</sup> Abdukarimov I.T. Molayaviy holat o‘qish va tahlili qilish yo‘llari. T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashr uyi. 1999.142- bet.

- 1) o‘z kapitalining rentabelligi;
- 2) qarzga olingan kapitalning rentabelligi;
- 3) asosiykapitalning rentabelligi;
- 4) aylanma kapitalning rentabelligi;
- 5) permanent kapitalning rentabelligi.

Voljin I.O., Ergashboev V.V.lar «Moliyaviy tahlil» nomli uslubiy qo‘llanmada 12 ta rentabellik ko‘rsatkichlarini tavsiya etganlar.

Abdukarimov I.T. tomonidan chop etilgan risolada muallif quyidagi rentabellik ko‘rsakichlarini tavsiya etgan: mahsulotni sotish rentabelligi, asosiysarmoya rentabelligi, o‘z sarmoya rentabelligi, xarajatlar rentabelligi. Tavsiya etilgan aksariyat rentabellik ko‘rsatkichlari sof foyda asosida aniqlanadi. Bizningcha bunday yondashuv to‘g‘ri emas. Bu borada yirik iqtisodchi olimlardan M.Q.Pardaev va B.I. Isroilovlar<sup>16</sup>ning tavsiyalari e’tiborga molik. Ular tomonidan tavsiya etilgan rentabellik ko‘rsakichlar tizim sifatida ko‘rsatilgan. Mualliflarning tavsiyalariga ko‘ra, rentabellik ko‘rsatkichlari iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib, 4 guruhga bo‘linadi: umumiy rentabellik ko‘rsatkichlari (foydaning tovar aylanmasiga nisbati, foydaning xarajatlarga nisbati); iqtisodiy salohiyat bilan bog‘liq rentabellik ko‘rsatkichlari (foydlaning iqtisodiy salohiyatga nisbati, foydaning aktivlar qiymatiga nisbati, foydaning asosiy vositalar qiymatiga nisbati, foydaning joriyaktivlarga nisbati, foydaning mehnat salohiyati qiymatiga nisbati); moliyaviy salohiyat bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar (foydaning o‘z mablag‘lari qiymatiga nisbati, foydaning chetdan jalb qilingan mablag‘larga nisbati, foydaning bank kreditiga nisbati); moliyaviybozordagi faollik bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar (aktsianing daromadligi, aktsianing qimmatligi, aktsiyani rentabelligi).

Savdo tashkiloti rentabellik ko‘rsatkichlarini hisoblash usulari sanoat korxonasining ushbu ko‘rsatkichlari tahlilidan kam farq qiladi.

---

<sup>16</sup> Pardaev M.Q. Isroilov B.I. Moliyaviy tahlili. –T.: ““Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashr uyi, 2012.304- bet.

#### **4.7. Moliyaviy holat tahlili**

Moliyaviy hisobotning yagona shakllarini qo'llash tufayli xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida moliyaviy holat tahlilidagi farqlar o'cha boshladi.

Savdo korxonalari moliyaviy holatining tahlili sanoatdagi kabi muayyan ketma-ketlikda olib boriladi, chunonchi, avvalo savdo korxonasi mulkining tarkibi aniqlanadi: uzoq muddatli va aylanma aktivlari; joriyaktivlar tarkibi; tovar-moddiy zaxiralari, debitorlar va pul mablag'lari; tovar zaxiralari holati; mulkka kiritilgan mablag'lar manbalari tuzilishini va xususiy aylanma mablag'lari mavjudligi va ular bilan ta'minlanganlik. So'ngra savdo korxonasining moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi. Keyin quyidagi likvidlilik (to'lov layoqati) ko'rsatkichlari tahlil qilinadi: joriylikvidlilik koeffitsienti, muddatli likvidlilik koeffitsienti, mutlaq likvidlilik koeffitsienti va savdo korxonalarining ishbilarmonlik faolligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tahlili bilan tugallanadi: jami aktivlar va joriyaktivlar aylanuvchanligining koeffitsientlari, debitorlik va kreditorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffitsienti, debitorlik va kreditorlik qarzlarining kunlarda aylanuvchanlik koeffitsienti.

Savdo korxonalari moliyaviy holati tahlilining asosiy vazifalari quyidagicha: tovar aylanmasi bo'yicha biznes-reja bajarilishi uchun etarli mablag'lar bilan ta'minlanganligi, ichki rezervlarni ishga solish, xususiy aylanma mablag'larni saqlab qolish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, kreditlarni maqsadli ishlatalish, savdo korxonalari faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan byudjet, banklar, mol etkazib beruvchilar va h.lar oldidagi majburiyatlarining bajarilishi.

Savdo korxonalari moliyaviy holatining tahlili asosiy manbalari bu «Buxgalteriya balansi» (1-shakl), «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot» (2-shakl), «Asosiy vositalar harakati to'g'risida hisobot» (3-shakl), «Pul oqimlari to'g'risida hisobot» (4-shakl), «Xususiy kapital to'g'risida hisobot» (5-shakl), «Debitor va kreditor qazrdorligi to'g'risida ma'lumot» (2a-shakl), shuningdek hisobdan tashqari ma'lumotlar.

Savdo korxonalarining moliyaviy holatini tavsiflovchi yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarni tahlil qilish usullari ularning sanoatdagi tahlilidan kam farq qiladi.

#### **4.8. Umumiy xulosa**

Ushbu mavzuni o‘rganish natijasida talaba savdo korxonalarini iqtisodiy tahlilini tashkil qilish asosiy tamoyilari va xususiyatlarini bilishi, chunonchi, tovar aylanmasi bo‘yicha biznes-rejaning bajarilishini tahlil qilish usullarini, tovar aylanmasi, muomala xarajatlari hajmiga ta’sir qiluvchi asosiyomillarni tahlil qilish usullarini, shuningdek moliyaviy natijalarni shakllantirish asosiy tamoyillari va ularni tahlil qilish usullarini bilishi lozim.

#### **4.9. Mavzuga doir kalit so‘zlar**

Chakana tovar aylanmasi; ulgurji tovar aylanmasi; chakana tovar aylanmasining biznes-rejasi; aholiga mahsulotlarni kreditga sotish va mayda ulgurji savdo; chakana tovar aylanmasining tuzilishi; tovar guruhi; tovar zaxiralari bilan bog‘liq omillar; mehnat resurslari va unumdoorligi bilan bog‘liq omillar; asosiy fondlar bilan bog‘liq omillar; tovar muvozanati; joriysaqlash tovar zaxiralari; mavsumiy saqlash tovar zaxiralari; muddatidan ilgari kiritish mahsulotlari; tovarlar aylanuvchanligi koeffitsienti; tovar zaxiralarining kunlarda aylanuvchanligi; barcha xodimlarning soni; tezkor xodimlar soni; sotuvchilar soni bo‘yicha nisbiyortiqchalik (kamlik); savdoda mehnat unumdoorligi; muomala xarajatlari; muomala xarajatlari darajasi; shartli-o‘zgaruvchan xarajatlar; shartli-doimiy xarajatlar; yalpi foyda; savdo chegirmasi; savdo ustamasi; savdo ustamasining o‘rtacha foizi; mahsulotlarni sotishdan tushgan yalpi foyda; operatsion foyda; umumxo‘jalik faoliyatidan foyda; soliq to‘lagunga qadar foyda; sof foyda; moliyaviyholat; mulk tarkibi; mulk shakllanishi manbalari; xususiy aylanma mablag‘lar mavjudligi va ular bilan ta’minlanganlik; tovar zaxiralarining holati; moliyaviy barqarorlik; likvidlilik ko‘rsatkichlari; ishbilarmonlik faolligi ko‘rsatkichlari.

#### **4.10. Talabalarning bilimlarini tekshirish uchun savollar**

1. Chakana tovar aylanmasining ta’rifini keltiring.
2. Chakana tovar aylanmasining shakllari va turlarini ayting.
3. Tovar aylanmasi muvozanati va uning tarkibiyqismlari?

4. Tovar aylanmasi bo‘yicha biznes-reja bajarilishining tahlilida o‘rganiladigan savollar doirasi qanday?
5. Chakana tovar aylanmasi hajmiga ta’sir qiluvchi omillar qanday belgilari bo‘yicha guruhlanadi?
6. Tovar zaxiralari bilan bog‘liq omillar qanday tahlil qilinadi?
7. Tovar zaxiralarining aylanuvchanlik koeffitsienti qanday aniqlanadi?
8. Tovar zaxiralarining kunlarda aylanuvchanligi qanday aniqlanadi?
9. Tovar zaxiralari aylanuvchanligining sekinlashishi natijasida savdo aylanmasiga qo‘sishimcha jalb qilingan mablag‘lar summasi qanday aniqlanadi?
- 10.Tovar aylanmasi hajmiga qandayomillar ta’sir qiladi yoki chakana mahsulot aylanmasini hisoblash formulasini keltiring?
- 11.Savdo korxonasining mehnat omillarini tahlil qilish xususiyatlari qanday?
- 12.Sotuvchilar soni bo‘yicha nisbiyortiqchalik (kamlik) qanday aniqlanadi?
- 13.Savdoda mehnat unumдорлиги darajasi qanday aniqlanadi?
- 14.Muomala xarajatlari nima degani?
- 15.Muomala xarajatlari darajasi qanday aniqlanadi?
- 16.Muomala xarajatlari darajasiga qandayomillar ta’sir qiladi?
- 17.Shartli-o‘zgaruvchan va shartli-doimiyxarajatlar nima degani?
- 18.Muomala xarajatlari bo‘yicha ortiqcha sarf yoki tejash summasi qanday aniqlanadi?
- 19.Savdoda yalpi daromad qanday aniqlanadi?
- 20.Savdo ustamasining o‘rtacha foizi nima degani?
- 21.Savdo chegirmasi va ustamasi nima degani?
- 22.Yalpi daromadning o‘zgarishiga qanday omillar ta’sir qiladi?
- 23.Tovarlarni sotishdan tushgan yalpi foyda qandayaniqlanadi?
- 24.Savdo korxonalarining asosiyishlab chiqarish faoliyatidan foydasi qandayaniqlanadi?
- 25.Umuxo‘jalik faoliyatidan foyda qanday aniqlanadi?
- 26.Soliq to‘langunga qadar daromad (foyda) qanday aniqlanadi?

27. Savdo korxonalarining sof daromadi (foyda) qanday aniqlanadi?
28. Tovarlarni sotishdan tushgan yalpi foyda o‘zgarishiga qanday omillar ta’sir qiladi?
29. Rentabellik ko‘rsatkichlarining xususiyatlari qanday?
30. Savdo korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilishda qanday ko‘rsatkichlar o‘rganiladi?

#### ***4.11. Axborot-uslubiy ta’minot***

1. Акрамов Э.А. «Анализ финансового состояния предприятия» Т.: ТГЭУ, 2000 г.
2. Абдукаримов И.Т. «Как читать и анализировать финансовую отчетность» Изд.дом «Мир экономики и права», Т.: 1998 г.
3. Бернстайн Л.А. «Анализ финансовой отчетности», М.: «Финансы и статистика», 2016 г.
4. Стоун Д., Хитчинг Г., «Бухгалтерский учет и финансовый анализ» С.Петербург Литера Пляс, 2018 г.
5. Стоянова Е., «Финансовый менеджмент» Российская практика, М. Изд. дом«Перспектива», 1995 г.
6. Akramov E.A. Korxonaning moliyaviy holati tahlili. T.: “Moliya” nashriyoti, 2013yil
7. Бухгалтерский учёт и анализ деятельности торговой организации. Практическое пособие. Под.ред: Э.И. Крылова, КНОРУС. М. 2015 г.
8. Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni islab chiqarish va sotish xarajatlarining tartibi hamda moliyaviy natijalarni shakillantirish tartibi to‘g‘risida Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori .5.02.1999. 54-son.

## **V BOB. QURILISH TASHKILOTLARIDA AUDIT XUSUSIYATLARI**

### **5.1. Kapital qo'yilmalarni audit manbalari va vazifalari**

O'tgan yillarda mamlakatimizda auditning me'yoriy-huquqiy va uslubiy bazasi shakllantirildi, shuningdek, auditorlik faoliyatini litsenziyalashning soddalashtirilgan va muddatsiz tizimi joriy etildi, bu auditorlik xizmatlari bozorining shakllanishiga va mahalliy auditorlik tashkilotlari auditorlik kompaniyalarining yirik xalqaro tarmoqlariga kirishini ta'minlashga imkon yaratdi.

Shu bilan birga, qator muammolar va kamchiliklar auditorlik faoliyatining yanada rivojlanishi, boshqarishga oid qarorlarni qabul qilish va korporativ boshqaruv sifatini oshirish uchun auditorlik xizmatlarining ahamiyatini oshirishga **to'sqinlik qilmoqda, xususan:**

birinchidan, auditorlik tashkilotlariga ishonch darajasi past, shuningdek, auditorlik tekshiruviga moliyaviy hisobotning haqqoniyligini tasdiqlashning kafolati emas, balki ortiqcha va malol keladigan ma'muriy tartib-taomil sifatida qaralmoqda;

ikkinchidan, auditorlik tashkilotlarini tanlab olish bo'yicha mavjud cheklovlar va tanlovlardan o'tkazish amaliyoti ko'p hollarda insofsiz, shu jumladan narx borasida insofsiz raqobatni keltirib chiqaradi, buning oqibatida auditorlik xizmatlari sifati va auditorlik xulosalarining haqqoniyligi pasaymoqda;

uchinchidan, auditorlarni maxsus tayyorlash va ularning malakasini oshirishning amaldagi tizimi yuzaki tusga ega bo'lib, professional tayyorgarlikning va auditorlik xizmatlari sifatining zarur darajasini, shu jumladan, auditorlik faoliyatining xalqaro standartlariga mosligini ta'minlamayapti, bu esa auditor kasbi nufuzining pasayishiga olib kelmoqda;

to'rtinchidan, auditorlik tashkilotlari ishi sifatini tashqi nazorat qilishning samarali tizimi mavjud emas, bu litsenziyalovchi organning huquqiy ta'sir choralarini cheklangani sharoitida sifatsiz auditorlik xizmatlarini ko'rsatish hollariga va auditorlarning insofsiz xatti-harakatlariga nisbatan tezkor chora ko'rish imkonini bermayapti;

beshinchidan, auditorlik faoliyatining milliy standartlari umume'tirof etilgan xalqaro audit standartlariga to'liq mos emas, bu esa xorijiy investorlarda mahalliy

korxonalar moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini tushunish ko‘nikmasining shakllanishini ta’minlamayapti<sup>19</sup>.

Kapital qo‘yilmalar – bu xo‘jalikning takror ishlab chiqarishini kengaytirish hamda uning sifatini yaxshilashga yunaltirilgan harajatlar majmuidir. Kapital qo‘yilmalar hajmi korxonalarni qurish, kengaytirish, texnik qayta jihozlash va uning ishlab chiqarish quvvatlarini saqlash, shuningdek, ishlab chiqarish maqsadlarilagi asbob- uskuna, transport vositalari va boshqa asosiy fondlarni harid qilishning barcha moliyalashtirish manbalari hisobiga qilingan xarajatlarning umumiy summasiga nisbatan belgilanadi.

Qurilish tashkilotlari auditining asosiy maqsadi ularning moliyaviy hisobotlarining to‘g‘riliqi va xaqqoniyligini, O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunchilikka mos kelishligini tekshirishdan iboratdir.

- kapital qo‘yilmalar hajmiga;
- korxonani qurish va ishga tushirish ( ishga tushirish – sozlash xarajatlari)ning asosiy sarflari;
- ishlab turgan muassasalar ( maktab, kasalxona, bolalar bogchalari va shu kabilar ) ni byudjet klassifikatsiyasining 12-moddasi bo‘yicha asosiy vositalar xarid qilish xarajatlari;
- ilmiy tadqiqot ishlari qurilmalarining tarkibiy namunalari, shuningdek, sanoat sinovlari uchun o‘rnatiladigan mashina va uskunalarning tajribalarini tayyorlash va qabul qilingan ixtirolarni sinash xarajatlari;

Subyektlar faoliyatida shunday xarajatlar xam mavjud buladiki, ular belgilangan tartibga ko‘ra kapital qo‘yilmalar hajmiga kiritilmaydi;

- bino, inshoot, asbob – uskunalar va boshqa asosiy vositalarni kapital remonti(ta'mirlash) xarajatlari;
- yer va o‘rmon qurilish ishlari, shuningdek erni yaxshilash xarajatlari;
- ishga tushirish sozlash ishlari vaqtida uskunalarni demontaj va montaj qilish bo‘yicha xarajatlar;

---

<sup>19</sup>O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-3946-son. 19.09.2018.

- komplektlash, yig‘ish bo‘yicha nuqsonlarni tuzatish va bunga aloqador mashina, uskuna va qurilmalarni sinash xarajatlari;
- qurilish – montaj ishlarining qiymatiga kiritilgan qurilishning ayrim mashina va uskunalarini montaj va demontaj qilish ishlari qiymati;
- asosiy vositalarni tugatish xarajatlari;
- qismlarga ajratib buzish, uskunalarni demontaj qilish va shu kabilar qiymati (joyni yangi qurilishga tayyorlash yoki ishlab turgan korxonalarini ta'mirlash va kengaytirishga aloqador qurilish smetasida nazarda tutilgan ishlar bundan mustasno);
- qurilish vaqtida qurilish tashkilotlarining ustama xarajatlari hisobiga amalga oshiriladigan vaqtinchalik ( titul ro‘yxatiga kirmagan ) bino, inshoot va qurilmalar (idora hamda prorab ustalar, omborxonalar, dushxona, isinish, qorovulkxona, obyektdagi ombor va shiyponlar) qiymati,
- maxsus omborlar va moslamalar qiymati ( ayrim buyumlarni seriyali yoki ommaviy ishlab chiqarishda yoki ma’lum buyurtmalarni bajarishda foydalaniladigan );
- keltirilgan yoki qurilish maydonida tayyorlab quyilgan, ammo ishga jalg bilinmagan detal, blok, krnstruktsiya va boshqa qurilish materiallarni qiymati;
- ulgurji baholarda hisobga olingan uskunalar , extiyot qismlarning qiymati ;
- quruvchi shartnomasi asosida boshqa korxona va tashkilotlar uchun bajariladigan ishlar qiymati .

Auditor asosiy vositalar to‘g‘ri kirim qilinganligini, extiyot qismlarning qiymati to‘g‘ri aks ettirilganligini, harajatlar to‘g‘ri hisobga olinganligini diqqat bilan tekshirishi lozim.

Auditorlik tekshiruvini o‘tkazishning asosiy manbaalari quyidagilardan iborat:

1. O‘zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi» Qonuni,2016 yil 13-aprel.
2. O‘zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to‘g‘risidagi» Qonuni, yangi taxriri 2000 yil 26- may.

3. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi 1996- yil 29-may.
4. O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi: 2008 yil 1 yanvar.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida NIZOM» 1999- yil 5-fevraldagi 54-sonli qaroriga Ilova.
6. 1-Sonli « Hisob siyosati va Moliyaviy hisobotlar» BXMS, 1998-yil 26-iyo‘l , 14-avgustda Adliya Vazirligidan ro‘yxatdan o‘tgan .
7. 17-Sonli «Kapital qurilishga oid pudrat shartnomalari»BXMS
8. 19-Sonli « Inventarlashni tashkil etish va o‘tkazish» BXMS 1999 yil 2-novabrda 833-son bilan Adliya vazirligidan ro‘yxatdan o‘tgan.

Yangi qurilishlarda kapital qo‘yilmalarni hisobga olish va qurilishning borishi ustidan nazoratni, qurilayotgan korxona direktsiyasi, ishlab turgan korxonalarda esa bevosita shu korxona rahbariga buysunuvchi kapital qurilish bulimii amalga oshiradi.

Qurilayotgan qurilish korxona direktsiyasi smetalarida nazarda tutilgan mablag‘lar hisobiga, ishlab turgan korxonalarda esa kapital qurilish bulimiini saqlash xarajatlari, ya’ni davr xarajatlari smetasida nazarda tutilgan mablag‘lar hisobiga amalga oshiriladi. Qurilayotgan korxonalar direktsiyalari shuningdek quruvchi bo‘lgan ishlab turgan korxona va tashkilotlar kapital qo‘yilmalar buxgalteriya hisobini xam olib boradilar. Auditor Ushbu kapital qurilishda buxgalteriya hisobi to‘g‘ri yuritilganligini va qurilish-montaj ishlari to‘g‘ri olib borilganligani tekshirishi lozim.

## **5.2. Pudrat va xo‘jalik usulida bajariladigan kapital qo‘yilmalarning auditи**

Kapital qo‘yilmalarni maqsadga ko‘ra hisobga olishda ishlab chiqarish maqsadlaridan obyektlar kuriishiga (qurilish tugallangandan so‘ng moddiy ishlab chiqarish soxasi: sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, aloqa va shu kabilarda ishlaydigan obyektlar) va noishlab chiqarish maqsadlarida (turar joy va

kommunal xo‘jalik, sog‘liqni saqlash muassasalari, ijtimoiy ta’milot, xalq ta’limi va boshqa ) obyektlarga ajratiladi.

Iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha kapital qo‘yilmalar sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport, sog‘liqni saqlash, xalq ta’limi va boshqa tarmoqlardagi kapital qo‘yilmalarga ajratiladi.

Qurilish – montaj ishlarini bajarish usuliga ko‘ra kapital qo‘yilmalar pudrat va xo‘jalik usulida bajariladigan kapital qo‘yilmalarga ajratiladi.

Pudrat usulini qurilish-montaj ishlariga ixtisoslashgan pudrat qurilish-montaj tashkilotlari olib boradi, bunda ikki tomon bosh puratchi va buyurtmachi aloqaga kirishib ularning o‘zaro munosabatlari pudrat shartnomasi bilan belgilanadi. Pudrat shartnomasi ikki tomon uchun obyekt qurilishi uchun asosiy hujjat bo‘lib xizmat qiladi, shuning uchun auditor pudrat shartnomasini to‘g‘ri tuzilganligini, Fuqarolik Kodeksiga va boshqa me'yoriy hujjatlarga mos kelishini tekshirishi lozim. Tasdiqlangan kapital qurilishning pudrat shartnomasi to‘g‘risidagi qoidalarga ko‘ra pudrat shartnomasi – bu buyurtmachi va pudratchilarining o‘zaro munosabatlarini tartibga soluvchi hamda ular tomonidan shartnoma majburiyatlarini bajarmagan xollarda iqtisodiy javobgarliklarni belgilovchi asosiy hujjatdir. Pudrat shartnomasi buyurtmachi bilan qurilish tashkiloti urtasida korxona, bino, inshootlarni qurish, ta'mirlash, kengaytirish va texnik qayta uskunalashning butun davriga va ularning, kapital qurilish rejalariga kiritilgan hamda ular uchun belgilangan tartibda tasdiqlangan titul ro‘yxatlari mavjud bo‘lgandan so‘ng tuziladi. Auditor ushbu hujjatni to‘g‘ri tuzilganligini tekshirishi lozim.

Bosh pudratchi umumqurilish va ixtisoslashgan tashkilotlar bilan ishlarni ayrim hamda kompleks turlanishini bajarish uchun subpudrat shartnomasini tuzish va bajarishda tomonlar yukoridagi qoidalarga, bosh pudratchining subpudrat tashkilotlari bilan o‘zaro munosabatlari to‘g‘risidagi nizomlarga amal qiladilar. Buyurtmachining tuzilgan subpudrat shartnomasidagi ishlarga aloqador majburiyatları esa subpudratchi zimmasiga yuklatiladi. Qoidalarga ko‘ra buyurtmachi: bosh pudratchiga korxona, bino, inshootni qurish uchun muayyan

maydonni, belgilangan tartibda tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlarini berishi, qurilishning uz vaqtida ochilishini hamda uni uzlusiz mablag‘ bilan ta’milanishini, shuningdek qurilish – montaj ishlariga to‘lanishini ta’milanishi, bosh pudratchiga yetqazib berish buyurtmachi zimmasiga yuklangan material va uskunalarni belgilangan jadvalga ko‘ra qurilish - montaj ishlarini bajarish hamda quvvat va obyektlarni ishga tushirish muddatlari bilan qat’iy belgilangan muddatda kompleks yetqazib berilishini ta’milanishi lozim. Buyurtmachi bajarilgan ishlar hajmi va qiymatini loyiha – smeta, qurilish me’yor va boshqa qoidalarga, material, buyum va konstruktsiyalarni davlat standarti va shartlariga muvofiqligini pudratchining operativ – xo‘jalik faoliyatiga aralashmay tekshiradi.

Tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlari, ish hujjatlari, shuningdek qurilish me’yor va qoidalardan chetga chiqishlar aniqlangan xollarda aniqlangan nuqsonlarni pudratchidan bartaraf etishni, ayrim hollarda ishni to‘xtatishni talab qiladi va nuqsonlar bartaraf etilmaguncha bu ishlarga xaq to‘lanmaydi.

Auditorning vazifasi qurilish tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarning to‘g‘riligi va xaqqoniyligini tekhirishdan iboratdir.

Qurilish tashkilotlari auditining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat;

- Sodir bulayotgan operatsiyalarning qonuniyligini tekshirish;
- Tuzilgan shartnomalarning qonuniyligini tekshirish;
- Loyerha-smeta hujjatlarini to‘g‘ri to‘ldirilganligini tekshirish;
- Qurilish tashkilotining aktivlarining to‘g‘riligini tekshirish;
- Buyurtmachilar bilan o‘zaro hisob-kitoblar to‘g‘riligini tekshirish;
- Qurilish tashkiloti daromadining shakllanishi, qurilish montaj ishlarinig tannarxi va yaqiniy moliyaviy natijalarni tekshirish.

Bosh pudratchi reja va titul ro‘yxatida nazarda tutilgan obyektlarni belgilangan tartibda tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq kurib berish; qurilish-montaj ishlarini qurilish me’yor qoidalariiga muvofiq bajarilishini ta’minalash; o‘zaro montaj qilingan uskunalarni uzi sinovdan o‘tkazishi; uskunalarni kompleks sinovidan o‘tkazishda qatnashishi; ishni qabul qiluvchi komissiyaga qurilishi tugallangan, mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatishga tayyor obyektlarni

topshirishi hamda buyurtmachi va subpudrat tashkilotlari bilan birgalikda ularni belgilangan muddatda ishga tushirilishini ta'minlashi kerak. Buyurtmachi shartnomaga loyihasini bosh pudratchidan olgan kunidan boshlab 10 kun muddatda kurib chiqib imzolanishi va bosh pudratchilarga qaytarish lozim. Pudrat shartnomasiga tomonlarning qurilish-montaj va ishga tushirish sozlash ishlarini bajarish hamda uskuna, material va buyumlarni yetqazib berish bo'yicha majburiyatlarni aniqlashtiruvchi jadvallar ilova qilinadi. Auditor ushbu jadvallarni sinchkovlik bilan tekshirishi lozim.

### **5.3. Tugallanmagan kapital qo'yilmalarni hamda asosiy vositalar va quvvatlarning ishga tushirishning auditি**

Ishlab turgan korxonani texnik qayta jihozlash yagona texnik iqtisodiy asoslash zaminida hamda odatda ishlab chiqarish maydonlarini kengaytirmay amalga oshiradigan tarmoqning texnik iqtisodiy darajasini oshirish rejasiga muvofiq ishlab chiqarilgan ayrim ish hajmi va turlari loyiha smetalari bo'yicha amalga oshiriladi. Ishlab turgan korxonani texnik qayta qurishning maqsadi ishlab chiqarishni jadallashtirish, ishlab chiqarish quvvatlarini, mahsulotni chiqarishni oshirish hamda mehnat unumdarligini oshirish va ish joylari sonini kiskartirish bilan birga mahsulot sifatini yaxshilash, material sarfi va mahsulot tannarxini kamaytirish, material va yokilgi energetika resurslarini tejash shuningdek korxona ishining boshqa texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilashdir. Auditor mahsulotlar (ish va xizmatlarning)ning tannarxi to'g'ri hisoblanganligani tekshirishi lozim. Ishlab turgan korxonani qayta jihozlashda mavjud ishlab chiqarish maydonlariga yangi uskuna va mashinalar o'rnatilishi, boshqarish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan sistemalarini joriy qilish, ishlab chiqarishni boshqarishni radio, televidenie va boshqa zamonaviy vositalarni o'rnatish, tabiatni muxofaza qilish obyektlari, isitish va ventilyatsiya sistemalarini zamonaviylashtirish hamda texnik qayta qurish, korxona, sex va qurilmalarni markazlashtirilgan issiqlik va energiya manbalariga ulash kabilar kiradi.

Yangisini qurish yoki ishlab turgan korxonani kengaytirish davrida pirovard mahsulotini ishlab chiqaruvchi quvvatlar ishga tushirilishidan oldin loyihada belgilangan tartibda qayta qurib chiqilsa, qurilishni uzgartirilgan loyiha bo‘yicha davom ettirish dastlab Tasdiqlangan loyiha ko‘ra kapital qo‘yilmalarning tegishli guruhibiga kiritiladi.

Ishlab turgan korxona quvvatini saqlash va uni ishga tushirish, ishlab chiqarish faoliyati jarayonida ishdan chiqaruvchi asosiy fondlarni doimo yangilab turish, texnika va razrezlardagi uchastkalarda yangi bandliklarni tayyorlash, bunda ishlab turgan bandliklarda korxonaning loyiha quvvati oshirilmaydi. Ishlab turgan korxonalarda kengaytirish, ta’mirlash tutilgan loyiha – smeta hujjatlarida nazarda tutilmagan hamda sanoatning qazib oluvchi tarmoqlaridagi ishlab turgan korxonalarni texnik qayta qurollashtirish yoki mavjud quvvatlarni saqlash ishlariga bogliq bulmagan ayrim obyektlarning qurilish tarkibiga kirmaydigan ishlab turgan korxonalarda ayrim obyektlar qurilishi tarzida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Auditor loyiha-smeta hujjatlari to‘g‘ri to‘ldirilganligi va kerakli hujjatlar bilan ta’minlanganligini sinchkovlik bilan tekshirishi lozim.

Korxonaning asosiy vositalariga va nomoddiy aktivlariga investitsiyalar haqidagi va boshqa axborotlar quyidagi schyotlarda aks ettiriladi:

0810 – «Tugallanmagan qurilish»

0820 – «Asosiy vositalarni sotib olish»

0830 – «Nomoddiy aktivlarni sotib olish»

0840 – «Asosiy podani tashkil qilish»

0850 – «Yerni obodonlashtirish»

0860 – «Uzoq muddatga olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish»

0890 – «Boshqa kapital qo‘yilmalar»

Kapital qo‘yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar bo‘yicha saldo korxonaning tugallanmagan qurilishga, asosiy vositalarni, nomoddiy aktivlarni xarid qilishga sarflangan kapital qo‘yilmalar miqdori, shuningdek, asosiy podani tashkil qilish bo‘yicha tugallanmagan xarajatlar summasini \*aks ettiradi. Kapital qo‘yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar bo‘yicha analitik hisob kapital qo‘yilmalarning har

bir yunalishi bo'yicha yuritiladi. Auditor ushbu schyotlar to'g'ri aks ettirilganligi va to'g'ri korrespondentsiyalanganligani tekshirishi lozim.

#### **5.4. Tugallangan kapital qo'yilmalarning auditi**

Qurilish tashkilotlarida kapital qo'yilmalarning audit qilinayotganda xarajat turlari quyidagilar bo'yicha guruhlanadi;

- metall konstruktsiyalar montaji;
- uskunalarini montaji;
- montaj talab qilmaydigan uskunalarini xarid qilish, asbob va inventar, montaj talab qiladigan ammo doimiy zaxiraga muljallangan uskunalar;
- boshqa kapital ish va xarajatlar asosiy vositalar qiymatini oshirmaydigan xarajatlar.

Qurilish-montaj ishlari pudrat usulida bajarilganida, pudrat tashkilotlari qurilish – montaj ishlarini shartnomaga bahosi bo'yicha yoki qurilish qiymatini aniqlash asos buladigan bahoda bajarilganda quruvchi hisobida bank to'lashga qabul qilgan pudrat tashkilotlari schyotiga 0800 - «Kapital quyimalar» schyotida quyidagi tartibda aks ettiriladi: har oyda buyurtmachi va pudratchi imzolagan bajarilgan ishlar qiymati va texnologik bosqich va ishlar majmui bo'yicha xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotnomaga asosida belgilangan tartibda rasmiylashtirilish lozim, ya'ni mansabdor shaxslar buyurtmachi va bosh pudratchi vakillari tomonidan imzolangan tashkilot muhri bilan tasdiqlanishi lozim.

Auditorlik tashkiloti yoki auditor ushbu xarajatlar to'g'ri hisoblanganligin bank hujjatlari to'g'ri yuritilganligini tekshirishi kerak.

Asosan fondlarni ishga tushirish rejasini bajarilishi va kapital qo'yilmalar limitlaridan foydalanish to'g'risidagi hisobotda hisobot yilida pudrat tashkilotlari bajargan qurilish – montaj ishlarining quruvchi to'liq hajmda aks ettiradi. Demak, uskunalar montaji bo'yicha bajarilgan ishlarning smeta qiymati ma'lumotnomaga montaji to'liq tugallangan ishlar to'liq hajmda bajarilgan uskuna yoki uning qismlari bo'yicha kiritiladi. Ma'lumotnomada bu tartibda uskuna yoki uning qismining har bir turi bo'yicha ma'lumotlar kiritiladi. Pudrat tashkilotlari bank

tomonidan to‘lashga qabul qilingan yoki to‘langan schyotlari bo‘yicha qurilish montaj ishlari qiymatining oshirilganligi ayniksa buyurtmachi qilingan kapital qo‘yilmalarni oshirilgan summaga kamaytiradi va shunga ko‘ra foydalanilgan mablag‘ bilan ta’minlash yoki pudrat tashkilotining bajarilgan ishlar schyoti bo‘yicha karzi kamaytiriladi.

Xujalik usulida bajarilgan qurilish montaj ishlari bo‘yicha xarajatlar ham 0800 «Kapital qo‘yilmalar»ni hisobga oluvchi schyotlarida qurilish – montaj ishlari tannarxini rejalashtirish va hisobga olish bo‘yicha asosiy qoidalarda belgilangan tartibda hisobga olinadi. Bunda 0800 «Kapital qo‘yilmalar» ni hisobga oluvchi schyotlarida quruvchi tomonidan qilinadigan haqiqiy xarajatlar cass ettirladi. Auditor mazkur xarajatlar to‘g‘ri hisobga olinganligini va 0800 schyotlari va boshqa schyotlar to‘g‘ri korrespondentsiyalanganligini va 11 va 16 jurnal orderlari hamda 18- vedomost ma’lumotlari to‘g‘ri aks ettirilgan ligini tekshirishi kerak. Sanoat korxonalarida 18-vedomost ma’lumotlari asosida ishlab chiqarish xarajatlari va hisob-kitoblarni (2310, 2920, 6500, 6700 va 8910 schyotlari) ni hisobga olish schyotlari krediti bo‘yicha oborotlar yaqini 9400 va 0800 schyotlar debeti bilan korrespondentsiyada, shuningdek 18- vedemostga varaq – rasshifrovkalarga ko‘ra yozilgan summalar 10-1 jurnal orderga o‘tkaziladi.

Montaj talab qiladigan va o‘rnatishga muljallangan mamlakatda hamda xorijda ishlab chiqarilgan texnologik, energetik va ishlab chiqarish uskunalarini montajga topshirilishiga 0710 - «O‘rnatiladigan asbob-uskunalar» schyotida hisobga olinadi. Ularni kelib tushishi va ularni kirim qilinishi hamda mahsulot yetqazib beruvchilar schyotlariga to‘lanishi ustidan nazorat kelib tushgan yuklarni hisobga olish jurnalida ( $M - 1$  shakl) yuritiladi. Buyurtmachi montaj talab qiladigan uskunani komiisiya qabul qiladi. Bunda uskunalarini qabul qilish to‘g‘risidagi  $M - 24$  shakl tuziladi, uskuna buxgalteriya hisobida kirim qilish uchun boshlangich hujjat qilinadi. Agar oldindan o‘tkazilgan tekshiruvda, montaj qilish yoki sinashda uskunaning komplekt emasligi, zavodda yo‘l quyilgan brak yoki boshqa nuqsonlar to‘g‘risida auditor tomonidan alohida ishchi hujjat tuziladi.

## **5.5. Pudratchilar bilan hisob-kitoblarning to‘griligi auditi**

Bajarilgan qurilish montaj ishlari uchun buyurtmachilar va pudratchilar urtasidagi hisob-kitoblar korxonalar, ishga tushiriladigan kompleks va obyektlar qurilish uchun shartnoma baholari bo‘yicha qilinadi. Shartnoma bahosi pudrat tashkiloti pudrat shartnomasiga ko‘ra obyektda bajariladigan ishlarni qiymatidir. Shartnoma bahosi butun qurilish davomida o‘zgartirilishi mumkin emas. Shartnoma baholarini aniqlash va kelishi tartibi tasdiqlangan qurilishda shartnoma baholarini aniqlash hamda qo‘llash bo‘yicha metodik ko‘rsatmalarda belgilab berilgan. Metodik qullanmalarga ko‘ra shartnoma bahosiga quyidagilar kiritilgan: korxona, bino, inshoot, ularning navbatlari, ishga tushiladigan komplekslar qurish qiymatining yigma hisob-kitob sistemalarida aniqlangan qurilish montaj ishlarining smeta qiymati yoki bu ishlarning texnik iqtisodiy asoslash va texnik iqtisodiy hisob-kitoblar tarkibida aniqlangan hisob-kitoblar qiymati; pudratchi faoliyatiga taalluqli boshqa ish va xarajatlarning bir qismiga aloqador xarajatlar; nazarda tutilgan ish va xizmatlarning qurilish smeta yigma hisob-kitoblariga yoki texnik iqtisodiy hisob-kitoblarda aniqlanadigan shartnoma baholarida hisobga olinadigan qurilish-montaj ishlari va boshqa xarajatlar qiymatiga kiritiladigan mablag‘lar umumiy rezervining bir qismi, bundan buyurtmachi yetqazib beradigan materiallar, buyumlar va konstruktsiyalar qiymatiga utadigan summalar istisno qilinadi. Auditorlik tashkiloti qurilish tashkilotining auditorlik tekshiruvida ekspertlarni yollashi mumkin. Audit jarayonida qurilayotgan obyektlarning hammasi tegishli loyiha-smeta hujjatlari bilan to‘liq ta’minlanganligani pudrat shartnomasida ko‘rsatilgan muddatlarda topshirilganligini tekshirib chiqadi. Auditorlik hisobotiga loyiha-smeta hujjatlari bo‘yicha bunday tartibbuzarlikning oqibatlari ko‘rsatilgan holda obyektlar ro‘yxatini taqdim etishi kerak.

Qurilish loyiha hujjati qurilishni moliyalashtirish uchun xizmat qiladi va pudratchi bilan buyurtmachi orasidagi barcha hisob kitoblarni amalga oshiradi. Noto‘g‘ri tuzilgan smeta hujjatlari obyektning smeta qiymatini oshishiga olib keladi. Shuning uchun qurilish smeta hujjatlarini yoppasiga ya’ni sinchiklab

har birini tekshirish lozim. Shuning uchun auditorlar tomonidan loyiha smeta hujjatlarini diqqat bilan tekshirish maqsadga muvofiqdir.

Agarda belgilangan tartibda loyiha hujjatlariga tuzatishlar kirlitsa, buning oqibatida qurilish-montaj ishlarining hajmi va tarkibi uzgaradigan bulsa, shartnoma bahosiga pudratchi bilan kelishib aniqliklar kiritish lozim. Buyurtmachi va bosh pudratchi urtasidagi kelishmovchilikka oid qarorni vazirlik – buyurtmachi rahbarlari vazirlik – pudratchi rahbarlari bilan kelishib 20 kunlik muddatda qabul qiladilar. Agarda qurilishda ikki yoki undan ortiq bosh pudratchi qatnashsa shartnoma bahosi har bir bosh pudratchi uchun belgilanadi.

Buyurtmachi pudratchining korxona quvvatini oshirish taklifini qabul qilsa, qurilishning smeta qiymati va shartnoma bahosi loyiha bo‘yicha mazkur korxona quvvati birligiga qabul qilingan xarajatlar salmog‘i asosida aniqlaniladi. Bunda buyurtmachining quvvati oshirishga aloqador qo‘sishimcha xarajatlari aniqlik kiritilgan smetada nazarda tutilgan mablag‘lar hisobiga mablag‘ bilan ta’minlanadi.

Auditor smetalarda o‘tkazilgan tekshiruv natijalarining qandayligini, ularning narxlarini pasaytirilganligini aniqlashi kerak. Buning uchun auditorga qurilish tashkilotida bor bo‘lgan barcha hisob-kitoblar va shu savolga tegishli bo‘lgan hujjatlar bilan tanishib chiqishi lozim.

## **5.6. Umumiyl xulosa**

Ushbu mavzuni o‘rganish natijasida talaba qurilish tashkilotlarida audit o‘tkazishning asosiy ahamiyatini va buyurtmachilar bilan o‘zaro hisob-kitoblar to‘g‘riligini tekshirish, qurilish tashkiloti daromadining shakllanishi, qurilish montaj ishlarinig tannarxi va yaqiniy moliyaviy natijalarni tekshirishni o‘rganishi lozim.

## **5.7.Mavzuga doir kalit so‘zlar**

- Kapital qo‘yilmalar
- Pudrat usulida bajariladigan kapital qo‘yilmalar
- Xujalik usulida bajariladigan kapital qo‘yilmalar
- Tugallanmagan kapital qo‘yilmalar

- Kapital qurilish
- Pudratchi tashkilotlar
- Qurilish – montaj ishlari
- Pudrat shartnomasi
- Loyiha-smeta hujjatlari
- Inventarlash

### **5.8.Talabalarning bilimlarini tekshirish savollari**

1. Kapital qo‘yilmalarni auditining uziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Qurilish-montaj ishlarni bajarishiga ko‘ra kapital qo‘yilmalar necha turga bulinadi?
3. Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalarning auditi qanday amalga oshiriladi?
4. Pudratchilar bilan hisob-kitoblarni audit qilishda qanday hujjatlarga asosiy e’tibor qaratiladi?
5. Tugallanmagan kapital qo‘yilmalarni auditi qanday amalga oshiriladi?

### **5.9. Axborot-uslubiy ta’minot**

#### **Adabiyotlar:**

1. Makalskaya M. i dr. «Osnovi audita» 2-e izd. M.: -2018g. (kurs lektsiy s situatsionno‘mi zadachami).
2. «Audit» Montgomeri, Defliz Filipp, 2017g.
3. «Audit» Mamatov Z.T, Narbekov D.E , Shakarov K.A. Toshkent Islom universiteta nashriyoti, 2002 yil.
4. Podolskiy V.I. i dr. Audit, praktikum. Uch. posobie. M.: -2015g.
5. Audit 1,2-tomlar. O‘quv Qo‘llanma. Tulaxadjaeva M.M. va boshqalarning umumiyl taxriri ostida. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalterlar va Auditorlar Assotsiatsiyasi, T.: - 2004y.
6. Voxidov S.V, Voxidov T.S. «Xalq xo‘jaligining turli tarmoklarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari» Mehnat, 2004 y.
7. Musaev Q.N. Audit. T.: Moliya, 2003 yil.

8. Urazov K.B Buxgalterskiy uchet i nalogooobljenie v torgovle. - Tashkent «Mir ekonomiki i prava» - 2018 god.
9. Audit : uchebnik dlya vuzov . pod red. V.I.Podolskogo. M.YuNITI.2015 god.
10. Audit. Z.T. Mamatov, D.E. Narbekov, K.A. Shakarov. Toshkent Islom Universiteta nashriyoti, 2002 yil.
11. Audit, praktikum. Uch. posobie. Podolskiy V.I. i dr. M.: -2017g.
12. Audit ucheta raschetov po oplate truda. O. Axalkatsi. YuNITI M.: - 2018g.
13. Praktikum po auditu. Uch. posobie pod red A.D. Larionova. M
14. Sbornik zadach po auditu. I.V. Vasilevich. M.: -2018.
15. Auditorskaya proverka kassovo‘x operatsiy. Prakticheskoe posobie. L Sotnikova. M.: -2017g.
16. Uzbekiston Respublikasi Auditorlik faoliyatining milliy standarlari. T.: UBAMA-20.8.
17. Auditorlar uchun qo‘llanma. UBAMA, 2018.
18. «Soliq va bojxona xabarlari» gazetasining 2003-2019 yillardagi sonlari.

## **VI BOB: QISHLOQ XO‘JALIGIDA AUDIT XUSUSIYATLARI**

### **1. Qishloq xo‘jaligida auditning manbalari va vazifalari**

Hozirgi vaqtida fermer xo‘jaliklari qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etishning eng samarali shakli ekanini hayotning o‘zi tasdiqlab bermoqda. Yurtimizda fermer xo‘jaliklarini moddiy-texnik ta‘minlash va moliyalash bo‘yicha bozor iqtisodiyoti tamoyillariga to‘la javob beradigan ishonchli tizim va mexanizmlar shakllantirildi va muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda. Mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish va barqaror iqtisodiy o‘sish sur`atlarini ta`minlash imkonini bermoqda. O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 29-iyundagi PF-5468 sonli farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi tasdiqlandi.<sup>20</sup> Unga ko‘ra 2019-yil 1-yanvardan:

- davlat maqsadli jamg‘armalariga yuridik shaxslarning aylanmasidan (yalpi tushumidan) undiriladigan majburiy ajratmalar bekor qilish;
- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i stavkasini 14 foizdan 12 foizgacha, tijorat banklari uchun — 22 foizdan 20 foizgacha pasaytirish, shuningdek, mobil aloqa xizmati ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) uchun, rentabellik darajasidan kelib chiqib ular uchun qo‘shimcha foyda solig‘i hisoblash tartibini bekor qilgan holda 14 foizdan 20 foizgacha oshirish;
- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i stavkasini 14 foizdan 12 foizgacha, tijorat banklari uchun — 22 foizdan 20 foizgacha pasaytirish, shuningdek, mobil aloqa xizmati ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) uchun, rentabellik darajasidan kelib chiqib ular uchun qo‘shimcha foyda solig‘i hisoblash tartibini bekor qilgan holda 14 foizdan 20 foizgacha oshirish;

---

<sup>20</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasining Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to‘g‘risida” gi farmoni. 29-iyun 2018-yil.

- dividendlar va foizlar ko‘rinishidagi daromadlar bo‘yicha to‘lov manbaidan ushlab qolinadigan foyda solig‘i stavkasini 10 foizdan 5 foizgacha pasaytirish;
- o‘tgan yil yaqinlari bo‘yicha yillik aylanmasi (yalpi tushumi) 1 milliard so‘mdan oshgan yoki joriy yil davomida ushbu belgilangan chegaraviy miqdorga yetgan korxonalarni umumbelgilangan soliqlarni to‘lashga o‘tkazish. Bunda, yillik aylanmaning (yalpi tushumning) 1 milliard so‘m etib belgilangan chegaraviy miqdori har 3 yilda kamida bir marta qayta ko‘rib chiqiladi;
- yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasini, bino va inshootlardan, shu jumladan, ilgari xususiylashtirilgan obyektlardan samarasiz foydalanayotgan yuridik shaxslar uchun yuqori stavkada soliq hisoblash tartibini saqlab qolgan holda 5 foizdan 2 foizga pasaytirish;
- yillik aylanmasi (yalpi tushumi) 1 milliard so‘mgacha bo‘lgan soliq to‘lovchilar uchun aylanmadan (yalpi tushumdan) soliqni 4 foiz miqdordagi bazaviy stavkadan kelib chiqib hisoblash va to‘lash tartibini hamda ixtiyoriy ravishda qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash imkoniyatini belgilash;
- yagona yer solig‘i to‘lovchilari uchun amaldagi soliq solish tartibini saqlab qolish;
- qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘liq hisobga olish tizimini joriy qilish, soliq solish bazasini aniqlashtirish va imtiyozlar sonini kamaytirish, shuningdek, 2019- yil yaqini bo‘yicha mazkur soliq stavkasini pasaytirish orqali qo‘shilgan qiymat solig‘ining 20 foiz miqdordagi amaldagi stavkasini saqlab qolish va boshqalar.

Respublikamizda dastlab 1992- yil 9- dekabrda «Auditorlik faoliyatini to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi. Keyinchalik auditorlik faoliyatini rivojlantirib borib 2000- yil 26- mayda qonunga ayirim uzgarishlar kiritildi. qonunlarning xayotga tadbik qilinishi borasida Respublika Vazirlar Maxkamasining bir qator me'yoriy hujjatlari, shuningdek 2000 yilning 22 sentyabrida qabul qilingan 365-sonli qarori hamda unga ilovalar sifatida bir necha Nizomlar ishlab chiqildi. Mazkur hujjatlar auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi asosiy me'yoriy hujjatlar hisoblanadi.

Faoliyat yuritayotgan aksariyat fermer xo‘jaliklarining ish tajribasi shundan dalolat beradiki, fermer xo‘jaliklarini shakllantirishning dastlabki bosqichida ularga ajratib berilgan yer maydonlarining kamligi mahsulot ishlab chiqarish rentabelligining o‘sishiga ko‘p jihatdan to‘sinqinlik qilmoqda.Imkoniyati, kuch-quvvati kam bo‘lgan fermer xo‘jaliklari o‘zini zarur texnika, aylanma mablag‘ bilan ta’minlash, kredit qobiliyatiga ega bo‘lish, eng asosiysi, o‘z xarajatlarini qoplash va foyda ko‘rib ishlash, daromadni oshirishning ishonchli asosiga aylanolmasligini bugun hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda.Shundan kelib chiqqan holda, yer maydonlarini to‘liq inventarizatsiyadan o‘tkazish va fermer xo‘jaliklari faoliyatini tanqidiy baholash asosida ularning yer maydonlarini optimallashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli, shu bilan birga, puxta o‘ylangan ishlar amalga oshirildi. Bunda fermer xo‘jaliklarining qaysi sohaga ixtisoslashgani va mamlakatimizning turli hududlaridagi aholi zichligi alohida e’tiborga olindi. «Ana shu ishlar natijasida fermer xo‘jaliklari uchun ajratilgan yer maydonlari bugungi kunda paxtachilik va g‘allachilikda o‘rtacha 37 gektardan 93,7 gektargacha ko‘paydi yoki 2,5 barobardan ziyod oshdi. Bu ko‘rsatkich sabzavotchilikda — 10 gektardan 24,7 gektargacha yoki 2,5 barobar, chorvachilikda esa 154 gektardan 164,5 gektargacha ko‘paydi.» Qishloq xo‘jalik korxonalarida auditor tomonidan tuziladigan moliyaviy hisobotlarni to‘g‘riligini nazorat kilib boradi:

- 1) hisobotlarni aniqligini ta’kidlash yoki ularni noaniqligi to‘g‘risida ko‘rsatmalar berish;
- 2) buxgalteriya hisobida karzlar, daromadlar va qishloq xo‘jalik korxonalarini faoliyati moliyaviy natijalarini tekshirilayotgan davrda to‘liq, aniq va haqiqiy ko‘rsatilganligini tekshirish;
- 3) buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotlarni tuzishni tartibga soluvchi qoidalarga, normativ hujjatlarga hamda qonunchilikka amal qilinganligini, shuningdek aktivlar, majburiyatlar va uz kapitalini baholash metodologiyasiga rioya etilganligini nazorat qilish;
- 4) uz asosiy va aylanma mablag‘larini, moliyaviy rezervlardan hamda kredit manbalaridan yaxshirok foydalanish rezervlarini aniqlash.

Auditning vazifalari - balansni, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni to‘g‘ri tuzilganligi hamda tushuntirish xatlarida ma’lumotlar aniqligini auditorlik tekshirushi orqali aniqlashdan iborat.

Bunda quyidagilarga e’tibor qaratilishi lozim:

- a) hisobotda xamma aktivlar va passivlar ko‘rsatilganmi;
- b) hisobotda barcha hujjatlardan foydalanilganmi;
- v) xaqiqatdagi mulkni baholash metodikasi korxona buxgalteriya hisobi siyosatida belgilangan metodikadan qanchalik farq qiladi.

Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni auditor balans va soliqqa tortilgan foya to‘g‘ri hisoblanganligini aniqlash uchun tekshiriladi.

Auditor asosiy maqsadga erishish va xulosa berish uchun quyidagi savollar bo‘yicha uz fikrni shakllantirish kerak:

- 1) hisobotning umumiyligi mos kelishi ya’ni, hisobot umuman uning oldiga quyilgan talablarga javob beradi, hamda bir-biriga to‘g‘ri kelmaydigan axborotdan xolis ekanligi;
- 2) asoslanganlik ya’ni, ko‘rsatilgan summalarni hisobotga kiritish uchun asosi borligi;
- 3) yaqinlanganlik ya’ni, hisobotga xamma summalar kiritilganligi, shuningdek barcha aktivlar va passivlar bankka tegishlimi. Bu moddiy zapaslar bank multkidir.
- 4) baholash ya’ni, barcha mablag‘lar to‘g‘ri baholangan va xatosiz hisoblanganligini o‘rganish;
- 5) turkumlash ya’ni, summani shu schetda ko‘rsatish uchun asos bormi;
- 6) ajratish ya’ni, operatsiyalar amalga oshirilgan davrda ko‘rsatilganmi (sotilgan va sotib olingan tovar moddiy zapaslar summasi 2 davr orasida ajratilganmi);
- 7) saranjomlik ya’ni, analitik hisob-kitoblarida va jurnallarida keltirilgan ma’lumotlari aniqlimi, ular to‘g‘ri qo‘shilganmi va bosh kitobdagagi ma’lumotlarga mos keladi;

8) ochish ya’ni, moliyaviy hisobotga xamma kategoriyalar kiritilgan hamda ular hisobotda to‘g‘ri ko‘rsatilgan.

Tekshirilayotgan korxonada audit o‘tkazishni rejalashtirishni dastlabki qismi bu – moliyaviy hisobotni taxlil qilish, amalga oshiriladigan nazoratning masshtabni baholashni qo‘llanilayotgan ichki nazorat asosida olib borish kerak. Tekshiruv jarayonida qo‘llaniladigan protsedurani aniqlash zarur, ya’ni tekshiruvga boshqa auditorlar, ekspertlarni va qo‘srimcha xodimlar jalb etishni hamda mijozni bank rozilagini olib, ular faoliyatini rejalashtirish kerak. Shuni yodda tutish kerakki, tekshirishda boshqa mutaxassislar ishidan foydalanish auditordan auditorlik xulosasi uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

## **6.2. Qishloq xo‘jaligidagi xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalashni tekshirish**

Dehqonchilikda mahsulotining daladan kelib tushishi va berilishini aks ettiradigan turli birlamchi hujjatlar mavjud. Hujjatlarning shakli mahsulotlar xarakterining va ish turiga daladan keltirilayotgan mahsulotning hujjati rasmiylashtirilishiga va uning kirim qilinishiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, donni kombaynlarda xirmonga tashish, mahsulotni daladan olib chiqish yo‘llanma bilan rasmiylashtiriladi. Oldindan nomerlangan yo‘llanma kombayn haydovchilariga berib qo‘yiladi. Bu yo‘llanmani avval kombaynchi, so‘ngra shofyor va xirmon mudiri imzolaydi.

Audit jarayonida yo‘llanmalar o‘rnida daladan don va boshqa mahsulotlarni jo‘natish reestirlaridan foydalanilganligiga ham e’tiborni qaratish lozim. Ular yo‘llanmalar singari rasmiylashtiriladi, ammo kun davomida yig‘ma hujjat sifatida yuritiladi. Bu dastlabki hujjatlar sonini qisqartirish imkonini beradi. Bundan tashqari, auditor don mahsuloti bevosita xirmonda “Don va boshqa mahsulotlarni qabul qilish” reestrlerida kirim qilinganligini tekshirishi lozim, bu hujjat ham ish kuni davomida yuritiladi. Xirmon mudiri ushbu kirim hamda chiqim hujjatlari asosida har kuni don va boshqa mahsulotlar harakati vedomostini tuzadi va uni dastlabki hujjatlar bilan birga buxgalteriyaga topshiradi.

Donni xirmonda tozalash, quritish va saralash dalolatnomalar bilan rasmiylashtirilib, unda donning ishlov berishdan oldingi va keyingi og'irligi turlar bo'yicha chiqit miqdori ko'rsatiladi.

Paxtaning kelib tushishi paxtaning kundalik terilishi haqidagi ma'lumotlarni qamrab oluvchi hujjatlar, savzavot, kartoshka, poliz va bog'dorchilik mahsulotlari qishloq xo'jalik mahsulotining kelib tushish kundaliklari orqali rasmiylashtiriladi.

G'allani qabul qilish punktlariga jo'natilayotganda tovar transport nakladnoylari ilova qilinadi.

Chiqim hujjatlari omborchi yoki xirmon mudiri tomonidan mahsulotning chiqib ketishi haqidagi hujjatlar reestrida qayd etiladi. Ishlatilgan ozuqa yig'ma hujjat ozuqa sarfi vedomosti bilan rasmiylashtiriladi.

Chorvachilikda ham xilma-xil hujjatlardan foydalaniladi. Ularning shakli va mazmuni mahsulot xarakteri, chorva va ish turiga bog'liq bo'ladi. Auditor ushbu hujjatlarni to'rini va ish bajarish xarakterini bilishi zarur.

Dehqonchilik qishloq xo'jaligining asosiy sohalaridan biri. Bu sohada qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti shu jumladan chorva uchun oziqa etishtiriladi. Bu tarmoqda dala ishlari, polizchilik, bog'dorchilik, yem-xashak yetishtirish va shu kabilar tarkib topadi.

Dehqonchilikdagi hisobga olish obyekti – ekinlarning alohida turlari, tugallanmagan ishlab chiqarish turlari va ayrim ishlardir. Masalan, kuzgi boshoqli ekinlar guruhi, bahor gi bug'doy va boshqa bahorgi ekinlar guruhi, tekin ekinlar, kartoshka, sabzavot, poliz, oziqa ekinlarining bog'dorchilik va uzumchilik xarajatlari hisobga olishning mustaqil obyektlari hisoblanadi.

Kelgusi yil hosili uchun qilingan xarajatlар hisoblash tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari hisobga olishning alohida obektiga ajratiladi. Bu xarajatlар alohida ekinlar bo'yicha bajariladigan ish turlari yuzasidan hisobga olinadi. Keyingi, boshlangan hisobot yilda aytib o'tilgan xarajatlар alohida ekin turlari tannarxiga taqsimlash yo'li bilan o'tkaziladi.

Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulotning chiqishi bo'linma, birgada va shu kabilar bo'yicha hisobga olinishi kerak bundan tashqari auditor ekin

turlari bo‘yicha xarajatlar quyidagi kalkulyatsiya moddalari bo‘yicha to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshiradi:

Ijtimoiy sug‘urta ajratmalari bilan birgalikda mehnatga haq to‘lash xarajatlari.

1. Urug‘lik va ekish materiallari.
2. O‘g‘itlar.
3. O‘simliklarni himoya qilish vositalari.
4. Ish xizmatlari.
5. Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari
6. Ishlab chiqarishni tashkil etish xarajatlari.
7. Sug‘urta to‘lovleri.
8. Boshqa xarajatlar

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishga oid buxgalteriya yozuvi to‘g‘ri va tegishli tartibda rasmiylashtirilgan boshlang‘ich hujjatlar-mexanizatsiyalashtirilgan, ot va qo‘l mehnatlarini hisobga olish varaqalari, o‘g‘it sarfi aktlari, mahsulot jo‘natilganligi haqidagi nakladnoylar registirlar, mahsulotni daladan olib chiqish yo‘llanmalari, oziqa qabul qilish dalolatnomalari va shu kabilar asosida amalga oshiriladi. Brigada va bo‘limlar bo‘yicha guruhlangan boshlang‘ich hujjatlar ma’lumotlari asosida ish va xarajatlarni hisobga olish jurnali yuritiladi, so‘ngra har oyda dehqonchilik bo‘yicha ishlab chiqarish hisobotlari tuziladi. (18-shakl) hisobot ikki bo‘limdan iborat bo‘ladi. Uning birinchi bo‘limida xarajatlar moddalari, rejadagi ekin tur (guruh) lari, tugallanmagan ishlab chiqarish turlari bo‘yicha xarajatlar, ikkinchisida dehqonchilik mahsulotining chiqishi aks ettiriladi. Ishlab chiqarish hisobotlari tugallangan oydagи ma’lumotlarni ko‘rsatib, yil boshidan o‘suvchi yaqinida yuritiladi. Hisobotlar asosida analistik hisob yuritiladigan mahsulotning chiqishi hisobi daftariga, qayd qilinadi. So‘ngra 10 jurnal-orderga o‘tkaziladi. hisobga olishning mashinaga mo‘ljallangan turlarida xarajatlar va mahsulotning chiqishini hisobga olishning vedomost- mashinagrammalari ishlab chiqiladi.

Auditorlik tekshiruvi mobaynida auditor, qishloq xo‘jalik korxonalarida dehqonchilikdagi xarajatlar va mahsulotning chiqishini hisobga olishda “Asosiy ishlab chiqarish” schyotidan foydalanilayotganligini ham aniqlab olishi kerak. U,

ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini hisoblashga ham mo‘ljallangan. Schyotning debitida yil davomida bevosita, yil oxirida esa yuqorida keltirilgan sarf moddalari bo‘yicha bilvosita xarajatlar, kreditda esa yil davomida mahsulotning chiqishi rejadagi tannarxda aks etiriladi. Yil yaqinida esa rejadagi tannarx aniqlangan haqiqiy tannarxga yetqazib to‘g‘rulanadi. Yil boshida Ushbu schyotning debet savdosi o‘tgan yil xarajatlari bo‘yicha tugallanmagan ishlab chiqarishni, yil oxirida esa kelgusi yil hosili uchun xarajatlar bo‘yicha tugallanmagan ishlab chiqarishni anglatadi. ”Dehqonchilik” schyoti bo‘yicha analitik hisobi ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish obyektlari bo‘yicha ekin turlari, tugallanmagan ishlab chiqarish, ish turlari va xarajatlar moddasi bo‘yicha yuritiladi.

Bundan tashqari auditor, xarajatlarni alohida moddalar bo‘yicha hisobga olish tartibini ham bilishi shart. ”Ijtimoiy sug‘urta ajratmalari va mehnatga haq to‘lash xarajatlari” moddasida bevosita ekin o‘sirish bilan band bo‘lgan ishchilar mehnatiga haq to‘lash, navbatdagi va qo‘srimcha ta’tillarga haq to‘lash hamda bu summalarga nisbatdan hisoblangan tegishli ijtimoiy sug‘urta ajratmalari hisobga olinadi. Bu xarajatlar boshlang‘ich hujjalarni asosida bevosita tegishli ekinlar va ish turlariga o‘tkaziladi. qo‘srimcha mehnat xaqi summalarini to‘g‘ri ish xaqiga munosib taqsimlanadi. Bunda umumlashgan ma’lumotlar bo‘yicha ”Dehqonchilik” schyotining debetiga hamda ”Mehnatga xaq to‘lash bo‘yicha hisoblashishlar” va ”Ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha hisoblashishlar” schyotlarining kreditiga qayd qilinadi.

### **6.3. Dehqonchilik va chorvachilikda xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalash auditи**

Dehqon xo‘jaligini xarakterlaydigan asosiy ko‘rsatkichlar sistemasida uning faoliyati natijalarini ko‘rsatkichlariga alohida o‘rin ajaratiladi. Bunday ko‘rsatkichlarga qishloq xo‘jaliq ishlab chiqarishi uchun xarajatlar, yalpi ishlab chiqarilgan mahsulot, foyda, shaxsiy iste’mol uchun xarajatlar kiradi. Bu ko‘rsatkichlar buxgalteriya hisobini yuritish sistemasida shakllanadi. Dehqon xo‘jaligi faoliyati natijalarini aniq va to‘g‘ri aks ettirish uchun xarajatlarni shakllanishi, ishlab chiqarish natijalari va uni taqsimlash uslubini ishlab chiqish

lozim. Bunday qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan bogliq uslubni ishlab chiqish xarajatlar tarkibi, ishlab chiqarishga qilingan xarajatlarni aniqlash shaxsiy iste’mol uchun xarajatlar va ularni qoplash manbalari, dehqon xo‘jaligi faoliyatini natijalarini shakllantirish imkonini beradi.

Dehqon xo‘jaligidagi xarajat va foydani taqsimlanishini shakllantirish bilan bogliq ma’lumotlar auditorlik nazoratidan o‘tkazilganda, asosiy e’tiborni haqiqiy hisob ma’lumotlariga qaratish lozim.

Ushbu uslubni ishlab chiqishda auditor dehqon xo‘jaligi faqat qishloq xo‘jalik faoliyatini yuritadi deb hisoblab va uning qishloq xo‘jaligi faoliyatiga to‘g‘ri bogliq bulmagan holda olgan boshqa daromadlari va xarajatlari borligini ham hisobga olishi kerak. Qishloq xo‘jaligi faoliyatini asosiy qismi bo‘lib azaldan dehqonchilik va chorvachilikda yetishtirilgan mahsulotni birlamchi qayta ishlash kuriladi. Oilaviy dehqon fermer xo‘jaligi uziga xos bo‘lgan korxonadir. Bu uziga xoslik xo‘jalik faoliyati davomida ishlab chiqarishda vositalarni aylanishi, qayta ishlash, saqlash, tashish, hamda iste’mol qilishda ko‘rinadi. Ba’zi bir xo‘jaliklarda o‘zlarini olgan qimmatliklar shaxsiy iste’mol uchun ishlatiladi, ba’zi xo‘jaliklarda esa bu qimmatliklar hosilni yigish ko‘rinishida bo‘lib faqat shaxsiy iste’molni qondirish uchun emas, balki sotish uchun xam etishtiriladi. Lekin bu xo‘jalikni va undagi qimmatliklarni aylanishi xarakteri mazmunini xech kanday uzgartirmaydi. Mahsulotni sotish ham asosan iest’mol maqsadida amalga oshirilib ishlab chiqarilgan mahsulotni ortigini o‘z xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan boshqa qimmatliklarga almashtirish uchun amalga oshiriladi. Ushbuni hisobga olib biz dehqon faoliyatini yaqiniy natijasi sof foyda (Sf) deb hisoblaymiz va u dehqon daromadi (D) va xarajati (X) ayirmasi sifatida aniqlanadi: Sfq(D-X). Sof foyda oxir oqibatda dehqonning faoliyat protsessi davomida tuplangan xo‘jalik jamgarmasi yoki kapital sifatida maydonga chiqadi. Bu foydaning pul vositalari fermer faoliyatini turli yo‘nalishlarni moliyalashtirish manbayi bo‘ladi. Xo‘jalik daromadi qishloq xo‘jaligi mahsulotini reslizatsiya qilishdan olingan tushu”ni uy xo‘jaligi yuritish uchun qishloq xo‘jaligi xarajatlaridagi sarflardan iborat buladi. Dehqon va uning oilasini extiejini qondirish pul daromadi va dehqon xo‘jaligi zaxiralari hisobiga buladi va ular qishloq xo‘jaligi

faoliyatidan olinadi. Shundan kelib chiqib, sof foyda summasi va uy xo‘jaligi uchun qilingan sarflar qo‘silgan holda qishloq xo‘jaligi faoliyatidan olingan foydani ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jaligi faoliyati ko‘rsatish davomida fermer zarar qurishi ham mumkin, bunda ko‘rilgan zararlar summasi uy xo‘jaligi uchun qilingan sarflar hisobiga ortadi. Fermer uz faoliyatini amalga oshirar ekan, uz ishidagi manfiy natijalar bulishidan manfaatdor bulmaydilar. Oxir oqibat bunday ahvol bankrotlikka olib boradi. Shuning uchun biz xo‘jalikni zarar keltirib ishslash holatini hisobdan chiqarmagan holda asosiy diqqatni foyda ko‘rsatkichlarini tekshirishga qaratish kerak.

Yaqin yillar ichida davlat va jamoa xo‘jaliklarining barcha ishlab chiqarish bo‘linmalari mehnatini tashkil etishning pudrat usuliga, shu jumladan oila va yakka tartibdagi pudrat usuliga o‘tkazilganligini unutmaslik kerak bu usulda ishlab chiqarishda qatnashuvchilarning barchasi, shu jumladan rahbarlar va mutaxassislarning ham mehnatiga haq to‘lash yalpi daromadga bevosita bog‘liq qilib qo‘yildi, qishloq xo‘jalik xodimlari mehnatiga natural xaq to‘lashning salmog‘i ortadi, uni to‘lash hajmi pirovard natijalarga qatiyy bog‘liq qilib qo‘yiladi. Bunda xo‘jalik ichidagi o‘rtasida o‘zaro hisoblashishning chek shakli joriy etilib, bo‘linmalar rahbarlar mahsulot uchun ham, xizmatlar uchun ham chek bilan hisoblashishni amalga oshiradilar.

Auditorlik tekshiruvida auditor quyidagilarga e’tiborini qaratishi lozim: jamoa xo‘jaligi mehnatkashlari ijtimoiy ta’minot markaziy fondiga ajratmalar ijtimoiy sug‘urta ajratmalar singari aks ettiriladi, ammo yozuvlar chorakda bir marta «Dehqonchilik» schyotining debeti va “Sug‘urta bo‘yicha hisoblashish” schyotining kreditida aks ettiriladi. qishloq xo‘jalik tarmoqlarida moddiy resurslarni hisobga olish singari tashkil etiladi.

Urug‘ va ekin materiallari bevosita belgisiga ko‘ra “Dehqonchilik” schyotiga haqiqiy tannarxda “Urug‘lar va oziqa” schyotining kreditidan o‘tkaziladi. Urug‘larni ekishga tayyorlash, ularni ekish joyiga tashib keltirish xarajatlari urug‘lar qiymatiga kiritilmaydi, balki ekinlarga tegishli xarajatlar moddalari bo‘yicha o‘tkaziladi.

“O‘g‘it” moddasida qishloq xo‘jalik ekinlari uchun tuproqqa solinadigan o‘g‘itlar, shu jumladan sanoatda ishlab chiqiladigan mineral, bakterial va boshqa o‘g‘itlar hamda organik o‘g‘itlar xarajatlari hisobga olinadi. Xarajatlar analitik hisobga olishda mineral va organiq o‘g‘itlar bo‘yicha alohida aks ettiriladi. o‘g‘itlarni tayyorlash va erga solish xarajatlari bevosita muayyan qishloq xo‘jalik ekiniga tegishli xarajatlar moddalari bo‘yicha o‘tkazilib, bu moddaga kiritilmaydi. O‘g‘itlar xarajatlari “Materiallar” schyoti yoki “Chorvachilik” schyotining kreditidan o‘tkaziladi.

“O‘simliklarni himoya qilish vositalari” moddasida begona o‘tlar, qishloq xo‘jalik ekinlari zararkunda va kasalliklarga qarshi kurashda ishlatiladigan pestitsid, kimyoviy dorilar, gerbitsid va boshqa kimyoviy, shuningdek biologik vositalarni xarid qilish va saqlash xarajatlari kiritiladi. Xo‘jalikning o‘zi bu vositalar bilan ko‘chatlar, ekinlarga ishlov bergandagi xarajatlar moddalari bo‘yicha ekining tannarxiga o‘tkaziladi.

“Ish va xizmatlar” moddasi o‘z korxonasining ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondiruvchi yordamchi ishlab chiqarishlarning xizmatlari hamda shu korxonaga boshqa korxona va tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan ishlab chiqarish xarakteridagi xizmatlarga xaq to‘lash xarajatlari aks ettiriladi. Yordamchi ishlab chiqarishni hisobga olish va ularni xarajatlarini mahsulot tannarxiga qo‘sish tartibi mazkur bobning alohida moddasida yoritilgan.

“Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari” moddasida bevosita ishlab chiqarishda foydalaniladigan asosiy vositalarni saqlash va ulardan foydalanish bilan bog‘liq xarajatlar kiritiladi. Ularga bu asosiy vositalarga xizmat ko‘rsatish va ulardan foydalanish xarajatlari, amortizatsiyasi ajratmalari va tuzatish xarajatlari kiritiladi.

Dehqonchilikda aytib o‘tilgan asosiy vositalarga shu tarmoqda bevosita mahsulot ishlab chiqarishda foydalaniladigan traktorlar, qishloq xo‘jalik mashina va uskunalari, issiqxona, turli omborlar va ishlab chiqarish binolari, asosiy melioratsiya vositalari, ko‘p yillik ekinlar, ishlab chiqarish inventari va boshqalar kiritiladi.

Asosiy vositalarni saqlash va ulardan foydalanish xarajatlariga asosiy vositalarga xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning mehnat haqlari, ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalari

bilan, yonilg‘i va moylash materiallari, yordamchi ishlab chiqarish, shuningdek chet tashkilotlar xizmatlari va boshqa xarajatlari kiritiladi. Tuzatish xarajatlariga eng avvalo o‘zi ning ta'mirlash ustaxonalarining xarajatlari kiritiladi.

Auditor amortizatsiya xarajatlarini yuqorida aytib o‘tilgan asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya ajratmalari tashkil qilaishini xam bilishi kerak. Amortizatsiya xarajatlari har oyda alohida “Dehqonchilikda ishlatiladigan asosiy vositalar bo‘yicha taqsimlangan amortizatsiya” analitik schyotida qayd etib boriladi. Bunda “Dehqonchilik” schyoti debet va “Asosiy vositalarning eskirishi” schyoti kiritiladi. Yil oxirida asosiy vositalarning eskirish summasi ekin va ish turlari bo‘yicha taqsimlanadi va bu maxsus vedomost orqali rasmiylashtiriladi. Oldin “Yordamchi ishlab chiqarishlar” schyotida hisobga olingan joriy tuzatish xarajatlari amortizatsiya summasiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

“Ishlab chiqarish va boshqaruvni tashkil etish xarajatlari” moddasida umumishlab chiqarish xarajatlari aks ettiriladi.

“Sug‘urta to‘lovlari” moddasida qishloq xo‘jalik ekinlarining hosili va ko‘p yillik ekinlar, qishloq xo‘jalik hayvonlari, quyon, asalari oilalari vash u kabilar bo‘yicha davlat majburiy sug‘urta to‘lovlariaga oid xarajatlar hisobga olinadi. Bu to‘lovlar tegishli ekinlarning tannarxiga bevosita olib boriladi.

Bu moddada mahsulotni ishlab chiqarishda bevosita foydalilanidigan bino, inshooat, mashina, uskuna, inventar va boshqa asosiy vositalarning sug‘urta to‘lovlari ham hisobga olib boriladi. Sug‘urta to‘lovlari mahsulotni ishlab chiqarishga sarflanadigan xarajatlarga mutanosif ravishda ekin va mahsulot turlari bo‘yicha taqsimlanadi.

Sug‘urta to‘lovlari buxgalteriyada “Dehqonchilik” “schyotining debetida, “Sug‘urta bo‘yicha hisoblashishlar” schyotining kreditida aks ettiriladi. “Boshqa xarajatlar” moddasida mahsulotni ishlab chiqarishga bevosita daxldor, ammo yuqorida ko‘rib chiqilgan moddalardan birortasi ham kiritilmaydigan xarajatlar aks etiriladi.

O‘tgan yilning kuzida qilingan tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari hisobot yili xarajatlariga qo‘shiladi. Ular ekin turlari bo‘yicha ekin maydoniga mutanosib

taqsimlanadi. Aniqlangan summaga analitik schyotlar bo‘yicha « Dehqonchilik» schyotining debit va kreditida yozuvlar qilinadi.

“Dehqonchilik “ schyotining debitida aytib o‘tilgan yozuvlar qilingach, analitik schyotlar bo‘yicha alohida ekin turlariga yil davomida sarflangan barcha ishlab chiqarish xarajatlari aniqlanadi. Bu schyotning kreditida yil davomida sarflangan barcha ishlab chiqarish xarajatlari aniqlanadi. Bu schyotning kreditida yil davomida mahsulotning chiqarilishi rejali tannarxda aks etiriladi va quyidagi yozuvlar bilan rasmiylashtiriladi:

Debet: 2800-«Tayyor mahsulot” schyoti.

Kredit: 2000-«Asosiy ishlab chiqarish “schyoti

Yil oxirida haqiqiy tannarx aniqlangandan so‘ng yozuv haqiqiy va rejadagi tannarx o‘rtasida farqqa to‘g‘irlanadi (korrektirovka qilinadi).

Auditor dehqonchilik mahsuloti birligining tannarxini kalkulyatsiya qilish tartibini ham bilishi shart. “Dehqonchilik» schyotining analitik schyotlari ekin turlari bo‘yicha aks ettirilgan xarajat ma’lumotlariga asoslanuvchi haqiqiy tannarxning hisobot kalkulatsiyalari yil oxirida asosiy qishloq xo‘jalik ishlarining doirasi tugab , joriy yil hosili yig‘ib olingandan keyin tuziladi.

Bunda asosiy, yondosh va yordamchi mahsulot tushunchalari farqlanadi, ya’ni asosiy mahsulot mazkur ishlab chiqarish shu mahsulotni olish maqsadlarida tashkil etilgan. Yondosh mahsulot—asosiy ekinlardan mahsulotlar bilan bir vaqtida olinadi va iste`mol xususiyatlariga ko‘ra asosiy mahsulotga o‘xshash. Yordamchi mahsulot- bu ham asosiy mahsulot bilan bir vaqtida olinadi, ammo xususiyatiga ko‘ra ikkinchi darajali mahsulot hisoblanadi.

Dehqonchilikda har bir alohida qishloq xo‘jalik ekinidan olinadigan mahsulot turi kalkulatsiya obyekti hisoblanadi.Bir ekindan Ayni bir vaqtida har xil xususiyatdagi mahsulot olish tufayli dehqonchilik mahsuloti tannarxini kalkulatsiya qilishda turli usuldan foydalaniladi. Masalan, xarajatlarni bevosita o‘tkazish metodidan bir ekindan faqat bitta mahsulot turi olinadigan xollarda foydalaniladi. Bu eng oddisi: mazkur ekinga sarflangan xarajatlar summasiga olingan mahsulot miqdori bo‘linadi. Ayrim qishloq ekinlari o‘rtasida olinayotgan mahsulot turlari

uchun umumiy bo‘lgan belgilardan birining miqdoriy qiymatiga mutanosib taqsimlash metodi ham qo‘llaniladi.

Auditorlik teshiruvi mobaynida auditor, dehqonchilik mahsulotining tannarxini hisoblashda qishloq xo‘jalik ekiniga sarflangan ishlab chiqarish xarajatlaridan noqo‘lay ob-havo sharoitlari tufayli olingan mahsulotga taalluqli bo‘lgan va belgilangan tartibda zararga o‘tkaziladigan sug‘urta tovonlari summasi istisno (faqat hisobga olishda ) qilinganmi, yo‘qmi shuni ham tekshirishi lozim.

Qishloq xo‘jalik ekinlari (ekin turlari) bo‘yicha dehqonchilik mahsulotining tannarxi:

A) Don, paxta, kungabohar urug‘i-franko-dala (xirmon yoki dastlabki ishlov beriladigan joy),

B) Somon, xashak-franko-saqlash joyi,

V) Qand lavlagi, kartoshka, poliz ekinlari, sabzavot, qand lavlagi tugunchalari, ildizmevalar- franko – dala (saqlash joyi)

G) Mevalar, rezavor, uzum, tamaki, maxorka va choy bargi dorivor efirmoy ekinlari va gulchilik mahsulotlari, himoya qilingan er sabzavotlari-franko-qabul (saqlash) joylari.

D) Zig‘ir-poxol, ivitilgan zig‘ir poya-franko-saqlash qayta ishslash (xo‘jalikda) joyi.

E) O‘t, zig‘ir, sabzavot va boshqa ekin urug‘lari-franko-saqlash joyi.

J) Ozuqa uchun ko‘k massa – franko-iste’mol joyi.

Z) Silos, o‘t uni senach, granula uchun ko‘k massa, franko – silos bosish, senach qilish (minora, zovur, o‘ra) joyi, o‘t uni, granula tayyorlash joyi va x.k.

Joriy yildagi dehqonchilik mahsulotining tannarxiga yiqilgan, ammo yanchilmagan yoki yiqilmagan ekinlar bo‘yicha xarajatlar kiritilmaydi. Agarda yil oxirida dehqonchilikda yanchilmagan ekinlar bo‘lsa, haqiqiy xarajatlar quyidagicha taqsimlanadi.

Yig‘ishtirib yanchilgan va yiqilgan, ammo yanchilmagan ekin bo‘yicha sarflangan haqiqiy xarajatlarning umumiy summasidan mahsulotni yanchish va daladan olib kelish xarajatlari chegiriladi. Ana shundan keyin qolgan xarajatlar

summasi yig‘ishtirib yanchilgan ekin o‘rtasida gektarlar miqdoriga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Yig‘ishtirib yanchilgan ekinlar mahsulotning haqiqiy tannarxini aniqlash maqsadlarida yig‘ishtirilgan ekinlarga sarflangan xarajatlar summasiga ularni yanchish, tashish bo‘yicha xarajatlar qo‘shiladi. Kelgusi yilda tannarxni hisoblashda yanchilmagan ekinlar va yig‘ishtirish bo‘yicha xarajatlar mahsulotni yanchish, tozalash va tashish xarajatlariga qo‘shiladi.

Somon (chori), jo‘xoripoya bargi va g‘o‘zapoya kungabohar to‘pguli, karam bargi, shox-shabba (tut va shu kabilarning tannarxi ushbu mahsulotni yig‘ishtirish, presslash, tashish, haramlash va tayyorlashga oid boshqa ishlar xarajatlari asosida belgilangan me'yorlar bo‘yicha ularga sarflangan xarajatlardan kelib chiqib aniqlanadi.

Don ekinlarini ekish va yig‘ishtirish xarajatlari (donni xirmonda tozalash va quritish xarajatlari qo‘silib don, don chiqitlari va somonning tannarxini tashkil qiladi.

Don va don chiqitlarining tannarxini aniqlash uchun, avvalo unga tegishli jami xarajatlarda somonning belgilangan qiymati chegirib tashlanadi. qolgan xarajatlar don va don chiqitlarining tannarxini tashkil etadi. Donning tannarxini aniqlash uchun don chiqitlari sof donga aylantiriladi, so‘ngra ularga tegishli jami xarajatlar shartli don miqdoriga bo‘linib 1ts donning tannarxi aniqlanadi.

Masalan, kuzgi bug‘doy hosili yig‘ishtirib va tozalab olingandan keyin 5000 s don, 3000ts chiqiti va 40000 s somon olinadi. Ushbu hosilni yetishtirish va xirmonda tozalash uchun 2550000 so‘m sarflangan. Somonning me'yoriy xarajatlar qiymati 50000 so‘mni tashkil etadi. 1ts somonning tannarxi esa –  $(50000G+40000) \cdot 1.25$  so‘mni tashkil etdi. U holda don va don chiqitiga tegishli xarajatlar (255000-50000) 250000 so‘mga teng.

Don chiqiti (chori) ning tarkibidan 50 foizdan bo‘lganligi uni donga aylantirilganda  $(3000 \cdot 50G + 100) \cdot 1500$  s jami shartli don miqdori esa 51500 s ga teng. 1ts donning tannarxi 40 so‘m 54 tiyinni, 1ts chorining tannarxi esa 20 so‘m 27 tiyinni tashkil etdi.

Auditor urug‘chilik ekinlari bo‘yicha umumiy xarajatlar tegishli reproduktsiyadagi urug‘lik donni olishga aloqador qo‘sishimcha xarajatlarni ham qo‘sib, urug‘lar tannarxiga yuqoridagi tartibda o‘tkazilganligiga e’tibor berishi kerak. Its urug‘ning tannarxi tegishli urug‘ga o‘tkazilgan xarajatlarning umumiy summasi tozalangan va quritilgan urug‘ massasiga realizatsiya bahosiga mutanosib taqsimlanadi.

Its makkajo‘xori donining tannarxini hisoblashga don qabul qilish punktlarida sutkalik o‘rtacha namunalarni sutkadagi donning bazis namligini hisobga olib yanchish natijasida aniqlangan so‘talardan qurug‘ donga o‘tkazish xo‘jalikning davlatga sotgan makkajo‘xori so‘talaridan bazis namlikdagi don chiqishining o‘rtacha foizidan aniqlanadi.

Its moyli o‘simgiliklar urug‘ining tannarxi donli ekinlar uchun belgilangan tartibda aniqlanadi.

Its paxtaning tannarxi uni etishtirish va yig‘ishtirish xarajatlari summasini uning hisobga olingan miqdoriga taqsimlab aniqlanadi. Paxtaning tannarxi alohida navlar bo‘yicha aniqlanganda xarajatlarning umumiy summasi uning xarid narxlarining qiymatiga mutanosib taqsimlanadi.

Tola beruvchi zig‘ir mahsulotining tannarxini hisoblashda o‘stirish va yig‘ishtirishga oid ishlab chiqarish xarajatlari urug‘ va tola miqdoriga ularning xarid baholaridagi qiymatiga mutanosib o‘tkaziladi.

Ivigan zig‘ir poyasining tannarxi poxol qiymati va yoyish, ag‘darish va ivigyn poyani ko‘tarib olish xarajatlarini qamrab oladi.

Boshqa yigiriladigan ekinlar tannarxi tola beruvchi zig‘ir mahsuloti singari hisoblanadi.

Its lavlagi ildiz mevasining ishlab chiqarish tannarxi ularni qand lavlagining fizik massasiga bo‘lib aniqlanadi.

Auditorlik jarayonida auditor, tamaki va moxorka xomashyosining tannarxi ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy summasi va xomashyoning hisobga olingan massasidan kelib chiqib, xarajatlarni mahsulotlarning alohida turlariga ularning xarid baholaridagi qiymatiga mutanosib taqsimlab aniqlaganligini ham tekshirib chiqishi

kerak. Urug‘chilikda 1ts tamaki, moxorka xom ashysosi, urug‘ning tannarxi muayyan mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli summasi va xom ashysosi, urug‘ning hisobga olingan massasidan kelib chiqib aniqlanadi.

Bulardan tashqari, dalada o‘stiriladigan dorivor o‘simliklar ayrim turlari mahsuloti 1ts ning tannarxi mazkur mahsulot turiga o‘tkazilgan umumiy xarajatlar summasini uning umumiy massasiga realizatsiya bahosi bo‘yicha qiymatiga mutanosib aniqlanganligini ham tekshirib chiqish auditorlik xulosasini ishonchlilagini ta’minlaydi.

O‘tsimon bir yillik va ikki yillik hamda efir moyli ekinlar mahsulotining tannarxi barcha xarajatlarni ularning realizatsiya bahosidagi qiymatiga mutanosib taqsimlab aniqlanadi. Bunda to‘liq pishguncha o‘stirish va yig‘ishtirish xarajatlari urug‘lar tannarxiga kiritiladi. Arpabodiyon va oq ziradan dumbillik vaqtida foydalanganilda barcha xarajatlar efir-moy xom ashysosi tannarxiga o‘tkaziladi.

O‘tsimon ko‘p yillik efir-moy bo‘yicha ekish xarajatlari har yili olinadigan mahsulot miqdoriga mutanosib taqsimlanadi.

1ts kartoshkaning tannarxi kartoshkani etishtirishga taalluqli barcha xarajatlarni palak qiymatini chegirib, kartoshka hosiliga taqsimlab aniqlanadi.

Ayrim sabzavot ekinlari 1ts hosilning tannarxi ochiq sabzavotchilik va himoya qilingan erdag'i sabzavotchilik bo‘yicha alohida tarzda xarajatlar summasini palak xarajatlarini qo‘sib mahsulot massasiga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanganligini xam tekshirib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

1ts shampinonlar tannarxini hisoblashda barcha xarajatlar ishlatilgan substrat qiymatini chegirib mahsulot massasiga o‘tkaziladi.

Oziq-ovqat ekini sifatida poliz ekinlari ayrim turlari 1ts hosilning tannarxini o‘stirish va hosilni yig‘ishtirishga taalluqli barcha xarajatlarni mahsulot massasiga taqsimlab aniqlanadi. Bunda xarajatlar ayrim ekinlarga mahsulot realizatsiyasidan tushgan daromadga mutanosib taqsimlanadi.

Sabzavot va poliz ekinlari 1 s urug‘ning tannarxi o‘stirish, yig‘ishtirish, quritish va navlarga ajratish sarflarini taqsimlab, bunda qo‘sishimcha mahsulot massasiga o‘tkazilgan xarajatlari istisno qilib aniqlanadi.

Ozuqa ildiz mevalar va poliz ekinlari hayvonlarga oziqa sifatida berilgan qand lavlagi, ularning tugunaklari tannarxi yuqorida sabzavot ekinlari, qand lavlagi va poliz ekinlari tannarxini hisoblashda bayon etilgan tartibda aniqlanadi.

Ozuqa ekinlarini o'stirish va yig'ishtirish xarajatlari ular mahsulotining tannarxini tashkil qiladi.

Butun turdag'i mahsulotni olishda foydalaniladigan sepilgan o't, yaxshilangan va tabiiy pichanzor hamda madaniy o'tloqlar xarajatlari to'liq tarzda mahsulot tannarxiga kiritiladi. Sepilgan o'tlar, yaxshilangan pichanzorlar, yaxshilangan va madaniy o'tloqlar hamda boshqa tabiiy yer-suvaridan bir necha mahsulot to'ri ni olishda foydalanilganda ekinni etishtirishga qilingan xarajatlar ekinlarga 1 ga erdan oziqa birligiga ko'ra hisoblanadigan mahsulot hosiliga mutanosib taqsimlanadigan xarajatlar yig'indisidan tarkib topadi.

Ko'p yillik o'tlarni sepish xarajatlari tugallanmagan ishlab chiqarishga tegishli almashib ekishda ekinlardan foydalanish yillari miqdoriga mutanosib tarzda yillar bo'yicha taqsimlanadi va ularni o'stirish xarajatlari tegishli xarajat moddalari bo'yicha kiritiladi.

Ko'p yillik o't boshqa ekin orasiga ekilganda va ekilgan yili o't hosili olinganida tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha umumxarajatlar har ikala ekin o'rtasida 1 ga erdan olingan hosilga mutanosib taqsimlanadi. Agarda ekilgan yil hosil ikkinchi ekindan olinmasa, aytilb o'tilgan barcha xarajatlar qoplovchi ekinga o'tkaziladi.

1 s tayyor silos, senaj tannarxi ko'k massani etishtirish, uni franko-xandaqqa tashib kelish sarflari va silos bostirish, senaj tayyorlash, xandaqlarni tozalash. Silos va senaj massasini joylash hamda shabbalash, somonni yuklash va tashish, xandaqlarni plyonka va somon bilan yopish xarajatlari yig'indisidan aniqlanadi. Silos bostirishda ishlatiladigan boshqa komponentarlar silos, senaj ishlab chiqarishning umumiylariga belgilangan tartibda hisoblanadigan qiymati bo'yicha kiritiladi.

Ko'p yillik o'simliklar va gulchilik mahsulotlarining tannarxini hisoblash. Meva beradigan yoshdagi ko'p yillik o'simliklar tannarxini hisoblashda joriy yildagi

umumiylaridan qalamcha, gajak, palgari, bachki, novda qiymati realizatsiyasi bahosida chegiriladi.

1 s meva rezavor, uzum tannarxi xarajatlarining umumiylarini massasiga taqsimlab aniqlanadi.

O'stirilayotgan ekish materiallarining alohida ekin gurug'lari bo'yicha tannarxini aniqlashda xarajatlarning har bir uchastka bo'yicha umumiylarini realizatsiya uchun kovlab olingan va o'stirish uchun erda qoldirilgan ko'chatlar soniga mutanosib taqsimlanadi. Kovlangan. Shu jumladan "kovlashda" bo'lganlarni ham qo'shib mahsulotga to'g'ri keladigan xarajatlar summasidan 1000 dona ko'chatning tannarxi aniqlanadi. Yerda o'stirishga qoldirilgan ko'kartirilgan ko'chat, bir yillik, ikki yillik ko'chatlar keyingi yilga tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari tarzida o'tkaziladi.

Chorvachilikda joriy yildagi barcha xarajatlar saralangan va dag'al choy bargi, kofein uchun tarkibiy material va urug' tannarxini tashkil qiladi. Saralangan choy bargi tannarxini aniqlashda xarajatlarning umumiylarini dag'al choy bargi, kofein uchun tarkibiy material va urug'ning xarid narxlari uchun bahosi chegiriladi. 1ts saralangan choyning tannarxi shu mahsulotga o'tkazilgan xarajatlarni saralangan choy bargi massasiga bo'lib aniqlanadi.

Ochiq va himoyalangan erdag'i gulchilik va gul ekinlari urug'likdagi xarajatlar mahsulot turlari o'rtasida ularning realizatsiya bahosidagi qiymatiga mutanosib taqsimlanadi.

Kulmoq, dafna, go'ng va tut bargini o'stirish va yig'ishtirish urug'chilikdagi mahsulot turlari o'rtasida ularning realizatsiya bahosidagi qiymatiga mutanosib taqsimlanadi.

hisobot kalkulyatsiyalarini tuzishda mahsulot olishga sarflangan va tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini aniqlash zarur bo'ladi. Bundan tashqari tabiiy ofat yoki boshqa noqo'lay tabiiy sharoitlar tufayli to'liq nobud bo'lgan ekinzor maydonlariga ekinlarni o'stirishga sarflangan xarajatlar summasiga «Mol-mulk va shaxsiy sug'urta bo'yicha hisoblashish» schyoti debet va "Foyda va zarar» schyoti kredit qilinadi. Ekinlar qisman nobud bo'lganda olinmagan mahsulot summasidan

sug‘urta tovonlari “Mol-mulk va shaxsiy sug‘urta bo‘yicha hisoblashish” schyotining debeida va “Dehqonchilik” schyotining kreditida aks ettiriladi. Olingan tovon “hisoblashish schyoti”ga o‘tkaziladi. Shuni aytish kerakki, hozirgi kunda sug‘urta tovonining darajasi qishloq xo‘jaligi ekin hosilining 60 foizini tashkil qiladi. Bu korxonalarning mo‘tadil faoliyatlari uchun barharor moliyaviy sharoitlar yaratishga yordam beradi.

Chorvachilik dehqonchilik bilan bir qatorda qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. U ixtisoslashuvidan qat’iy nazar, odatda har bir xo‘jalikda bo‘ladi. Bu tarmoqqa qoramol, cho‘chqachilik, qo‘ychilik, parrandachilik, baliqchilik va shu kabilar taalluqlidir.

Chorvachilikda ham xarajatlarni audit qilish obyekti bo‘lib buxgalteriya hisobi ma’lumotlari va hujjatlari, chorvaning alohida turlari va gurug‘laridir. Masalan, sutchilik yo‘nalishdagi chorvachilikda xarajat obyektlari – asosiy poda, yosh qoramol, bo‘rdoqiga boqilayotgan katta yoshli mol, go‘sht yo‘nalishida-asosiy poda, yosh qoramol, sakkiz oylikdan katta yosh qoramol va bo‘rdoqiga boqilayotgan katta mol. Cho‘cqachilikda – asosiy, 2 oylikdan 4 oylikkacha bo‘lgan cho‘chqa bolalari, 4 oylikdan katta cho‘chqa bolalari va bo‘rdoqiga boqilayotgan cho‘chqalar hisobga olish obyekti hisoblanadi.

Chorvachilikda ishlab chiqarish harajalari va mahsulotning chiqishini hisobga olish bo‘linmalari, fermalar, birgadirilar va shu kabilar bo‘yicha amalga oshirilishi kerak. Chorvaning turi va gurug‘lari bo‘yicha xarajatlar quyidagi kalkuliyatsiya moddalari bo‘yicha aks ettiriladi:

I. Ijtimoiy sug‘urta ajratmalarini va mehnatga xaq to‘lash xarajatlari.

II. hayvonlarni himoya qilish vositalari.

III. Ozuqa.

IV. Ish va xizmatlar.

Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari.

Ishlab chiqarishni tashkil etish xarajatlari.

Sug‘urta to‘lovlar.

Boshqa xarajatlari.

Chorvaning nobud bo‘lishidan yo‘qotishlar.

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishga oid buxgalteriya yozuvlari ozuqani taqsimlash yuzasidan boshlang‘ich hujjatlar – vedomostlar, tabellar, tuqilgan naslni kirim qilish dalolatnomalari, hayvonlarni tortib ko‘rish vedomostlari va shu kabilar asosida amalga oshiriladi.

Chorvachilikdagi xarajatlar va mahsulotning chiqishi haqidagi ma’lumotlar keyin chorvachilik bo‘yicha ishlab chiqarish hisobotida hamda chorvachilik mahsulotining chiqish xarajatlarini hisobga olish daftarida ko‘rsatiladi (18-AF). Ularning yaqiniy ma’lumotlari 10-jurnal orderga ko‘chiriladi, hisobga olish avtomatlashtirilgan sharoitda tegishli mashinagrammalar tuziladi. Bu registrlarning hammasi o‘tgan oydagи xarajatlarni yil boshidan o‘suvchi yaqinida qayt etadi.

Chorvachilikda xarajatlarni va mahsulotning chiqishini hisobga olishda “Asosiy ishlab chiqirish” schyotidan foydalaniladi. U shuningdek, olinayotgan mahsulotning tannarxini hisoblashga ham xizmat qiladi. Schyot debetida yil davomida bevosita (to‘g‘ri), yil oxirida esa yuqorida qayd etilgan xarajat moddalari bo‘yicha bilvosita (egri) xarajatlar kreditida mahsulotning yil davomida rejadagi tannarxda chiqishi qayd etiladi. Yil oxirida, dehqonchilikda bo‘lganidayoq, rejadagi tannarx haqiqiy tannarxga etkaziladi. Debetidagi saldo esa tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini anglatadi.

“Chorvachilik” schyoti bo‘yicha hisob yuritishda xarajatlarni hisobga olish tartibini ko‘rib chihamiz. “Sug‘urta ajratmalari va mehnatga haq to‘lash xarajatlari” moddasida yil davomida chorvaga bevosita xizmat ko‘rsatishga band bo‘lgan ishchilar: ya’ni operatorlar, sut sog‘uvchilar, buzoq boharlar, ot boharlar, cho‘ponlar va shu kabilarning mehnati hamda navbatdagi mehnat ta’tillariga xaq to‘lash aks ettiriladi. Bu bevosita modda summasiga “Chorvachilik” schyoti debet, “xodimlar bilan mehnatga haqi bo‘yicha hisoblashlar” va “ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha hisoblashishlar” va boshqa schyotlar kreditlanadi.

“Hayvonlarni himoya qilish vositalari” moddasini tekshirayotganda auditor, korxona mablag‘lariga olingan biopreparatlar, dori-darmonlar, dizenfektsiya qilish vositalari va shu kabilarni xarid qilish va saqlash sarflari, shuningdek, ulardan

chorvachilikda foydalanishga aloqador xarajatlar aks ettirilganligiga e'tibor qaratishi lozim. Bu moddaga yuqoridaqgi vositalarni ana shu maqsadlarda byudjet mablag'lari hisobiga hal etilgan qiymat kiritilmaydi.

“Ozuqa” moddasidan sarflangan ozuqaning qiymati chorva turi va guruhlari bo‘yicha ozuqani taqsimlash vedomostlari asosida keltiriladi. Bu vedomostlarda har yili chorva soni, ozuqa nomi va miqdori qayd etiladi. Oy yaqinida ana shu vedomostlarda hayvonlar ozuqa-kunlari soni va naturada hamda ozuqa birligiga aylantirilgan sarflangan ozuqa miqdori, shuningdek ozuqa qiymati aniqlanadi. Bu ma'lumotlar keyinchalik ozuqalar sarfini hisobga olish jurnalida yil boshidan o'suvchi yaqinida hisobga olinadi.

Ozuqa sexlari va ozuqani oldindan tayyorlash bo‘yicha xarajatlar avvalo “Chorvachilik” schyotining alohida analitik schyotida aks ettiriladi, so‘ngra har oyda sarflangan ozuqalar miqdoriga mutanosib taqsimlanadi. Bunday hollarda ozuqalarga oid xarajatlar summasiga “Chorvachilik” schyoti debet “Urug‘lar va ozuqa” schyoti kredit qilinadi.

“Ish va xizmatlar” moddasida o‘z yordamchi ishlab chiqarishlari tomonidan chorvachilikka ko‘rsatiladigan ish va xizmatlar xarajatlari hamda chet korxona va tashkilotlar ko‘rsatadigan ana shunday xizmatlar uchun to‘lov xarajatlarini aks ettiriladi. Yordamchi ishlab chiqarishlarni hisobga olish mazkur bobning 4-punkitida yoritilgan.

“Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari” moddasini tekshirish bevosita ishlab chiqarishda foydalaniladigan asosiy vositalarni saqlashga aloqador xarajatlar kiritilganligini aniqlash imkonini beradi. Bu xarajatlarning tarkibi va hisobga olishni dehqonchilikdagi anna shunday xarajatlarning tarkibi va hisobga olinishi dehqonchilikdagi ana shunday xarajatlarning tarkibi va hisobga olinishi bilan bir xildir.

Hayvonlar podasining o‘zi ga kelsak, amortizatsiya ajratmalar faqat ish hayvonlari bo‘yichagina hisoblanadi. Mahsuldor hayvonlar ishlab chiqarilganda ularning qiymati realizatsiyadan tushgan puldan qoplanadi. Chorvachilikda

amartizatsiya va asosiy vositalarni tuzatish xarajatlari hisobga olish dehqonchilikdagi kabi yuritiladi, farqi faqat “Chorvachilik” schyotining debet qilinishidadir.

Chorvachilikda ishlatiladigan asosiy vositalarni saqlash xarajatlari odatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tegishli chorva turi, guruhiga o‘tkazildi. Chorvachilik binolarida hayvonlarning bir necha guruhi saqlanganda bu xarajatlar ular o‘rtasida band qilingan bino maydoniga mutanosib taqsimlanadi.

“Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish” moddasi bo‘yicha hisobga olish mazkur bobning 5-bandida aks ettiriladi.

“Sug‘urta to‘lovlari” moddasi bo‘yicha hisobga olish tartibi dehqonchilikdagi kabidir, ammo bu yerda qishloq xo‘jalik hayvonlari. Uy parrandalari, quyonlar, mo‘ynali hayvonlar, asalari oilalari, shuningdek. Tegishli binolar, uskunala, mashinalar va inventarlar sug‘urta qilinadi.

Boshqa xarajatlar moddasidan fermalar atrofini to‘sish, veterinariya-sanitariya tadbirlarini o‘tkazishga daxldor bo‘lgan dizenzektsiya to‘siqlari, sanitariya ko‘rigidan o‘tkazish joylari va shu kabi obyektlarni to‘shama qiymati, sut sog‘uvchi, cho‘chqabohar, chorva va parrandalarga qarovchi boshqa xodimlarga beriluvchi jomakorning eskirishi, hayvonlar uchun yozgi molxonalar, shu kabilar xarajatlari qayd etiladi. Bu xarajatlar bevosita hayvonlarning tegishli turlariga o‘tkazildi.

“Chorva mollarining nobud bo‘lishidan ko‘riladigan zararlar”

moddasidan yosh va bo‘rdoqiga boqilayotgan katta yoshdagি mol, parranda, yovvoyi hayvon, quyon shuningdek, asalari oilalarining nobud bo‘lishi natijasidan ko‘riladigan zararlar aks ettiriladi. Aybdor shaxslardan undirilib olinadigan qismi bu moddaga kiritilmaydi. Tabiiy ofatdan ko‘riladigan zararlar bevosita “Yaqiniy moliyaviy natija” schyotining debetiga o‘tkaziladi.

“Chorvachilik” schyotida aks ettirilgan buxgarteriya yozuvlaridan so‘ng analistik schyotlar bo‘yicha ayrim chorva turi va gurug‘lari bo‘yicha yil davomida ularga tegishli schyotning kreditida esa yil davomida o‘suvchi yaqinida etishtirilgan va olingan chorva mahsulotining rejadagi tannarxi aks ettiriladi va quyidagi schyotlar bilan korespondentsiyalanadi: “Tayyor mahsulot” schyotining debeti – chorvachilik mahsuloti qiymatiga, “O‘sirishda va bo‘rdaqiga boqilayotgan

hayvonlar” schyotining debeti yosh mol va bo’rdoqiga boqilayotgan hayvon, shuningdek tuqilgan hayvonlar bolasining qiymatiga, “Asosiy ishlab chiqarish” schyotining debeti – dalaga tashib chiqilgan go‘ng qiymatiga.

Yil oxirida mahsulotning haqiqiy tannarxi aniqlandi va haqiqiy hamda rejdagi tannarxi o‘rtasidagi aniqlangan farq qo‘srimcha buxgalteriya yozushi orqali to‘g‘irlanadi, agarda haqiqiy tannarx rejadagi tannarxdan past bo‘lsa, teskari yozuv yoki rejadagi tannarxi haqiqiy tannarxdan past bo‘lsa oddiy qo‘srimcha yozuv qilindi.

Chorvalichiq mahsuloti birligi tannarxini kalkulyatsiya qilish tartibi. Bu sohada ham asosiy, yondosh va yordamchi mahsulot farqlanadi. Chorvachilikda kalkulyatsiya obyektlari alohida mahsulot turlari, chorva bolasi, tirik vaznining ortgan og‘irligi hisoblanadi.

Chorvalikda xarajatlarining analitik hisobi mahsulot turlari bo‘yicha emas, balki chorva turi va guruhlari bo‘yicha yuritiladi. Chorvaning bir turi yoki guruhidan ikki va undan ko‘proq mahsulot turi olinganda ularning tannarxi belgilangan tartibda aniqlanadi.

Chorva parrandalarni bog‘ish uchun yil davomida sarf qilingan xarajatlarni tekshirganda auditor, yil boshidagi ularga tegishli tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini qo‘shib, yil oxiridagi tugallanmagan ishlab chiqarishni chegirib chorva mahsulotlarining tannarxi aniqlanganligiga e’tibor berishi lozim. Tirik vaznining tannarxi-hisobot yili boshidagi boquvda va o‘stirishdagi hayvonlar va parrandalar qiymatiga yil davomidagi ularni bog‘ish va o‘stirish xarajatlari, chetdan asosiy podadan boquvga o‘tkazilgan hamda hisobot yilda tuqilgan hayvon bolalari qiymatlarini qo‘shib, ularning tirik vazniga bo‘lishi asosida aniqlanadi. Unda nobud bo‘lgan chorva va parrandalarning qo‘shilgan vazni hamda boquvga qo‘yilmasdan so‘yilgan yoki sotilgan katta yoshli hayvonlar vazni hisobga olinmaydi. Go‘ng xarajatlari muayyan sharoitlarda me'yoriy xarajatlardan molxonalarini go‘ngdan tozalash va uni yig‘ishtirish xarajatlari go‘ngxonadan go‘ngni olishda ishlatiladigan mashinalarning amartizatsiya

ajratmalari. Go‘ngni chiqarish va saqlash sarflari va tushama qiymatiga ko‘ra aniqlanadi.

Tannarxni hisoblashda har bir turdagи yosh va katta yoshdagi hayvonlar gurug‘lari bo‘yicha chorva parrandalar tirik vaznining yil davomida ortishi, yil oxiriga qoldirilayotgan chorvani u yoki bu to‘rining tegishli guruhi sonining tirik vaznini qo‘shib, hosil bo‘lgan miqdoridan yil davomida bu gurug‘dan bog‘ishga o‘tkazilganlarning tirik vazni, shuning shu guruhda yil boshida bor bo‘lgan chorva sonining tirik vaznini chegirib aniqlanadi.

#### **6.4. Yosh chorva mollari va boquvdagi hayvonlarni hisobga olishni tekshirish**

Asosiy podani tashkil etish xarajatlari kapital qo‘yilmalar turidan biri hisoblanadi. U asosiy poda uchun yosh hayvonlarni chetdan xarid qilish va ularni olib kelish xarajatlari yig‘indisidan tashkil topadi. Asosiy podani tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan haqiqiy xarajatlar 0840 “Asosiy podani tashkil qilish” schyotida hisobga olinadi:

Ushbu schyotda asosiy podaga o‘tkaziladigan xo‘jalikdagi yosh mahsuldor va ish hayvonlarini o‘stirish bo‘yicha xarajatlar, asosiy poda uchun xarid qilingan katta yoshdagi va ish hayvonlarining qiymati, hayvonlarni yetqazib berish bilan bog‘liq sarflarni ham qo‘shgan holda, boshqa korxonalardan tekinga olingan katta yoshdagi hayvonlarni xo‘jalikka olib kelish bilan bog‘liq sarflar hisobga olinadi. Audit jarayonida asosiy podaga o‘tkazilgan yosh mahsuldor va ish hayvonlarining barcha turlarining qiymati yil davomida 1110 - “O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar” schyotidan 0840 - “Asosiy podani tashkil qilish” schyotining debetiga yil boshidagi balans qiymati b o‘yicha hisobga olinadigan, yil boshidan to hayvonlarni asosiy podaga o‘tkazish paytiga qadar bo‘lgan davrda ortgan vazni yoki o‘sgan vaznining reja tannarxini qo‘shgan holdagi qiymati bo‘yicha to‘g‘ri hisobdan chiqarilganlini sinchiklab tekshirish lozim. Bir payning o‘zi da, yosh hayvonlarni asosiy podaga o‘tkazishda 0170 - “Ish hayvonlari” va 0171 - “Mahsuldor hayvonlar” schyotlari debetlanganligiga va 0840 - “Asosiy podani tashkil qilish” schyoti kreditlanganligiga ham e’tibor berish kerak.

Yil oxirida hisobot kalkulyatsiya tuzilgandan keyin yil davomida o'tkazilgan yosh hayvonlarning ko'rsatilgan qiymati bilan uning haqiqiy tannarxi o'rtasida farq 1110 - "O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlar schyotidan 0840-“Asosiy podani tashkil qilish” schyotiga, hayvonning bahosini bir vaqtning o'zi da aniqlashda 0170 - “Ishchi va mahsuldor hayvonlar” schyotiga qo'shimcha yozuv yoki storno qilish yo'li bilan hisobdan chiqariladi.

Chetdan xarid qilingan kata yoshdagi hayvonlarning qiymati 0840 - “Asosiy podani tashkil qilish” schyotining debetiga ularni xarid qilishning haqiqiy tannarx bo'yicha. Yetqazib berish sarflari qo'shilgan holda kirim qilindi.

Asosiy podani tashkil qilishning tugallangan muomala bo'yicha xarajatlar 0840-“Asosiy podani tashkil qilish” schyotida 0170 - “Ishchi va mahsuldor hayvonlar” schyotlarining debetiga hisobdan chiqariladi.

Auditor, tekshiruv davomida asosiy podani tashkil qilishni hisobga oluvchi schyot bo'yicha analitik hisob asosiy podani tashkil qilish bilan bog'liq kapital qo'yilmalar bo'yicha, hayvonlarning turlari bo'yicha (yirik shoxli hayvonlar, cho'chqalar, g'o'ylar, otlar va boshqalar) sarflangan xarajatlar yuzasidan to'liq axborotlarni yig'ishi lozim.

Parrandalar, quyonlar, qimmatbaho mo'ynali hayvonlar. Asalarilar, qo'riqchi itlar va boshqa shu kabi hayvonlar qiymatidan qa'tiy nazar asosiy poda tarkibida hisobga olinmaydi. Ular oborot mablag'lari tarkibiga kiritilgani uchun 1100 “O'stirishda va boquvda turgan chorva mollari” schyotida hisobga olinadi.

Yosh mollarni asosiy podaga o'tkazishga qadar ularni o'stirish xarajatlari yil davomida 2011 “Chorvachilik” schyotining debetida hisobga olinadi.

Audit mobaynida auditor, o'tkazish haqidagi dalolatnomalari asosida xo'jalikda o'stirilgan yosh mollarni asosiy podaga haqiqiy tannarxda o'tkazilganligiga e'tibor berishi lozim. Yil davomida asosiy podaga o'tkazilgan yosh mollarning qiymati yil boshidagi balansdagi qiymatiga o'sgan vaznining rejadagi tannarxini qo'shib aniqlanadi. Yil oxiridagi hisobot kalkulyatsiyasi tuzilgandan so'ng ularning haqiqiy tannarxi aniqlanadi. Shuning uchun yil oxirida o'sgan vaznining

rejadagi xarajatlari to‘g‘rlanib, haqiqiy tannarxga o‘tkaziladi. Bunda quyidagicha buxgalteriya provodkasi beriladi:

Debet 0840 - “Asosiy podani tashkil qilish” schyoti.

Kredit 1100 “O‘sirishda va boquvga qo‘yilgan hayvonlar” ni hisobga oluvchi schyot.

Agar rejadagi xarajatlar haqiqiy xarajatlardan yuqori bo‘lsa, unda o‘rtadagi farqqa yuqoridagi tartibda manfiy (qizil) yozuv qilinadi, agarda aksincha bo‘lsa, ijobiy yozuv qilinadi.

Katta yoshdagi mahsuldor chorva mollari va ish hayvonlari chetdan xarid qilinganda schyot to‘lov talabnomalari rasmiylashtiriladi. Bunda mollarning xarid bahosiga ularni keltirish xarajatlari ham qo‘sib hisoblanib, quyidagi buxgalteriya yozuvi orqali aks ettiriladi.

Debet 0840 “Asosiy podani tashkil qilish” schyoti.

Kredit 6010 «Mol yetqazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar».

Ayrim hollarda harid qilingan kata yoshli mahsuldor mollarni tashib keltirish xarajatlari xo‘jalikning o‘zi hisobidan sarflanishi mumkin. Bunday holda 0800-0890 schyotlarining tegishlilari debitlanib, xarajatlar xarakteriga ko‘ra turli schyotlar kreditlanadi, ya’ni:

2310 - “Yordamchi ishlab chiqarish” schyoti o‘z transport xarajatlari qiymatiga;

6710 - “Xodimlar bilan mehnat haqi yuzasidan hisob-kitoblar” schyoti – hisoblangan mehnat haqiga;

1000 - “Materiallar” schyoti saflangan materiallar qiymatiga va hakozo.

Auditorlik tekshiruvida auditor, xarid qilingan katta yoshdagi mahsuldor chorva mollari va ish hayvonlari asosiy vositalar tarkibiga xarid qiymati va keltirish xarajatlari qo‘silgan summasida kiritilganligiga, 0110-0190 “Asosiy vositalar” schyotining debetida va 0840 “Asosiy podani tashkil qilish” schyotining kreditida aks ettirilganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Katta yoshdagi mahsuldor mollar va ish hayvonlari bepul olinganda asosiy podani tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan kapital sarflari tarkibida faqat ularni tashib keltirish xarajatlari hisobga olinadi. Bu holda 0840 “Asosiy podani tashkil qilish” schyoti debitlanib, unda bepul olingen mahsuldor hayvonlarni keltirish xarajatlari

hisobga olinadi, xarajatlar turiga harab, turli schyotlar kreditlanadi. Bepul olingan mahsuldor chorva va ish hayvonlari qabul qilish – topshirish aktiga binoan asosiy vositalar tarkibiga qabul qilinganda ularni keltirish xarajatlari ham shu hayvonlarning balansdagi qiymatiga qo'shiladi va quyidagi buxgalteriya yozushi orqali aks ettiriladi:

Debet 0170 "Ishchi va mahsuldor hayvonlar" schyoti.

Kredit 0840 "Asosiy podani tashkil qilish" schyoti.

Mamlakatimizda buxgalteriya hisobini yuritishning xalharo standartlariga o'tishi munosabati bilan asosiy podani tashkil qilish uchun maxsus manba (fondlar) yaratish talab qilinmaydi. Bu xarajatlarni moliyalashtirish jamoa xo'jaliklarining mavjud bo'lgan resurslari (maxsus maqsadlarga mo'ljallangan fondlar, foyda hisobidan ajratmalar, mahsuldor mollarni sotishdan olingan mablag'lar va hokazo) reja asosida safarbar etiladi. Agar xo'jaliklarining xususiy mablag'lari yetarli bo'limasa agrosanoat bankining uzoq muddatli imtiyozli ssudalaridan foydalanishlari mumkin.

## **6.5.Umumiy xulosa**

Dehqonchilikdagi hisobga olish obyekti – ekinlarning alohida turlari, tugallanmagan ishlab chiqarish turlari va ayrim ishlardir. Masalan, kuzgi boshoqli ekinlar guruhi, bahor gi bug'doy va boshqa bahorgi ekinlar guruhi, tekin ekinlar, kartoshka, sabzavot, poliz, oziqa ekinlarining bog'dorchilik va uzumchilik xarajatlari hisobga olishning mustaqil obyektlari hisoblanadi.

Kelgusi yil hosili uchun qilingan xarajatlar hisoblash tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari hisobga olishning alohida obektiga ajratiladi. Bu xarajatlar alohida ekinlar bo'yicha bajariladigan ish turlari yuzasidan hisobga olinadi. Keyingi, boshlangan hisobot yilda aytib o'tilgan xarajatlar alohida ekin turlari tannarxiga taqsimlash yo'li bilan o'tkaziladi.

Mamlakatimizda buxgalteriya hisobini yuritishning xalqaro standartlariga o'tishi munosabati bilan asosiy podani tashkil qilish uchun maxsus manba (fondlar) yaratish talab qilinmaydi. Bu xarajatlarni moliyalashtirish jamoa xo'jaliklarining mavjud bo'lgan resurslari (maxsus maqsadlarga mo'ljallangan fondlar, foyda hisobidan ajratmalar, mahsuldor mollarni sotishdan olingan mablag'lar va hokazo)

reja asosida safarbar etiladi. Agar xo‘jaliklarning xususiy mablag“lari etarli bo‘lmasa agrosanoat bankining uzoq muddatli imtiyozli ssudalaridan foydalanishlari mumkin.

## **6.6. Mavzuga doir kalit so‘zlar**

Audit, auditorlik tekshiruvi, auditor, asosiy ishlab chiqarish, asosiy mahsulot, yondosh mahsulot, bog‘dorchilik, dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik, ipakchilik, poliz ekinlari, sabzovot ekinlari, tayyorlov tashkilotlari, mashina-traktor parki, jamoa xo‘jaligi, fermer xo‘jaligi, urug‘, ozuqa, o‘g‘it, ishchi xayvonlar, maxsuldar xayvonlar, boquvdagi xayvonlar, asosiy podani tashkil qilish.

## **6.7. Talabalarning bilimlarini tekshirish savollari**

1. Qishloq xo‘jaligida audit manbayi sifatida qanday hujjatlardan foydalanish mumkin?
2. Qishloq xo‘jaligida audit xususiyatlarini aytib bering?
3. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish xarajatlari auditini qanday tashkil qilish mumkin?
4. Dehqonchilikda xarjatlarni qanday guruhanadi?
5. Chorvachilikda xarjatlarni qanday guruhanadi?
6. Qishloq xo‘jaligida soliqlar va majburiy to‘lovlarni to‘lash uchun foydadan qanday foydalaniladi?
7. Qishloq xo‘jaligida daromadlar, ularni moxiyati va turkumlanishini ayting?
8. Qishloq xo‘jaligida mehnatga xaq to‘lashni vaqtbay va ishbay shaklidan foydalanish farqini tushuntiring?
9. Asosiy podani shakllantirish tartibi qanday aniqlanadi?
10. Qishloq xo‘jaligida asosiy vositalarga eskirish hisoblashni to‘g‘riligini tekshirish usullarini aniqlang?

## **6.8. Axborot-uslubiy ta’midot**

### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

«O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» gi qonun. 2016y. 13 aprel.

O‘zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi qonuni (yangi taxriri) 2000- y. 26- may.

«Mahsulot (ish va xizmat)lar tan narxiga kiritiladigan, mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi **to‘g‘risida**» gi Nizom.1999- y. 5- fevral. Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining № 54- sonli qarori. (Vazirlar mahkamasining 2003- yil 11- iyundagi 261-sonli, 16- iyundagi 270-sonli, 15- oktyabrdagi 444-sonli harorlari bilan kiritilgan qo‘srimcha va o‘zgartirishlar bilan).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3946-son Qarori 2018-yil 19-sentyabr.

O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi Milliy Standartlari.2019- y.

Auditorlik Faoliyatining Milliy Standartlari T.: -2019- y.

«O sovershenstvovanie auditorskoy deyatelnosti i povo‘shenii roli auditorskix proverok» Postanovlenie Kabineta Ministrov Respublikи Uzbekistan. № 365. 22-sentyabrya. 2000 g. g. Tashkent.

Audit. (Darslik). **To‘laxo‘jayeva M.M. Ilhomov Sh.I.** va bosh. Iqtisodiyot. 2018-yil, 583 bet.

Audit. (O‘quvqo‘llanma). **To‘laxo‘jayeva M.M. IlhomovSh.I.** va bosh. TDIU 2012-yil, 184 bet.

Arens, Alvin A. Auditing and assuring services: an integrated approach/ Arens, Alvin A. Randal J. Elder, Markel S. Beasley -14<sup>th</sup> ed. Amazon, USA-2012, 894 p.

Ilxamov Sh.I. Amaliy audit. Darslik. –T:Iqtisodiyot, 2018.

## **V. Qo‘srimcha adabiyotlar**

Audit. Praktikum: uchebnoe posobie / O.N.Harchenko, S.A.Samusenko, I.S.Fyorova – 4-e izd., pererab. i dop. –M.: KNORUS, 2017.-248 str.

Shoalimov A.X., Ilxamov Sh.I., Tojiboeva Sh. A. Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. –T.:Iqtisodiyot, 2016.

## **VII BOB: TRANSPORT TASHKILOTLARIDA AUDIT XUSUSIYATLARI**

### **7.1. Transport tashkilotlarida auditning manbalari va vazifalari**

Transport infratuzilmasini, birinchi navbatda avtomobil va temir yo'llarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda iqtisodiy sohada makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa, iqtisodiyot tarmoqlarini iqtisodiy va moliyaviy barqaror faoliyat yuritishlari lozimligini taqozo etadi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: "Har qanday islohot va o'zgarishni barqaror iqtisodiyotsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Biz o'tgan yil davomida bu borada keng ko'lamli ishlarni boshladik. Lekin milliy iqtisodiyotimizni mustahkamlash, yurtimizni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish uchun oldimizda hali ko'plab vazifalar turibdi" <sup>21</sup>deb aytib o'tdilar. Shuningdek, transport-logistika tizimini takomillashtirish xam eng dolzarb masaladir. Chunki, dengizga chiqish imkoniyatimiz cheklangani uchun mahsulotni eksport qilishda koplab qiyinchiliklar paydo bulmoqda. Shu bois, "O'zbekiston xavo yullari" va "Uzbekiston temir yullari" kompaniyalari tovarlarimizni eksport qilish buyicha zamонави logistika yo'nalishlarini yaratishlari zarur.

Transport sohasi har bir davlatning asosiy negizi hisoblanadi. Barcha rivojlangan mamlakatlarda markaziy organ mavjud bo'lib, uning vazifasiga transport faoliyatini yo'naltirish kiradi. Transport xizmatining hajmi ko'pincha davlatning iqtisodiy axvoli bilan bog'liq bo'ladi. Ammo transportning o'zi ko'p hollarda iqtisodiyotning rivojlanish darajasini ko'taradi. U dunyo yoki mamlakatdagi qoloq hududlarning sharoitlarini ko'p hollarda yaxshilaydi.

Transport ishlab chiqarishning jabxalarini kengaytirishga, hamda ishlab chiqarishning iste'molchilar bilan bog'lashga keng imkoniyat yaratib beradi. Turli transportlar ichida muhim o'rinish egallovchi bu-avtomobildir. U o'z tabiatiga ko'ra juda qo'lay, hamda tashqi omillarga bardosh bera oladi.

---

<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga eng asosiy va dolzarb siyosi, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar va jamiyatni demokratik rivojlantirish bo'yicha Murojaatnomasi. 2018- yil 22- dekabr.

Ko‘pgina davlatlar uchun shu jumladan O‘zbekiston uchun ham avtomobil transporti kj va yo‘lovchilarni tashish hajmiga ko‘ra muhim o‘rini egalaydi. Avtomobil transporti hamda avtomobil mahsulotining xususiyatlarini tavsiflash bilan chegaralanib qolmasdan, avtomobil transportidagi hozirgi O‘zbekiston iqtisodiyotining liberalizatsiya davridagi sifatli o‘zgaoishlarni ko‘rib chiqsak. 1991-yildan boshlab O‘zbekistonda iqtisodiy isloxatlar o‘sishi davrida avtomobil transportida sodir bo‘lgan va sodir bo‘layotgan asosiy o‘zgarishlar soniga quyidagilarni kiritish mumkin. Bularga:

Yuk tashish hajmining susayishi.

Avtotransport tashuvining qisharishi va asosiy harakat tizimidagi o‘zgarishlar.

Yuk tashish hajmining pasayishi avtotransport tashkilotlarining hamda harakatga keltiruvchi tarkibiy qismining qisharishiga olib keldi. Avtotransport tashuvining qisharishi asosan harakatga keltiruvchi tarkibiy qismining ro‘yxatdan olib tashlanish hisobiga sodir bo‘ldi. ko‘p avtotransport tashuvida avtomobillarning o‘rtacha xizmat muddati ortishi ro‘y beradi.

Avtotransport tashuviga yangi avtomobillar tushumining ushlanib qolishi, harakatlanuvchi tarkibiy qismning baland narxi va ishta’malovchi sustligi, haddan ziyod kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarining yuqoriligi bilan bog‘liqdir. Avtotransport tizimida yuk ko‘tarish bo‘yicha avtomobillar ulushi ortmoqda 5-tonnadan kichik hajmda;

8-10 tonnadan ortiq katta hajmdagi yuklar. Amotizatsiyadan oshuvchi, xizmat muddati oshiq avtomobillar soni ko‘paymoqda.

3. Avtotransport vositalarining egalari va transport tashkilotlarining soni ko‘paymoqda. Yuk tashish hajmining qisharishiga hamda avtotransport tashkilotlarining parklari sonining kamayishiga haramay transport sohasida ish yurutuvchi xususiy firmalar va alohida shahslarning soni tobora ko‘paymoqda. Avtomobil transportida faoliyat ko‘rsatuvchi subyektlar sonining o‘sishi, xususiy transport va uning egalarining xizmati hisobidan, savdo nuqtalari hamda kichiq biznes sonining ortishidan kelib chiqadi. Ba’zan bunday yuk tashuvchi xizmati yengil avtomobillar orqali amalga oshiriladi, lekin bular unga ixtisoslashmagan. Bunga

kichiq yuk tashish partiyalari, xaydovchilik va yuk tashuvchilik vazifasini birga o‘tash yoki avtomobil egasi savdo nuqtasi lavozimini bajarishga transport xizmatiga qo‘yilgan yuqori narxlar moyillik ko‘rsatadi. Bundan yuk tashish hajmini hisobga olish mumkin emas.

4. Avtotransport tashkilotlarini xususiylashtirish.

5. Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash.

Bu O‘zbekiston uchun yangi bir holat bo‘lib avtomobil transporti tashkilotlarida keng tarqalib bormoqda.

Avtotransport tashkilotlarining auditining maqsadi – bu moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarining haqiqiyligi va uning qonunan kuchga ega bo‘lganligini tekshirishdir.

Avtotransport tashkilotlari auditining vazifalari quyidagilardan iborat:

- avtotransport tashkilotlarining faoliyatlarini o‘rganish, umumiyligi va dastorini tuzish;
- tuzilgan shartnomalarining to‘g‘riliqi va qonuniyligini tekshirish;
- amalga oshiriladigan operatsiyalarning qonuniyligini tekshirish;
- avtomobil transportining harakatlanuvchi tarkibiy qismini va asosiy vositalarini tekshirish;
- yoqilg‘i va yonilg‘i materiallarining hisobi, hamda sarf qilingan xarajatlarni tekshirish;
- yuk tashish tannarxining kalkulyatsiyam va harajatlar hisobining turiligini tekshirish;
- transportda yuk va yo‘lovchilar tashishdan olingan daromadni tekshirish.

Auditorlik tekshiruvini o‘tkazishning asosiy manbasi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining 13-aprel 2016- yilda qabul qilingan «Buhgalteriya hisobi tog‘risida»gi qonuni hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 26-may 2000- yildagi «Auditorlik faoliyati haqida»gi qonuni; O‘zbekiston Respublikasi BXMS;

O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini milliy standartlari (AFMS);

Mahsulotni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bo‘yicha harajatlar tarkibi haqida, hamda moliyaviy natijalarini shakillantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom.

Avtotransport tashkilotlarining xo‘jalik faoliyati quyidagi normativ hujjatlardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasining «Avtomobil transporti haqida»gi qonuni 29-avgust 1998- yil; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 09.09.2000- yil 348-sonli harori «O‘zbekiston Respublikasida transport ekspeditorlikni yo‘lga g‘o‘yishni mukammallashtirish to‘g‘risida”

Yuk tashuvchi avtomobillar uchun yo‘l varaqalarining to‘ldirilishi, hisoboti va taylorlanishi bo‘yicha yo‘riqnomalar (O‘Z AART rahbari tomonidan tasdiqlangan 03.06.2004 yil 83- sonli harori, qayd qilingan AV 02.07.2004 yil 1382-sonli harori bilan).

## **7.2. Transport tashkilotlarida asosiy vositalar tarkibini audit qilish**

Har qanday korxona tashkilot ish faoliyatining samaradorligi ortishi asosiy vositalardan samarali foydalanish, ularni saqlash ta’minoti muhim sharoit bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun auditorlik tekshiruvlar dasturi asosiy vositalar bilan bajaradigan operatsiyalarning nazorati bo‘yicha masalalarni o‘z ichiga olgan. Asosiy vositalar bilan bajariladigan operatsiyalar audit dasturida quyidagi masalalar bayon qilinishi kerak:

asosiy vositalarni tarkibi va tizimi, ularni saqlash sharoitlarini o‘rganish;

asosiy vositalar bilan bajariladigan operatsiyalarni hisobini bayon qilish, hamda to‘g‘ri rasmiylashtirilganligini tasdiqlash;

asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya hisoblash o‘lchamlarini tasdiqlash va hisobotda to‘g‘ri aks etirilganligini haqiqiyligini;

asosiy vositalarni ta‘mirlash ishlari bajarilganligining hajmini o‘rganish va unga surf qilingan harajatlar hisobini tanlangan usulda bajarish;

hisob yilida asosiy vositalarni qayta baholash bo‘yicha o‘tkazilgan yaqiniy hisoblarni tasdiqlanishi;

yillik hisobot tuzishda oldin asosiy vositalarni inventarlash sifatini baholash.

Asosiy vositalari bilan bajariladigan operatsiyalarni tekshiruvchi uchun ma'lumot bo'lib quyidagilar xizmat qiladi: asosiy vositalarning savdo-sotig'i haqidagi shartnomalar, aktlar (ustamalar) asosiy vositalarni qabul qilish va tekshirish, modernlashgan, qayta qurilgan, ta'mirlangan obyektlarni qabul qilish va topshirish haqidagi aktlar, eksplutatsiyaga kiritish aktlari, ustamalar, faktura hisoblari, AV inventar hisob kartochkalari, asosiy vositalar ro'yxati, asosiy vositalar harakatining hisob kartochkalari, asosiy vositalarni ro'yxatdan chiqarish uchun aktlar, qayta ishlangan jadvallar, defekt to'lovnoma ro'yxatlari, asosiy vositalarning ta'mirlovchi uchun buyurtma naryadlari, asosiy vositalarning obyektlarini ijaraga olish uchun shartnomalar, hisoblar bo'yicha hisobot registrlari (to'lov ro'yxatlari, mashinogrammalar va hokazo) 0100, 0200, 0300, 0820, 2000, 2800, 9210, 8500 schetlari bo'yicha, bosh kitob va boshqalar.

Avtotransport tashkilotlarida avtomobillar asosiy vosita bo'lib, ish bajarish jarayonida o'z xo'jalik faoliyatini, shuningdek yuk tashish bo'yicha biznes rejalarini bajaradi. Ularning texnik holatiga hamda saqlanishiga ishlab chiqarishning taraqqiyoti bog'liq, bu esa oxir-oqibat avtotransport tashkiloti ishining moliyaviy natijasiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun avtotransport tashkilotlarida auditorlik tekshiruvini o'tkazish dasturiga asosiy vositalar bilan bajariladigan operatsiyalarni nazorat qilish topshiriqlarini kiritish zarur va harakatlanuvchi tarkibiy qismni texnik axvoli va sonini tekshirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Avtotransport tashkilotlarining auditni davrida avtomobilarni to'liq inventarlash kerak, agar u korxona o'rtacha yoki kichiqroq bo'lsa, bazi tashkilotlarda saralab o'tkazilishi kerak bo'ladi. Inventarlash natijalari, ya'ni aniq ma'lumotlar hisobchilik hisobi ma'lumotlari bilan solishtiriladi. Agar noto'g'ri ketgan ma'lumot bo'lsa, dastlabki hujjatlardagi ma'lumotlardan foydalanib, ortiq yoki yetishmayotgan avtomobillar, muddatdan oldin ro'yxatdan o'chirish hamda ularni qismlarga bo'lib tashlash ta'minlovi amalga oshirilmaganligi natijasida va yaroqli qismlar, detallarni o'zlashtirib olish, hamda temir-tersak omborxonalariga yaroqsiz extiyot qismlarni

topshirish natijasida paydo bo‘ladi. Barcha avtomobillar qayerda bo‘lmasin, ularni texnik holati qay darajada bo‘lmasin, ularni inventarlash zarurdir.

### **7.3. Xarajatlar hisobi va tashuvlarni tannarxini kalkulyatsiyasini tekshirish**

Avtotransport tashkilotlarining yuk va yo‘lovchi tashuvini amalga oshirish jarayonida sarf qilingan harajatlari, yuk ortish va uni tashish ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlarini yuk tashish xizmatining tannarxini ko‘rsatadi. Mahsulot ishlab chiqarilishi uchun qilingan harajatlar nazorat qilish eng muxim masalalardan biri bo‘lib unda mahsulotni tannarxini baholash ko‘rsatkichi korxonada ishning sifatini belgilaydi. Avtomobilda yuk tashish tannarxini hajmi, foyda, jamg‘arma, zaxira shakillanishiga va soliq solinishiga ta’sir etadi.

Xarajatlar auditining maqsadi - avtomobilda yuk tashish, xizmatlar tannarxini to‘griligini aniqlashdan iboratdir. Tekshiruvni amalga oshirish davrida ishlab chiqarish bo‘yicha qilingan «Xarajatlar tarkibi va mahsulot (ish va xizmatlar) realizatsiyasi, hamda moliyaviy natijalarni shakillantirish to‘g‘risidagi Nizom»ga muvofiq holda ish yuritish lozim. Auditorlik tekshiruvi bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar auditini o‘tkazish audit bosqichlari bilan mos ravishda o‘tkazilishi lozim. Auditor auditining birinchi bosqichda ishlab chiqarish xarajatlari auditini rejalashtiradi va taylorlaydi. Ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar tekshiruvini amalga oshirish muvaffaqiyatli ish bo‘lib, tekshiruvchi auditordan me’yoriy va yo‘riq ko‘rsatuvchi ma’lumotlarni bilishdan tashqari, undan xo‘jalik faoliyatining alohida soxalarida mahsulotning tannarxini hisoblash xususiyatlarini yaxshi bilishni talab etadi. Avtotransport faoliyatini ma’lumki boshqa sanoat korxonalaridan ajralib turadi va o‘zi ning ishlab chiqarish xususiyatlariga ega. Shuning uchun auditor rasman tekshiruv o‘tkazishdan oldin transport ishining texnologiya va tashkiliy xususiyatlarini, nimaga moslashtirilganligini, imkoniyat doirasi va ishlab chiqarish faoliyatini har bir to‘rini tuzilmasini o‘rganib chiqish shart. Shunday qilib ishlab chiqarish xususiyatlari bilan tanishib chiqqan auditor, dastlabki ishlab chiqarish hisobini ko‘rib chiqadi.

Dastlabki ma'lumotlar avtotransport korxonasining xodimlari bilan o'tkazilgan og'zaki suxbat asosida bajariladi, bu harakat hisob kitobini tashkil etish haqida ma'lumot olish, hamda saralab hujjatlarini ko'rib chiqish maqsadida amalga oshiriladi. Shuningdek auditor avtotransport korxonasining hisob siyosatini, tashkiliy va texnologik xususiyatlarini, ishlab chiqarish resurslarini rivojlanishini hamda ishdagi hamkorlarni bilishi zarur. Ishlab chiqilgan reja va berilgan joy auditining dasturi ikkinchi bosqichini amalga oshirishda qo'l keladi. Ishlab chiqarish harajatlarini hisobot davri bo'yicha chegaralanishining to'g'rilingini auditor tekshirib aniqlashi lozim. Bu «Moliyaviy hisobotini tayyorlash va taqdim etish uchun kotseptual asos»: «Daromad va sarflar hisobchilik hisobida tan olinadi va ularni paydo bo'lishi, ketish moliyaviy hisobotda aks ettiriladi (pul mablag`larini olish yoki to'lash asosida emas)». Harajatlarni o'rganish davrida auditor yuk tashish tannarxi hisobini aniqlashi hujjatlashtirilishi lozim. Avtomobilda yuk tashishga ketgan harajatlar, ishlar va xizmatlar o'rnatilgan tartib bo'yicha dastlabki hujjatlarga asoslangan holda o'tkaziladi, unda barcha avtomobilda yuk tashishni ishlab chiqish, xizmat va ish operatsiyalari to'g'ri rasmiylashtirilgan bo'lib, o'zi da barcha majburiy rekvizitlarni mujassam etishi lozim.

Avtomobil yuk tashuvi ishlab chaharish tannarx sarf xarajatlar tarkibi haqidagi Nizomga binoan, iqtisodiy mazmuni jihatdan quyidagi elementlarga guruhanladi:

ishlab chiqarishdagi pul xarajatlari (qaytadigan chiqindi hisobidan chiqarish hisobiga);

ishlab chiqarishga bog'liq ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;

ishlab chiqarishdagi sarf xarajatlar.

Sarflarni guruhash zamirida kalkulyatsiyalash moddalari bo'yicha iqtisodiy jihatdan yordamchi hamda asosiy sarflarga guruhash yotadi. Kalkulyatsiya moddalari bo'yicha sarflarni guruhanishi Amaliy jihatdan, hamda nazariy jihatdan barcha jabxalarini ko'rib chihamiz. Yuk tashuvining alohida turlari tannarxini hisobi avtomobil transportida quyidagicha kalkulyatsiyalash moddalari bo'yicha o'tkaziladi;

1. Haydovchilarning asosiy va qo'shimcha oylik maoshlarini to'lovi.

2. Ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar.
3. Yoqilg‘i.
4. Moy sotuvchi va boshqa eksplutatsiya ta‘mirlov materiamllari.
5. Avtomobil rezinasi.
6. Avtomobilani texnik xizmat va eksplutatsiya qilish ta‘mirlov ishlari.
7. Harakatlanuvchi tarkibiy qismni amortizatsiya ajratmalari.
8. Ishlab chiqarish xususidagi ustama sarflar (umumiylab chiqarish xarajatlari).

Avtotransport tashkilotlarida avtomobilda yuk tashish va boshqa xarajatlar turi asosiy ishlab chiqarish bo‘lib xizmat qiladi. Kalkulyatsiya hisobning 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyotida barcha sarflangan xarajatlar aks ettiriladi. 2010 schyotiga biz tomonimizdan quyidagi qo‘srimcha schyotlar kiritiladi:

2011 – «1 tonna tashilgan yuk tarifi bo‘yicha ishlaydigan yuk tashuvchi mashinalar»

2012 – «Soat tarifi bo‘yicha ishlaydigan yuk tashuvchi mashinalar»

2013 – «Yuk tashish va ortish ishlari»

2014 – «Ekspeditsiya xizmatlari»

2015 – «Boshqa ishlar va xizmatlar turi»

Qo‘srimcha schyotlar yuk tashuvining va boshqa xizmatlar turi bo‘yicha qilinadigan axolida kalkulyatsiyalash moddalari bo‘yicha xarajatlarga bog‘liq. Auditor hisobchilik hisobida, hamda hisoblar saldosi bo‘yicha aylanmalarni to‘g‘ri aks ettirilganliginisinchiklab tekshirishi lozim. Buning uchun ishlab chiqilgan auditorlik dasturida ko‘rsatilgan muolajalarni bajarishi lozim ya’ni u hisobda qayd qilingan sonlarni va oylarni taqqoslab chiqishi, dastlabki hujjatlarni tekshirishi lozim; hisob qaydnomasida hisob aniqligini tekshirish hamda bosh kitobda qayd qilingan ma’lumotlarni; kerakli hisobga va boshqa muolajalarga ketgan xarajatlarni tekshirishi zarur.

## **7.4. Yuk va yo‘lovchi transportda tashuvlar tushumi va ularning hisob-kitobini tekshirish**

Daromadlar auditi asosiy masalalardan biri bo‘lib, qaysidir jihatdan butun auditorlik tekshiruvini belgilovchi xususiyatdir. Avtotransport korxonalarining audit uslubiy tekshiruv obyekti yoki davr asosida o‘tkazish mumkin, lekin soxaninng o‘zga xos xususiyatlarini inobatga olish zarurdir. Masalan, avtotransport korxonalarida auditni realizatsiya jarayoni o‘z tovarlarini va tashilgan tovarlarni olmaydi, chunki bu berilgan soxa uchun xos emasdir. Boshqa sanoat soxalaridan farqli o‘laroq avtotransport tashkilotlarida ishlab chiqarish hamda realizatsiya jarayoni mos tushadi, ya’ni bir vaqtda ikkala jarayon amalga oshiriladi, daromadlar auditini o‘tkazish davri daromadlarning shakllanishi xususiyatini ham inobatga olish zarur.

Buxgalteriya hisobida ko‘rsatilgan ishlar va xizmatlar tabiiy ravishda hamda narxlar o‘lchovida aks ettiriladi, bu esa ATTlarda bajariladigan yuk tashish ishlari o‘tgan yillarni tahlil qilib, o‘z faoliyatini bashoratlaydi va biznes rejalar tuzadi, unda yuklarni umumiy hajmini tonnalab o‘rnatadi. Daromadlar olish auditi davrida umumiy maqsad berilgan davrga aloqasi bor hisoblar bo‘yicha qoldiqlar, umumiy qabul qilingan hisobchilik tamoyillari bilan mosligini baholashdan iboratdir. Auditorlik tekshiruvini amalga oshirishni muvaffaqiyatli kechishi uchun, auditor aniq maqsadga ega bo‘lishi kerak, bunda u bosqichma –bosqich audit o‘tkazishni esdan chiqarmasligi lozim. Birinchi navbatda auditor operatsiyalarni birin-ketin bajarish haqidagi dastlabki ma’lumotlar bilan, hamda tekshirish uchun tashkilotning nazorat tuzilmasi bilan tanishib chiqishi kerak bo‘ladi.

Avtotransport tashkilotlarida asosan daromadlar va pul tushumlarin qabul qilish jarayonlari ko‘proq uchraydi, shuning uchun berilgan davrning ichki nazoratini samaradorligini aniqlovchi ko‘rsatkichlarni testdan o‘tkazishda, auditorlik tekshiruvi va ma’lumotlarini baholashda o‘tkaziladigan operatsiyalar saralab o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Buyurtmachi hamda avtotransport tashkilotlari o‘rtasida munosabatlар shartnoma asosida o‘rnatiladi. Yuk tashuvchi avtotransport tashkilotlari uchun bir tipdagи shartnoma shakli ishlab chiqilgan. Auditor shartnomalarni to‘g‘ri

rasmiylashtirilganligini tekshirib chiqishi lozim. Shartnomada yuk tashish shartlari, majburiyatlar va ikki tomon mas'uliyati hisob-kitob shartlari va boshqa rekvizitlari ko'rsatilgan bo'lishi zarur. Yuk tashish xarajatlari kelishilgan shaklda to'lansa, unda kelishilgan ta'rif to'lovi bo'yicha amalga oshiriladi. Va?tinchalik ta'rif to'lovi bo'yicha amalga oshiriladigan yuk tashish hisob-kitoblari:

Har bir kilometr masofaga qo'yilgan ta'rifdan kelib chiqqan holda(Avtotransportlarda har bir bosilgan masofa uchun to'lovlar daromadlarni umumiylashtirilganligini qo'yilgan ta'riflarni amalga oshirishni belgilab beradi);

boshqa ishlar va xizmatlar turi bo'yicha daromadlar bajarilgan ish hajmiga qo'yilgan ta'riflar bo'yicha shakllanadi.

Transport korxonasingning daromadlarini tekshirishda auditor pul ajratmalariga ahamiyat berishi kerak. Bunda auditor yo'l varaqalarining to'g'ri to'ldirilganligini, tovar-transport ustamalarini, schet-fakturalarni va boshqa shunga o'xshash hujatlarni tekshiradi.

### **7.5. Umumiy xulosa**

Ushbu mavzuni o'rganish natijasida talaba transport tashkilotlarida audit o'tkazishning asosiy ahamiyatini va buyurtmachilar bilan o'zaro hisob-kitoblar to'g'riligini tekshirish, transport tashkiloti daromadining shakllanishi, tranportda yuk va yo'lovchi tashish xarajatlarini tekshirishni o'rganishi lozim.

### **7.6. Mavzuga doir kalit so'zlar**

- Transport sohasi
- Yuk tashish xarajatlari
- Transport tashkilotlaridagi asosiy vositalar tarkibi
- Ekspeditsiya xizmatlari
- Ortish ishlari
- Inventarlash

### **7.7.xTalabalarning bilimlarini tekshirish savollari**

1. Transport tashkilotlarida auditning o'zi ga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Yuk tashish ishlari qanday amalga oshiriladi ?
3. Transport tashkilotlarida asosiy vositalarning auditi kanday amalga oshiriladi?

4. Buyurtmachilar bilan hisob – kitoblarni audit qilishda kanday hujjatlarga asosiy e’tibor qaratiladi?

## **7.8. Axborot-uslubiy ta’minot**

### **Adabiyotlar:**

«O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» gi qonun. 2016-y. 13- aprel.

O‘zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi qonuni (yangi taxriri) 2000- y. 26- may.

«Mahsulot (ish va xizmat)lar tan narxiga kiritiladigan, mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom.1999- y. 5- fevral. Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 54- sonli qarori. (Vazirlar maxkamasining 2003- yil 11- iyundagi 261-sonli, 16- iyundagi 270-sonli, 15- oktyabrdagi 444-sonli harorlari bilan kiritilgan qo‘srimcha va o‘zgartirishlar bilan).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3946-son Qarori 2018-yil 19-sentyabr.

O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi Milliy Standartlari.2019-y.

Auditorlik Faoliyatining Milliy Standartlari T.: -2019-y.

Audit. (Darslik). To‘laxo‘jayeva M.M. Ilhomov Sh.I. va bosh. Iqtisodiyot. 2018-yil, 583 bet.

Audit. (O‘quvqo‘llanma). To‘laxo‘jayeva M.M. IlhomovSh.I. va bosh. TDIU 2012-yil, 184 bet.

Arens, Alvin A. Auditing and assuring services: an integrated approach/ Arens, Alvin A. Randal J. Elder, Markel S. Beasley -14<sup>th</sup> ed. Amazon, USA-2012, 894 p.

Ilxamov Sh.I. Amaliy audit. Darslik. –T:Iqtisodiyot, 2018.

### **V.Qo‘srimcha adabiyotlar**

Audit. Praktikum: uchebnoe posobie / O.N. Xarchenko, S.A.Samusenko, I.S.Fyorova – 4-e izd., pererab. i dop. –M.: KNORUS, 2017.-248 str.

Shoalimov A.X., Ilxamov Sh.I., Tojiboeva Sh. A. Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. –T.:Iqtisodiyot, 2016.

## **VIII BOB: SAVDO TASHKILOTLARIDA AUDIT XUSUSIYATLARI**

### **8.1. Savdo tashkilotlarida audit manbalari va vazifalari**

Savdo tashkilotlari uchun belgilangan me'yordagi asosiy va muomala mablag'laridan samarali foydalanish audit va nazorat ishlarini to'g'ri tashkil qilishga, ularni to'g'ri rejalashtirishga bevosita bog'liq. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti mehnatni oqilona tashkil etish va rag'batlantirish xo'jalik yuritishning iqtisodiy metodlarini ishlab chiqarish va ularning ilmiy-texnika taraqqiyotini ta'minlanishini talab etadi. Ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini, birlashma, tashkilot va korxonalar xo'jalik mustaqilligini, ularning eng kam sarflar qilib, eng yuqori pirovard natijalarga erishish ma'suliyatlarini oshirish, to'la xo'jalik hisoboti, o'zini- o'zi mablag' bilan ta'minlash va xarajatlarini uzi qoplashga o'tkazish, olinadigan daromadlar darajasini ular ishining samaradorligi darajasiga bevosita bog'liq bo'lishi buxgalteriya hisobi va auditni boshqaruvning faol vazifasiga aylantiradi. Xalqaro maydonda bozor munosabatlarining rivojlanishi va iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonlarining kuchayishi bilan ko'pgina yirik mahalliy auditorlik tashkilotlari audit sohasidagi xalqaro tarmoqlarga a'zo bo'lib kirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 19- senyatbrdagagi «O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Qarorga ko'ra, endi auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya litsenziyatga barcha turdagи auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish huquqini beradi. Auditorlik tashkilotining ustav kapitali auditorlik tashkiloti faoliyatini amalga oshirishda bevosita foydalaniladigan mol-mulkdan, jumladan, pul mablag'laridan shakllantiriladi.

Auditorlik tashkiloti asosiy ish joyi hisoblangan auditorlarning eng kam soni kamida to'rt nafar shtatdagi auditordan iborat bo'ladi. Aynan bitta xo'jalik yurituvchi subyektning auditorlik tekshiruvi ketma-ket yetti yildan ortiq bo'limgan muddatda o'tkaziladi.

Auditorlik tashkilotlari o'zlarining veb-saytlarida yoki auditorlar jamoat birlashmalarining veb-saytlarida o'tkazilgan majburiy auditorlik tekshiruvlari

to‘g‘risidagi axborotni xo‘jalik yurituvchi subyektning identifikatsiya ma’lumotlarini va auditorlik xulosasini ko‘rsatgan holda e’lon qiladi.

2019- yil 1-yanvardan:

✓ auditorlik tashkilotlari ustav kapitalining eng kam miqdoriga doir;  
✓ auditorlik tashkilotlari rahbarlarining attestatsiyadan o‘tishi bo‘yicha;  
✓ ustav kapitalida davlat aksiyalari (ulushlari) to‘plami 50 foizdan ortiq bo‘lgan korxonalarda tashqi auditni o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini Raqobat qo‘mitasi va Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan ro‘yxat ichidan tanlov asosida tanlash to‘g‘risidagi talablar bekor qilinadi.

2020-yil 1-yanvardan:

a) hisobot yili yaqini bo‘yicha quyidagi shartlardan bir vaqtning o‘zida ikkitasiga javob bergen tijorat tashkilotlari ham har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o‘tishi lozim:

- ✓ Aktivlarning balans qiymati eng kam ish haqining 100 ming barobar miqdoridan ortiq bo‘lsa;
- ✓ Mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushum eng kam ish haqining 200 ming barobar miqdoridan ortiq bo‘lsa;
- ✓ Xodimlarning o‘rtacha yillik soni 100 kishidan ortiq bo‘lsa;

b) auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyatini faqat Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi tomonidan nashr etiladigan xalqaro audit standartlari asosida amalga oshiradi;

v) majburiy auditorlik tekshiruvlarini o‘tkazuvchi auditorlik tashkilotlari ishi sifatining tashqi nazorati natijalari Moliya vazirligining veb-saytida e’lon qilinadi. Ida e’lon qiladi.<sup>22</sup>

Audit ishlarini to‘g‘ri tashkil qilish faqat mablag‘lardan samarali foydalanishni ta’minlabgina qolmay, balki moddiy javobgar shaxslar zimmasidagi tovar-moddiy qiymatliklarning to‘g‘ri saqlanishini nazorat qilish imkonini ham beradi. Auditorlik tekshiruvini to‘g‘ri rejalashtirish auditorlarning ish vaqtidan samarali foydalanishlari,

---

<sup>22</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 19- senyatbrdagи «O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3946-sonli qarori

ishni korxona faoliyatini xususiyatini hisobga olib tashkil qilishlari alohida ahamiyatga ega. Bu esa auditorlarning tekshirish natijalarini sifatli bo‘lishini, belgilangan muddatlarda bajarilishini ta’minlaydi.

Audit ishlarining sifatli bo‘lishi birinchidan, ularni to‘g‘ri rejalashtirishga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, tegishli savdo tashkilotida ichki nazorat tizimi xodimlarining ish rejasiga ham bevosita bog‘liq buladi. Auditorning ish rejasida audit kunlarida qanday ishlarning bajarilishi, xo‘jalik faoliyatidagi paydo bo‘lgan muammolarning hajmiga harab, shu muammolarning tashkilot xo‘jalik faoliyati bilan bevosita bog‘liqligi va to‘g‘rilibni tekshirib chiqishga ajratilgan muddatlar ko‘rsatiladi.

Auditni tashkil qilish va rejalashtirish xozirgi xo‘jalikni boshqarish usuli takomillashib borayotgan bir vaqtida tashkilot xo‘jalik faoliyatining yaxshilanishiga, boshqarish samaradorligini oshirishga, tashkilot extiyolarini qondirishga haratilgan bo‘lishi kerak.

Audit ishlarida amalda ishlatilayotgan, ishlatilishi to‘xtatilgan hukumat qarorlari belgilangan me’yor hamda hujjatlarni to‘g‘ri tahlil qilish, ularni auditorlik tekshiruvida joriy qilish auditordan yuqori malakaga ega bo‘lishni talab qiladi.

Savdo tashkilotlari uz xo‘jalik faoliyatida belgilangan ko‘rsatkichlarni bajarish, mehnat unumdorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish, foydalilik darajasini oshirishga ta’sir qiluvchi ichki imkoniyatlarni ishga solib, xaridorlarga savdo madaniyatini yaxshilash uchun ko‘rash olib boradilar.

Har bir savdo tashkilotida belgilangan topshiriqlarni bajarish uchun tegishli asosiy va muomala mablag‘laridan to‘g‘ri foydalanishni va ularning to‘liq saqlanishini nazorat qilishda hujjatli tekshirish o‘tkazish alohida ahamiyatga egadir.

Hujjatli tekshirish deb, tashkilot xo‘jalik faoliyatini ma’lum bir davr ichidagi holatini hisob va hisobot ko‘rsatkichlariga asoslanib har tomonlama chuqr tekshirishga aytiladi.

Audit yordamida tashkilot va korxonalarda xukumat qarorlarining bajarilishi, xo‘jalikda moliyaviy ishlarning to‘g‘ri tashkil qilinganligi, uning qonuniyligi, rahbar xodimlarning xizmat vazifalari to‘g‘ri olib borilishi tekshiriladi. Audit tekshiruvlarida

nazorat o‘tkazishning hamma turlari birlashib, audit natijalarining to‘g‘riliгини та’минлашди ва xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar mulkining to‘liq saqlanishi uchun imkoniyat yaratadi.

Audit har bir tarmoq ichida moliyaviy ishlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligini ta’minlabgina kolmay, ish faoliyatini yaxshilashga, ishda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishda, xo‘jalik hisobini joriy qilishda, bank kreditlaridan oqilona foydalanishda yakindan yordam beradi. Audit natijalarining mazmunli va to‘g‘ri bo‘lishi uning oldiga qo‘yilgan vazifalarining bajarilishiga bog‘liq. Bu vazifalar asosan quyidagilardan iborat:

Tashkilot moliyaviy axvolini tekshirish, ishlab chiqarish faoliyatini taxlil qilish, mablag‘lardan to‘g‘ri foydalanishni tekshirish va amalga oshirilgan xo‘jalik operatsiyalarining qonuniyligini aniqlash;

Oldindan maqsad qilingan ko‘rsatkichlarning to‘g‘ri bajarilishini, mehnat unumdorligini va pul mablag‘larining to‘g‘ri sarf qilinishini hujjatlar bilan rasmiylashtirishni tekshirish;

Tashkilot mulkining to‘liqligini ta’minlashda tashkilot rahbarlari tomonidan chora va tadbirlarning bajarilishini tekshirish;

Mehnatga xaq to‘lash fondidan oqilona foydalanishni va tashkilotda shtat birligiga rioya qilishni tekshirish;

hisob ishlarini to‘g‘ri tashkil qilish, hisob registridagi yozuvlarning to‘g‘riliгини va uning hujjatlar bilan rasmiylashtirilganligining to‘g‘riliгини tekshirish va h.k.

Audit tashkilotda aniqlangan kamchiliklarni fosh etibgina qolmay, tejamkorlik qonun-qoidalaring qanday yo‘lga qo‘yilganligini aniqlaydi, xo‘jalik hisobini mustaxkamlashga, muomala harajatlarini kamaytirishga va tashkilotning foydalilik darajasini yuksaltirishga yordam beradi.

Savdo tashkilotlarida ruy berayotgan kamomad va xiyonatlarning asosiy sababi ishga sovuqqonlik bilan harash, rahbar xodimlarning egallab turgan mansab mavqelarini suiiste’mol qilishidir. Ikkinci sababi moddiy javobgar shaxslarning yetarlicha bilimga ega bulmaganligi, tovarlarning qabul qilish tartibiga rioya qilmaslik, belgilangan baholarning buzilishidir. Savdo tashkilotlaridagi kamomad va

xiyonatlarning boshqa bir sababi nazorat ishlarini uz vaqtida o'tkazmasligi, moddiy javobgarlik to'g'risidagi tashkilot bilan moddiy javobgar shaxslar o'rtasidagi shartnomalarning to'g'ri tuzilmasligidir.

Ma'lumki, korxona va tashkilotlarda audit o'tkazish asosan hujjatlar va ulardagi yozuvlarning, hisoblarning to'g'riliqini tekshirishdan boshlanadi. Audit tekshiruvi mobaynida buxgalteriya hujjatlari shu muddatlar asosida tuzilgan hisobotlar, analistik va sintetik schetlardagi yozuvlar bilan taqqoslanadi.

Hisob ishlarining to'g'ri yo'lga qo'yilishi, ulardagi yozuvlarning aniqligi auditorlik tekshiruvlarining sifatini yaxshilabgina kolmay, uning natijalari yuzasidan qurilishi kerak bo'lgan choralarning mukammal bo'lishini ta'minlaydi, savdo tashkilotlarida tovar-moddiy qiymatliklar hamda pul mablag'larining to'g'ri saqlanishini ta'minlaydi.

Xo'jalik operatsiyalarini uz vaqtida hujjatlashtirmaslik oqibatida savdo tashkilotlaridagi moddiy boyliklar talon-tarojga uchraydi. Hujjatli tekshirish o'tkazishda buxgalteriya hisobi tekshirish manbai bo'libgina kolmay bir vaqtning uzida uning asosiy qismidir. Tekshiruv davomida auditor hisob ishlarining xodimlar tomonidan qanday bajarilishini ham tekshirib ko'rishi shart. Auditorlik tekshiruvi davomidagi tekshirishda auditor hisob ishlarini yaxshi yo'lga quyish uchun, uning nazorat vazifasini oshirish uchun kerakli maslaxatlar berishi mumkin. Omborlarda tovarlarni to'g'ri hisobga olishni ta'minlash savdo tashkilotlarida kamomad va xiyonatlarning oldini olishda muxim ahamiyatga ega.

Auditorlik tekshiruvi davrida auditor omborlarda tovarlar hisobi qanday tashkil qilinishi, tovarlarni saqlash va sotilish tartibiga rioya qilinishini tekshiradi. Shuningdek, kelgan tovarlarni qabul qilish tartibi bilan moddiy javobgar shaxslar tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlaydi. Tekshiruv davomida qabul qilingan va chiqarilgan tovarlar to'g'risidagi hujjatlar, moddiy javobgar shaxslarning hisobotlari tekshiriladi. Omborlarda tovarlar hisobini to'g'ri yo'lga qo'yilishi me'yordan yuqori tovar zaxiralari paydo bo'lishining oldini oladi.

Auditorlik tekshiruvi tekshiruvning hajmiga harab to'liq yoki qisman tanlab olingan holda o'tkazilishi mumkin.

To‘liq audit o‘tkazishda, ba’zi bir moliya-xo‘jalik muomalalarining barcha bo‘g‘inlari qamrab olinadi. Masalan, korxonada pul bilan bog‘liq muomalalar, ya’ni kassa hisobotlari, bank bilan bog‘liq hujjatlar, inventarizatsiya natijalari va h.k. Tanlab olingan holda o‘tkaziladigan audit tekshiruvida ma’lum bir hisobotlar, bir xildagi xo‘jalik operatsiyalarining to‘g‘riliqi tekshiriladi.

Auditorlik tekshiruvi qanday tadbirda o‘tkazilmasin, ularning mazmuniga harab hujjatlar to‘liq tekshiriladi va uning natijalari aniqlanadi. Mavjud tovar-moddiy boyliklarning to‘liqligini tekshirishda tematik audit o‘tkaziladi. Bundan asosiy maqsad tashkilot xo‘jalik faoliyatining ayrim bulaklaridagi holatni yanada aniqroq bilishdir.

Tematik audit tashkilotda ish xaqi fondidan foydalanishni tekshirishda, moddiy ragbatlantirish fondlaridan foydalanishning to‘g‘riliqini aniqlashda ko‘p qo‘llaniladi.

Savdo tashkilotlarida tematik audit tashkilot xo‘jalik faoliyatining ayrim tomonlarini tekshiribgina kolmay, savdoni tashkil qilishda ilgor tajribalarni keng joriy qilishda yakindan yordam beradi.

Savdo tashkilotlari faoliyatining asosiy sifat ko‘rsatkichi tovar muomalasi va foya rejasining bajarilishi hisoblanadi. Bu ikki ko‘rsatkich chakana savdo korxonalari uchun yuqori tashkilot tomonidan belgilanadi. Kolgan ko‘rsatkichlar esa bevosita tashkilotning uzida belgilanadi. Tovar muomalasi va foya rejasining bajarilishi iste’molchilarga sifatli, ularning talabiga javob beradigan xalq iste’mol tovarlarini sotish va chakana tovar muomalasi rejasining bajarilishi bilan bog‘liq.

Savdo tashkilotlari bir necha chakana savdo shaxobchalarini uziga birlashtiradi, ularning har birida ko‘plab tovar zaxiralari mavjud. Shu bilan birga bu savdo tashkilotlari tovar muomalasi hajmiga, tuzilishiga qarab to‘liq xo‘jalik hisobida buladi. Har bir savdo tashkilotlaridagi tovarlarning to‘liqligini ta’minlash uchun ularning har birini uz vaqtida audit qilishni oldindan rejorashtirish talab qilinadi.

Yuqori tashkilot tuzilgan audit rejasining to‘g‘ri tuzilganligini tekshirib, rejada hamma savdo shoxobchalarining ko‘rsatilganligini aniqlab chiqadi va qayta audit o‘tkazish kuzda tutilganligi va qaysi mavzuda o‘tkazilishini ta’minlaydi. Audit o‘tkazish rejalarida qayta audit o‘tkazishning ko‘rsatilishi savdo tashkilotlarining ish

faoliyatini chuqur taxlil qilish imkoniyatini beradi va ish tartibining yaxshi yo‘lga qo‘yilishini ta’minlaydi.

Yillik audit o‘tkazish rejasida birinchi navbatda belgilangan muddatlarda audit o‘tkazilmagan obyektlar ko‘rsatiladi. Mavsumiy xarakterga ega bo‘lgan savdo tashkilotlarida audit o‘tkazishni ish faoliyatining boshlanishigacha o‘tkazish rejalashtiriladi.

Qaytadan o‘tkaziladigan audit, asosan, o‘tkazilgan audit ishlariga shubxa tugilganda, auditor tomonidan yozilgan auditorlik hisoboti va xulosasi haqiqiy ko‘rsatkichlar bilan harama-karshi bo‘lgan paytlarda boshqa auditor tomonidan o‘tkaziladi.

Audit ishlarining yaxshilanishida auditorlarning kasbiy tayyorgarligi va malakasining etarli darajada bo‘lishi korxonalar xo‘jalik faoliyatining moliyaviy nazoratini mustaxkamlashga haratilgan choralardan biridir.

Auditorlik tekshiruvlarini sifatli o‘tkazish va uning obyektiv bo‘lishini ta’minlashda auditorga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

audit o‘tkazilayotgan tashkilotni xo‘jalik faoliyati yuzasidan yuqori tashkilot tomonidan chiqarilgan buyruk va qarorlarni uzlashtirib olishi, amalda qo‘llaniladigan audit ishlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan qonunlar; Nizomlar va harorlarni yaxshi bilishi va ularning bajarilishini nazorat qilish;

tashkilot mulkini to‘liq saqlashni ta’minlashda moddiy javobgar shaxslarning ish faoliyatini tekshirish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish bo‘yicha tegishli choralarni ishlab chiqish;

ish yuzasidan tegishli jamoat tashkilotlari bilan aloqada bo‘lish, audit tekshiruviga taalluqli bo‘lgan shaxslarni qabul qilish va ular bilan suxbatlashish; audit o‘tkazilayotgan tashkilotning hamma hujjatlari va boshqa materiallarini to‘liq tekshirib, natijalarining aniq va haqiqiy holatini yozish;

audit o‘tkazishda qonunga xilof ishlar aniqlansa, audit qilinayotgan tashkilotning bosh buxgalteri va rahbariga xabar berish va ulardan yozma ravishda tushuntirish xati olish;

audit o‘tkazishda davlatimiz tomonidan ishlab chiqilgan qonun hujatlari va barcha me'yoriy hujatlarga amal qilish;

audit ishlarini to‘g‘ri olib borish, tekshirish natijalarini aniq ko‘rsatishda auditor uz xuquqidan to‘g‘ri foydalana bilishi zarur.

Auditorlik tekshiruvi boshlangandan to oxirigacha tashkilot ish faoliyatiga, xo‘jalikni boshqarishga salbiy ta’sir qilmasligi kerak.

Iqtisodiyotimizni rivojlantirishda barcha tomonlarning bir-biriga bog‘liqligi tobora usib bormokda, bu esa istikbolni kuzlab o‘zaro aloqalar tizimini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishini talab qiladi.

Audit natijalarining to‘g‘ri bo‘lishi va uning sifatli o‘tkazilishi, audit o‘tkazish uchun yaratilgan sharoitga bog‘liq.

Audit o‘tkazish uchun etarli sharoit yaratilgandan keyin, auditor tashkilot xo‘jalik faoliyatidagi tovar-moddiy qiymatliklarni son va sifat jihatidan buxgalteriya ro‘yxatlaridagi va hisobot ko‘rsatkichlaridagi yozuvlar bilan taqqoslab tekshiradi. Bu auditorga tashkilot xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida ma’lumot beradi va tashkilotda amalga oshirilgan xo‘jalik operatsiyalarining qonuniyligini, ularning maqsadga muvofiqligini, iqtisodiy jihatdan zarurligini va tejamkorlik qonun-qoidalariga qanday rioya qilinishini, hisob va hisobot hujatlarining to‘g‘riligini aniqlash imkoniyatini beradi.

Auditor tashkilot xo‘jalik faoliyatini audit qilishda, albatta, uning boshqa soxalari bilan bo‘lgan va buladigan aloqadorligini aniqlab turish usul va qo‘llanmalaridan to‘g‘ri foydalanib, xo‘jalikdagi sodir bo‘lgan operatsiyalarini bir-biridan ajralmagan holda nazorat qiladi.

Audit o‘tkazilayotgan tashkilotda xo‘jalik faoliyatining holatini aniqlab olish, auditorga shu tashkilot to‘g‘risida dastlabki umumiy ma’lumotlarni beradi. Audit qilish jarayonida iqtisodiy taxlildan kengrok foydalanish, auditor uchun zarur bo‘lgan savdo tashkilotida moliyaviy-xo‘jalik axvol kay holatda ekanligidan xabardor bo‘lish va tashkilot ish faoliyatida kuchsiz tomonlarni bilib olish imkoniyatini beradi.

Audit o‘tkazishda hisob ko‘rsatkichlari iqtisodiy taxlil, hisob ro‘yxatlari, hisobotlarni tekshirish bilan birga shunday usullar qo‘llaniladiki, ular amalga

oshirilgan xo‘jalik operatsiyalarining to‘g‘riligini tekshirishda, hujjatlarning to‘g‘ri rasmiylashtirilganligini tekshirishda audit ishlariga yakindan yordam beradi va natijalarni aniqlashda ularga qonuniy tus beradi. Shunday usullardan biri savdo tashkilotlarida inventarizatsiya o‘tkazishdir.

Savdo tashkilotlarida inventarizatsiya o‘tkazish deb, moddiy javobgar shaxslar zimmasidagi tovar-moddiy qiymatliklarning, pul mablag‘larining natura, ya’ni son ko‘rsatkichida tekshirilib, pulda ifodalanishiga aytiladi.

Inventarizatsiya o‘tkazishda tashkilotning tovar-moddiy qiymatliklari inventarizatsiya varaqalarida ko‘rsatilib, buxgalteriya hisobining ko‘rsatkichlari bilan solishtiriladi.

Bunday solishtirish natijasida inventarizatsiya varaqalaridagi ko‘rsatkich bilan hisob ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi farq aniqlanadi, aniqlangan farq inventarizatsiya natijasini (ortiq yoki kamligini) ko‘rsatadi. Aniqlangan natijalar buxgalteriya hisobida tegishli yozuvlar bilan rasmiylashtiriladi. Bundan tashkari inventarizatsiya o‘tkazishning yana bir afzalligi, talab va taklifdan chetda kolgan, iste’mol qilishga yaroksiz hamda uz to‘liqligini, xususiyatini yo‘qotgan tovarlarni aniqlashda yordam beradi. Bu esa tashkilotda me'yordan yuqori bo‘lgan tovar zaxiralarini kamaytirish va tovar yo‘qolishining oldini olish, tovarlar aylanishini tezlashtirish uchun tegishli chora va tadbirlar ko‘rshini ta’minlaydi.

Savdo korxonalarida audit manbalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- tovar yetqazib berish yoki sotib olish bo‘yicha tuzilgan shartnomalar;
- schet-fakturalar;
- tovar-transport yuk xatlari;
- sifat guvohnomalari;
- moddiy-javobgar shaxslar hisobotlari;
- tegishli jurnal-order qaydnomalari va h.k.

## **8.2. Omborlar va buxgalteriyada tovarlarni hisobga olishni tekshirish**

Tovarlarni iste’molchilarga uz vaqtida sifatli yetqazib berishda navlarning to‘liqligini ta’minalash alohida ahamiyatga ega.

Savdo tashkilotlaridagi mavjud tovar-moddiy boyliklar ma'lum moddiy javobgar shaxslar zimmasida bo'lib, bu boyliklarning son va sifat jihatidan to'liq bo'lishida javobgar hisoblanadilar. Moddiy javobgarlikning asosiy ikki usuli, ya'ni yakka va brigada usulidagi turlari mavjud. Xozirgi vaqtda moddiy javobgarlikning brigada usuli davlat savdo tashkilotlarida keng qo'llanilmokda.

Moddiy javobgarlikning har ikkala turida ham tovarlarning to'liqligini ta'minlashda xodimlarni to'g'ri tanlash, ularning malakasiga, ish stajiga e'tibor berish alohida ahamiyatga ega.

Korxona va tashkilotlarda hisobotlar tuzilishiga ko'ra ichki va tashki hisobotlarga bulinadi. Ichki hisobotlardagi ko'rsatilgan ma'lumotlar asosan shu tashkilot xo'jalik faoliyatidan olinadi va uning ko'rsatkichlarini umumlashtiradi, tashki hisobotlar asosan yuqori tashkilotlarga topshiriladigan uch oylik, yillik hisobotlar hisoblanadi.

Hisobot bajarilgan xo'jalik operatsiyalarini tartibga solish bilan bevosita bog'liq. Masalan, oy davomida tegishli hisob ro'yxatlarida aks ettirilgan operatsiyalar oy oxirida umumlashtirilib, schetlarning debet, kredit muomalalari hisoblanadi, qoldiqlari aniqlangandan keyin oylik hisobotni tuzish uchun sharoit yaratiladi, demak, hisobotda hisob ko'rsatkichlari umumlashtiriladi. hisobotda tashkilot mablag``larining joylanishi, tashkil topish manbalari, hisobot davridagi mablag``larning o'zgarishi uz ifodasini topadi.

Hisobotlarni to'g'ri tuzish birinchidan, mablag``lardan samarali foydalanishni ko'rsatsa, ikkinchidan, xo'jalikni boshqarishni takomillashtirish kabi tashabbuslarning ruyobga chiqishini ta'minlaydi.

Hisobotlarni belgilangan muddatlarga tuzish buxgalteriya xodimlari ishining to'g'ri tashkil qilinishini talab qiladi. Hisobotga qo'yiladigan talablar uning mazmunidan kelib chiqadi va quyidagi talablarga javob berishi kerak:

Hisobotdagi ma'lumotlarning to'g'ri bo'lishi;

Hisobotning aniq va sodda tuzilishi;

Hisobotning uz vaqtida tuzilishi va topshirilishi.

Hisobotlar tuzilishiga harab operativ, statistik va buxgalteriya hisobotlariga bulinadi.

Hisobotlarning bunday bulinishi ularda keltirilgan ma'lumotlar mazmunidan va tuzilishiga ko'ra farqdan kelib chiqadi.

Operativ hisobotlar birinchidan tashkilot xo'jalik faoliyati bilan bevosita bog'liq bulmasa ham ma'lum bir vaqt birligida sodir bulayotgan operatsiyalarni kuzatishda keng qo'llaniladi. Operativ hisobotlarning uziga xos xususiyati shundaki, ularda hisobot davrining boshiga va oxiriga taalluqli bo'lgan ma'lumotlar ko'rsatilmaydi, ikkinchidan, bu hisobotlarda xo'jalik mablag'larining tashkil topish manbalari, joylanishi ko'rsatilmaydi. Operativ hisobotlarning ma'lumotlari yillik hisobot tuzishda savdo tashkilotlarida ishlatilmaydi.

Statistik hisobotlar maxsus kuzatishlar orqali olib boriladi. Statistik hisobotlardagi ma'lumotlar kuprok natura ulchov birliklarida yuritiladi, operativ, statistik hisobotlarda balans ishlatilmaydi. Statistik hisobotda bir vaqtning uzida turli ulchov birliklaridan foydalanish mumkin. Lekin statistik hisobotlarda umumlashtirilgan ma'lumotlar uzining ketma-ketligi yo'qligidan boshqa hisobotlardan farq qiladi.

Buxgalteriya hisoboti barcha hisobot turlaridan shu bilan farq qiladiki, unda bir vaqtning uzida natura va pul ulchov birligi ishlatilishi mumkin. Buxgalteriya hisobotida umumlashtirilgan ma'lumotlar tashkilot mablag'larining holatini ko'rsatadi.

Buxgalteriya hisobotlaridagi ma'lumotlar bevosita tashkilot mablag'larining harajati bilan bog'liq holda yuritiladi va ularda boshlanishi va oxirgi qoldiqlari ko'rsatiladi.

Tovar-moddiy qiymatliklarni hamda pul mablag'larining to'liqligini ta'minlash uchun belgilangan chora va tadbirlarni audit qilish savdo tashkilotlarida asosan quyidagi ketma-ketlikda olib boriladi. Auditor savdo xodimlarining moddiy javobgarlik ishlariga o'tkazilish tartibini, moddiy javobgar shaxslarning ish faoliyati ustidan yuqori tashkilot rahbarlarining nazorat qilib borishini xalq nazorat idoralari

va joylardagi vakillarning savdo tashkilotlari ish faoliyatini yaxshilashga ko'rsatayotgan ta'sirini aniqlaydi.

Bunday tekshirish o'tkazilgandan keyin auditor kamomad va xiyonatlar yuzasidan tuzilgan hisobotlarni, audit o'tkazilayotgan tashkilotda aniqlangan kamchiliklarni tugatish to'g'risidagi tadbirlarning uz vaqtida qo'llanganligini tekshiradi.

Auditorlik tekshiruvi jarayonida moddiy javobgar shaxslarning ishga qabul qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlar va ularning to'liqligi, sotuvchilarining ishga qabul qilinganligini ko'rsatuvchi shaxsiy hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligi va moddiy javobgar shaxslar bilan tuzilgan moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnomalar, hisob ro'yxatlaridagi yozuvsular, inventarizatsiya natijalari, tekshirish dalolatnomalari asosiy manba hisoblanadi.

Korxonalar mulkining to'g'riliqini ta'minlashda, rivojlangan bozor iqtisodiyotini vujudga keltirishda hisob va hisobotning ahamiyati yanada oshib bormokda. hisob va hisobot reja topshiriqlarining bajarilishida, tejamkorlikni va xo'jalik hisobini yaxshilashda, moddiy boyliklardan va pul mablag'laridan oqilona foydalanishda, ular ustidan nazorat o'rnatishda asosiy ko'rsatkichdir.

Shuning uchun korxona va tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va hisoboti holati audit qilinganda hisob ishlarining to'g'ri tashkil qilinishi, xo'jalik ichidagi nazorat ishlarining qanday yo'lga qo'yilganligi, hisob soxasida ishlovchi xodimlarning malakasi, xo'jalik mablag'larining harakati bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni to'g'ri hujjatlashtirish va hujjat muomalasi, hisobotlarning belgilangan muddatlarda to'g'ri tuzilishi tekshiriladi.

Sintetik va analitik schetlardagi yozuvsular, oylik, uch oylik, yillik hisobotlar, oldingi o'tkazilgan auditorlik tekshiruvi materiallari tekshirish manbalari hisoblanadi.

Savdo tashkilotlarida tovar-moddiy boyliklarning to'liqligini ta'minlash savdoda xodimlarni to'g'ri tanlash va ularni uz joylariga to'g'ri ishga quyishga bog'liq. Savdo tashkilotlarida moddiy javobgarlik lavozimiga savdo mutaxassisligi bo'yicha tegishli ma'lumotga ega bo'lgan, sudlanmagan xodimlar qabul qilinadi.

Auditorlik tekshiruvi jarayonida savdo tashkilotida ishlab turgan xodimlarning tegishli mutaxassislik bilimiga ega ekanligi alohida tekshirilib, auditorlik hisobotida xodimlarning soni va ma'lumoti alohida ko'rsatiladi.

Agar tekshirish natijasida audit o'tkazilayotgan tashkilotda moddiy javobgarlik ishlariga ilgari sudlangan shaxslar qabul qilinganligi aniqlansa, bunday shaxslarni ishga olishga ruxsat bergen rahbarlar aniqlanadi va bu nuqsonlar auditorlik hisobotida ko'rsatiladi. Auditor bunday xollarda asosan xodimlarni hisobga olish to'g'risidagi varaqalarni mehnat daftarchalarini va ishga qabul qilish to'g'risida tashkilot xodimlar bo'limining xulosalarini tekshiradi.

Agar tekshirish natijasida moddiy javobgarlik ishlariga qabul qilingan xodimlar hujjatlarining to'g'riliqi haqida auditorda shubxa tugilsa, shu xodimlarning oldingi ishlagan joylaridan tegishli ma'lumotlar olinishi kerak.

Auditor avval o'tkazilgan inventarizatsiya natijalari, taklif va shikoyatlar daftari, tashkilot rahbarlarining xulosalari bilan tanishib chiqishi auditorlik tekshiruvining sifatli bo'lishini ta'minlaydi. Audit o'tkazishda tashkilotda qo'llanilayotgan moddiy javobgarlik tartibi va ularning to'g'ri rasmiylashtirilganligi aniqlanadi.

Audit o'tkazishda brigada a'zolari bilan tuzilgan moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnomalarning qonuniy va brigada a'zolari tomonidan imzolanganligi, ularning me'yorli ishlashi uchun yaratilgan sharoitlar tekshiriladi. Savdo tashkilotlarida tovar-moddiy qiymatliklarni hamda pul mablag'larining to'liqligini ta'minlashda tashkilotda mafko'ra va tarbiya ishlarini yaxshi yo'lga qo'yilishi tashkilot rahbarlaridan talab qilinadi. Auditorlik tekshiruvini o'tkazishda bu sohada qanday ishlar amalga oshirilganligi aniqlanadi.

Auditorlik tekshiruvining oxirida yuqori tashkilot tomonidan kamomad va xiyonatlarni bartaraf qilish to'g'risida qaror va buyruqlarning bajarilishi tekshiriladi.

Umuman hozirgi vaqtda moddiy javobgarlikning uchta turi qo'llanilmoqda: a) chegaralangan; b) to'liq; v) yuqori.

Bu turlardan asosan savdo tashkilotlarida to'liq moddiy javobgarlik qo'llaniladi. Biz yuqorida tashkilot bilan xodimlar o'rtasida moddiy javobgarlik

shartlari tuzilgan shartnomalarning qonuniylashtirilishini ko‘rib chiqdik, lekin ayrim savdo xodimlari bilan moddiy javobgarlik to‘g‘risidagi shartnomalarning tuzilmasligi xech qanday moddiy javobgarlikka tortish mumkin emas ekan-da, degan gap emas, albatta. Ular ham quyidagi hollarda moddiy javobgarlikka tortiladilar:

Tovar va pul muomalalarini amalga oshirish uchun berilgan farmoyishlarni qonunsiz va xato deb aniqlanganda;

Tovar-moddiy qiymatliklarni uz vaqtida qabul qilib olish, saqlash va tashib kelishni ta’minlamaganda, uz vaqtida kerakli chora va tadbirlarni amalga oshirmaganda;

Moddiy javobgar shaxslarning ish faoliyati ustidan nazorat ishlarini olib bormaganda.

Bunday paytlarda keltirilgan kamomad va xiyonatlar yuzasidan tashkilot rahbarlaridan tushuntirish xatlari yozdirib olinadi hamda kamomad va xiyonat summasi joyiga to‘liq qaytarib qo‘yilishi talab qilinadi.

Auditor audit o‘tkazilayotgan tashkilotda hisobning jurnal-order shaklidan to‘g‘ri foydalanilayotganiga, shuningdek avtomatlashtirish jarayonining qanday ahvolda ekanligiga ahamiyat berishi shart. Kerak bo‘lsa, tashkilot buxgalteriya xodimlariga hisobning ilgor usullarini joriy qilish va ularning afzallikkleri haqida hisob xodimlariga kerakli amaliy yordam berishi lozim.

Auditor tashkilot bosh buxgalteriga yuklatilgan vazifalarning qanday bajarilishi hamda uning xukuq va vazifalari to‘g‘risida chiqarilgan Nizomga qanday amal kilayotganligini aniqlaydi. Bu Nizomda bosh buxgalterning vazifalari quyidagicha bayon qilingan: hisob ishlarini to‘g‘ri tashkil qilish, hisobning ilgor usullarini joriy qilish, avtomatlashtirish, hisoblash mashinalaridan oqilona foydalanish, mablag‘lar harakati bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalarni to‘g‘ri hujjatlashtirish va hisob yozuvlarida ko‘rsatish, harajatlarni to‘g‘ri hisob qilish, moliyaviy natijalarni aniqlash va h.k.

Moddiy javobgar shaxslar tomonidan buxgalteriyaga topshirilayotgan tovar va pul hisobotlarining belgilangan muddatda to‘g‘ri tekshirilishi audit qilinadi. Ayrim

xollarda hisobotlarni uz vaqtida topshirmaslik tovar va pul mablag`laridan noqonuniy foydalanishni keltirib chiqaradi.

Tekshirishda tashkilotning jami savdo shoxobchalari va to‘liq xo‘jalik hisobidagi savdo tarmoqlarining tovar muomalalari, ichki imkoniyatlardan foydalanish tartibi, xo‘jalik hisobining ayrim bulaklari bo‘yicha joriy qilish, hisob ishlarining holati tahlil qilinadi.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida hisobotlarni o‘z vaqtida, belgilangan shakllarda tuzish va topshirish tashkilotga taalluqli bo‘lgan asosiy va muomala mablag‘larining harakatini to‘g‘ri hisoblab chiqilishida, qo‘sishimcha mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojni qondirishda alohida ahamiyatga ega.

Hozirda korxona va tashkilotlar uch oylik va yillik hisobotlarini tuzadilar. hisobotni tuzish tegishli tayyorgarlikni talab qiladi va shu tayyorgarlik davomida hisobot uchun belgilangan shakllarni to‘ldirish uchun asos yaratiladi.

Hisobotlar hajmiga ko‘ra kunlik, oylik, uch oylik va yillik buladi. Kunlik hisobotlarda xo‘jalik faoliyatining hisobot tuzilgan kundagi holati ko‘rsatiladi. Kunlik hisobotga moddiy javobgar shaxslar tomonidan tuziladigan tovarlarning kirim va chiqim hisobotini misol keltirish mumkin. Bu hisobotda tovarlarning harakati tegishli manbalar bo‘yicha ko‘rsatiladi va hisobotning to‘g‘riligi tekshirib chiqilgandan keyin tegishli jurnal-orderlarda aks ettirish uchun sharoit yaratiladi, lekin shu bilan hisobot ishlari to‘liq bajarildi degan xulosa kelib chiqmaydi.

Tashkilot ixtiyorida bo‘lgan mablag‘larning harakati buxgalteriya hisobi schetlarida uz ifodasini topadi. Har oyda schetlarning muomalalari hisoblanib, oyning oxiriga bo‘lgan qoldiqi chiqariladi. Mablag‘lar harakatining to‘g‘riligini tasdiqlash maqsadida sintetik schetlarning muomalalari analistik schetlardagi ma’lumotlar bilan to‘ldiriladi. Har bir schetning qoldiqlari tekshirib chiqilgandan keyin bu ma’lumotlar bosh daftarchaga kuchiriladi va oy davomida amalga oshirilgan operatsiyalarning schetlari bo‘yicha muomala va qoldiqi hisoblanib, jami muomala va qoldiqlarning tengligi ta’minlangandan keyin hisobot tuzish uchun tegishli ma’lumotlar yiqiladi.

Hisobot xo‘jalik faoliyatining o‘tgan davridagi holatini bir-biri bilan boglangan holda umumlashtirib, reja ko‘rsatkichlarining bajarilishini nazorat qiladi va tegishli ichki imkoniyatlarni aniqlashda tashkilot rahbarlariga yakindan yordam beradi.

### **8.3. Ulgurji savdoda tovarlarning sotilishini tekshirish. Tovarlarni joriy hisobda va balansda baholanishini tekshirish**

Korxona va tashkilotlar uz oldilariga qo‘yan maqsadlariga erishishi, mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish va ularni iste’molchilarga yetqazib berishda bir-birlari bilan o‘zaro aloqalar olib boradilar. Xalq iste’mol tovarlarini xaridorlarga o‘z vaqtida sifatlari va belgilangan navlarda yetqazib berishni ta’minalashda, sanoat korxonalarini bilan savdo tashkilotlari o‘rtasidagi aloqani mustaxkamlashda ulgurji savdo tashkilotlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Ulgurji savdo tashkilotlari belgilangan chakana tovar muomalasi rejasini bajarishda, xalq iste’mol tovarlariga bo‘lgan talabni qondirishda chakana savdo tarmoqlariga bevosita ta’sir qiladi.

Ulgurji savdo tashkilotlari tovar muomalalarining boshlanish holati bo‘lib, o‘z ish faoliyatini asosan sanoat korxonalaridan chakana savdo tashkilotlariga tovarlarni yetqazib beruvchi sifatida olib boradi va xalq iste’mol tovarlariga bo‘lgan talablarning bajarilishida chakana savdo tarmoqlariga yordam beradi. Sanoat korxonalarida tovarlar navini kengaytirishga, chakana savdoni to‘g‘ri tashkil qilishga faol ta’sir qiladi.

Ulgurji savdoning yana bir afzalligi shundaki, tovar zaxiralarini aniqlash va ularni savdoga jalg qilish, maxalliy sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlarni iste’molga chiqarish, shu bilan birga mavsumiy va ma’lum maqsadlar uchun belgilangan tovar zaxiralarining to‘liqligini ta’minalashdi.

Savdo tashkilotlarida tovar operatsiyalarini audit qilishda tovarlarning mol yetqazib beruvchilardan tuzilgan shartnomalarga asosan kelishi, ularning omborlarga qabul qilinishi tartibi – saqlash, sotuvga tayyorlash, mavjud tovar zaxiralarining tashkilot uchun belgilangan me'yorga teng kelishi tekshiriladi.

Ulgurji va chakana savdo tashkilotlarida tovar operatsiyalarini audit qilishning asosiy vazifalaridan biri belgilangan tovar-oborot rejasining bajarilishini aniqlash, ularni tasdiqlovchi hujjatlarning to‘g‘ri rasmiylashtirilishini nazorat qilishdir. Ulgurji va chakana savdo tashkilotlaridagi mavjud tovarlar tegishli moddiy javobgar shaxslarning zimmasiga yuklangan.

Tovar operatsiyalarini audit qilish ma’lum ketma-ketlikda amalga oshirilib, tashkilotning tuzilishiga, hisob ishlarining tashkil qilinishiga, auditorga berilgan topshiriqlarga bog‘liq. Tovar operatsiyalarini audit qilishda omborlardagi iste’molga yaroksiz bo‘lgan tovarlarni aniqlash tartibi va ularning qaysi manbalardan koplanganligi, ularni boshqa yillar bilan taqqoslangandagi holati auditor tomonidan hisoblab chiqiladi.

Savdo tashkilotlarida amalga oshirilgan operatsiyalarning asosiy qismini tovarlarning harakati bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalar tashkil qiladi. Shuning uchun auditorlik tekshiruvlari ayrim operatsiyalarning to‘g‘riligini tekshirish tanlab olingan holda o‘tkaziladi. Tanlab olingan holda tekshirish o‘tkazilayotganda (operatsiyalarni) oy davomida yoki un kunlik ichidagi bajarilgan operatsiyalarni audit qilish maqsadga muvofiq.

Savdo tashkilotlarida tovar operatsiyalarini audit qilish natijasida ularning to‘liqligi, sifat jihatidan iste’molga yaroqliligi, tegishli hujjatlarning to‘g‘ri rasmiylashtirilganligi to‘g‘risida etarli ma’lumot olinadi.

Savdo tashkilotlaridagi tovar – moddiy qiymatliklarning to‘liqligini saqlashda inventarizatsiya muxim o‘rin egallaydi. Inventarizatsiya yordamida tovarlar miqdori va sifatining moddiy javobgar shaxslar tomonidan to‘g‘ri saqlanishi hisob-kitob qilinadi.

Inventarizatsiya nazorat usullari ichida asosiy o‘rin tutadi.

Tashkilot xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlar, ya’ni moliya rejasining bajarilishi, iqtisodiy tejamkorlik, xo‘jalik hisobi, xo‘jalik operatsiyalarini to‘g‘ri bajarish, hisob ishlarining holati audit qilinayotganda har bir ko‘rsatkich alohida-alohida tekshiriladi. Bunday tekshirish olib borishda shunday usullarni

qo'llash talab qilinadiki, ular orqali audit natijalarining aniqligi ta'minlanishi kerak. Ana shunday usullardan biri tovarlarni inventarizatsiya qilishdir.

Korxonalar mulkining to'liqligini ta'minlashda inventarizatsiya o'tkazish muxim ahamiyatga ega. Inventarizatsiya natijasida kamomad va xiyonatlar aniqlanibgina qolmasdan, ularning kelib chiqish sabablari ham aniqlanadi. Savdoni tashkil qilishda yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari belgilanadi. Shuning uchun inventarizatsiyaning uz vaqtida va sifatli o'tkazilishi buxgalteriya hisobidagi yozuvlarning to'g'rilingini, mablag'larning saqlanishi ustidan nazorat qilishni ta'minlaydi.

Inventarizatsiyalar moddiy javobgar shaxslarning ishi ustidan kuzatuv olib borishga yordam beradi, ularning zimmasidagi tovarlar, xom ashyo va materiallarni uz vaqtida va to'g'ri rasmiylashtirishdagi javobgarligini ta'minlaydi. Shu bilan birga tovar-moddiy boyliklar saqlanayotgan omborlarning holatini yaxshilash (ulchov asboblarining holatini tekshirish) imkoniyatini beradi. Inventarizatsiya deb, mavjud tovar – moddiy boyliklarni natura xolida sanab, o'lchab, tortib, ularni pul ifodasida hisob-kitob qilib, buxgalteriya hisobi ko'rsatkichlariga taqqoslab natijalarini aniqlashga aytildi.

Savdo korxonasidagi tovarlar inventarizatsiya qilinganda, ularning holati qanday tartibda vitrinalarda ko'rsatilgan bo'lsa, shu tartibda inventarizatsiya o'tkazishda son jihatdan sanalib, ulchanib chiqiladi va inventarizatsiya ro'yxatlarida ko'rsatiladi.

Inventarizatsiya ro'yxatining har bir varagida ko'rsatilgan tovarlarning tartib rahami, umumiyligi miqdori, summasi ro'yxatning oxirida suz bilan yozib boriladi.

Inventarizatsiya to'liq tugallangandan keyin hamma ro'yxatlardagi summalar jamlanib, inventarizatsiya natijalarini aniqlash uchun hujjatlar tayyorланади. Ayrim xollarda o'tkazilgan inventarizatsiya natijalarining to'g'rilingini aniqrok bilish uchun tanlab olingen holda qayta nazorat inventarizatsiyasi o'tkaziladi.

## NAZORAT O'TKAZISH DALOLATNOMASI

				Ro'yxatda ko'rsatilgan		haqiqiy aniqlandi		Farqi	
								ko'p	oz
12				Ro'yxat bo'yicha pakamii					
16									
20									
Atlas -12		Tovarning nomi, sorti, artikuli							
B0'z									
04112		Pres-trahami							
1401									
1200									
M		Ulchov birligi							
M									
5000		Bahosi							
500									
21									
150									
105000									
75000									
64									
20									
156									
100000									
78000									
80									
1									
5000									
6									
3000									

qayta tanlab olingan holda o'tkazilgan inventarizatsiya natijalariga asosan ro'yxatda ko'rsatilgan summalarga nisbatan 5000 so'm ko'p, 3000 so'm kam yozilganligi aniqlandi va x.k.

Auditor \_\_\_\_\_ imzo  
 Inventarizatsiya komissiyasi a'zolari:  
 Moddiy javobgar shaxs.

Inventarizatsiya ro'yxatlarining to'g'riliği tekshirilgandan keyin bir nusxasi tashkilot buxgalteriyasiga beriladi, ikkinchi nusxasi auditorda koladi. Moddiy javobgar shaxslar tomonidan ro'yxatlarda yo'l qo'yilgan arifmetik xatolar inventarizatsiya yaqinlari aniqlangandan keyin topilsa, bu to'g'rida inventarizatsiya o'tkazish komissiyasiga yoki tashkilot rahbariga xabar qilinishi kerak. Aniqlangan xatolikning to'g'riliğini hisob-kitob qilinib, qo'shimcha yozuvlar kiritiladi. Agar auditor qayta nazorat inventarizatsiyasi o'tkazishda aniqlangan farqlarga shubxa bilan harasa, qaytadan to'liq inventarizatsiya o'tkazish uchun yangi komissiya tuzishi mumkin.

## **Mol yetqazib beruvchilar va xaridorlar bilan tuzilgan shartnomalar bajarilishini tekshirish**

Ulgurji savdo tashkilotlari o‘z ish faoliyatlarini sanoat korxonalaridan tovarlarini iste’molchilarga yetqazib berishda asosiy vositachi sifatida olib boradilar va chakana tovar muomalasi rejasining bajarilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadilar. Shuning uchun ulgurji savdo tashkilotlarida tovar va material qiymatliklarning to‘liqligini ta’minlash tovar operatsiyalarini audit qilishda alohida ahamiyatga ega.

Audit o‘tkazishda tovarlarning omborlarda to‘g‘ri saqlanishi, uning sifati, savdo tashkilotining moddiy-texnika bazasi kerakli inventarlar bilan to‘liq ta’minlanganligi nazorat qilib boriladi.

Ulgurji savdo tashkilotlarida tovarlar asosan mol yetqazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarga asosan keltiriladi va moddiy javobgar shaxslar tomonidan tegishli omborlarga qabul qilinadi. Auditor shartnoma shartlarining bajarilishini va ularning qanday tartibda ro‘yxatga olinishini, mol yetqazib beruvchilarga qilingan da’vo summalarining to‘g‘riliği va sababini aniqlab chiqishi kerak.

Ulgurji savdo tashkilotlarining tovar muomalasi rejasini bajarishi, tovarlar harakatining bir me'yorda olib borilishi, tovar zaxiralarining belgilangan me'yorda bo‘lishini ta’minlashda mol yetqazib beruvchilar bilan ulgurji savdo tashkilotlari o‘rtasida tuzilgan shartnomalarning qonuniyligi uz vaqtida bajarilishi va ko‘rsatilgan shartlarga har ikkala tomonlarning rioya qilishi alohida o‘rin egallaydi. Chunki shartnoma shartlariga rioya qilmaslik mol yetqazib beruvchilar va savdo tashkilotlarining xo‘jalik faoliyatiga salbiy ta’sir qiladi. Shuning uchun audit o‘tkazilayotganda mol yetqazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarning to‘g‘ri tuzilganligi, hamma rekvizitlari bo‘yicha aniq rasmiylashtirilganligi, ularning belgilangan muddatlarda bajarilishi auditor tomonidan aniqlanadi.

Auditor mol yetqazib beruvchilardan kelgan tovarlarni omborlarga qabul qilish tartibi bilan bevosita tanishib va qabul qilingan tovarlar bo‘yicha hisob-kitob ishlarining qanday tashkil qilinganligini tekshirib chiqadi. Bunday tekshirish o‘tkazilayotganda mol yetqazib beruvchilardan kelgan tovarlarning o‘z vaqtida qabul

qilinishiga, belgilangan tovarlarni qabul qilish tartibiga rioya qilinishiga alohida ahamiyat beradi.

Agar tekshirish natijalariga ko‘ra tovarlarni qabul qilish uz vaqtida bajarilmagan bo‘lsa, u holda uning sababi aniqlanadi.

Tovarlarni qabul qilish bilan bog‘liq operatsiyalar audit qilinayotganda «Tovarlarni hisobga oluvchi schyotlar», «Tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi schetlar» schetining yozuvlari, analistik schetlarning ko‘rsatkichlaridagi yozuvlar moddiy javobgar shaxslarning hisobotlari bilan solishtirilgan holda tekshiriladi. Agar tekshirish davomida tovar hisobotlaridagi, tovarlarning harakatini hisobga oluvchi jurnal-orderdagi yozuvlar o‘chirilgan bo‘lib, boshqa yozuvlar ko‘rsatilgan bo‘lsa, bu xaqda tegishli javobgar shaxslardan bu to‘g‘rida tushuntirish xatlari talab qilinadi. Tovarlarning to‘g‘ri hisob qilinishi tekshirilayotganda «Mol yetqazib beruvchi va pudratchilar bilan hisoblashishlar» schetining yozuvlari ham auditor tomonidan aniqlanadi. Bunday tekshirish natijasida «Mol yetqazib beruvchi va pudratchilar bilan hisoblashishlar» schetida da’vo summalarining yo‘qligi, ko‘rsatilgan summalarining tegishli hujjatlarga asosan yozilganligi aniqlanadi.

Agar audit o‘tkazilayotganda tovar-moddiy qiymatliklarning buzilishi to‘g‘risida dalolatnomalar borligi aniqlansa, ularning to‘g‘riliqi, tovarlar kamayishining to‘g‘ri hisoblanganligi me’yordan yuqori bo‘lsa, aybdor shaxslar bo‘yicha to‘g‘ri ko‘rsatilganligi aniqlanadi. Tovarlarni qabul qilish tartibi va hisob yozuvlarida ko‘rsatilishi tekshirilayotganda «Tovarlarni hisobga oluvchi schyotlar», «Tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi schetlar» scheti bo‘yicha yuritiladigan jurnal-orderlardagi yozuvlarning to‘g‘riliqi ham tekshiriladi.

Ulgurji savdo tashkilotlarining chakana savdo tashkilotlariga tovarlarni uz vaqtida yetqazib berishi, tovar muomalasi rejasining bajarilishini ta’minlaydi.

Ulgurji savdo tashkilotlaridan tovarlar chakana savdo tashkilotlariga tuzilgan shartnomalarga asosan yetqazib beriladi. Shuning uchun tovarlar sotilishi tekshirilayotganda shartnomalarning mavjudligi, tovarlarni sotishga tayyorlash tartibi, tovarlarni iste’molchilarga junatishni hujjatlashtirish, ularni belgilangan navlarda bo‘lishini ta’minlash kabi ishlar auditor tomonidan tekshiriladi. Auditor

tovar oluvchilarga junatilgan tovarlarni to‘g‘ri hujjatlashtirishga, hujjatlar oborotiga alohida ahamiyat berishi kerak. Buning uchun u chakana savdo tashkilotlariga junatish uchun tayyorlangan tovarlarni tasdiqlovchi hujjatlar bilan solishtirib, tekshirish o‘tkazishi lozim.

Ulgurji savdo tashkilotidan tovarlar ikki xil tartibda sotiladi:

Tovarlarni tranzit usulda sotish;

Tovarlarni ombor orqali sotish.

Tovarlarni tranzit usulda sotish xo‘jalik faoliyatining sifat ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib hisoblanadi, chunki bu usulda harajatlarni kamaytirish, tovarni iste’molchilarga sifatli va tez yetqazib berish uchun sharoit yaratiladi.

Tovarlar qaysi tartibda sotilishidan qat’iy nazar, auditor tovarlarni junatish, sotish sharoitlarining bajarilishini, shuningdek tashkilotlararo tovarlarni junatish va sotishda ularning to‘liqligini, belgilangan navlarda junatilishini tekshirib chiqadi. Tekshirish natijasida tashkilotlararo va tashkilot doirasida tovarlarni junatish va sotish shartlariga rioya qilinmagan bo‘lsa, u holda auditor ularning sabablarini aniqlab chiqib, maxsus dalolatnomalarda ko‘rsatadi. Tovar oluvchi tashkilot, mol yetqazib beruvchi tashkilotlar bilan tovarlar uchun tegishli hisob-kitob ishlarini olib boradilar. Hisob-kitob ishlarining uz vaqtida belgilangan muddatlarda bajarilishi pul mablag‘laridan to‘g‘ri foydalanish imkonini beradi. Shuning uchun tulov hujjatlarining uz vaqtida bajarilishini tekshirish kerak. Ayrim xollarda hisob-kitob ishlarini uz vaqtida bajarmaslik tegishli jarima summalarining kelib chiqish manbai bo‘lib koladi, bunday holda auditor tegishli jarima summalarining kelib chiqish sabablarini va tegishli aybdor shaxslarni aniqlab chiqadi.

Ulgurji savdo tashkilotlarida tovar operatsiyalari audit qilinayotganda omborlardagi mavjud tovar-moddiy qiymatliklarning moddiy javobgar shaxslar tomonidan to‘g‘ri saqlanishi aniqlanadi. Buning uchun auditor omborlardagi tovarlarning turlari, assortimenti, navi va partiyalari bo‘yicha saqlanishini bevosita ombor mudiri, bosh buxgalter ishtirokida ombordagi haqiqiy saqlanayotgan tovarlarni tasdiqlovchi maxsus hisob kartochkasidagi ma’lumotlar bilan solishtirib haqiqiy holati tekshiriladi. Tekshirish natijalari maxsus dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Tovar nomi	Narxi	Ulchov birligi	Artikuli	Hisob kartochkasidagi qoldiqi		Haqiqiy aniqlangan ombordagi qoldiqi		Ortiqcha		Kam chiqdi	
				Miqdori	summasi	Miqdori	summasi	Miqdori	summasi	Miqdori	summasi
1.Atlas	500	M	012-43	100	500000 900000	100	5000	-	-	-	-
2.Atlas	450	M	043-43	200	500000	200	9000	-	-	-	-
3.Bo‘z	500	M	01753	100		100	5000	-	-	-	-

Omborda o‘tkazilgan tekshirish natijasiga ko‘ra tovarlarning saqlanishi qoniharli va tekshirish natijalari bo‘yicha hisob kartochkalari bilan haqiqiy qoldiq tovarlar o‘rtasida farq aniqlanmadidi.

1. Auditor \_\_\_\_\_ imzo

2. Ulgurji savdo tashkilotining bosh buxgalteri \_\_\_\_\_ imzo

3. Ombor mudiri \_\_\_\_\_ imzo

Ulgurji savdo tashkilotlarida tovar muomalasi rejasining bajarilishi 4 – SB shakl «Ulgurji tovar muomalasi va tovarlar qoldiqi to‘g‘risida hisobot» shaklida olib boriladi. Bu shaklning uziga xos xususiyati shundaki, reja ko‘rsatkichlarining bajarilishi uch oylik bo‘yicha alohida-alohida ko‘rsatiladi. Audit o‘tkazilayotganda tovar muomalasi rejasining bajarilishi shu shakldagi yozuvlarning 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar» schetidagi yozuvlar bilan mos kelishi tekshiriladi.

Ulgurji savdo tashkilotlarida tovarlarni sotish rejasining bajarilishi birinchidan, tovarlarni uz vaqtida tovar oluvchilarga yetqazib berish rejasining bajarilishiga, ikkinchidan, tovar oluvchi tashkilotlar tomonidan to‘lov hujjatlarining uz vaqtida to‘lanishiga bog‘liq. Shuning uchun auditorlik tekshiruvini o‘tkazishda tovarlarni omborlardan jo‘natish rejasining bajarilishi tekshiriladi.

## **8.5. Chakana savdo tashkilotlarida tovarlar harakatini tekshirish**

Chakana savdo tashkilotlari xalq iste'mol tovarlarini iste'molchilarga yetqazib beradi va ularning iste'mol tovarlariga bo'lgan talablarini tula qondirishda bevosita ishtirok etadi.

Savdo do'koni va boshqa savdo shoxobchalaridagi mavjud tovarlar albatta belgilangan navlarga, sifat bo'yicha talabga javob berishi kerak.

Chakana savdo tashkilotlaridagi tovarlarni sifat, son jihatdan to'liqligini ta'minlashda, har bir do'kon uchun belgilangan tovar zaxiralarining me'yordagi holatini va tovarlarning harakati bilan bog'liq bo'lgan muomalalarning uz vaqtida to'g'ri rasmiylashtirilganligini aniqlashda audit o'tkazish tartibi, qo'llaniladigan usullar, audit manbalari bo'yicha chakana savdo tashkilotlarida audit o'tkazish ulgurji savdo tashkilotlarida audit o'tkazishga yakindir, lekin uzining ayrim xususiyatlari bilan ular bir-biridan farq qiladi. Chakana savdo tashkilotlaridan tovarlar bevosita haridorlarga etkazilib berilishi tovarlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni va savdo pulini to'g'ri hisob-kitob qilish, ularni moddiy javobgar shaxslar zimmasidan kamaytirishni to'g'ri tashkil qilish bilan bog'liq. Audit ishlari tovar muomalasi rejalarining bajarilishini aniqlash bilan boshlanadi. Chunki chakana savdo tashkilotlarida tovar muomalasi rejasining bajarilishi asosiy ko'rsatkich bo'lib, bu ko'rsatkich tashkilotning boshqa sifat ko'rsatkichlariga ham ta'sir qiladi.

Tovar muomalasi rejasining bajarilishi tekshirilmaganda «Tovarlarning sotilishi» schetining debet va kredit tomonining muomalalari «Kassa», «Tovarlar» schetining muomalalari va shu bilan birga «Tovar muomalasi bo'yicha maxsus ssuda» schetidagi yozuvlar solishtirib tekshiriladi.

Buxgalteriya hisobotlarida tovar muomalasi summasi 4-hisobotning chakana tovar muomalasi bo'limida ko'rsatilgan bo'lib, audit jarayonida hisobotda ko'rsatilgan tovar muomalasi summasini tegishli hisob yozuvlardagi summalar bilan tengligi tekshiriladi.

Agar audit o'tkazilayotgan tashkilotda tovar muomalasi rejasining bajarilmayotgani aniqlansa, uning sabablari, tovar zaxiralarining holati taxlil qilinadi. Ayrim xollarda tashkilot rahbarlari tomonidan tovar muomalasi rejasining bajarilishi

to‘g‘risida qalbaki ma’lumotlar berilishi mumkin, bunday hollar aniqlansa, auditorlik tekshiruvi tugallanmasdan turib auditor bu haqda yuqori tashkilot rahbarlariga yozma ravishda ma’lumot berishi va hisob ko‘rsatkichlarini, hisobotlarni audit davri bo‘yicha boshidan oxirigacha ko‘rib chiqishi kerak.

Auditor tashkilotda tovar muomalalarini tekshirishni asosan tanlab olingan holda olib boradi. Tanlab olingan holda audit o‘tkazilayotganda xatoliklar aniqlansa, tashkilot va uning do‘konlaridagi mavjud tovarlar to‘liq inventarizatsiya qilinadi va audit muddatini ma’lum vaqtga uzaytirilishini yuqori tashkilot rahbarlaridan talab qiladi.

Chakana savdo tashkilotlarida tovar muomalalari audit qilinayotganda mol yetqazib beruvchi yoki ulgurji savdo tashkilotining baza va omborlaridan kelgan tovarlarni moddiy javobgar shaxslar tomonidan qabul qilish tartibi, tegishli tulov hujjatlarining rasmiylashtirilishi, tovar hisobotlarini uz vaqtida buxgalteriyaga topshirilishi va tegishli jurnal-orderlarda to‘g‘ri ko‘rsatilishi tekshiriladi.

Buxgalteriyada «Tovarlar» schetining «Chakana savdo tashkilotlaridagi» ilova schetidagi yozuvlar bilan «Mol yetqazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisoblashishlar» schetidagi yozuvlar bir-birlarini solishtirish yo‘li bilan tekshiriladi.

Chakana savdo tashkilotlarida tovar muomalalarini audit qilish va tovarlar to‘liqligini ta’minlashda, ayniqsa, «Tovarlar» schetining «Chakana savdo tashkilotlaridagi» ilova scheti bilan moddiy javobgar shaxslarning hisoblaridagi qoldiq summalarining bir-biriga tengligini aniqlash yaxshi natijalar beradi. Shu bilan birga analitik schetlardagi yozuvlarning to‘g‘riliqi ham bir vaqtning uzida nazorat qilinadi.

Audit o‘tkazilayotgan tashkilotda tovar muomalalarining to‘g‘riliqi, moddiy javobgar shaxslarning hisobotlari uz muddatida to‘g‘ri tuzilishi va buxgalteriyaga topshirilishi auditor tomonidan tekshirib chiqilishi kerak. Bunday tekshirishda tovar hisobotida ko‘rsatilgan kirim va chiqim hujjatlari, kassa hisobotlaridagi yozuvlar bir vaqtning uzida tekshirib boriladi. Agar tekshirish davomida do‘konlararo tovar muomalalari amalga oshirilgan bo‘lsa, uning sababi, muomala mazmuni, hisobotlarning to‘g‘riliqi aniqlanadi.

Tekshirish natijalari kup xollarda sotilgan tovarlarga taalluqli bo‘lgan tabiiy kamayish me'yorlarini to‘g‘ri aniqlashga bog‘liq. Bunday summalarining to‘g‘ri hisoblanmaganligini bilish uchun auditor tuzilgan hisob-kitoblarni tekshirib ko‘rishi, tegishli buxgalteriya yozuvlarida aks ettirilganligini aniqlab chiqishi kerak.

Audit jarayonida singan, iste’molga yaroqsiz tovarlar uchun tuzilgan dalolatnomalarining borligi aniqlansa, ularning to‘g‘ri tuzilganligi, komissiya a’zolari tomonidan imzolanganligi, aybdor shaxslarning bor yoki yo‘qligi aniqlanadi.

Keyingi yillarda savdo madaniyatini yaxshilash, uning ilgor usullarini keng joriy qilish maqsadida uz-uziga xizmat qiluvchi do‘konlarda sotilgan tovarlarga qo‘sishimcha tabiiy kamayish me'yorlari belgilangan. Bunday me'yorlarni sotilgan tovarlar summasiga nisbatan to‘g‘ri hisob-kitob qilinganligi ham tekshiriladi. Buning uchun auditor uz-uziga xizmat qiluvchi do‘konlarning tovar aylanmasini hisoblab chiqishi zarur.

Savdoda tovarlarning bir tashkilot ichidagi harakatini nazorat qilish uchun moddiy javobgar shaxslarning tovar hisoboti asosiy manba bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun auditor tuzilgan hisobotlarni uz vaqtida sifatli tuzilganligini bilish uchun ayrimlarini tanlab olgan holda tekshirib chiqadi. Agar tekshirish natijasida tovarlarni bir do‘kondan ikkinchi do‘konga o‘tkazish yo‘llari aniqlansa, u holda buning sababini, bu to‘g‘rida tashkilot rahbarining farmoyishi borligini tasdiqlovchi hujjatlarning to‘liqligini aniqlab, moddiy javobgar shaxslarning hisobotlaridagi yozuvlarni bir-biriga solishtirish yo‘li bilan tekshiradi. Agar tovarlar mol yetqazib beruvchilarga qaytarilgan bo‘lsa, u holda qaytarilgan tovarlar uchun kelgan summalarini bankning kuchirmalariga asosan aniqlaydi.

## **8.6. Ulgurji va chakana savdo tashkilotlarida muomala**

### **xarajatlarini audit qilish**

Savdo tashkilotlarida xarajatlarni kamaytirishning asosiy maqsadlaridan biri, savdo qilishning ilgor usullarini keng joriy qilish va mehnat unumдорligini oshirishdir.

Muomala xarajatlari va moliyaviy natijalarni audit qilish barcha ko'rsatkichlarning bajarilishini tekshirish bilan birga olib boriladi.

Audit o'tkazishda quyidagi manbalardan foydalaniladi. Audit o'tkazilayotgan tashkilot muomala xarajatlarining smetasi; kutilayotgan moliyaviy natijalar; foya va zararlar **to'g'risidagi** hisobotlar va tegishli hisob ro'yxatlari.

Muomala xarajatlari audit qilinayotganda harajatlar smetasi va ularning ularning moddalari bo'yicha to'g'ri ishlab chiqilganligi ham tekshiriladi. Xarajatlarning smetada ko'rsatilgan umumiyligi summasi tovar aylanmasiga nisbatan foiz hisobida ko'rsatiladi.

Savdo tashkilotlarining yangicha xo'jalik yuritishga utishi munosabati bilan xarajatlar smetasi bevosita tashkilotning uzida tegishli moddalar asosida ishlab chiqiladi.

Savdo tashkilotlarida muomala xarajatlari va moliyaviy natijalarni audit qilish quyidagi vazifalarni bajaradi:

- xarajatlardan to'g'ri foydalanishni aniqlash va ularni kamaytirish yo'llarini belgilash;
- pul mablag'lari va moddiy boyliklardan muomala xarajatlarini qoplash uchun ishlatilgan qismining to'g'rilingini tekshirish;
- xarajatlarning belgilangan hisob ko'rsatkichlarida to'g'ri aks ettirilishini va ularning moddalari bo'yicha analistik hisobning to'g'ri yuritilishini aniqlash;
- xarajatlarni moddalari bo'yicha hisobotlarda to'g'ri ko'rsatilganligini tekshirish;
- moliyaviy natijalarning to'g'ri aniqlanishi va hisobotlarda ko'rsatilishining to'g'rilingini tekshirish;
- tashkilot rahbarlari tomonidan harajatlarni kamaytirish va tashkilot daromadliliginи oshirish uchun olib borgan ishlarining to'g'rilingini tekshirish.

Muomala xarajatlari va xo'jalik faoliyatini hujjatli audit qilish tashkilotning uz oldiga g'o'ygan reja ko'rsatkichlarining bajarilishini tekshirish bilan birga olib boriladi, chunki muomala xarajatlari va moliyaviy natijalarning miqdoriga reja ko'rsatkichlarining o'zgarishi ta'sir qiladi.

Muomala xarajatlari audit qilinayotganda, xarajatlar bo‘yicha tuzilgan hisobotlar, ularni tasdiqlovchi hujjatlar, sintetik va analitik hisobdagi yozuvlarning to‘g‘riliqi tekshiriladi.

Muomala xarajatlarini sotilgan tovarlarga taalluqli bo‘lgan qismini to‘g‘ri hisob-kitob qilinganligi va ularni hisobot davrlari bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlanganligi tekshiriladi va xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlari belgilanadi.

Xarajatlarni ayrim moddalari bo‘yicha audit qilish.

Muomala xarajatlari savdo tashkilotlarining turli xildagi xarajatlar yig‘indisini uz ichiga oladi. Shuning uchun audit ishlarida har bir qilingan harajatning maqsadga muvofiq qilinganligi, belgilangan smetaga to‘g‘ri kelishini aniqlash uchun ularni moddalari bo‘yicha audit qilish talab qilinadi. Xarajatlarni moddalari bo‘yicha audit qilishda asosiy maqsad ularni xo‘jalik uchun maqsadga muvofiq ekanligi, hujjatlar bilan to‘g‘ri rasmiylashtirilganligi, xarajatlarni kamaytirish va ichki imkoniyatlarni ishga solish kabi choralarni aniqlashdir.

Xarajatlar har bir savdo tashkilotining tuzilishi, tovar aylanmasi strukturasi, tovarlar assortimentini hisobga olgan holda har bir modda bo‘yicha alohida-alohida rejalashtiriladi.

Savdo tashkilotlarida muomala harajatlari audit qilinayotganda ularni smetada ko‘rsatilgan summalar bilan taqqoslanib, farq summalari aniqlab chiqiladi. Harajatlarning smetaga ko‘ra bajarilishi tekshirilayotganda ularning har bir moddasi hujjat xarajati summalari bilan solishtirilib, qilingan xarajatlarni hujjatlar bilan taqqoslab to‘g‘riliqi tekshiriladi.

Amalda muomala harajatlari audit qilinayotganda asosan qaysi moddalar bo‘yicha smeta ko‘rsatkichlaridan yuqori xarajatlar qilingan bo‘lsa, usha moddalar tekshiriladi.

Tovarlarni saqlash, qadoqlash, navlarga ajratish, o‘rash va sovutish tizimlarini ishlatish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar tekshirilayotganda har bir xarajat turiga alohida ahamiyat berish kerak, chunki xarajatlarning bu moddasi kup xarajatlarni uzida aks ettiradi va har biri axoliga sifatlari savdo xizmatini ko‘rsatish bilan bog‘liq. Tovarlarni saqlash, qadoqlash, o‘rash bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar

audit qilinayotganda ularni belgilangan me'yorga teng kelishi tekshiriladi. Ayniksa, navlarga ajratish natijalarini aks ettiruvchi dalolatnomalarning to'g'ri tuzilganligini, ko'rsatilgan summalar aniq hisob-kitob qilinganligini aniqlash zarur.

Muomala xarajatlarining «Har xil xarajatlar» moddasi audit qilinayotganda, har bir xarajatning iqtisodiy mazmuni va tashkilot xo'jalik faoliyati bilan bog'liqligi tekshiriladi. Birinchi navbatda xarajatlarning turlari bo'yicha teng kelishi aniqlanadi.

Shu bilan birga muomala xarajatlarining boshqa moddalariga taalluqli bo'lgan xarajatlarning bu moddada ko'rsatilganligi tekshiriladi.

## **8.7. Umumiyl xulosa**

Mamlakatimizda bozor munosabatlariga asoslangan yangi iqtisodiy tizim vujudga kelmokda. Ushbu tizimning xususiyatlari quyidagilardan iborat: kupmulkchilikning rivojlanishi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan faoliyat turlarining erkin tanlanishi, talab va taklifning ustivorligi, iqtisodiyotning egiluvchanligi, tashki iqtisodiy faoliyatning rivojlanishi, rakobatning mavjudligi, o'zi ni-o'zi mablag` bilan ta'minlash tamoiliga to'liq amal qilishlik. Bozor iqtisodiyoti mavjud mulklardan ko'proq daromad va foyda olishni taqozo qiladi. Endilikda mulkka egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish faqat samara keltirishi kerak. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona va tashkilotlarning asosiy mezoni ham mulklardan samarali foydalanish tufayli olinadigan foyda bilan belgilanadi. Bunday natijaga qabul qilingan qonun-qoidalarga to'liq amal qilish orqali erishish mumkin.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va uni xalharo talablar darajasiga kutarishda savdo tashkilotlarining faol faoliyat ko'rsatishlari ham muxim o'rinni egallaydi.

Savdo tashkilotlari sanoat tashkilotlari bilan iste'molchilar o'rtasida vositachi tashkilot vazifasini bajaradilar. Demak, iste'mol tovarlarining iste'molchilarga uz sifatini yo'qotmagan holda, arzon narxda yetqazib berilishida savdo tashkilotlarining o'rni beqiyosdir.

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, savdo tashkilotlari bir-biri bilan o'zaro bog'liq holda faoliyat ko'rsatuvchi ikki turga ajraladi. Bular ulgurji savdo tashkilotlari va chakana savdo tashkilotlaridir. Bu ikki turdag'i tashkilotlarning uzlusiz o'zaro chambarchas holda faoliyat ko'rsatishi iqtisodiyotda iste'molchilarining tovarlarga bo'lgan ehtiyojini uz vaqtida kondirib borilishini ta'minlaydi. Shunday ekan, uzlusiz faoliyat ko'rsatayotgan savdo tashkilotlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatlarini nazorat qilib borish zarur.

Iqtisodiyotda bu jarayon savdo tashkilotlarini auditorlik tekshiruvidan o'tqazib turish deb tavsiflanadi.

Mamlakatimizdagi barcha tashkilotlar singari savdo tashkilotlari ham bir yilda bir marta majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tqazib turiladi. Buning mohiyati shundan iboratki, bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir tashkilot yuqori foyda olish va yuqori rentabellikka erishishga intilib faoliyat ko'rsatadi. Buning uchun barcha tashkilotlar uzlарining istikbollarini belgilagan holda, oldindan uzlari uchun faoliyat rejalarini ishlab chiqishga va shu reja asosida ishlashga majburdirlar, lekin tabiiyki, faoliyat ko'rsatish jarayonida rejadan chetga chiqishlar kuzatiladi. Bu o'rinda quyidagi savol tuqiladi: Ushbu rejadan chetga chiqishlar muayyan korxonaning yaqiniy moliyaviy natijasiga kanaka ta'sir ko'rsatdi?

Yuqoridagi savolga javob berishda auditorning xulosasiga bo'lган extiyoy vujudga keladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida auditor korxonalarining nafaqat hukumat tomonidan ishlab chiqilgan qonun-qoidalar va me'yoriy hujatlarga qat'iy rioxaliga kilgan holda faoliyat ko'rsatishlarini tekshiradi, balki korxonalarining istikbolda yuqori foyda olishga yo'naltirilgan rejalarini ishlab chiqishlarida ham uzining muhim ta'sirini ko'rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, savdo tashkilotlarida auditorlik tekshiruvlarining o'z vaqtida o'tqazib turilishi tashkilotlarning befoyda, ortiqcha xarajatlarni kiskartirishi hamda mamlakat doirasida ishlab chiqarilgan ma'lum qonun-qoidalar va me'yoriy hujatlar asosida yuqori foyda olib ishlashini ta'minlaydi.

## **8.8. Mavzuga doir kalit so‘zlar**

Audit, auditor, auditorlik tekshirushi, auditorlik tashkiloti, aylanma mablag‘, bank, bankdagi hisob-kitob scheti, buxgalteriya, buxgalter, bosh buxgalter, bo‘nak, bo‘sh idishlar, bo‘sh idishlar inventarizatsiyasi, do‘kon, jurnal-order, joriy hisob, joriy hisobot, inventarizatsiya, inventarizatsiya qaydnomasi, iste’molchi, iste’mol tovarlari, kassa, kassa muomalasi, kassir hisoboti, kassa daftari, kassa cheki, kassa kirim orderi, kassa chiqim orderi, limit, limit-zabor karta, muomala xarajatlari, moliya-xo‘jalik faoliyati, moddiy javobgar shaxs, moddiy javobgar shaxs hisoboti, nazorat-kassa mashinasi, omborxona, ombor hisobi, ombor varaqalari, ombordagi tovar qoldiqi, ombor mudiri, pul, pul muomalasi, registrlar, reja, rekvizitlar, savdo, savdo tushumi, savdo aylanmasi, savdo shahobchasi, savdo tashkiloti, tovar-moddiy boyliklari, tovar-moddiy zaxirasi, tovar aylanmasi, tovarlar qoldiqining me’yori, tranzit, ulgurji savdo, chakana savdo.

## **8.9. Talabalarning bilimlarini tekshirish savollari**

1. Savdo tashkilotlarida audit manbalari bo‘lib qanday hujjatlar hisoblanadi?
2. Savdo tashkilotlarida hisob siyosatini tekshirish qanday bajariladi?
3. Savdo aylanmasini tekshirish usullarini aniqlang?
4. Chakana savdoda inventarizatsiya o‘tkazish tartibi qanday?
5. Ulgurji savdoda inventarizatsiya o‘tkazish tartibi qanday?
6. Tovarlar qoldiqini me’yori qanday aniqlanadi?
7. Yalpi tushumni qanday aniqlanadi? Yalpi daromadnichi.
8. Savdo tashkilotlarida asosiy vositalarga eskirish hisoblashni tekshirish manbasi qaysi hujjatlar hisoblanadi?
9. Savdo tashkilotlarida omborlarda va buxgalteriyada hisob yuritish tartibi qanday tashkil etiladi?
10. Moddiy javobgar shaxsni hisobotining to‘g‘ri yuritilishiga kim mas’ul hisoblanadi?

## **8.10. Axborot-uslubiy ta'minot**

Adabiyotlar ro'yxati:

«O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi to'g'risida» gi qonun. 2016-y. 13-aprel.

O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonuni (yangi taxriri) 2000-y. 26-may.

«Mahsulot (ish va xizmat)lar tan narxiga kiritiladigan, mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida» gi Nizom.1999-y. 5-fevral. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 54-sonli qarori. (Vazirlar mahkamasining 2003-yil 11-iyundagi 261-sonli, 16-iyundagi 270-sonli, 15-oktyabrdagi 444-sonli harorlari bilan kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PQ-3946-son Qarori 2018-yil 19-sentyabr.

O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi Milliy Standartlari. 2019-y.

Auditorlik Faoliyatining Milliy Standartlari T.: -2019-y.

«O sovershenstvovanie auditorskoy deyatelnosti i povo'shenii roli auditorskix proverok» Postanovlenie Kabineta Ministrov Respublikи Uzbekistan. № 365. 22-sentyabrya. 2000 g. g. Tashkent.

Audit. (Darslik). To'laxo'jayeva M.M. Ilhomov Sh.I. va bosh. Iqtisodiyot. 2018-yil, 583 bet.

Audit. (O'quvqo'llanma). To'laxo'jayeva M.M. Ilhomov Sh.I. va bosh. TDIU 2012-yil, 184 bet.

Arens, Alvin A. Auditing and assuring services: an integrated approach/ Arens, Alvin A. Randal J. Elder, Markel S. Beasley -14<sup>th</sup> ed. Amazon, USA-2012, 894 p. amov Sh.I. Amaliy audit. Darslik. –T:Iqtisodiyot, 2018.

## IZOHLI LUG'AT

**Akkreditiv** (lat. accredo - ishonaman) – naqd pulsiz hisob-kitob turlaridan biri.

Ma'lum bir tovar va xizmatlar uchun belgilangan muddatda mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar uchun ajratilgan pul mablag'iadir. Akkreditiv quyidagi hollarda qo'llaniladi: xaridor va mol yetkazib beruvchi o'rtasidagi shartnomaga asosan, xaridor va mol yetkazib beruvchi ortasidagi xo'jalik munosabati doimiylikka ega bo'lmasa, xaridor tovarni mol yetkazib beruvchi manzilida qabul qilib olsa, hokimiyat ko'rsatmasi va yo'riqnomasiga ko'ra, tovar yetkazib berishning alohida ma'lum bir sharoitlarida bank muassasasi talabi bilan kreditlash va hisob-kitobning ma'lum usuliga o'tgan korxonalar munosabatida, tovar moddiy boyliklarining me'yoridan yuqori zaxiralariga ega bo'lgan korxonalar munosabatida.

**Aktiv** – buxgalteriya balansining bir qismi bo'lib, ma'lum bir muddatga subyekt mablag'larining tarkibi va joylanishini pul korinishida aks ettiradi. Bundan tashqari balansning passiv qismi ham mavjud bo'lib, aktiv va passiv tomonlar bo'lim va moddalardan iborat. Aktiv tomonining jami summasi passiv tomoni summasi bilan teng bo'lishi lozim. Buni shunday tushuntirish mumkin, ya'ni aktiv tomonidagi mablag'larning manbalari, balansning passiv tomonida joylashgan.

**Aktivlarning likvidligi** – balans likvidligini aksi bo'lib, vaqt bo'yicha aktivlarni pul mablag'lariga aylanishi tushuniladi.

**Aktsept** (lat. acceptuk - qabul qilingan) - belgilangan sharoit bo'yicha shartnomaga tuzishga rozilik berish. Naqd pulsiz hisob-kitobda aktsept xaridorning mol yetkazib beruvchi taqdim qilgan hisobini to'lashga rozilik bildiradi.

**Aktseptant** (lat. acceptaiK - qabul qiluvchi) - hisob bo'yicha to'lovni amalga oshirishga rozilik bergen korxonalar, tashkilotlar va muassasalar yoki shaxslar.

**Aktseptlash** (lat. acceptare - qabul qilish) - to'lov hisobini qabul qilish, mol yetkazib beruvchi schetiga to'lovni o'tkazishga rozilik berish.

**Amortizatsiya** – foydali xizmat muddati mobaynida aktivning amortizatsiyalanadigan qiymatini asosiy vositalarning vazifasidan kelib chiqqan holda mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga yoki davr xarajatlariga muntazam taqsimlash va o'tkazish ko'rinishida eskirishning qiymat ifodasi;

**Amortizatsiyalanadigan qiymat** – moliyaviy hisobotlarda faraz qilinayotgan (baholangan) tugatish qiymatini chegirgan holda ko‘rsatilgan aktivning boshlang‘ich (tiklash) qiymati summasi;

**Amortizatsiyalanadigan qiymat** - taxmin qilinayotgan (baholangan) tugatish qiymatini chegirgan holda aktivning boshlang‘ich (tiklash) qiymati summasi;

Analiz – yunoncha «analysie» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, «bir butunni bo‘laklarga bo‘lib o‘rganish» degan ma’noni anglatadi yoki biror jarayonni o‘rganishda umumiylilikdan xususiylik sari tadqiq qilish tushuniladi.

**Asosiy vositalar** - korxona tomonidan Uzoq muddat davomida xo‘jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida yoxud ma’muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlar;

Asosiy vositalar obyekti bo‘yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblash mazkur obyekt asosiy vositalar tarkibiga qabul qilingan oydan keyingi oyning dastlabki sanasidan boshlanadi hamda mazkur obyektning amortizatsiyalanadigan qiymati to‘liq so‘ndirilgunga qadar yoxud bu obyektni balansdan hisobdan chiqarilguncha amalga oshiriladi.

**Asosiy vositalarni qayta baholash** - asosiy vositalar obyektlarining tiklash qiymatini hozirgi bozor narxlari darajasiga moslash maqsadida ularni vaqtি-vaqtি bilan aniqlashtirishdir. Asosiy vositalar qayta baholash natijasida hisob va hisobotda joriy qiymat bo‘yicha aks ettiriladi.

Asosiy vositalarning haqiqatda mavjudligini aniqlash va ularning butligini nazorat qilish maqsadida korxonalar tomonidan vaqtি-vaqtি bilan, Biroq ikki yilda kamida bir marta asosiy vositalarni inventarizatsiya o‘tkaziladi, kutubxona fondlarini esa besh yilda bir marta inventarlanadi.

Asosiy vositalarning inventar obyekti sifatida barcha qurilmalari va anjomlariga ega bo‘lgan obyekt yoki muayyan mustaqil vazifalarni bajarish uchun mo‘ljallangan alohida konstruktiv asosdagи buyum yoxud butun bir yaxlitlikni ifodalovchi va muayyan vazifalarni bajarish uchun mo‘ljallangan konstruktiv jamlangan buyumlarning alohida majmui tan olinadi.

**Balans** (fr. balance- muvozanat, tarozining ikki pallasi) - doimiy uzgarishda va uزارо boglik kattaliklarning holatini kursatuvchi, kursatkichlar tizimi, tenglik.

**Balansni likvidligi** - balansdagi likvid bo‘lgan mablag‘larning majburiyatlarni qoplash darajasi tushuniladi **Deduktsiya** - tadqiqot yoki biror obyektni (hodisani, jarayonni) o‘rganishda umumiylidan xususiylik sari o‘tilishi tushuniladi.

Balanedagi schetlar - buxgalteriya kursatkichlari balansida aks ettiriladigan buxgalteriya schetlaridir.

**Bank korrespondent** - boshqa banklar bilan o‘zaro munosabatlarda buladigan va ularning topshiriqlari bilan ma’lum bir moliyaviy jarayonlarni bajaruvchi bank.

**Birlamchi hujjatlar** – buxgalteriya hujjatlari bulib, xo‘jalik jarayoni sodir bo‘lgan vaqtda tuziladi va ular sodir etilganligi haqida birlamchi guvohnoma hisoblanadi.

**Bosh shartnoma** – umumiy ish bajarish yoki tovar yetkazish davri tugagunga qadar muddatga tuzilgan shartnoma.

**Boshlang’ich qiymat** – nomoddiy aktivlarni yaratish (ishlab chiqish) yoki sotib olish bo‘yicha haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlar qiymati (pul mablag‘lari yoki ularning ekvivalentlarining summasi yoxud boshqa to‘lovlarining joriy qiymati), shu jumladan to‘langan va qoplanmaydigan soliqlar (yig‘imlar), shuningdek aktivni undan maqsadga ko‘ra foydalanish uchun ishga yaroqli holatga keltirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlar qiymati;

**Boshlanqich qiymat** - to‘langan va qoplanmaydigan soliqlarni (yig‘imlarni), shuningdek aktivni undan mo‘ljal bo‘yicha foydalanish uchun ishchi holatiga keltirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan etkazib berish va montaj qilish, o‘rnatish, ishga tushirish va istalgan boshqa xarajatlarni hisobga olgan holda, asosiy vositalarni tiklash (qurish va qurib bitkazish) yoki xarid qilish bo‘yicha haqiqatda qilingan xarajatlarning qiymati;

**Boshqaruv tahlili** - korxona ma'muriyati, mulk egasi va mutaxassislari tomonidan ichki xo‘jalik rezervlarini aniqlash va ularni ishga solish hamda samaradorlikni oshirishga qaratilgan tahlildir **Sintez** - yunoncha «synthesis» so‘zidan

olinib, umumlashtirish degan ma'noni bildiradi yoki biror obyektni (hodisani, jarayonni) o'rganishda xususiylikdan umumiylig sari tadqiq tushuniladi.

**Boshqaruv tamoyillari** – iqtisodiyotning barcha sohalarini boshqarish tizimining tuzilishi va amal qilinishini belgilab beruvchi asosiy qoida.

**Boshqaruv tizimi** – boshqarishning maqsadlari, tarkibi, shakli va usullari majmuasi. U dinamik bo'lib, ijtimoiy - iqtisodiy sharoitlar o'zgarishi bilan uning unsurlarini aniq mazmuni ham o'zgaradi.

**Buxgalteriya balansi** – ma'lum bir davrda xo'jalik mablaglari va ular manbalarining pul qiymatini guruhlab va umumlashtirib aks ettirish usuli.

**Buxgalteriya daftarlari** – sintetik va analitik hisobni hujjatlarga asosan qayd qilish.

**Buxgalteriya utkzuvi** - schetlar korrespondentsiyasini yozish. Bunda xo'jalik jarayoniga tegishli summa bir schetning debeti va ikkinchi schetning kreditida aks ettiriladi. Buxgalteriya o'tkazmasi hujjatlar (jurnal-order, tabulyagramma yoki eski hujjatlar shakli memorial order) ga asosan tuziladi

**Da'vo** – da'vo qo'zgatuvchining talabi. Korxonalar ularga qarzdorlarga (debitorlarga) o'z vaqtida to'lanmagan qarzlik summalar uchun da'vo qo'zg'atishlari lozim. Da'vo moddiy zarar keltirganlarga nisbatan asosli ravishda qo'zg'atilishi zarur (debtorlik qarzlari, da'volar yuzasidan hisob-kitoblarga qarang).

**Debitorlar** (lat. debtor – qarzdor) - ushbu subyektga qkarzdor bo'lgan boshqa korxona, tashkilot, muassasa yoki shaxslar bo'lib, ular debetorlik qarzlarini tulashlari lozim.

**Diskont** – 1) vasiqa hisobi; 2) hisob foizi – vasiqa hisobida banklarga tulanadigan foiz; 3) birja va valyuta ishlarida – tovar natiral bahosidan ustama (masalan, agar tovar sifati standartdan past bo'lsa) valyuta.

**Diskont stavkasi** – vaqtning har xil paytiga ta'lluqli bo'lgan pul summalarini bir vaqtga (paytga) keltirishda foydalanadigan stavka.

**Diskontlash** – kelajakda aniq bir vaqtda olinishi kutilayotgan pul mablag'larining joriy ekvivalentini aniqlash.

**Dividend** - aktsiyadorlik jamiyati foydasining bir kismi bulib, aktsiyadorlar urtasida soliklarni, ishlab chikarishni kengaytirishga ajratmalarini, zahiralarni tashkil etish, obligatsiyalar bo‘yicha foizlarni va boshka tulovlarni amalga oshirilganidan sungina taksimlanadi.

**Dotatsiya** - korxona, tashkilot, muassasalarga karzlarni koplash uchun davlat tomonidan beriladigan nafaqa.

**Debitor qarzları** - aynan tahlil qilinayotgan korxona aylanma mablag‘larining bir qismi boshqa korxonalar aylanmasida qatnashishi tushuniladi.

**Debitorlik va kreditorlik qarzlarining haqiqiy qiymati** – korxonaning jami debtorlik (kreditorlik) qarzlarining faqatgina so‘ndirilishi mumkin bo‘lgan qismi.

**Debet** (lat. debet – u majbur) - buxgalteriya hisobining bir qismi. Aktiv schetlarning debetiga summalarining ko‘payishi yozilsa, passiv schetlarda esa, summaning kamayishi yoziladi. Hisoblashish schetlarining debetida esa, boshqa korxona va shaxslarning shu korxonaga qarzları aks ettiriladi va debetorlik qarzları deyiladi. Debet kreditlari esa, aktiv va aktiv-passiv schetlarda bo‘ladi.

**Deponent** (lat. depono - yig‘aman) -korxona, tashkilot, muassasa yoki jismoniy shaxsning korxona, tashkilot, muassasada vaktincha saklayotgan mablagi.

**Faol bozor** - oldi-sotdi obyektlari bir turda (bir xil) bo‘lgan va har qanday vaqtida bitimni amalga oshirishni xoxlovchi manfaatdor sotuvchi va xaridorlarni topish mumkin bo‘lgan, shuningdek narxlar haqidagi ma’lumotlar oshkor (hammabop) bo‘lgan bozor;

**Fikrlar hujumi usuli** - biror bir muhim masalani, muammoni hal etish uchun tashkil qilingan bir qancha mutaxasislar va olimlardan iborat ijodiy guruhning g‘oyalari majmuasidir.

**Fikrlar hujumi usuli** – biror-bir muhim masalani, muammoni hal etish uchun tashkil qilingan bir qancha mutaxasislar va olimlardan iborat ijodiy guruhning g‘oyalari majmuasidir.

**Fond samarasi (qaytimi)** – asosiy ishlab chiqarish vositalarining bir so‘miga ishlab chiqariladigan mahsulot miqdoridir.

**Fond sig`imi** - bir so‘mlik mahsulotga to‘g‘ri keladigan asosiy ishlab chiqarish vositalarning qiymati.

**Foydali xizmat muddati** - korxona aktivdan foydalanadigan vaqt davri yoki korxona ushbu aktivdan foydalanishdan olishni mo‘ljallayotgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) miqdori;

**Foydali xizmat muddati** - korxona tomonidan aktivdan foydalanish ko‘zda tutilgan davr yoki korxona ushbu aktivdan foydalanishdan olishni mo‘ljallayotgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) miqdori;

**Funktsional qiymat tahlili (F.Q.T)** - har bir bajariladigan funktsiyani (asosiy, yordamchi va keraksiz) qiymat jihatdan baholab, mahsulotning (ish, xizmat) samaradorligini va sifatini oshirgan holda keraksiz (disfunktsiya) funktsiyalarni bartaraf etish evaziga ichki xo‘jalik rezervlarini axtarib topish va korxona aylanmasiga (oborotiga) solishga qaratilgan tahlildir.

**Hajm ko‘rsatkichlari** - yalpi, tovar, sotilgan, sof va me'yoriy sof mahsulotlar.

**Hisob – kitob operatsiyaları** – korxona tomonidan yoki korxona ishtirokida hisob (moliya) yili davomida sodir etilgan operatsiyalar natijasida yuzaga kelgan debtorlik va kreditorlik qarzlarining so‘ndirilishi.

**Hisob - kitob operatsiyaları bo‘yicha aoslovchi testlar** – hisob kitob operatsiyalarining moliyaviy hisobotlarda keltirilgan summaları to‘g‘ri (asosli) ekanligini tekshirishga yo‘naltirilgan testlar majmui.

**Hisob – kitob operatsiyalarida nazorat riski** – hisob kitob operatsiyalariga nisbatan ichki nazorat riskining mavjud bo‘lishi, ammo bu tizimning sifatsizligi sabab buxgalteriya tizimida hisob kitob operatsiyalarining noto‘g‘ri aks ettirilgan bo‘lish xavfi.

**Hisob-kitoblar bo‘yicha o‘zaro solishtirma dalolatnomasi** – mijoz korxona xaridori mol yetkazib beruvchisi mijoz bilan bir shaharda joylashgan bo‘lsa, ikki tarafning o‘zaro debtorlik / kreditorlik operatsiyaları bo‘yicha hisob-kitoblarini inventarizatsiyada tuziladigan hujjat.

**Ichki nazorat tizimi bo‘yicha savolnomasi** – mijoz korxona ichki nazorat tizimi sifatini tekshirish va baholash maqsadida tuzilgan maxsus ishchi qog‘oz.

**Ichki xo‘jalik rezervlar (imkoniyatlari)** - xo‘jalik yuritish samaradorligini oshirish imkoniyatini aniqlashda ijobiy ta’sir etuvchi omillar harakatini kuchaytirish va ularning salbiy ta’sirini tugatish tushuniladi.

**Ijara (lizing) obyektlari** - iste’mol qilinmaydigan har qanday buyumlar (ashyolar), shu jumladan korxonalar, mulkiy komplekslar, alohida binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda Boshqa ko‘char va ko‘chmas mult (muomaladan chiqarilgan yoki muomalada bo‘lishi cheklangan Boshqa mol-mulklar bundan mustasno).

**Ijara** (polyak. - arenda va lat. arrendare - qarzga fopdalaiishga berish) - Shartnoma asosida buyumlarning vaktinchalik foydalanishga belgilangan ijara xaki tulovi asosida berilishi.

**Ijarachi** - biror narsani ijaraga olgan korxona, tashkilot va muassasa yoki jismoniy shaxs.

**Ijobiy solishtirma dalolatnomasi** – mijoz korxona va mijoz xaridorlari / mol etkazib beruvchilari o‘rtasida amalga oshirilgan va ikki taraf buxgalteriya tizimida aks ettirilgan hisob-kitob operatsiyalari natijalarining auditor tomonidan inventarizatsiyasi bir xil ma’lumotni aks ettirishi yoki muhim bo‘lmagan farqning yuzaga kelishi.

**Ikkilamchi ijara** (ikkilamchi lizing) - ijarachi (lizingga oluvchi) ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) ning roziligi bilan, ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) ning oldida ijara (lizing) shartnomasi yuzasidan javobgarlikni saqlagan holda ijaraga olingan mulknini (lizing **obyektini**) boshqa shaxsga ikkilamchi ijara (ikkilamchi lizing) ga topshiradigan shartnoma munosabati.

**Induktsiya** - tadqiqotni yoki biror **obyektni** (hodisani, jarayonni) xususiylikdan umumiylig sari o‘tilishi tushuniladi.

**Inkassalash** (lat. tsakkage - yashikka solish) to‘lov hujjatlarini ko‘rsatib, u asosida pulni olish (inkassaga karat).

**Inventar kartochkalar** - asosiy vositalar (fondlar)ning hisobi uchun muljallangan hisob registrining shakli. Inventar kartochkalar **har** bir obyekt xo‘jalikka keltirilganda tuziladi.

**Inventar obyekt** – tugallangan qurilish, buyum yoki kompleks Inventar obyekti asosiy vositalar tarkibida hisobga olinadi. Har bir korxonada inventar obyektlari kup bulib, ularning har biri bo‘yicha hisobni tugri tashkil etish uchun inventar raqam belgilanadi.

**Inventar raqami** - inventar obyektga biriktirilgan rakam. Inventar rakami asosiy vositalar (fondlar) hisobini tugri tashkil etish uchun va obyektlarning saklanishini ta’minlash uchun zaruriy hisoblanadi. Bir turdagи buyumlarning guruhi uchun shu obyektlarning xakikiy holati, eng kup kiymatini hisobga olgan holda, rakamlar seriyasi ajratiladi. Buxgalteriya hujjatlarida asosiy vositalar hisobida ushbu inventar rakamlar kursatiladi.

**Inventarizatsiya** - korxonaga tegishli bulgan barcha asosiy vositalar, inventarlar, mablaglar va boshka moddiy boyliklarning xakikatda mavjudligi bilan buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini solishtirish va tekshirish usu li.

**Iqtisodiy tahlilning maxsus usullari** - taqqoslash, guruhlashtirish, mutlaq va nisbiy miqdorlar, indeks, dinamika, bartaraf etish, zanjirli bog‘lanish, etakchi bo‘g‘inni ajratib qo‘yish, koeffitsientlar, foizlar, o‘rtacha miqdorlar, qayta hisoblash, ko‘rsatkichlarning bajarilish foizi va o‘sish sur’atidagi farq, mutlaq farq kabilar.

**Iqtisodiy-matematik usullar** - integral, korrelyatsiya, regressiya, omillar tizimini determinlashgan modellarda aks ettirish, nazariy o‘yin kabilar.

**Ishchi qog’ozlarni kodlashtirish** – audit tekshiruvi jarayonida tuzilgan barcha ishchi qog’ozlarni auditorlik firmasida qabul qilingan rahamlashtirish tizimi asosida joriy va doimiy fayllarda arxivlash.

**Ishlab chiqarish xarajatlari** – korxonaning mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlari (mehnat xaki, xomashyo, material, yokilgi, asosiy vositalarning eskirishi va hokazolar).

**Istiqbol tahlili** – korxonaning kelgusi faoliyatini oldindan o‘rganish sodir bo‘ladigan jarayonlarni oldindan belgilash maqsadida amalga oshiriladigan tahlil.

**Jami aktivlarni rentabelligi (mulk rentabelligi)** – korxonaning asosiy va aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligi darajasini ko‘rsatadi. U sof foydani jami aktivlarni o‘rtacha qiymatiga nisbati tariqasida aniqlanadi.

**Joriy likvidlik koeffitsienti** - u aylanma aktivlarga qo‘yilgan moliyaviy resurslarning necha so‘mi joriy majburiyatlar bir so‘miga to‘g‘ri kelishini ifodalaydi. U joriy aktivlarni joriy majburiyatlarga nisbati tariqasida aniqlanadi.

**Joriy qiymat** - ma’lum sanadagi amal qilayotgan bozor narxlari bo‘yicha asosiy vositalarning qiymati yoki xabardor qilingan, bitimni amalga oshirishni xoxlovchi, mustaqil taraflar o‘rtasida bitimni amalga oshirishda aktivni sotib olish yoki majburiyatlarni bajarish uchun etarli bo‘lgan summa;

**Joriy qiymat** - ma’lum sanadagi amal qilayotgan bozor narxlari bo‘yicha nomoddiy aktivlarning qiymati yoki xabardor qilingan, bitimni amalga oshirishni xoxlovchi, bir-biridan mustaqil taraflar o‘rtasida bitimni amalga oshirishda aktivni sotib olish yoki majburiyatlarni bajarish uchun etarli bo‘lgan summa;

**Joriy ta’mirlash** - asosiy vositalar obyektini ishchi holatida saqlab turish maqsadida amalga oshiriladigan ta’mirlashdir.

**Kalkulyatsiya** (lat. calculatio - hisoblash) - bajarilgan ish, tayyorlangan mahsulot, kabul kilingan moddiy boyliklar qiymatini aniqlash, xarajatlarini guruhlash usuli.

Kassa kitobi – korxona kassiri kassa jarayonlari hisobini yurgizishiga muljallangan hisob registrlari.

**Kassa limit** - korxona kassasida doim bo‘lishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘larining summasi. Bu summa kunlik mayda xarajatlar uchun ishlataladi.

**Kassaning orderlari** – korxona kassasiga pul kirimi va chiqimining qonuniyligini va belgilangan maqsad bo‘yicha amalga oshirilganligini asoslovchi hujjalalar.

**Kompleks tahlil** – korxona faoliyatini makon va zamon nuqtai nazaridan barcha tuzilmalari bilan birga batafsil tahlil qilishdir.

**Konsalting** - maslahat xizmatini kursatish va ekspertiza utkazish. Konsalting bilan shugullanadigan firmalar konsultativ deb ataladi.

**Konsignatsiya** - tovarlarni xorijga sotishning komission shakli bo‘lib, unga ko‘ra tovarlarning egasi (konsignant) u yerdagi o‘z komissioneriga (konsignatoriga) tovarlar partiyasini sotish uchun jo‘natadi.

**Kontokorrekt ko‘chirma** – mijoz korxona xaridori / mol yetkazib beruvchisi va mijoz turli shaharlarda joylashgan taqdirda, ikki tarafning o‘zaro debtorlik / kreditorlik operatsiyalari bo‘yicha hisob-kitoblarini inventarizatsiya uchun tuziladigan va xaridorlarga yuborish uchun mo‘ljallangan mijoz korxona hisob-kitoblari tahliliy schetasi nusxasi.

**Korxonaning bankdagi hisobidan kuchirma** - korxonaning hisob-kitob, joriy va maxsus schetlaridagi pul mablaglarining harakati haqida bank muassasasining yuborgan hujjati.

**Kredit** (lat. credit - u ishonadi) - buxgalteriya schetining bir sismi. Aktiv schetlarning kreditida hisob obyektining kamayishi yoziladi, passiv schetlarda esa ushbu hisob obyektlari summasining ko‘payishi yoziladi. Kredit tomondagi kredit passiv va aktiv-passiv schetlarda bo‘ladi.

**Kreditor qarzlari** - o‘zga korxonalarining aylanma mablag‘larining bir qismi aynan tahlil qilinayotgan korxona aylanmasida qatnashishi tushuniladi.

**Kelgusi davr daromadlari** - hisobot davrida olingan, ammo kelgusi davrga tegishli bulgan mablaglar.

**Lizing to‘lovlar** - lizingga beruvchining lizing obyektini sotib olish uchun qilgan xarajatlarining hammasi yoki ko‘p qismini, shuningdek lizing obyektini etkazib berish va belgilangan maqsadda foydalanish uchun uni yaroqli holga keltirish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlarini lizingga oluvchi tomonidan qoplanishi hamda lizingga beruvchining daromadidir.

**Lizingga beruvchining daromadi** - lizing to‘lovlar bilan lizing obyektini sotib olish, uni etkazib berish va belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli holga keltirish xarajatlari o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan, lizingga beruvchi tomonidan lizing operatsiyasini amalga oshirish natijasida oladigan daromadidir.

**Majburiy to‘lov** - egasining rozilgisiz hisob-kitob schetidan pul mablagining utkazilishi. Masalan, majburiy tulovlariga; davlat byudjetiga, davlat ijtimoiy sugurtasiga to‘lov, sugurta tulovlari va boshqa belgilangan qoidalarga asosan to‘lovlardan kiradi.

**Material sig`imi** - bir so‘m tovar mahsuloti ishlab chiqarish uchun qancha (necha tiyin) moddiy xarajatlar to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi.

**Materiallar samarası** - moddiy xarajatlarning bir so‘mi hisobiga qancha mahsulot ishlab chiqarilganligini ko‘rsatadi.

**Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti** – u korxonaning o‘z mablag‘larining xo‘jalik mablag‘lari umumiy summasiga nisbati tariqasida aniqlanadi.

**Moliyaviy natija** - korxona faoliyatining foyda summasi va rentabellik darajasida ifodalanaigan yaqinidir.

**Moliyaviy tahlil** - xo‘jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy natijalari va moliyaviy holatini o‘rganishga qaratilgan tahlildir.

**Muddatli likvidlik koeffitsienti** - u pul mablag‘lari, sof debtorlik qarzlari summasini joriy majburiyatlarga bo‘lish orqali aniqlanadi.

**Mutlaq huquq** - bu faqatgina huquq egasi tomonidan yoki uning roziligi bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda uchinchi shaxsga berilishi mumkin bo‘lgan mulkiy huquq.

**Mutlaq likvidlik koeffitsienti** - u pul mablag‘larining joriy majburiyatlariga nisbati sifatida aniqlanadi.

**Mehnat omillari** - korxonaning ishchi kuchi bilan ta’milanishi, ish vaqtidan foydalanish va mehnat unumдорлиги darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar.

**Mehnat predmetmetlari omillari** - korxonaning xomashyo va asosiy materiallar bilan ta’milanganligini hamda ulardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar.

**Mehnat vositalari omillari** - korxonaning asosiy vositalar bilan ta’milanganligi, tarkibi, texnik holati va ulardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar.

**Metod(usul)** - yunon tilidan olingan bo‘lib, tabiat hamda jamiyatda sodir bo‘layotgan hodisa va jarayonlarni o‘rganish va bilish usulidir. Muayyan fanning predmetini o‘rganish usuli.

**Metodologiya (uslubiyat)** – muayyan fanning predmetini o‘rgatish usuli, unda qo‘llaniladigan yondashuvlar, usullar majmuasi.

**Mehnat balansi** – mehnat resurslarining (ish kuchi, ish vaqt) haqiqatda yoki kutilgan va ulardan foydalanish miqdorini aks ettiradi. Mehnat balansida ishchi kuchini qayta ishlab chiqarish, joylashtirish va mehnat resurslarini iste'molga mos ravishda taqsimlashning asosiy jarayonlari haqida ma'lumotlar ko'rsatiladi.

**Nomoddiy aktivlar** – korxona tomonidan ulardan ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish yoki tovarlarni sotish jarayonida foydalanish maqsadida yoxud ma'muriy va boshqa funktsiyalarni amalga oshirish uchun uzoq muddat mobaynida tutib turiladigan, moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo'limgan mol-mulk obyektlari.

**O'rtacha ta'mirlashda** ta'mirlanayotgan agregatni qisman ajratish va detallarning qismlarini tiklash yoki almashtirish amalga oshiriladi.

**Omillar** - u yoki bu iqtisodiy ko'rsatkichga ijobjiy hamda salbiy ta'sir ko'rsatuvchi faol harakat qiluvchi kuchlar tushuniladi.

**Omilli tahlil** – natija ko'rsatkichining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sir doirasini hisoblash usullari majmuasini o'zida ifoda ettirgan tahlildir.

**Operatsion foyda(asosiy faoliyati foydasi)** - yalpi foydadan davr xarajatlari va boshqa operatsion xarajatlar chegirilishi va asosiy faoliyatdan boshqa daromadalr qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan foyda.

**Qaydnomा** - birlamchi hujjat yoki hisob registri. qaydnomा yigma hujjat bulishi xam mumkin. qaydnomadan buxgalteriya hisobining xamma shakllarida xam foydalaniladi.

**Qayta hisoblash usuli** – natija o'zgarishiga bitta yoki ikkita omil ta'sir ko'rsatganda qo'llaniladigan usul.

**Qisqa muddatli ijara** – ijaraga beruvchi ijarachiga haq evaziga mol-mulkni 12 oydan kam muddatga egalik qilish va foydalanish yoki foydalanish huquqini beradigan kelishuv.

**Qoldiq (balans) qiymat** – jamlangan amortizatsiya summasini chegirgan holda asosiy vositalarning boshlang'ich (tiklash) qiymati;

**Qoldiq (balans) qiymat** – nomoddiy aktiv moliyaviy hisobot (buxgalteriya balansi)da aks ettiriladigan, boshlang‘ich (tiklash) qiymati va jamlangan amortizatsiya summasi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan miqdor;

**Rentabellik** - jami ijtimoiy ishlab chiqarish va har bir korhonaning iqtisodiy hamda moliyaviy samaradorligini ifodolovchi ko‘rsatkich.

**Retrospektiv (joriy) tahlil** – hisobot davri tugashi bilan buxgalteriya, statistik va tezkor hisobotlar hamda hisobdan tashqari axborot manbalariga asosan o‘tkaziladigan tahlil.

**Sabab** – keng ko‘lamdagi kompleks omillar tizimiga nisbatan qo‘llanilib, kompleksni tashkil etuvchilar esa omillar deyiladi.

**Salbiy solishtirma dalolatnomasi** – mijoz korxona va mijoz xaridorlari / mol etkazib beruvchilari o‘rtasida amalga oshirilgan va ikki taraf buxgalteriya tizimida aks ettirilgan hisob – kitob operatsiyalari natijalarining auditor tomonidan inventarizatsiyasi turli ma’lumotlarni aks ettirishi (muxim farqning yuzaga kelishi).

**Sof foyda** – soliq to‘lagunga qadar foydadan daromad (foyda) solig‘i va foydadan boshqa soliqlar va yig‘imlarni chegirilishi orqali aniqlangan foyda.

**Sof mahsulot** – tovar mahsulot bilan uni ishlab chiqarishga qilingan moddiy sarflar va asosiy vositalar va nomoddiy faollarning amortizatsiyasi summasi o‘rtasidagi farq.

**Soliq to‘lagunga qadar foyda** - umumxo‘jalik faoliyatidan kelgan foydaga favquloddagi foydani qo‘shilishi va favquloddagi zararni chegirish orqali hosil bo‘lgan foyda.

**Sotilgan mahsulot** - tovarlar iste’molchilarga jo‘natilib uning haqi mol yuboruvchilarning bankdagi hisob-kitob raqamiga o‘tkazilishi tushuniladi.

**Tovar mahsuloti** – barcha ishlab chiqarish bosqichlarini o‘tgan, to‘la butlangan, texnika nazorati bo‘limidan o‘tgan va omborga topshirilgan mahsulot.

**Tugatish qiymati** - asosiy vositalarning chiqib ketishi bo‘yicha kutilayotgan xarajatlarni chegirgan holda kutilayotgan foydali xizmat muddati oxirida asosiy vositalarni tugatish chog‘ida olinadigan aktivlarning faraz qilinayotgan summasi.

**Tugatish qiymati** – nomoddiy aktivning chiqib ketishi bo‘yicha kutilayotgan xarajatlarni chegirgan holda uning foydali xizmat muddati oxirida aktivni tugatish chog‘ida olinishi kutilayotgan, aktivning taxmin qilinayotgan (baholangan) summasi.

**Texnik-iqtisodiy tahlil** – kompleks iqtisodiy tahlil va muhandislik tahlilining birikishi asosida hosil bo‘lgan tahlil.

**Umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda(hisobot foydasi)** – operatsion foydaga moliyaviy faoliyatning daromadlarini qo‘silishi va moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar chegirilishi orqali hosil bo‘lgan foyda.

**Uskunalar va transport vositalarini kapital ta’mirlash** – agregatni to‘liq ajratib yig‘ish amalga oshiriladigan ta’mirlashdir, bazaviy va korpus detallari va uzellarini ta’mirlash, barcha eskirgan detallar va uzellarni almashtirish yoki tiklash hamda agregatni yig‘ish, sozlash va sinab ko‘rishdir. Binolar va inshootlarni kapital ta’mirlash – bazaviy va korpus detallari va uzellarini ta’mirlash, barcha eskirgan konstruktsiyalarning detallari va uzellarini almashtirish yoki tiklash amalga oshiriladigan ta’mirlashdir.

**Uzoq muddatli ijara** – ijaraga beruvchi ijarachiga haq evaziga mol-mulkni 12 oydan ko‘p muddatga egalik qilish va foydalanish yoki foydalanish huquqini beradigan kelishuv.

**Yalpi foyda** – mahsulotni sotishdan tushgan daromadni tavsiflaydi va sof tushum va sotilgan mahsulot tannarxi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

**Yalpi ijtimoiy mahsulot** – moddiy ishlab chiqarish barcha tarmoqlarining iqtisodiy rivojlanishini umumlashtiriuvchi ko‘rsatkichlar.

**Yalpi mahsulot** - tarkibiga tovar mahsuloti qo‘shev tugallanmagan ishlab chiqarishning qoldig‘i qo‘shev korhonaning o‘zida tayyorlangan yarim fabrikatlar va asbob-uskunalar kiradi.

**Zanjirli almashtirish usuli** – natija o‘zgarishiga uchta va undan ko‘p omillar ta’sir ko‘rsatsa, ular o‘rtasidagi bog‘liqlik funktsional bo‘lganda qo‘llaniladigan usul.

# **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

## **I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. - T.:, 2017 40 6.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni. 404-sonli. 2016-yil 13-aprel.

3.O‘zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi qonuni (yangi tahrir) (o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan).. - T.: 2000-yil

4. 2019 yil “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish” yili deb e’lon qilinishi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

5. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI. 04/01/2019.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi qonunining yangi tahriri. - T.: 29.10.2014.

7. “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2015-yil 3-iyun, O‘RQ-387-som.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrdagi PQ-3454-sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasining “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi qonuni. - T.: 30.04.1998.

## **II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari**

1. O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-3946-sonli 19.09.2018- yil.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Mirziyoyev Sh.M.ning O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi.

3. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF 4947-sonli Farmoni. 2017-yil 7-fevral.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-4720-sonli Farmoni. 2015 yil 24 aprel.

5. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 15- avgustdaggi PF-5024-sonli farmoyishi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2008-yil 18- noyabrdagi PF-4053-sonli Farmoni.

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 4- apreldagi “Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko‘rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to‘g‘risida”gi PQ-615-sonli qarori.

8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to‘g‘risida”gi Farmoni. 2005-yil 15- iyun.

### **III. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

#### **Qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi vazirliklarining me’yoriy-huquqiy hujjatlari**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 28 iyuldaggi “Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatları va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risida»gi 207-sonli qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 30-son, 397-modda).

2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 22-sentyabrdagi “Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarning ahamiyatini oshirish to‘g‘risida”gi 365-sonli qarori. - T.: Xalq so‘zi, 2000- yil 26- sentyabr’.

3.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasining 2019-yilga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 2018-yil 20-dekabr

4. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. 5.02.1999 4-son (o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan).

5.O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2002- yil 27-dekabrdagi “Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to‘ldirish bo‘yicha qoidalarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 140-sonli buyrug‘i (O‘zR AV tomonidan 24.01.2003-yilda 1209-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan).

6.O‘zbekiston Respublikasining Auditorlik faoliyatining milliy standartlari. To‘plam. - T.: O‘zR BAMA nashriyot markazi, 2017.

7. O‘zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobining milliy standartlari. To‘plam. - T.: O‘zR BAMA nashriyot markazi, 2017.

8. “Korxonalardagi ichki audit xizmati to‘g‘risidagi nizom” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-oktyabrdagi 215-sonli qaroriga 2-ilova.

9. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari - 2013, O‘zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy Assosiasiyasining tarjimasi, - T.: 2014.

10.Xalqaro audit standartlari, sifat nazorati, ko‘rib chiqish, boshqa ishonch bildirish va turdosh xizmatlarning xalqaro standartlari to‘plami - Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi, 2013. O‘zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy Assotsiatsiyasining tarjimasi. - T.:, 2014.

#### **IV. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga eng asosiy va dolzarb siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar va jamiyatni demokratik rivojlantirish bo‘yicha Murojaatnomasi. 2017- yil 22-dekabr.

2. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: 2017- yil 16-yanvar’. Xalq so‘zi (11 (6705)-son).

3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T: O‘zbekiston, 2017.

4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

5. Mirziyoyev Sh.M. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish-barqaror taraqqiyot kafolatidir. - T.: O‘zbekiston, 2017. – 22 b.

6. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. 07.12.2016.

#### **V. O‘zbekiston Respublikasi vazirliklarining me’yoriy-huquqiy hujjatlari**

1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002-yil 27-dekabrdagi “Moliyalash hisobot shakllari va ularning to‘ldirilishi bo‘yicha qoidalarni tasdiqlash to‘g’risida”gi 140-sonli buyrug‘i.

2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Buxgalteriya hisobining milliy standartlari”. 1998-2005-yillar.

3. “Auditni rejalashtirish” nomli 3-sonli AMS. O‘zbekiston Respublikasining moliyaviy qonunlari. 16-sen 1999.

4. “Muhimlik va auditorlik tavakkalchiligi” nomli 9-sonli AMS. O‘zbekiston Respublikasining moliyaviy qonunlari. 16-sen 1999.

5. “Tahliliy tadbirlar” nomli 13-sonli AMS. O‘zbekiston Respublikasining moliyaviy qonunlari. 16-son 1999.

6. “Kapital qurilish uchun pudrat shartnomalari” nomli 17-son BHMS //Soliq to‘lovchining jurnali. 5-son 1999.

## **VI. Asosiy adabiyotlar**

1. Audit. To‘laxo‘jayeva M.M. Ilhomov Sh.I. va bosh. Mualliflar jamoasi. Darslik. - T.: Iqtisodiyot, 2018.
2. Ilhomov Sh.I. Amaliy audit. Darslik. - T.: Iqtisodiyot, 2018.
3. R.A. Abdullaev “Бухгалтерский учет и аудит”. изд. “IQTISOD-MOLIYA”. - T., 2010.
4. B.B. Пугачев “Внутренний аудит и контроль”. Учебник. – М.: Дело и сервис, 2010. – 224 с.
5. Ю.Г. Одегов, Т.В. Никонова “Аудит и контроллинг персонала”. Учебник 2-е изд. и доп. – М.: Al’fa Press, 2010. – 672s.
6. Arens, Alvin A. Auditing and assuring services: an integrated approach/ Arens, Alvin A. Randal J. Elder, Markel S. Beasley -14<sup>th</sup> ed. Amazon, USA - 2012, 894 p.
7. Д.А. Ендоицкий, В.А. Бабушкин, Н.А. Батурина Анализ инвестиционной привлекательности организации. Учебник. - М.: КНОРУС, 2010.
8. А. Саленков Ценные бумаги в Узбекистане. -Т.: 1998.
9. Бернстайн Л.А. Анализ финансовой отчетности. — М.: Финансы и статистика, 1996.
10. Камишанов П.И. Современная бухгалтерия и аудит на предприятиях и в банках. - М.: 2000.
11. IFAS Handbook of Technical Pronouncement on ethics and auditing. New York, 2000.
49. IFAS Handbook of Technical Pronouncement on Education Guidelines. - New York, 2000.

## **VII. O‘quv qo‘llanmalar**

1. Аудит. Практикум/ Харченко О.Н., Самусенко С.А., Фёрова И.С – учебное пособие. 4-е изд., переработка и доп. - М.: KNORUS, 2014. 248 str.
2. Audit. To‘laxo‘jayeva M.M., Ilhomov Sh.I.. O‘quv qo‘llanma. va bosh. - T.: TDIU 2012-yil, 184 bet.
3. “Сборник международных стандартов аудита и контролья качества”. Учебное пособие - Т.: NNO “Palata auditorov Uzbekistana”, 2011.
4. Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Mo‘minov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. - Т.: Moliya, 2010.
5. Imomov X.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O‘quv qo‘llanma. - Т.: Iqtisod-moliya, 2010.
6. Сmekalov П.В., Терехов А.А. Теория и практика аудита. Санкт-Петербург.: СРБ Госагроуниверситет и АОЗТ «Балтийский аудит». 2009.
7. Сотникова Л.В. Оценка состояния внутреннего аудита: Практическое пособие. - М.: Юнити-Дана. 2010.
8. Чая В.Т. Международные стандарты финансовом отчетности. Учебное пособие. - М.: ЮРУС. 2009.

## **VIII. Ilmiy monografiyalar, maqolalar va boshqa asarlar**

1. Mamatov Z.T. Audit: muammolar va rivojlantirish istiqbollari. - Т.: TMI, 2004.
2. Дружиловская Э.С. Инвестиционные активы как новый учетный объект и правила его оценки в российском и международном учете. - М.: Нижегородской государственный университет им.Н.И.Лобачевского 2014.
3. Худякова А.С. Зеленевская А.Д. Понятие инвестиционных активов российские и международные стандарты - М.: Опубликовано в 2015, Выпуск Сентябрь 2015, ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ.
4. Алексеева Г.И. Новые требования международных стандартов финансовой отчетности к учету договоров аренды. - М.: Журнал “Бухгалтер и закон”.
5. Ilhomov Sh.I. Investitsiya faoliyatida buxgalteriya hisobi va auditi

masalalari. Monografiya - T.: Fan. 2005.

6.Алексеева Г.И. Учет договора аренды в соответствии с международными стандартами финансовой отчетности: текущее состояние и перспективы для российских организаций. - М.: Журнал Учет. Анализ. Аудит. 2017.

#### **IX. Ilmiy-amaliy anjumanlar ma'ruzalari to'plami**

1. Khodjayeva M.Kh., Khasanova Kh.F. Importance of investments in economic development and liberalization: why investing in uzbekistan is enjoyable. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. - T.: TDIU, 2019-yil 27-28-may.

2.Muminov B.Sh. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida ijtimoiy sohani moliyalashtirishga investitsiyalarni jalb qilish// Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish va inqirozdan keyingi barqaror rivojlanishni ta'minlashda bank-moliya tizimining o'rni. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. - T.: Moliya, 2010.

3.Muminov B.Sh. Kichik biznesni investitsiyalashni takomillashtirish istiqbollari// Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini mikromoliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. - T.: Moliya, 2011.148-150 b.

#### **XI. Statistik to‘plamlar ma’lumotlari**

1.O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining 2017-yildagi asosiy ko‘rsatkichlari.- T., 2018.

2.O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining yillik hisobotlari.

#### **XII.. Internet saytlari**

1.[www.gov.uz](http://www.gov.uz).

2.[www.mf.uz](http://www.mf.uz) .

3.[www.stat.uz](http://www.stat.uz) .

4.[www.lex.uz](http://www.lex.uz) .

5.[www.naaba.uz](http://www.naaba.uz) .

6.[www.norma.uz](http://www.norma.uz).

- 7.<http://www.stat.uz>(O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi);
- 8.<http://www.mf.uz>(O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi);
- 9.<http://www.mfer.uz>(O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligi);
- 10.<http://www.lex.uz>(O‘zbekiston Respublikasi qonun va normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami).
- 11.<http://www.ula.uz>(O‘zbekiston Lizing beruvchilar assotsiatsiyasining rasmiy sayti)

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB: QURUVCHI TASHKILOTLARINING XO‘JALIK FAOLIYATI IQTISODIY TAHLILI .....</b>	<b>7</b>
1.1. Qurilish tashkilotlarining xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishda tahlilning ahamiyati va vazifalari .....	7
1.3. Qurilish obyektlari davomiyligining tahlili.....	13
1.4. Tugallanmagan qurilish obyektlari holatining tahlili.....	14
1.5. Kapital qo‘yilmalar bo‘yicha biznes-rejaning bajarilishining tahlili .....	15
1.6. Umumiy xulosa .....	18
1.7. Mavzuga tegishli kalit so‘zlar .....	18
1.8. Talabalarining bilimlarini tekshirish savollari .....	18
1.9. Axborot-uslubiy ta’minot .....	19
2.1. Iqtisodiy tahlilning vazifasi va manbalari .....	21
2.2. Pudrat ishlarini ish hajmi bo‘yicha biznes-rejaning bajarilishi tahlili .....	22
2.3. Mehnat omillarining tahlili.....	24
2.4. Mehnat vositalari omillarining tahlili.....	28
2.6. Qurilishni moddiy resurslar bilan ta’minlanishi va ulardan samarali foydalanishning tahlili .....	34
2.8. Moliyaviy natijalar va rentabellik ko‘rsatkichlarining tahlili .....	41
2.9. Moliyaviy holat tahlili .....	46
2.10. Umumiy xulosa .....	48
2.12. Talabalarining bilimlarini tekshirish savollari .....	49
2.13. Axborot-uslubiy ta’minot .....	50
<b>III BOB: QISHLOQ XO‘JALIK KORXONALARINING XO‘JALIK FAOLIYATINI IQTISODIY TAHLILINING XUSUSIYATLARI .....</b>	<b>51</b>
3.1. Qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatini tahlilining vazifalari .....	51
3.2. Dehqonchilik bo‘yicha ishlab chiqarish dasturining bajaralishi tahlili.....	54
3.3. Chorvachilik bo‘yicha ishlab chiqarish dasturining bajarilishini tahlil qilish .....	56
3.4. Mehnat omillari tahlili.....	57

3.5. Mehnat vositalari omillari tahlili.....	60
3.6. Yer-suvdan foydalanish tahlili .....	63
3.7. Qishloq xo‘jaligi mahsuloti tannarxining tahlili .....	65
3.8. Moliyaviy natijalar tahlili .....	67
3.9. Moliyaviy holat tahlili .....	71
3.10. Umumiy xulosa .....	72
3.11. Mavzuga doir kalit so‘zlar.....	73
3.12. Talabalar bilimlarini tekshirish uchun savollar.....	73
4.2. Tovar aylanishi bo‘yicha biznes-rejaning bajarilishini tahlili.....	76
4.3. Tovar aylanmasi hajmiga ta’sir qiluvchi asosiyomillar tahlili.....	79
4.5. Muomala xarajatlari tahlili .....	83
4.6. Moliyaviy natijalar tahlili .....	86
4.7. Moliyaviy holat tahlili .....	92
4.8. Umumiy xulosa .....	93
4.9. Mavzuga doir kalit so‘zlar.....	93
4.10. Talabalarning bilimlarini tekshirish uchun savollar.....	93
4.11. Axborot-uslubiy ta’midot.....	95
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>197</b>